

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

I.E.Kenjayev, K.I.Sirojiddinov

**BALIQCCHILIK IQTISODIYOTI
FANIDAN**

**O'QUV –USLUBIY
MAJMUUA**

Namangan-2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor,

2020 yil “ ____ ” _____

**BALIQCCHILIK IQTISODIYOTI
FANIDAN**

**O‘QUV –USLUBIY
MAJMUUA**

Namangan-2021

© *I.E.Kenjaye*v, *K.I.Sirojiddinov*. “**Baliqchilik iqtisodiyoti**” fanidan o‘quv – uslubiy majmua. *Namangan- 2021, 291 - bet*

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 20 iyuldagi 654-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan BD-5410600-2-11 20.07.2019 yilda ro‘yxatga olingan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

«TAVSIYA ETILGAN»

«Baliqchilik iqtisodiyoti» fanidan o‘quv-uslubiy majmua “Iqtisodiyot” kafedrasida muhokama qilingan va tavsiya etilgan (Kafedra majlisining 2021 yil 16 oktyabrgi 1-sonli bayonnomasi)

Kafedra mudiri

I.Soliyev

«MA’QULLANGAN»

O‘quv-uslubiy majmua « Iqtisodiyot» fakulteti Kengashi majlisida muhokama qilingan va ma’qullangan. (Fakultet kengashi majlisining 2021 yil _____gi _____-sonli bayonnomasi)

Kengash raisi

R.Imomov

Taqrizchilar:

T.Dadaboyev – NamMQI «Menejment» kafedراسi mudiri

Q.Umarqulov – NamDU «Menejment» kafedراسi mudiri

N.Sotvoldiyev – NamDU «Menejment» kafedراسi dotsenti

MUNDARIJA

I NAZARIY MATERIALLARI

	Kirish	6
1-mavzu	“Baliqchilik iqtisodiyoti” faninnng predmeti, maqsadi, vazifasi va tadqiqot usullari	7
2-mavzu	Baliqchilikni ishlab chiqarishini joylashishi, ixtisoslashuvi	21
3-mavzu	Respublika agrosanoat majmuasining mohiyati, tarkibi va vazifalari	28
4-mavzu	Baliqchilikni rivojlantirishda davlat rahbarligi va amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar	40
5-mavzu	Baliqchilikda yer fondidan va suv resurslaridan samarali foydalanish. yer kadastri	63
6-mavzu	Baliqchilikda moddiy -texnika resurslari, fan –texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish	80
7-mavzu	Baliqchilikda asosiy fondlari va asosiy vositalar ulardan samarali foydalanish	104
8-mavzu	Baliqchilikda mehnat resurslari, ularning bozori, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi.	117
9-mavzu	Baliqchilikda investitsiyalar (kapital quyilmalar), manbalari, ularning iqtisodiy samaradorligi	131
10-mavzu	Baliqchilikda servis, uni rivojlantirish yo‘llari	149
11-mavzu	Baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi	166
12-mavzu	Baliqchilikda yalpi va tovar mahsuloti, ularning taqsimlanishi va ko‘paytirish yo‘llari	184
13-mavzu	Baliqchilikda iqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo‘llari	197
14-mavzu	Baliqchilikda shartnomaviy munosabatlar va uni takomillashtirish yo‘llari	218
15-mavzu	Baliqchilik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish tizimi iqtisodiyoti	222

AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu	“Baliqchilik iqtisodiyoti” faninnng predmeti, maqsadi, vazifasi va tadqiqot usullari	
2-mavzu	Baliqchilikni ishlab chiqarishini joylashishi, ixtisoslashuvi	
3-mavzu	Respublika agrosanoat majmuasining mohiyati, tarkibi va vazifalari	
4-mavzu	Baliqchilikni rivojlantirishda davlat rahbarligi va amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar	
5-mavzu	Baliqchilikda yer fondidan va suv resurslaridan samarali foydalanish. yer kadastri	
6-mavzu	Baliqchilikda moddiy -texnika resurslari, fan –texnika taraqqiyoti, innovatsion texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish	
7-mavzu	Baliqchilikda asosiy fondlari va asosiy vositalar ulardan samarali foydalanish	

- 8-mavzu** Baliqchilikda mehnat resurslari, ularning bozori, ulardan foydalanish va mehnat unumdorligi.
- 9-mavzu** Baliqchilikda investitsiyalar (kapital quyilmalar), manbalari, ularning iqtisodiy samaradorligi
- 10-mavzu** Baliqchilikda servis, uni rivojlantirish yo‘llari
- 11-mavzu** Baliqchilikda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi
- 12-mavzu** Baliqchilikda yalpi va tovar mahsuloti, ularning taqsimlanishi va ko‘paytirish yo‘llari
- 13-mavzu** Baliqchilikda iqtisodiy samaradorlik va uni oshirish yo‘llari
- 14-mavzu** Baliqchilikda shartnomaviy munosabatlar va uni takomillashtirish yo‘llari
- 15-mavzu** Baliqchilik mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish tizimi iqtisodiyoti

II	MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI.....
III	GLOSSARIYLAR.....
IV	Ilovalar.....
	Fan dasturi
	Ishchi dasturi
	Tarqatma materiallar
	Testlar
	Baholash mezonlari
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

Kirish

Baliqchilik mamlakat aholisini parhez go'sht mahsuloti bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Chunki baliq go'shti tarkibi inson organizmi uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalar, mineral moddalar va boshqa turdagi yengil hazm bo'luvchi to'yimli moddalarga boy.

Ushbu fan baliqchilikda ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlashda sohaga ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda, baliqchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirib borish va mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir.

Mazkur vazifani tarmoqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida amalga oshirish uchun iqtisodiy rivojlanishning xozirgi talablaridan kelib chiqqan holda agrar siyosat yo'nalishlarini belgilab olish, bozor iqtisodiyotining tarkib topish xususiyatlari, o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning natijalari, resurslar poyentsialidan unumli foydalanish, harajatlarni pasaytirish va daromadni oshirish, innovatsion loyihalarni amalga oshirishda investitsiyalardan unumli foydalangan holda, hamda baliqchilik xo'jaliklarini ichki imkoniyatlaridan ilmiy izlanishlar asosida baliq mahsulotlari bozorini shakllantirish talab qilinadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish faoliyatning ilmiy asoslari va tashkiliy shakllarining xususiyatlarini chuqur biladigan kadrlarni tayyorlash lozim.

«Baliqchilik iqtisodiyoti» fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga mamlakatda islohotlar sharoitida baliqchilikni rivojlantirish hamda uni modernizatsiya qilishda Respublika miqyosida qobul qilingan qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari va farmoyishlarini tadbqiq etish, tarmoqda barqaror bozor munosabatlarini o'rnatish bo'yicha bilimlar majmuini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarni baliqchilik xo'jaliklari va xo'jaliklar ishlab chiqargan mahsulotlarni qayta ishlash tadbirlari va ularning iqtisodiyoti asosida samarali foydalanib iqtisodiy barqarorlikni oshirishdir.

1-mavzu. «BALIQCHILIK IQTISODIYOTI» FANIGA KIRISH

1.1. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining bugungi kundagi zarurligi va ahamiyati.

1.2. Baliqchilik sohasining respublika iqtisodiyotida tutgan o‘rni

1.3. Baliqchilik sohasini horijiy tajribalari va istiqbollari

1.1. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining bugungi kundagi zarurligi va ahamiyati.

Baliq va baliq mahsulotlari inson organizmi uchun juda kerakli va uning taomnomasida muhim o‘rinni egallaydigan parhyez ovqat turlaridan biridir. Ma’lumki, baliq go‘shiti inson organizmida tez hazm bo‘lishi bilan boshqa hayvonlar go‘shklaridan farq qiladi. Holbuki, uning tarkibidagi barcha to‘yimli moddalar boshqa go‘shklardagidan kam emas.

Baliq go‘shiti D vitaminiga boy va u inson organizmida kaltsiy va fosfor almashinuvini me’yorda saqlab turishga yordam qiladi. Shuningdek, yosh bolalarga va hatto kech kuz hamda qish oylarida bir joyda turib boqiladigan hayvonlarning raxit kasalga chalinishining oldini oladi va shu kasalga chalinganlarini davolashda katta ahamiyatga ega. Bundan inson ovqatlanishi uchun yaroqsiz bo‘lgan baliqlar va baliqlarni qayta ishlash korxonalarida chiqitlaridan tayyorlangan baliq uniqlashloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarining ozuqa rasionini turli oqsil va vitaminlarga boyituvchi qimmatli qo‘shimcha hisoblanadi.

Respublikamiz hududida karp, oq amur, do‘ng peshona, karas va ilonbosh kabi iliq haroratga moyil baliq zotlari urchitiladi. Ularning asosiy qismini karp zotli baliqlar tashkil qiladi. Bu zotli baliq juda ham serurug‘ bo‘lib, 4-5 yoshli tirik vazni 5-8 kg keladigan urg‘ochilari suvning harorati 17-18°C ga yetganda birdaniga o‘rtacha 700-800 ming, eng sifatli lari esa 1,5 mln.gacha ikra qo‘ya oladi. Bu zotli baliqlarning o‘shish imkoniyatlari juda yuqori bo‘lib, 18-20 oyligida tirik vazni 1-1,5 kg, 28-32 oyligida esa 2,5-4 kg gacha yetishi mumkin. Shu zotga mansub baliqlar urchiydigan hovuzlarning tabiiy baliq mahsuldorligi 1,2-2

sentnerga teng bo'lib, baliq mahsulotlari yetishtirishni jadal usulda amalga oshirilganda har gektar suv havzasidan 25-30 sentnergacha baliq yetishtirish mumkin.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy salohiyatini belgilaydigan sohalarda qo'shilgan qiymat zanjirini (QQZ) nazorat qilish va baholab berish yuksak natijalarga zamin hozirlaydi. Jumladan, O'zbekistonda, xususan, uning mintaqalarida baliqchilik tarmog'ining imkoniyatlari va rivojlanishini chegaralayotgan muammolarni aniqlashda yordam beradi. Bunday baholash bozor talablariga javob beradigan, salohiyat va ehtiyojlarning ta'minlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Xo'sh, bu ish qay yo'sinda amalga oshiriladi?

Avvalo, muayyan mintaqada yuksak natijalarga erishgan tashkilotlar aniqlab olinadi va ularning faoliyati boshqa turdosh korxonalarining faoliyatini takomillashtirish uchun namuna sifatida foydalaniladi.

Baholashning asosiy yo'nalishi baliqchilik tarmog'ida qo'shimcha qiymat yaratilish zanjiri doirasida barcha ishtirokchi korxonalar o'rtasidagi mavjud imkoniyatlarni aniqlash va ularni taqqoslash hisobiga ishtirokchilar faoliyatini osonlashtirishga qaratilgan. Baholashning asosiy samarali tomoni shundaki, QQZ ishtirokchilari: fermerlar, ta'minlovchilar, iste'molchilar, hukumat va boshqa ishtirokchilarning gorizontal va vertikal aloqalarini takomillashtirishdir.

Ma'lumki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida baliqchilik muhim o'rin egallaydi. Ammo, shunga qaramasdan, so'nggi yillarda bu tarmoqning rivojlanish jarayoni biroz susayib qoldi. Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, tarmoqning oxirgi yillardagi YMMdagi ulushi 0,1% dan pasayib ketgan. Yetarli miqdordagi suv zaxiralari (hovuzlar, suv omborlari, ko'llar, kanallar va boshqalar) bo'lishiga qaramasdan, yurtimizda baliq ishlab chiqarish ko'rsatkichi 1991-yilda 27000 tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2008-yilga kelib, bu ko'rsatkich 7100 tonnaga tushib qolgan. Natijada aholi jon boshiga baliq mahsulotlari iste'mol qilish miqdori yarim kilogrammdan ham pasayib ketdi.

Vaholanki, o'tgan asrning 80-yillari so'ngida bu ko'rsatkich 5-6 kg ni tashkil etar edi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha o'rtacha aholi jon boshiga 16,6 kg baliq

mahsulotlari iste'mol qilinadi. Inson sog'lom rivojlanishi uchun O'zbekiston sharoitida aholi jon boshiga baliq mahsulotlari iste'mol qilishning eng kam miqdori 10-12 kg qilib belgilangan.

O'zbekistonda 1961-yilgacha baliq ovlash ishlari, asosan, Orol dengizida olib borilgan. Ushbu yopiq ko'lda baliq ko'p bo'lib, yiliga o'rtacha 25000 tonna baliq ovlangan. Biroq keyinchalik dengiz ekotizimidagi muvozanatning buzilishi natijasida 1980-yilga kelib dengiz o'zining baliqchilik tarmog'idagi o'rnini butunlay yo'qotdi. Natijada mamlakatda baliq yetkazib beradigan yangi manbalarni topish va takomillashtirish ehtiyoji paydo bo'ldi.

Aslida bunday manbalarni topish ishlari biroz ilgariroq boshlangan edi. Xususan, o'tgan asrning 70-yillarida baliq ovlash Orol dengizidan tashlama suvlarni yig'ishga mo'ljallangan, yangidan tashkil etilgan ichki suv omborlari va ko'llarga ko'chdi. Asosiy e'tibor akvakulturani rivojlantirishga qaratildi. 1960-yillar boshida hukumat tomonidan baliq yetishtirishni rivojlantirish bo'yicha keng miqyosdagi dastur qabul qilinib, O'zbekistonning barcha mintaqalarida 20 ta baliqchilik xo'jaligi (10000 ga maydonda) tashkil etildi.

Biroq Orol dengiziga tushadigan Sirdaryo va Amudaryo suvlarining kamayishi natijasida baliq yildan yilga kamayib bormoqda. Umumiy baliq tutishning miqdoriga kelsak, 1970-yilda 65%, 1975-yilda 43%, 1980-yilda 5%, 1990-yilga kelib 0,8% ga tushib qolgan.

Mamlakatimizda, ayniqsa, hovuz baliqchiligini rivojlantirishning katta imkoniyatlari bor. Xalqimizning salomatligini yaxshilash, dasturxonini baliq mahsulotlari bilan to'ldirish borasida Prezidentimizning 1998-yil 18-martdagi PF-1978-sonli Farmonida chorvachilikni rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari belgilanib, baliq yetishtirishni 2,9 marta oshirish zarurligi ko'rsatilgan.

Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi tomonidan 2008-yil 29-sentabrdagi «Mamlakat baliqchiligi: muammolar va ularni hal etish yo'llari» Respublika konferensiyasining rezolutsiyasi hamda BMTning FAO loyihasi doirasida milliy va xalqaro ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan «O'zbekiston 2008-2016-yillarda akvakultura va baliq ovlashni rivojlantirish konsepsiyasi va

strategiyasi» me'yoriy hujjatlari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-martdagi 03-35-12-sonli bayoni bilan tasdiqlangan 2011-yilda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturiga ko'ra tarmoqni rivojlantirish dasturi doirasida qator amaliy tadbirlar o'tkazildi. Hozirgi kunda respublikada 605,4 ming gektar suv havzalaridan baliq yetishtirishda foydalanib kelinmoqda. Ularda jami 985 ta baliqchilik fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, joriy yilda 398 ta suv havzalarida baliq yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tashkil etildi va ularga tegishli bo'lgan suv havzalariga 12 mln 535 ming dona bir yillik baliqchalar tashlandi. Joriy yilda baliq chavoqlari o'stirishni ta'minlash maqsadida mavjud barcha xo'jaliklardagi 4700 dona ona baliqlar to'dasi bonitirovkadan o'tkaziladi, mavsumda inkubatsiya sexlarida 205 mln dona lichinkalar olindi.

O'zbekiston hududidan Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon daryolari oqib o'tib, 300000 gektar maydonga tabiiy ko'llar barpo qilgan. Shularning eng kattasi Arnasoy suv havzasi bo'lib, Chordara suv omboridan suv oqizilishi natijasida paydo bo'lgan va shartli ravishda uch qismga: Aydar ko'l (130000 ga), Tuzqon ko'l (40000 ga) va Arnasoy ko'l (10000 ga)ga bo'linadi. Har bir ko'lning joylashish hududi, chuqurligi, eni va uzunligiga qarab ularning gidrokimyoviy va gidrologik rejimlari har xildir. Baliq o'stirish uchun qulay sharoit Arnasoy ko'lining suvida mavjud bo'lib, zog'ora (sazan), laqqa, peshanado'ng, jereh va boshqa baliqlarning urchish makoni hisoblanadi. Hozirgi paytda respublikamiz bozorlarida sotilayotgan baliqlarning 30% ni shu ko'llardan ovlangan baliqlar tashkil etadi.

Respublikamiz hududida 20 dan ortiq suv omborlari mavjud bo'lib, ushbu suvlarda baliq urchitish va ovlashni xo'jalik asosida yo'lga qo'yish baliqchilikni rivojlantirishning qo'shimcha imkoniyatlari hisoblanadi.

Baliqchilikni rivojlantirishning intensiv usullari, seleksiya ishlari, zotli baliq turlarini o'rganish va ko'paytirish, oziqlantirishni takomillashtirish va turli xil kasalliklarning oldini olish maqsadida Respublika Baliqchilik ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Respublika mustaqillikka erishgandan so'ng 1994-2003-yillarda baliqchilik tarmog'ida iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib, baliqchilik xo'jaliklari bosqichma-bosqich xususiylashtirildi. Hozirgi kunda baliqchilik tarmog'ida turli mulkchilik shaklidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiy suv havzalaridan (ko'l, suv omborlari va boshqalar) baliq ovlash xususiy korxonalar va fermerlar tomonidan ijara shartlari asosida amalga oshirilmoqda. Tabiiy suv havzalaridan baliq ovlash mahalliy hokimiyatlar bilan kamida 10 yil muddatga ijara shartnomasi tuzgan korxonalar tomonidan olib boriladi. Korxonalar baliq ovlashni mavjud talab asosida hamda biologik resurslardan kelib chiqqan holda kvotasiz amalga oshiradilar. Ular havzalarda baliq zaxiralarini saqlash va ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirishlari zarur.

Ushbu tartib asosida respublikada mavjud 630 ming gektar tabiiy suv havzalarining 424,5 ming gektari ijaraga berilgan. Surxondaryo viloyatida 7966 gektar tabiiy suv havzalari 4 korxonaga ijaraga topshirilgan.

Tabiiy suv havzalarida baliq ovlashni rivojlantirishning asosiy muammosi suv sathi o'zgaruvchanligi va har yillik tabiiy o'zgarishlar havzalarning gidrolitik rejimiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi hamda suv irrigatsiya ehtiyojlari uchun ishlatilishidir.

1.2. Baliqchilik sohasining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni

Iqtisodiyotning turli tarmoqlaridagi iqtisodiy islohotlar, jumladan qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar baliqchilik sohasini rivojlantirishni ham zaruriyatini keltirib chiqardi.

Islohotlarning asosiylaridan biri bu qishloq xo'jaligida mulk islohoti bo'lib, baliqchilik sohasida xususiylashtirish va xususiy mulkni rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish, baliq ovlash va baliqchilik korxonalarini faoliyatini tashkil etishda bozor tamoyillari va mexanizmlarini joriy etish, tarmoqni monopoliyadan chiqarish va raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek baliq ovlash, baliq va baliq mahsulotlarini sotishni tartibga solish maqsadida 2003 yil 13 avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 350-sonli qarori qabul qilingan. Keyinroq esa aholining baliq mahsulotlariga talabini to'la qondirish va baliq mahsulotlarini

yetishtirishni ko'paytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2009-2011 yillarda respublikada baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish chora-tadbirlari Dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning 2017 yil 1 maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning 2018 yil 6 noyabirdagi PQ-3657 sonli "Baliqchilik sohasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Respublikada ana shu davr ichida, ya'ni 2009-2011 yillarda baliq yetishtirish 9235,7 dan 16882,1 tonnaga yetkazilgan. 2011 yilda tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklariga va tabiiy ko'llarni ijaraga olgan korxonalarni zamonaviy texnologik vositalar bilan jihozlash, granulalangan omuxta yem, mineral o'g'itlar, va mavsumiy aylanma mablag'lari uchun tijorat banklari tomonidan 8 mlrd 525 mln. so'm (o'sish 213,1%) kredit ajratib berilgan. "O'zdonmahsulot" kompaniyasi korxonalari va Chinoz omuxta yem ishlab chiqarish zavodi tomonidan esa 11 ming 973 tonna (169,1%) omuxta yem, baliqchilik xo'jaliklariga shartnoma asosida yetkazib berilgan.

Yangidan tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan kichik baliqchilik fermer xo'jaliklariga tizimli ravishda baliq chavoqlari yetishtirib berish tashkil etilgan. Respublikada mayda baliq urug'lari yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar tomonidan 221 mln.dona lichinka olinib, ulardan 29,2 mln.dona bir yozlik baliq urug'lik materiali yetishtirilgan.

Quyidagi 1-jadvalda respublikada oxirgi yillarda barcha toifadagi xo'jaliklarda, fermer xo'jaliklarida, dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda baliq ovlash dinamikasining tahlili keltirilgan.

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, 2011-2019 yillarda respublika bo'yicha baliqchilikda keskin o'zgarishlar bo'lgan, barcha toifadagi xo'jaliklarda baliq ovlash 7 marta, fermer xo'jaliklarida 9 martaga oshgan. Bu o'sish dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida ham yuqori bo'lib, 9,2 martani tashkil etgan. 2011 yilda asosiy salmoq qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi

tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelib, 60,5% ni tashkil qilgan bo'lsa, fermer xo'jaliklari hamda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari mos ravishda 28,3 va 11,2% salmoqqa ega bo'lgan. Lekin bu 2019 yilga kelib, fermer xo'jaliklari hamda dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida mos ravishda – 35,5 va 14,2% ni tashkil qilgan bo'lsa, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasi kamayib borgan ya'ni, 60,5% dan 51,3% ga tushib qolgan. Bu esa baliq yetishtirishda fermer xo'jaliklari va alohida tadbirkorlarning hissasi tobora ortib borayotganligidan dalolat beradi.

1.1-jadval

O'zbekistonda baliq ovlashning barcha xo'jalik toifalari bo'yicha ko'rsatkichlari (tonna)*

Xo'jalik turlari	Yillar				2019 yil 2011 yilga nisbatan, %
	2011	2014	2017	2019	
Barcha toifadagi xo'jaliklar	16882,1	46534,6	83900	121717	721,0
Salmog'i	100,0	100,0	100,0	100,0	0,0
Fermer xo'jaliklari	4778,6	13636,4	25757,3	43209,5	904,2
Salmog'i	28,3	29,3	30,7	35,5	+7,2
Dehqon va aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklari	1886,3	8877,9	10571,4	17283,1	916,2
Salmog'i	11,2	11,8	12,6	14,2	+3,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10217,2	24020,3	47517,3	62440,8	611,1
Salmog'i	60,5	53,6	56,7	51,3	-9,2

* O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plam materiallari.

Bozor iqtisodiyotigacha bo'lgan davrlarda baliq yetishtirish, uni sotish masalalari ancha takomillashmagan va oddiy uslublarda tashkil topgan edi. Muximi bu tarmoqni tarmoq sifatida tan olish va aholining unga bo'lgan iste'molini tibbiy me'yorlar darajasida ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmas edi. Hozirda alohida baliqchilik xo'jaliklarining tashkil etilishi, ularning yetarli

darajada yer-suv, moddiy, mehnat va boshqa resurslar bilan ta'minlanishi o'z navbatida ularga pirovard natijaga erishishda samarali faoliyat ko'rsatishlarini taqozo qiladi.

Kelajakda ko'proq, sifatliroq va arzonroq baliqchilik mahsulotlarini yetishtirish hamda sotish uchun quyidagi omillar, tavsiyalar va imkoniyatlardan oqilona foydalanish zarur:

I.Sun'iy suv havzalarida baliq yetishtirish bo'yicha:

1.Qishloq xo'jaligi ekinlari maqsadlarida ishlatilmaydigan sho'rxok yerlarda kichik baliqchilik fermer xo'jaliklari tashkil etish;

2.Har bir tumanda fermer xo'jaliklarini tizimli ravishda mayda baliq chavoqlari bilan ta'minlaydigan inkubasion – reproduktor xo'jaliklarini tashkil etish;

3.Baliqchilik fermer xo'jaliklarini O'zdonmahsulot korxonalarini va Chinoz maxsus baliq omuxta yem ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarilgan omuxta yem bilan uzluksiz ta'minlash;

4.Tumanlardagi shiyponlarda mavjud hovuzlarda kanal va kollektorlar relyefini inobatga olgan holda suv kirib chiqishini ta'minlab beruvchi basseynlarda intensiv baliq yetishtirish texnologiyasini joriy etish;

5.Tuman hokimliklari va hududiy havza boshqarmalari sun'iy suv havzalarida baliq yetishtiruvchi korxonalarini zarur hajmdagi suv bilan kafolatli ta'minlash bo'yicha ishlarini aniq belgilab olishlari.

II.Tabiiy suv havzalarida baliq ovlash va ularni baliqlantirish masalalari bo'yicha:

1.Baliqchilik sohasida foydalanishi mumkin bo'lgan tabiiy suv havzalarini qayta inventarizasiya qilish va ko'llardagi baliq zahiralardan oqilona foydalanishni tashkil etish;

2.Viloyat va tuman miqyosida tabiiy suv havzalarda ishlatilmay turgan bo'sh maydonlarni ijaraga berishni tashkillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olinishi;

3.Tabiiy suv havzalaridan foydalanganlik uchun ijara to'lovlarini o'z vaqtida

to'lashni ta'minlash;

4.Tabiiy suv havzalarini baliqlantirishni suv havzalari yaqinida markazlashtirilgan tarzda tashkil etishni yo'lga qo'yish;

5.Tuman hududlarida noqonuniy brakonyerlik bilan shug'ullanyotgan shaxslarga qonunda belgilangan tartibda ma'muriy jazo choralarini qo'llash;

6.Aholi bandligini ta'minlash uchun tabiiy ko'llarda sun'iy qafaslarda baliq yetishtirish texnologiyasi joriy etish bo'yicha horijiy va mahalliy investorlar mablag'larini jalb etish.

7.Baliq mahsulotlarini qayta ishlash va baliq mahsulotlarini tuman bozorlarida uzluksiz sotishni tashkil etish va mavsumiy bank kreditlari ajratish bo'yicha:

8.Tuman markaziy bozorlarida maxsus baliq sotish shoxobchalarini va tirik baliq sotishga mo'ljallangan baliq akvariumlarini qurish va ularda ularda muntazam ravishda baliq sotishni tashkil etish;

9.Tirik baliqlarni yarim tayyor mahsulot holida qayta ishlaydigan kichik korxonalarini qurish va ularni maxsus uskunalari, muzlatgich, sovutgichlar bilan jihozlashni tashkil etish;

10.Tuman hududidagi ovqatlanish korxonalarida baliq taomlarini menyularda doimiy bo'lishini va baliq taomlari xilma-xilligini ta'minlash.

11.Baliqchilik sohasini rivojlantirish maqsadida, moddiy-texnika bazasini yangilash, yangi texnologiyalar olib kirish, qayta ishlashni tashkil etish uchun baliqchilik xo'jaliklariga bank kreditlari berilishi ustidan nazoratni o'rnatish.

Baliqchilik sohasiga oid qonun hujjatlarni takomillashtirish vazifalari:

1.Hozirgi kunda baliqchilik bo'yicha yagona qonun qabul qilish zarurati yuzaga kelgan.

2.Qabul qilinadigan qonun:

3.Sun'iy baliqchilik ho'jaliklarida baliq yetishtirish, hovuz va yer fondidan maqsadli foydalanish;

4.Tabiiy suv havzalaridagi baliq zahiralaridan samarali va oqilona ovlashni tashkil qilish hamda baliq zahiralarini ko'paytirish choralarini kuchaytirish va

ovlovchi korxonalarining qonuniy javobgarligini oshirish;

5. Baliq mahsulotlarini sotishni tartibga olish va iste'molchilar huquqini himoya qilish;

6. Baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashni tashkil qilish jarayoni soliq va bojxona imtiyozlarini yaratish masalalarini o'z ichiga olishi zarur.

1.3. Baliqchilik sohasida horijiy tajribalar

Xitoy tajribasi. Bugungi kunda Xitoyda baliqchilik sohasida oilaviy pudrat turi keng tarqalgan, bu baliqchilik sohasini bizga yaxshi tanish bo'lmagan qirralarini ochib beradi. Aholining ko'p tarmoqli ish yuritishi nafaqat Xitoy xalqini dasturxonini yaxna baliq bilan to'ldiradi, balki uning o'zini ham boyitadi. Dehqonlar davlatdan va jamoa xo'jaliklaridan suv havzalarini, sholi ekin maydonlarini ijaraga olish bilan birga o'zlari ham bo'sh yerlarda va hovlilarida kichik havzalar barpo etib baliq yetishtirishadi. Xitoyda aholi tomonidan havzalar barpo etib, ularda baliq yetishtirishning uchta usuli keng tarqalgan.

Tekislikda baliq yetishtirish usuli. Qishloq xo'jaligida, aholi tomorqasida, shuningdek bo'sh yotgan yerlarda kichik suv havzalari qaziladi. Bundan tashqari, foydalanilmayotgan kanallar, jarliklarni ta'mirlab, suv bilan to'ldirib baliq yetishtirishadi. Suv o'ti va qamishlarni katta zahiralari bo'lgan joylarda odatda oq amur, suv o'tlari va zooplanktonlari ko'p bo'lgan joylarda oq va ola do'ngpeshonalar va boshqa baliq turlari yetishtiriladi. Sholi maydonlarini ijaraga olgan dehqonlar, karp, karas, oq amur, tilapiya va boshqa baliq turlarini boqishadi.

Tog' usulida baliq yetishtirish. Tog'lardan oqayotgan suvlarni yo'lini to'sib odatda ko'p qavatli terassalar quriladi, ularning devorlari tosh bilan yopilib betonlanadi. Bunday rezervuarlarning pastki qismi odatda qattiq loy bo'ladi. Ularning maydoni kichik - bir necha kvadrat metr, chuqurligi 1 metrgacha bo'ladi, suv quvurlari esa bambukdan tayyorlangan. Baliq yetishtirish uchun tayyorlangan suv havzasini yonidan ariq kovlanib, tog'dan katta suv kelganda havzaga zarar yetkazmasdan, yonidan o'tib ketishiga moslashgan. Tog' hududlarida suv o'tlarining katta zahiralari mavjudligi sababli bu yerda ham asosan oq amur balig'i

yetishtiriladi. Tog'ni yuqori qismidagi tiniq va sovuq suvlarda qimmatbaho xon balig'i yetishtiriladi.

Xonadonda baliq yetishtirish. Shahar chetida yashaydigan dehqonlarni ko'pchiligi o'zini hovlisida betonlangan, odatda 100 m²gacha hovuzlar quradi va ularda qimmatbaho baliq turlari mo'ylovli klariya, oq-qorinli yolg'on ilon baliq va boshqa baliq turlari yetishtiriladi.

Baliqlarni boqish va saqlash qiyin bo'lmaganligi sababli, ulardan bir yilda bir necha marta mahsulot olish mumkin. Xonadonlar shaharga yaqin joylashganligi sababli yetishtirilgan baliq mahsulotlarini shahar bozorlariga yetkazib berishadi. Hovuz qurishga imkoni bo'lmagan dehqonlar hovlisiga temirli yoki plasmassali kichik basseynlar o'rnatib, ularda qimmatbaho dekorativ baliqlarni ko'paytirib sotishni yo'lga qo'ygan.

Tabiiy suv havzalaridan foydalanib baliq yetishtirish usuli. Bugungi kunda fermer xo'jaliklari bosqichma-bosqich o'rta va yirik suv havzalaridan foydalanishga harakat qilishmoqda. Xitoyda hovuzlarda baliq yetishtirishning mahsuldorligi yuqori bo'lsada, biroq qishloq xo'jaligini rivojlanishi sababli va bo'sh yerlarni ishlab chiqarishda foydalanishga olinishi natijasida, baliqchilik uchun yangi suv havzalarini ochish sharoitlari cheklangan. Shu bois mavjud bo'lgan katta va o'rta tabiiy suv havzalaridan intensiv foydalanish hisobiga ushbu muammoni hal qilish mumkin.

Xitoydagi dengiz, daryo, ko'l va suv omborining bir qismiga qoziqlar qoqib, to'r tortib o'rab, hosil bo'lgan katta suv havzalarida baliq yetishtirishni keng ko'lamda qo'llaniladi. Mazkur usulda:

- mahsuldorligi past bo'lgan dengiz, daryo, ko'l va suv omborlaridan to'laqonli foydalanish va ulardan intensiv texnologiyalar yordamida ko'p hosil olish mumkin;
- baliq yetishtirish tannarxining pastligi, to'siqlar qurib havzani o'rash uchun, yangi suv havzasi qurishga nisbatan uch marta kam harajat sarflanadi;
- to'siqdan (to'r) suvni bemalol kirishi o'ralgan havza suvini yengil oqishiga va suv bilan birga o'ralgan havzaga zooplanktonlarni kirib kelishiga olib keladi, bu

esa baliqlarga berilayotgan oзуqalarni tejalishiga sabab bo‘ladi;

➤ havzaga tashlangan baliqlarni lichinkasi, chavog‘i va oзуqalarni bir qismi to‘rlar orqali chetga chiqib ketishi ham katta havzani baliq mahsuldorligini oshishiga sabab bo‘ladi.

O‘ralgan havzada yetishtirilgan baliqlarni mahsuldorligi, o‘ralmagan havzani mahsuldorligidan 10 barovar yuqori bo‘ladi. Keyingi yillarda baliq yetishtirishning ushbu usulini keng qo‘llanilishi uning samarali ekanligidan dalolat beradi.

Ko‘p tarmoqli baliqchilik. Xitoy baliqchiligining muhim xususiyatlaridan biri baliq ishlab chiqarishni boshqa bir soha bilan integratsiyasidir. Bu baliq yetishtirish usuli juda oqilona hisoblanib, u barcha chiqindilarni yo‘q qilishni va qimmatbaho sifatli oзуqani juda kam ishlatilishini ta‘minlaydi. Yuqori baliq hosildorligi va tannarxining pastligi, baliqlarga beriladigan omuxta yem ratsionni 1 foizini tashkil etadi, qolgan 99 foiz qismi chiqindilar va o‘simliklarning yashil massasidan qoplanadi. Xo‘jalik mineral o‘g‘itlarni umuman ishlatmaydi, chunki integratsiya tufayli o‘zida organik o‘g‘itlar ko‘p bo‘lib, ularni suvga tashlash natijasida yuqori hosildorlikka erishiladi.

Bunda havza har yili tozalanadi, unda juda ko‘p miqdorda il (quyqa cho‘kindi) yig‘iladi, il (quyqa cho‘kindi) o‘g‘it sifatida meva-sabzavotchilik va boshqa o‘simlikchilik sohalarida ishlatiladi. Havzalar orasidagi dambalar ayrim xo‘jaliklarda 10 metrdan oshadi, ularda ko‘pincha baliqlar oзуqasi uchun ko‘k o‘t, meva-sabzavotlar, pilla qurtlari uchun tut daraxtlari yetishtiriladi. Bunday integratsiyalashgan baliq yetishtirish tannarxi, sifatli omuxta yem va mineral o‘g‘it ishlatib olingan baliq hosildorligidan 30-40 foiz arzonga tushadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimizda baliqchilikni yanada rivojlantirish va serdaromad sohaga aylantirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. **Xitoyning integratsiyalashgan** texnologiyasi boshqa davlatlarga to‘g‘ri kelmasligi mumkin, lekin bu ishlab chiqarishdan kelib chiqib har bir davlat o‘z modelini topishi yoki mavjud texnologiyalarni yaxshilash uchun asos sifatida foydalanishi mumkin. Baliq integratsiyasidan tashqari, baliq va parrandani (tovuq,

oʻrdak) birgalikda boqish yaxshi natija berishi mumkin.

2. **Xitoy tajribasi asosida** kichik suv hovuzlarida intensiv usulda baliq yetishtirishni yoʻlga qoʻyishni kengroq targʻib qilish – bu usulda bugungi kunda Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent, Sirdaryo, Xorazm, Navoiy va Samarqand viloyatlarida keng foydalanilmoqda. Ushbu usul orqali suv taʼminoti yaxshi boʻlgan xonadonlarda Afrika laqqa baliqlarini yetishtirish ishlari tashkil etilmoqda.

3. Xitoy texnologiyasi asosida yopiq suv aylanma tizimi (UZV)da baliq yetishtirishni yoʻlga qoʻyish - Mazkur usulning afzalliklari texnologik jarayonlarda havza aeratsiyasini tashkil etish orqali, oʻsimlikxoʻr baliqlarni yuqori tigʻizlikda oʻtqazish va mahsulotni doimiy ovlash orqali havza hosildorligini koʻtarish. Bunda Xitoy texnologiyasi asosida kichik tuproq havzalarga qoʻshimcha aeratorlar oʻrnatiladi va ushbu usul orqali kichik sunʼiy havzalar hosildorligi gektariga 6-9 tonnaga ortishi erishiladi.

4. Mahalliy baliqlar inkubatsiyasi ishlarini Xitoyda ishlab chiqilgan uskunalardan orqali (isitish va suvni tozalash tizimi) erta chavoq olishni tashkil etish va chavoqlarni mavsumda qoʻshimcha oziqlantirish hisobiga oʻsishini taʼminlash va ularning oʻrtacha ogʻirliklarini birinchi mavsumda 100 grammgacha yetkazish.

5. Sunʼiy havzalar ozuqa bazasini rivojlantirish maqsadida mayda suv oʻtlarini (xlorella, stsenodesmus, moina va boshqa) sunʼiy ravishda koʻpaytirish texnologiyasini joriy etish hisobiga baliq chavoqlarini qoʻshimcha oziqlantirish va sifatli chavoqlar ishlab chiqarish yaxshi natija beradi.

6. Baliq boqishga sharoiti bor (ariq, hovuz, basseyn, jarlik va bosqa) hududlarda aholiga baliq chavoqlari va omuxta yem yetkazib berib baliq boqishga qiziqtirish;

7. Katta havzalarni boʻlib, chuqurlatib ularda Xitoydagi oilaviy pudrat shaklida 0,5-1 gektarlik suv havzalarida baliq boqishni yoʻlga qoʻyish.

Xitoy baliqchilarining qadimiy anʼanalari va zamonaviy yutuqlaridan foydalanish mamlakatimizda baliqchilik sohasini rivojlantirish uchun texnologik baza yaratishga yordam beradi.

Koreya tajribasi. Baliq ovlash Janubiy Koreya iqtisodiyotining muhim qismidir. Ushbu sektorda 140 mingga yaqin kishi ishlaydi. Mamlakatda qariyb 96 ming baliq ovlash kemasi mavjud. Ishlab chiqarish hajmi 2000 yilda 3,6 milliard dollarni tashkil etdi. Dengiz qirg'oqlarida eng faol ovlash - bu pollok, sardina, hamsi, shpal, baliqcha va kalmar. Dengiz mahsulotlari shuningdek, baliq urug'lari, birinchi navbatda mollyuskalarda yetishtiriladi. 2000 yilda bunday pitomniklar 560 million dollarlik mahsulot ishlab chiqargan. 2000 yilda baliq va baliq mahsulotlari eksporti 1,5 milliard dollarni, import esa 1,4 milliard dollarni tashkil etdi. Janubiy Koreyaning baliqchilik sanoatining asosiy iste'molchilari – Rossiya, Xitoy, Yaponiya va AQSH - Janubiy Koreyaning barcha eksportining 70 foizini tashkil qiladi. Mamlakatga asosan qisqichbaqalar, kalmar va sardina import qilinadi. 1997 yil 1 iyulda Janubiy Koreya baliq mahsulotlarini olib kirishga qo'yilgan cheklolarni olib tashlash uchun qonun qabul qildi. Shunday qilib, hukumat tomonidan tuzilgan maxsus ro'yxatda ko'rsatilgan 390 turdagi baliq mahsulotlari uchun bozor ochildi. Shu bilan birga, eksportni tartibga solish yengillashtirildi va yangi va muzlatilgan piyon, ilon va boshqa baliq turlarini eksportini ko'paytirish choralari ko'rildi.

Yaponiya tajribasi. Baliq ovlash va dengiz mahsulotlarini qayta ishlash neolit davridan beri Yaponiya iqtisodiyotining an'anaviy sohasi bo'lib kelgan. O'rtacha yaponiyalik kishi har yili 168 kg baliq iste'mol qiladi, bu dunyodagi mamlakatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichdir. Yaponiya arxipelagining qirg'oq suvlari baliq, yemiriladigan suv o'tlari va boshqa dengiz resurslariga boy. Uzoq vaqt davomida eng foydali baliq ovlash joyi Xonsyu shimoli-sharqidagi Sanriku dengizi edi, u yerda sovuq Kuril Current issiq Kuroshio oqimiga mos keladi. Ammo 2011 yilda qo'shni Fukusima atom elektr stantsiyasida avariya tufayli ushbu hududda baliq va dengiz mahsulotlarini olish vaqtincha to'xtatilgan edi. Baliqlarga boy yana bir joy - Tinch okeanining shimoliy va janubiy g'arbiy qismidir.

Asosiy ovlash dengiz baliqlari bo'lib, boshqa turlari qatorida qisqichbaqalar, shitirlashlar, pagraslar va boshqalar ovlanadi, qirg'oq va uzoq suvlarda olib

boriladi. Xalqaro qonunlarga ko'ra, yaponiyalik baliqchilar Tinch okeanidagi radiusi 370 km bo'lgan Yaponiyaning hududiy suvlarida va Yaponiyaning eksklyuziv iqtisodiy zonasida baliq ovlashga haqlidirlar.

Yaponiya baliq va dengiz mahsulotlari importi bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. U boshqa mamlakatlar tomonidan eksport qilinadigan dunyodagi barcha baliqlarning 20 foizini import qiladi. Baliq va dengiz mahsulotlarini Yaponiyadagi importi hududiy suvlar va eksklyuziv iqtisodiy zonalarga xalqaro cheklovlar kiritilgandan keyin o'sishni boshladi. Ushbu cheklovlar yaponiyalik baliqchilarga Tinch okeanining uzoq suvlarida baliq ovlashga imkon bermadi. 1995 yildan beri Yaponiya o'zi ishlab chiqargan yoki o'stirganidan ko'ra ko'proq baliqchilik mahsulotlarini chet eldan olib kelmoqda. Yaponlarning ko'p qismi qisqichbaqalar importiga pul sarflaydi va asosan chet el orkinosini sotib oladi. Baliq va dengiz mahsulotlarini Yaponiyaga asosiy xalqaro yetkazib beruvchilar baliq ovlash sohasidagi dunyodagi yetakchilar - Xitoy, Peru, Chili, AQSH, Indoneziya.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Baliqchilik iqtisodiyotining mohiyati va ahamiyatini asoslab bering?
2. Baliqchilik iqtisodiyoti fani ta'lim yo'nalishida qanday o'rin tutadi?
3. Baliqchilik xo'jaliklarini rivojlantirishning SWOT-tahliliga yana nimalarni kiritishimiz mumkin?
4. Baliqchilikdagi qaysi horijiy tajribalarni mamlakatimizda joriy qilish mumkin?
5. O'zbekistonda baliqni iste'mol qilishning minimal me'yor miqdori bir yilda bir kishi uchun necha kg tashkil qiladi?

2-mavzu. "BALIQCHILIK IQTISODIYOTI" FANINING

PREDMETI, MAQSADI, VAZIFASI VA TADQIQOT USULLARI

2.1. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining mohiyati, mazmuni va ahamiyati.

2.2. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining maqsadi va asosiy vazifalari.

2.3. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining predmeti va boshqa fanlar bilan aloqasi.

2.1. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining mohiyati, mazmuni va ahamiyati

Insoniyatga rizq qilib berilgan ne'matlardan biri shubhasiz baliqdir. Shuning uchun ham qadim zamonlardan buyon insonlar baliqchilik bilan shug'ullanib keldilar va natijada baliqchilik qishloq xo'jaligining muhim sohasiga aylanib qoldi. Bugungi kunda baliqchilik sohasi minglab insonlarni ish bilan ta'minlashi bilan birga muayyan jamiyatning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy manbalardan biriga aylangan. Shunga qaramay, keyingi vaqtlarda ushbu sohada rivojlanishda pasayish kuzatilmoqda.

O'zbekistonda baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish salohiyati mavjud bo'lib, bunga baliq yetishtirishda zamonaviy akvakultura tizimlarini joriy qilish, mahsulot assortimentini ko'paytirish, tarmoqda ko'rsatilayotgan xizmatlar turini ko'paytirish va yaxshilashni moliyaviy quvvatlash, tadqiq qilish va o'qitish tizimini rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Dunyoda baliq ovlash miqdori yildan yilga pasayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, dunyo okeanlari va davlatlararo chegaralardagi dengizlarda baliq zaxiralari miqdorining sezilarli darajada kamayganidir. Bu, o'z navbatida, tabiiy suv havzalaridan ovlash mumkin bo'lgan baliq miqdorini chegaralab qo'ymoqda.

Zamonaviy akvakulturaning asosiy yutuqlaridan biri 1 kg maxsus balanslashtirilgan omuxta yem sarflash hisobiga 1 kg baliq o'stirishga erishilganligidir.

Mamlakat qishloq xo'jaligida, xususan, baliqchilik tarmog'ida oxirgi yillarda tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Natijada tarmoqda xo'jalik yuritish va ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy shart-sharoitlari tubdan o'zgarib, bozor munosabatlariga asoslangan yangi tizim shakllandi. Pirovardida tarmoqda o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar turli mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklarining raqobatchilik asosida faoliyat olib borishini ta'minladi. Ushbu

o'zgarishlar ayrim hududlar va korxonalarda ijobiy natijalar berdi.

Xususiy mulkchilik shaklidagi baliqchilik xo'jaliklarini sifatli baliq chavoqlari jihozlari va moddiy texnika vositalari, davolash- profilaktika tadbirlarini o'tkazish uchun dezinfeksiyalovchi va kimyoviy preparatlar bilan ta'minlash, naslchilik ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, eng asosiysi, oziqa bazasini hal qilish zarur.

Shundagina baliq va baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish va aholining baliq mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq ta'minlash mumkin.

Baliqchilik korxonalari, asosan, qishloq joylarida joylashganligini inobatga oladigan bo'lsak, sohani jonlantirish va rivojlantirishda prinsipial ahamiyatga ega bo'lgan hamda qishloqni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlariga mos kelishi maqsadga muvofiq. Qishloqda sanoat ishlab chiqarishi va qurilishni jadal rivojlantirish, meva- sabzavot va chorva mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika hamda texnologiyalar bilan jihozlangan ixcham korxonalar tashkil etish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Bu boradagi vazifa keng qo'yilmoqda. Ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish hisobidan qishloqda ixcham texnologiyalar bilan jihozlangan yangi, zamonaviy qayta ishlash korxonalarini shakllantirish va ularning keng ko'lamda faoliyat yuritishi uchun har tomonlama mustahkam xomashyo bazasini tashkil etish zarur. Bunday ishlab chiqarish quvvatlari har bir viloyat, tuman va qishloqda barpo etilishi darkor. Bu nafaqat ishlab chiqarishning yangi hajmlari va yalpi ichki mahsulotni oshirish, avvalo, oziq-ovqat ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini berishini aniq-ravshan tushunib olishimiz zarur. Chunki oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lib, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishiga shubha yo'q.

Eng muhimi, qayta ishlash korxonalarini tashkil etish orqali biz, avvalambor, ish o'rinlariga talab doimo katta bo'lgan qishloqlarda yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini hal etish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Baliqchilik mamlakat aholisini parhez go'sht mahsuloti bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Chunki baliq go'shti tarkibi inson organizmi uchun zarur

boʻlgan biologik faol moddalar, mineral moddalar va boshqa turdagi yengil hazm boʻluvchi toʻyimli moddalarga boy. Insoniyatga rizq qilib berilgan neʼmatlardan biri shubhasiz baliqdir. Shuning uchun ham qadim zamonlardan buyon insonlar baliqchilik bilan shugʻullanib keladilar va natijada baliqchilik qishloq xoʻjaligining muhim sohasiga aylanib qoldi. Bugungi kunda baliqchilik sohasi minglab insonlarni ish bilan taʼminlashi bilan birga muayyan jamiyatning iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy manbalardan biriga aylangan. Shunga qaramay, keyingi vaqtlarda ushbu sohada rivojlanishda pasayish kuzatilmoqda.

Baliqchilik iqtisodiyoti fanining mohiyati – baliqchilikda ishlab chiqarishning barqarorligini taʼminlashda sohaga ilgʻor texnologiyalardan foydalangan holda, baliqchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirib borish va mamlakat aholisining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga boʻlgan ehtiyojini qondirishdir.

Baliqchilik iqtisodiyoti fanining mazmuni, bu sohani rivojlantirishga davlatimiz tomonidan katta eʼtibor qaratilmoqda. Tarmoqda jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Uning huquqiy asoslari tubdan oʻzgartirilishi, eski usulda faoliyat yuritayotgan davlat baliqchilik korxonalarini xususiylashtirish, bozor munosabatlari talablariga javob beradigan raqobatbardosh baliqchilik xoʻjaliklari tashkil etilishiga zamin yaratdi.

Fanining ahamiyati va tutgan oʻrni:

- ✓ fan sohada vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni oʻrganadi;
- ✓ fan baliqchilik xoʻjaligining paydo boʻlishi asosida tarkib topgan boʻlib, u bilan uzviy bogʻliklikda rivojlanadi;
- ✓ baliq baliqchilik iqtisodiyoti fanning bevosita obyektidir;
- ✓ fan baliqchilik xoʻjaligini barqaror rivojlanishida alohida oʻrin tutadi;
- ✓ fan baliqchilik xoʻjaligini malakali mutaxassislar bilan taʼminlaydi;
- ✓ fan soha kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiradi.

2.2. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining maqsadi va asosiy vazifalari.

Baliqchilikning eng muhim vazifasi aholini baliq va baliq mahsulotlari bilan,

qayta ishlash sanoatini zarur baliqchilik xom ashyosi bilan ta'minlashdir. Ushbu muammoni hal qilish sohani jadallashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish, iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, mulkchilikning turli shakllari va boshqaruv turlarini rivojlantirish bilan bog'liq. Menejmentning ilmiy darajasini oshirish, ishlab chiqarishni boshqarishdagi tashabbuskorlik va faollikni oshirishning asosiy sharti baliqchilik sohasi mutaxassislarini iqtisodiy o'qitishdir. Shu munosabat bilan "Baliqchilik iqtisodiyoti" kursining asosiy maqsadi obyektiv iqtisodiy qonunlar va ularning baliqchilikda namoyon bo'lish shakllarini o'rganishdir. Iqtisodiy fan baliqchilik sanoatidagi ishlab chiqarish munosabatlarini moddiy ishlab chiqarishning boshqa sohalari bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganadi.

Iqtisodiyot so'z ma'nosida odamlar ishlab chiqarish jarayoniga kiradigan ijtimoiy munosabatlarning yig'indisi sifatida tushuniladi.

Iqtisodiyot tarmoqlari (sanoat iqtisodiyoti, transport, qurilish, savdo, qishloq xo'jaligi va boshqalar) xalq xo'jaligi tarmoqlarida umumiy iqtisodiy qonuniyatlarning namoyon bo'lish xususiyatlarini o'rganadi.

Baliqchilik iqtisodiyoti fan sifatida obyektiv iqtisodiy qonunlarning ishlashini va ularning baliqchilikda namoyon bo'lish shakllarini o'rganadi.

Umumiy iqtisodiy qonunlarga rioya qilgan holda baliqchilik iqtisodiyoti muayyan sharoitlarda ularning harakatlarining o'ziga xosligini ochib beradi, iqtisodiy amaliyotda foydalanish usullarini ishlab chiqadi.

Baliqchilikda iqtisodiy qonunlar tizimi amal qiladi: qiymat qonuni, mehnat unumdorligining o'sishi qonuni, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish qonuni, jamg'arish qonuni. Hisobga olish va butun iqtisodiy qonunlar tizimining harakatlaridan obyektiv foydalanish aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishga va jamiyatning barcha a'zolarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan. Baliqchilik iqtisodiyoti tarmoq sifatida, ilm-fan sifatida amaliy xulosalar chiqaradi va asosiy iqtisodiy qonunlarni agrosanoat kompleksi rivojlanishining o'ziga xos sharoitlarida qo'llash usullarini ishlab chiqadi.

Baliqchilik sanoatining asosiy vazifalari aholining qimmatbaho oziq-ovqat mahsulotlariga, chorvachilikka - baliq, parfumeriya va boshqa sanoat tarmoqla-

riga - tegishli xom ashyoga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdir. Natijada, ishlash samaradorligi baliqchilik tarmog'ining xo'jalik yurituvchi subyektlari ma'lum darajada aholi jon boshiga baliq mahsulotlarini iste'mol qilish orqali sotiladi.

2.3. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining predmeti va boshqa fanlar bilan aloqasi

Baliqchilik kompleksi murakkab, loyihalashtirilgan ko'p tarmoqli ishlab chiqarish va iqtisodiy organizm mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarini hal qilish, aholi tomonidan baliq mahsulotlarini iste'mol qilishning fiziologik me'yorlari.

Jahon okeanidagi suv biologik manbalarini tadqiq qilish va ulardan foydalanish, baliqchilik tarmog'ida bandlik va baliqchilikni rivojlantirish uchun motivatsion tuzilmalarni yaratishdir. Baliqchilik baliq ovlash sanoatini va o'zaro bog'liq bo'lgan ixtisoslashgan sohalarni qamrab oladi. Baliq ovlash sanoatiga baliq va dengiz mahsulotlari korxonalari kiradi; qayta ishlash kompaniyalari (sovutish, konservalash, ishlab chiqarish, baliq tayyorlash, baliqqa yem ozuqa, yog ', dengiz mahsulotlarini qayta ishlash); baliq yetishtirish uchun baliq ovlash portlari, hovuz va ko'l fermalari, baliq zahiralarni ko'paytirish, baliqlarni qayta ishlash korxonalari iqlimlashtirish stantsiyalari.

Baliqchilik ham savdo va ta'minotni o'z ichiga oladi

❖ tashkilotlar: ilmiy-tadqiqot muassasalari va o'quv yurtlari va baliqchilik va qayta ishlash, baliqchilik bilan bog'liq bo'lgan xalq xo'jaligi tizimidagi tegishli tarmoqlarning yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari:

❖ kemasozlik, kemani ta'mirlash, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, yog'och ishlab chiqarish, tarmoq uskunalarni ishlab chiqarish, transport, portlar.

Baliqchilik sanoati agrosanoat kompleksining o'ziga xos elementidir. Baliqchilik sanoati agrosanoat kompleksida ham, Rossiya xalq xo'jaligida ham noyob obyekt hisoblanadi. Bu bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan mamlakat iqtisodiyotining juda oz qismlaridan biri.

Baliqchilik sohasining milliy iqtisodiyot darajasidagi samaradorligining

asosiy mezonni mamlakat aholisi tomonidan baliq va baliq mahsulotlarini iste'mol qilish darajasining oshishi hisoblanadi. Shuning uchun baliqchilik sanoatining faoliyati ma'lum vaqt davomida baliq va dengiz mahsulotlarini iste'mol qilish fiziologik zarur darajadan past bo'lganda samarali deb tan olinadi, bu formulada ifodalanishi mumkin.

$$C = D / P$$

bu erda C – baliq va dengiz mahsulotlarini iste'mol qilishning fiziologik normasiga erishish darajasi (foizlarda va koeffitsientlarda);

D – baliq va dengiz mahsulotlarini iste'mol qilish darajasi (kg / yil);

P – baliq va dengiz mahsulotlarini iste'mol qilishning fiziologik zarur darajasi (kg / yil).

Davlat milliy iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatdosh ustunliklarini shakllantirish jarayonida muhim rol o'ynaydi, bu rol ushbu jarayonning turli bosqichlarida farq qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, birorta ham davlatda raqobatbardosh sanoatni yaratish u yoki bu shaklda davlat ishtirokisiz amalga oshirilmagan.

Baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish samaradorligining mintaqaviy jihati baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etishning o'ziga xos tashkiloti sifatida tavsiflanishi mumkin, bu esa mamlakat aholisining ehtiyojlarini qondirishning zarur darajasiga erishishni ta'minlaydi.

Agrosanoat majmuasining murakkab tarkibiy qismi sifatida baliq sanoatiga nisbatan, aholi jon boshiga baliq va baliq mahsulotlarini iste'mol qilish xo'jalik subyektlari faoliyati samaradorligining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Baliq va baliq mahsulotlarini iste'mol qilish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy me'yorlar hozirda bozorning alohida tarmoqlari uchun imtiyozlarni hisobga olmaydi; iste'molchilar cheklangan iste'mol talabini hisobga olgan holda baliq mahsulotlarining ma'lum bir to'plamini (assortimentini) mustaqil ravishda tanlaydilar. Shuning uchun aholi tomonidan baliq mahsulotlarini iste'mol qilishda bashoratlarni ishlab chiqish (turli xil yetakchi davrlar bilan) baliqchilik sanoatining ijtimoiy samaradorligining asosiy shartlaridan biridir.

Fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

- Fanining iqtisodiy fanlar bilan aloqasi (iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va boshqa iqtisodiy fanlar)
- Fanining ijtimoiy fanlar bilan aloqasi (falsafa, tarix, sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik).
- Fanining texnologik fanlar bilan aloqasi (sanoat, qurilish, transport, tuproqshunoslik, agrokimyo, o‘simliklar himoyasi, chorvachilik, dexqonchilik).
- Fanining aniq va tabiiy fanlar bilan aloqasi (matematika, geometriya, fizika, biologiya, ximiya).

Xulosa: Baliqchilik iqtisodiyoti fani nafaqat iqtisodiy fanlar bilan balki, gumanitar va ijtimoiy, aniq va tabiiy hamda texnologik fanlar bilan ham uzviy aloqada bo‘lib, ular asosida rivojlanib boradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining predmetini asoslab bering?
2. Baliqchilik xo‘jaligida vujudga keladigan ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlar o‘rtasida qanday uzviy bog‘lanish bor?
3. Agrar iqtisodiy islohotlarning natijasi nimalarda namoyon bo‘lmoqda?
4. Baliqchilik iqtisodiyoti fanining nazariy asosini qaysi fan tashkil etadi?
5. «Baliqchilik iqtisodiyoti» fanining predmeti, maqsadi nimalardan iborat?
6. «Baliqchilik iqtisodiyoti» fanining maqsadini ifodalovchi asosiy vazifalar nimalardan iborat?
7. «Baliqchilik iqtisodiyoti» fanida qanday asosiy usullardan foydalaniladi?
8. «Baliqchilik iqtisodiyoti» fani agrotexnologik hamda boshqa iqtisodiy fanlar bilan bog‘liqligini bayon eting.

3-mavzu. BALIQCHILIK ISHLAB CHIQRISHINI JOYLASHISHI, IXTISOSLASHUVI

3.1. Baliqchilik ishlab chiqarishini joylashishning mohiyati uning joylashtirish tushunchasi, tamoyillari va omillari.

3.2. Baliqchilik korxonalari ixtisoslashuvining iqtisodiy mazmuni va uning ixtisoslashuv turlari, ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish ko'rsatkichlari.

3.3. Baliqchilik xo'jalik korxonalarini ixtisoslashuv darajasini aniqlash.

3.1. Baliqchilik ishlab chiqarishini joylashishning mohiyati uning joylashtirish tushunchasi, tamoyillari va omillari.

Baliqchilik - bu ijtimoiy mehnat taqsimotining shakli. Bu jamiyatdagi har xil turdagi mehnatni ajratish darajasini tavsiflaydi va birinchi navbatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish jarayoni xom ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga bosqichma-bosqich aylantirishning murakkab jarayonidir. U alohida ish joylarida va ishlab chiqarish maydonlarida sodir bo'ladigan bir qator alohida jarayonlardan iborat.

Qishloq xo'jaligi turli xil mahsulot ishlab chiqaruvchi, kompleks o'zaro aloqador tarmoqlarni ifodalaydi. Qishloq xo'jalik tarmoqlari boshqa xalq xo'jalik tarmoqlaridan quyidagi belgilar bilan farq qiladi:

- a) ishlab chiqaradigan mahsulot turlari;
- b) ishlab chiqarish vositalarining turlari va tashkiliy tuzilishi;
- v) xodimlar malakasi va tarkibi;
- g) mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash xususiyatlari.

U o'simlikchilik, chorvachilik, o'rmonchilik va baliqchilik tarmoqlaridan tashkil topgan. Ularning har birining ichida tarmoq strukturasi mavjud. O'simlikchilikda tarmoqlar ekiladigan ekinlarning turi va guruhiga qarab bo'linadi. Masalan: g'alla ishlab chiqarish, paxtachilik, kanopchilik va boshqalar. Sabzavotchilikda ochiq va yopiq usulda sabzavot yetishtiriladi. Bog'lar esa danakli va urug'lilarga bo'linadi. Chorvachilikda esa mollar va hayvonlar turlariga qarab tarmoqlarga bo'linadi: qoramolchilik, echkichilik, parrandachilik, pillachilik va hokazo. Bundan tashqari ishlab chiqariladigan mahsulotning harakteriga qarab: sut, qoramolchiligi, go'sht-sut, qo'ychilik, jun-teri olish bo'yicha va boshqalar. Baliqchilik tabiiy suv havzalaridagi va sun'iy suv havzalaridagi turlarga bo'linadi.

Ishlab chiqarishdagi roli va iqtisodiy ahamiyatiga qarab korxonalarda qishloq xo‘jalik tarmoqlari: Bosh (yetakchi), qo‘shimcha va yordamchi tarmoqlarga bo‘linadi. Bosh tarmoq deb, qishloq xo‘jalik yalpi va tovar mahsulotida yuqori salmoqni egallagan tarmoqqa aytiladi. Asosiy tarmoq korxonaning ixtisoslashishini aniqlaydi. Qo‘shimcha tarmoq bosh tarmoqqa nisbatan, yalpi va tovar mahsulot ishlab chiqarishda kamroq ahamiyatga ega bo‘ladi. Ularni qo‘shib olib borish mehnat, yer va moddiy resurslardan to‘liqroq foydalanishni ta‘minlaydi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida bu tarmoqlaridan tashqari o‘simlikchilik va chorvachilik baliqchilikka xizmat qiluvchi tarmoqlar - ta‘mirlash xizmati, elektr xo‘jaligi, avtotransport va boshqalar faoliyat ko‘rsatadi.

Yordamchi tarmoqlar tarkibiga baliq mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar va sexlar, qurilish ustaxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar va boshqalar kiradi.

Mahsulotdan foydalanish shakliga qarab qishloq xo‘jalik tarmog‘i 2 guruhga bo‘linadi:

1. Tovar, sotish uchun mo‘ljallangan mahsulot (paxta, pilla va boshqalar);
2. Notovar, to‘lig‘icha yoki asosiy qismi ichki ehtiyojga foydalaniladigan mahsulot (yem-xashak va boshqalar).

Qishloq xo‘jaligining tarmoqlar strukturasi qishloq xo‘jalik jami yalpi mahsuloti tarkibida alohida tarmoqlar yalpi va tovar mahsulotining salmog‘i bilan harakterlanadi.

Bir qancha qishloq xo‘jalik tarmoqlarini korxonalarda iqtisodiy asoslab qo‘shib olib borish ishlab chiqarishning mavsumiylikini pasaytiradi, mehnat, yer, moddiy resurslaridan to‘laroq foydalanish imkoniyatini beradi, ishlab chiqarish vositalari va mehnat harajatlari notekisligini kamaytiradi. Tarmoqlarni oqilona qo‘shib olib borish yil davomida qishloq xo‘jalik mahsulotlari va pul vositalarini bir tekis kelib tushishi imkonini beradi, xo‘jaliklar iqtisodiyotiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi, ularning moliyaviy holatini yaxshilaydi.

Qishloq xo‘jaligida tarmoqlarni ratsional qo‘shib olib borishning asosiy tamoyillari, maqsadi va shartlari quyidagilar:

1. Resurs potentsialidan - mehnat, yer, suv va moddiy resurslardan ancha samaraliroq foydalanish;

2. Mahsulot birligi hisobiga minimal darajada mehnat harajatlari va vositalar sarflab maksimal miqdorda mahsulot olishni ta'minlash;

3. Ishlab chiqarishning mavsumiyligini kamaytirish, yil davomida texnika va ish kuchidan to'liqroq foydalanish;

4. Yil davomida aylanma vositalarning aylanishini va pul vositalarning bir tekis kelib tushishini ta'minlash va h.k.

3.2. Baliqchilik korxonalari ixtisoslashuvining iqtisodiy mazmuni va uning ixtisoslashuv turlari, ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish ko'rsatkichlari.

Baliqchilikni joylashtirish va ixtisoslashtirish ijtimoiy mehnat taqsimotining turli ko'inishidir.

Joylashtirish – alohida turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni respublika zonalarida, ayrim viloyat, tumanlar va korxonalar bo'yicha miqdoriy taqsimlashni bildiradi. Qishloq xo'jaligini joylashtirish uni ixtisoslashtirish bilan chambarchas bog'langan. Ixtisoslashtirishni amalga oshirishda zona va korxonalarining tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olish muhimdir. Natijada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oqilona joylashtirish ta'minlanadi. Qishloq xo'jaligi zonalarini yoki alohida korxonalarni ixtisoslashtirish bosh tarmoqni ajratib olish va uning rivojlanishiga sharoit yaratishdir. Ixtisoslashtirish ishlab chiqarish yo'nalishini harakterlaydi va zona yoki xo'jalikning tarmoq strukturasi aniqlaydi. Baliqchilik ishlab chiqarishni oqilona ixtisoslashtirishning iqtisodiy ahamiyati quyidagilardan iborat:

1.U bosh ishlab chiqarish vositasi - yerdan samarali foydalanish uchun sharoit yaratadi. Shu asosda baliqchilik mahsulotlarining miqdorini ko'paytirish va sifatini yaxshilaydi;

2.Ixtisoslashtirish qishloqda mehnat resurslaridan yanada samaraliroq foydalanishga imkoniyat yaratadi. Baliqchilik xodimlarining professional strukturasi o'zgartiradi, kadrlarning malakasini va mehnat unumdorligini oshiradi;

3.Ixtisoslashtirish kapital qo'yilmalar va asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Ishlab chiqarishga fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or tajribalarni joriy qilishga imkoniyat yaratadi;

4.Ixtisoslashtirish tovar mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish harajatlarini pasaytirish hamda rentabellikni oshirishga sharoit yaratadi va h.k.

Baliqchilikni iqtisodiy asoslangan joylashtirish va ixtisoslashtirish ma'lum bir tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

1.Bozor talabini hisobga olish. Qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini

joriy qilish qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash jarayonini o'zgartirish, ishlab chiqarishni tashkil qilishning progressiv shakliga o'tish, zarar keltiradigan mahsulot ishlab chiqarishdan voz kechish;

2.Tabiiy va iqtisodiy sharoitlardan to'laroq foydalanish;

3.Mahsulot ishlab chiqarishni iste'molchilarga yaqinlashtirish;

4.Hududlarni oziq-ovqat va sanoatni qishloq xo'jalik xom ashyosi bilan ta'minlash bilan hududlararo mehnat taqsimotini qo'shib olib borishni ta'minlash;

5.Mamlakat iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash;

6.Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni joylashtirish va ixtisoslashtirishda xalqaro mehnat taqsimotini hisobga olish va h.k.

Har bir alohida jarayon - bu ishchi as mavzu-uskuna, as mavzulardan foydalangan holda mehnat obyektiga ta'sir qiladigan va uni asta-sekin tayyor mahsulotga aylantiradigan mehnat jarayoni yoki inson nazorati va boshqaruvi ostida mehnat obyektini turli xil fizik yoki kimyoviy o'zgarishlarni boshdan kechiradigan tabiiy mehnat jarayoni.

Ishlab chiqarish jarayoni deganda xom ashyo va materiallarni tayyor mahsulotga aylantirishga qaratilgan xilma-xil, ammo o'zaro bog'liq mehnat jarayonlari va tabiiy jarayonlar majmuasi tushuniladi. Baliqchilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonining asosini mehnat jarayonlari tashkil etadi. Masalan, baliq ovlash kemalarida ishlab chiqarish jarayoni quyidagi alohida mehnat jarayonlaridan iborat: baliqlarni qidirish, tutish, qayta ishlash, yuklash va tushirish jarayonlari, omborga baliq mahsulotlarini tashish jarayoni. Ishlab chiqarish jarayonining ushbu barcha qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq va butun jarayonni amalga oshirish uchun zarurdir.

Baliqni qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida mehnat jarayonidan tashqari tabiiy jarayonlar ham katta ahamiyatga ega. Bular tuzlash, quritish, muzlatish, muzdan tushirish, suvni yutish va hokazo. Tabiiy jarayonlar juda uzoq davom etishi va ishlab chiqarish vaqtini ko'paytirishi mumkin. Masalan, baliqlarni tuzlash va quritish ba'zida 20-30 kun (an'anaviy texnologiyalardan

foydalangan holda) davom etadi.

Alohida jarayonlar ularning maqsadi va ishlab chiqarishdagi roliga ko'ra asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish jarayonlariga bo'linadi. Ushbu majmuada markaziy o'rinni asosiy ishlab chiqarish jarayoni egallaydi.

Asosiy ishlab chiqarish jarayonlari - bu sotishga mo'ljallangan tayyor mahsulotni yaratishga va ushbu korxonaning ixtisoslashuvini belgilashga olib keladigan jarayonlar. Baliq ovlash sanoatida asosiylari baliq va boshqa xom ashyolarni suv muhitidan olish, bu xom ashyoni oziq-ovqat, ozuqa, tibbiy va texnik mahsulotlarga qayta ishlashdir. Ushbu jarayonlarning korxonalarda uyg'unligi asosiy ishlab chiqarishni tashkil qiladi.

Yordamchi jarayonlar mahsulotni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq emas. Ularning maqsadi asosiy jarayonlarga (masalan, baliq ovlash uskunalari ishlab chiqarish va ta'mirlash, uskunalar, kemalar, bino va inshootlarni ta'mirlash, idishlar ishlab chiqarish, barcha turdagi energiya ishlab chiqarish va boshqalar) sifatli va o'z vaqtida xizmat ko'rsatishni ta'minlash. Ular birgalikda yordamchi ishlab chiqarishni (qadoqlash, energiya, ta'mirlash, instrumental va boshqalar) tashkil etadi. Qo'shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish jarayonlari yordamchi mahsulotlar bilan chambarchas bog'liq.

Baliqchilik sanoatining o'ziga xos xususiyati shundaki, yordamchi ishlab chiqarish mustaqil korxonalariga (birlashmalarga) – to'r to'qish, konteyner, kemalarni ta'mirlash va boshqalarga bo'linadi.

Xizmat ko'rsatish jarayonlariga odatda asosiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq jarayonlar kiradi – xom ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning barcha turlarini tashish, saqlash va yetkazib berish, laboratoriya sinovlari va xom ashyo, tayyor mahsulotni tahlil qilish; asosiy va yordamchi jarayonlarda ishlatiladigan as mavzularning to'g'riligini nazorat qilish. Sanab o'tilgan ishlab chiqarish jarayonlaridan tashqari, xizmat ko'rsatish jarayonlariga ma'muriy, ijtimoiy va madaniy, shuningdek turli xil noishlab chiqarish jarayonlari kiradi, masalan, hududni tozalash va hokazo. Xizmat ko'rsatish jarayonlarining to'plami asosiy va yordamchi ishlab chiqarishning

uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan xizmat ko'rsatish vositalarini - transport, saqlash va boshqalarni tashkil etadi. Ushbu jarayonlar natijasida mahsulotlar yaratilmaydi, faqat xizmatlar ko'rsatiladi.

Asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish jarayonlarining tarkibi va o'zaro bog'liqligi ishlab chiqarish jarayonining tuzilishini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish jarayonining texnologik va tashkiliy jihatdan ajratilgan qismlarining har biri ustaxona, sex shaklida lokalizatsiya qilingan alohida jarayonni tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish bosqichi mehnatning bunday o'zgarishi bilan tavsiflanadigan, uning boshqa sifat holatiga o'tishiga olib keladigan ishlab chiqarish jarayonining texnologik jihatdan tayyor qismi deb ataladi. Masalan, pomidor bilan to'ldirilgan konserva baliqlarini tayyorlash jarayoni quyidagi asosiy bosqichlardan iborat: baliqlarni kesish va bo'lish, issiqlik bilan ishlov berish (baliqni qovuriladigan idishga solish, qovurish va tushirish), qutilarni to'ldirish va qadoqlash, baliqli bankalarni sterilizatsiya qilishga tayyorlash, sterilizatsiya qilish, konservani sotishga tayyorlash. Har bir bunday bosqich texnologik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan alohida jarayonlarni yoki ma'lum bir maqsad uchun mo'ljallangan jarayonlarni birlashtiradi. Oddiy jarayonning asosiy tarkibiy qismi – bu operatsiya.

Operatsiya – bu ma'lum bir ish joyida bir yoki bir nechta ishchilar tomonidan bajariladigan ma'lum bir mehnat obyektlarining shaklini, holatini, tashqi ko'rinishini yoki kimyoviy tarkibini o'zgartirishdan iborat bo'lgan ishlab chiqarish jarayonining qismi. Operatsiya uchta elementning barqarorligi bilan tavsiflanadi – ijrochi, jihoz va mehnat predmeti. Ushbu elementlardan birini o'zgartirish yangi operatsiyani shakllantirishni anglatadi. Operatsiyalar asosiy va yordamchiga bo'linadi. Xom ashyoning shakli va xususiyatlarining tarkibi o'zgarganda, operatsiya asosiy yoki texnologik deb ataladi. Texnologik operatsiyalar umumiy holda texnologik jarayonni tashkil qiladi. U ishlab chiqarish jarayonining yetakchi qismidir.

Texnologik jarayon baliq mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida texnologik operatsiyalar ketma-ketligini va qayta ishlash turlarini, kerakli

jihozlarning tarkibini aniqlaydi. Texnologik jarayonning tabiati ko'p jihatdan ishlab chiqarishning tashkiliy sharoitlarini - korxonaning ishlab chiqarish tarkibini (ustaxonalar, bo'limlar va xizmatlarning tarkibi), omborlar va omborxonalarining turi va joylashishini, transport yo'llarining yo'nalishi va uzunligini, odamlar oqimini va boshqalarni belgilaydi. Mehnat obyektlari harakati, xom ashyo, materiallar, yarim tayyor va tayyor mahsulotlar sifatini nazorat qilish, shuningdek ish joylariga xizmat ko'rsatish operatsiyalari yordamchi deb ataladi. Mehnatni texnik jihatdan tartibga solish maqsadida operatsiya texnik va mehnat harakatlariga bo'linadi.

Har bir ish usulini bajarish uchun ijrochi muayyan mehnat harakatlarini bajarishi kerak (qo'lni cho'zish, tushirish, baliqni barmoqlari bilan olish, ko'tarish, ko'chirish).

Mehnat harakati – bu mehnat jarayonida ishchining elementar, sodda harakati. Odatda, u biror narsaga tegishi yoki ishchi tanasining ayrim qismlarining muhitda joylashishi (qo'lni ko'tarish yoki tushirish, tanani egish yoki to'g'rilash) bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish harakatlarini tahlil qilish samarasiz harakatlarning oldini olish va ularni amalga oshirish uchun eng yaxshi tartibni ishlab chiqish, shuningdek o'rganilayotgan har bir texnikaning me'yoriy muddatini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish turiga ko'ra, jarayonlar yakka, ketma-ket va ommaviyga bo'linadi. Ishlab chiqarish jarayonlarini tasniflashning boshqa belgilari ham mavjud: mexanizatsiya darajasi, avtomatlashtirish darajasi, ishlatiladigan energiya turlari va boshqalar.

Baliqchilik sohasidagi ishlab chiqarish jarayonlari juda xilma-xil bo'lib, dengiz mahsulotlarini qidirish va ovlash, sun'iy havzada baliq boqish kabilardan boshlab, ushbu mahsulotlarni qayta ishlash va sotish bilan yakunlanadi.

Ovlash jarayoni har bir baliq ovlash kemasining faoliyatidagi asosiy bo'g'in bo'lib, u asosan baliq va boshqa dengiz mahsulotlarini suvdan olish bo'yicha mehnat jarayonlaridan iborat. Mehnat jarayoni sifatida u baliq ovlash moslamasidan ushlab va ularning ketishini oldini olishga qaratilgan transport-

yuklash va tushirish operatsiyalaridan iborat. Baliq ovlashdagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan baliq ovlash vositalarining o'zlarini takomillashtirish va baliqchilikning gidrometeorologik va gidrobiologik sharoitlarini hisobga olgan holda mehnat faoliyatini yuqori darajada tashkil etish bilan belgilanadi.

Baliq va dengiz mahsulotlarini qayta ishlashning ishlab chiqarish jarayoni texnologik, tabiiy jarayonlar, transport va boshqarish operatsiyalaridan iborat.

Baliqlarni kemalarda ovlash va qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlari bir-biri bilan bog'liq bo'lib, bu xom ashyoning tez buziladigan xususiyatlariga bog'liq. Tutilgan baliq qanchalik tez ishlov berilsa, yo'qotishlar shunchalik kamayadi, mahsulot sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

Har bir ishlab chiqarish jarayoni faqat muvofiqlashtirish shakllari va tashkil etish usullari bilan yuqori iqtisodiy samara berishi mumkin. Ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish shakllari va usullari turlicha. Ular ko'pgina sharoitlar va, avvalambor, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tabiati, texnologiyasi, ishlab chiqarish hajmi, mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi, mehnatni tashkil etish shakllari va boshqalar bilan belgilanadi.

Baliqchilik sanoatining korxonalarida va baliq ovlash kemalarida asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish, xalq xo'jaligining boshqa barcha sohalarida bo'lgani kabi, umumiy qabul qilingan printsiplarga asoslanadi, ularga quyidagilar kiradi: ixtisoslashuv, proporsionallik, parallellik, ritm va salbiy hodisalarni hamroh bo'lish imkoniyatini sinash.

Har bir ish joyida, uchastkada va ixtisoslashgan korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turlarini yoki nomlarini qisqartirish mehnat unumdorligini oshirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Ixtisoslash amalga oshirilishidan oldin, maqsadga muvofiq ekanligiga ishonch hosil qilish va iqtisodiy samarani pasaytiradigan omillarni hisobga olish kerak: transport harajatlari, komplektlash, yarim tayyor yoki tayyor mahsulotni saqlash harajatlari oshishi, ishchilar uchun ish vaqtining pasayishi ehtimoli va boshqalar.

Baliqchilik sanoati floti korxonalari va kemalari ixtisoslashuv darajasining ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: ushbu korxonaning umumiy ishlab

chiqarishidagi ixtisoslashtirilgan mahsulotlar ulushi; mahsulot turining ko'pligi; quruqlikdagi yoki flotdagi ixtisoslashtirilgan kemalar, ustaxonalar, bo'limlar, uskunalar ulushi.

Ixtisoslashuv printsipligiga muvofiqlik ishlab chiqarish jarayonini oqilona tashkil etishning boshqa printsiplariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Proportsionallik – bu ishlab chiqarish jarayonining barcha o'zaro bog'liq qismlarida ma'lum miqdordagi mahsulotni yoki vaqt birligiga ishlab chiqarish hajmini ishlab chiqarishning aniq imkoniyati. Ushbu talabning buzilishi nomutanosiblikka olib keladi, ishlab chiqarishda "muammolar" paydo bo'ladi, buning natijasida uskunadan va ish vaqtdan foydalanish yomonlashadi, ishlab chiqarish sikli uzayadi va hokazo. Bularning barchasi ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi.

Proportsionallik tamoyili asosiy, ham yordamchi, ham xizmat ko'rsatish jarayonlarida kuzatilishi kerak. Ishlab chiqarish jarayonlarining proportsionalligini ta'minlash uchun nomenklatura va miqdoriy vazifalarni optimallashtirish asravzu-uskunalar va qo'l ish stansiyalarining to'liqligi mezoniga muvofiq amalga oshiriladi. Miqdoriy proportsionallik, masalan, quvvat jihatidan, bo'limlarning ishlab chiqarish quvvati yoki uskunaning yuklama omillari tengligi bilan ifodalanishi mumkin.

Ayrim jarayonlarning proportsionallik darajasining ortishi ishlab chiqarish jarayonining parallelligi va uzluksizligini oshirishga yordam beradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv, alohida sanoat va ishlab chiqarish o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar shunchalik yuqori bo'ladi.

3.3. Baliqchilik xo'jalik korxonalarini ixtisoslashuv darajasini aniqlash

Ixtisoslashuvning iqtisodiy ahamiyati:

- texnologiyani takomillashtirish va sanoat asosida ishlab chiqarishni tashkil etishga hissa qo'shadi;
- texnik taraqqiyotni rivojlantirish, ilmiy yutuqlarni joriy etish, resurslardan

samarali foydalanish uchun sharoit yaratadi;

- ishlab chiqarishning o‘shishi va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi;
- mehnatni tashkil qilishni takomillashtirishga hissa qo‘shadi;
- ishchilarning kasbiy tuzilmasini o‘zgartirishga olib keladi.

Tarmoq ichidagi ixtisoslashuv subyektiv, batafsil va bosqichli-texnologik turlarga bo‘linadi.

Subyektiv ixtisoslashuv korxonalar tomonidan bir xil mahsulotlarni chiqarishni o‘z ichiga oladi.

Batafsil ixtisoslashtirish alohida sohalarni doimiy muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Bosqich-texnologik ixtisoslashuv bilan ishlab chiqarish jarayonining alohida bosqichlari va operatsiyalari ajralib turadi.

Baliqchilik sanoatida ixtisoslashuvning ikki shakli keng tarqaldi - mavzu va bosqich texnologik.

Mavzu bo‘yicha ixtisoslashuv - oziq-ovqat mahsulotlari narxining sotiladigan mahsulotlarning umumiy hajmiga nisbati; texnologik ixtisoslashuv - qayta ishlangan yarim tayyor mahsulot (xom ashyoni olmasdan) qiymatining oziq-ovqat mahsulotlari narxiga nisbati

Ixtisoslashtirish quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Xo‘jalik ichidagi ixtisoslashtirish. Bunda mahsulot ishlab chiqarish xo‘jaliklar ichidagi bo‘limlar, fermalar, brigadalar va oilalar bo‘yicha ixtisoslashadi;

2. Xo‘jaliklararo ixtisoslashtirish. Bunda turli xil mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha korxonalar o‘rtasida mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Xo‘jaliklararo cho‘chqachilik yoki qoramolni bo‘rdoqiga boquvchi, buzoqlarni o‘stiruvchi fermalar, mahsulotlarni qayta ishlovchi korxonalar va h.k. tashkil etiladi;

3. Tarmoqlar ichida ixtisoslashtirish. Bunda bir tarmoq ichida, chunonchi chorvachilikda - qoramolchilik, cho‘chqachilik, qo‘ychilik kabi sohalarda bo‘yicha, dehqonchilikda esa g‘alla, paxta, sabzavot, poliz kabi mahsulotlarni yetishtirish

bo'yicha mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Xo'jalikda ixtisoslashtirishni to'la harakterlash uchun ixtisoslashtirish koeffitsiyenti ko'rsatkichi qabul qilingan. U quyidagicha hisoblanadi:

$$Kix = \frac{100}{\sum H(2n - 1)}$$

bu yerda 100 - alohida tarmoq bo'yicha tovar mahsulotlarining umumiy hissasi,%

H - tarmoqdagi tovar mahsulotlarining turlari bo'yicha hissasi, % da;

n - tovar mahsulotlarining hissasi bo'yicha tartib nomeri (eng yuqoridan boshlab).

Masalan: baliqchilikda ixtisoslashgan xo'jalikda tovar mahsulotlar strukturasi quyidagilardan iborat bo'lsin (jami tovar mahsulotga nisbatan foiz hisobida): karp-50%, oq amur-30%, sazan-15% va boshqa turdagi mahsulotlar esa 5%. Shu ma'lumotlar asosida ixtisoslashtirish koeffitsiyentini quyidagicha hisoblanadi.

$$Kix = \frac{100}{50(2 \cdot 1 - 1) + 30(2 \cdot 2 - 1) + 15(2 \cdot 3 - 1) + 5(2 \cdot 4 - 1)} = 0.38$$

Bu koeffitsiyent qancha bir butunga yaqin bo'lsa, ixtisoslashtirish darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Agar ixtisoslashtirish koeffitsiyenti 0,35 bo'lsa, past darajadagi ixtisoslashtirish; 0,35dan 0,50gacha o'rta; 0,50dan 0.60 gacha yuqori; 0,60 dan katta bo'lsa, chuqurlashtirilgan ixtisoslashtirish deyiladi;

4.Zona yoki iqtisodiy rayonlar bo'yicha ixtisoslashtirish. Bunda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha zona yoki iqtisodiy rayonlar bo'yicha mehnat taqsimoti joriy qilinadi. Masalan: sobiq ittifoq bo'yicha Boltiq bo'yi respublikalari chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga, Kavkaz orti respublikalari choy va uzumchilikka, O'rta Osiyo respublikalari asosan paxtachilikka, pillachilikka va qorako'lchilikka ixtisoslashgan edi. Shuni ko'rsatish kerakki, xo'jaliklarning ixtisoslashtirish darajasi yetishtirilayotgan bitta yoki bir qancha tovar mahsulotlarining salmog'iga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Bunda bir turdagi tovar mahsuloti yetishtirishga asoslangan xo'jalik tor doirada ixtisoslashgan, yetishtirilayotgan uch, to'rt xil tovar mahsulotlarining har

qaysisining salmog'i deyarli bir xilda (20-30%) bo'lsa, bu xo'jalik past darajada ixtisoslashgan; bir yoki undan ko'proq tovar mahsulotlarining har biri kattaroq salmoqni (40-60%) egallasa, unda xo'jalik o'rtacha darajada ixtisoslashgan bo'ladi. O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari shuni taqozo etadiki, bunda mahsulotning bir turini emas, balki ikki va undan ham ko'proq turini yetishtirishni ixtisoslashtirish mumkin. Masalan: shahar atrofida joylashgan sun'iy havzadagi xo'jaliklar mahsulotlarning baliq, ikra, sazan, karp, yem, kabi qator turlarini yetishtirishga ixtisoslashgandir.

Baliq xo'jaligida tarmoqlarni qo'shib olib borishning va ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar tizimi bilan aniqlanadi:

1.100 ga yerga, 1 ta xodimga, 100 so'mlik asosiy ishlab chiqarish fondlariga va 100 so'mlik joriy ishlab chiqarish harajatlariga to'g'ri kelgan yalpi va tovar mahsulot qiymati;

2.100 ga haydaladigan yerga to'g'ri kelgan mahsulotlar va boshqalar;

3.Mehnat unumdorligi, mahsulot tannarxi, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi.

Demak, mahsulot yetishtirish uchun qayerda qulay sharoit mavjud bo'lsa, mahsulot birligining tannarxi va bahosi arzonlashsa, bu xo'jalik va iste'molchilar uchun shuncha foydalidir.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ishlab chiqarishini tamoyillari va omillarini tushuntiring
2. Ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish ko'rsatkichlari qaysi?
3. Ixtisoslashuv printsipi nima?
4. Proportsionallik printsipi nima?
5. Baliqchilik xo'jalik korxonalarini ixtisoslashuv darajasini qanday aniqlanadi?
6. Qishloq xo'jaligida tarmoqlarni qo'shib olib borishning va ixtisoslashtirishning iqtisodiy samaradorligi qaysi ko'rsatkichlar tizimi bilan aniqlanadi?

4-mavzu. RESPUBLIKA AGROSANOAT MAJMUASINING MOHIYATI,

TARKIBI VA VAZIFALATI

4.1. Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi.

4.2. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi munosabatlar

4.3. Agrosanoat majmuasining holati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasi, ularni rivojlantirilishi.

4.4. Oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari majmuasi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi

4.1. Agrosanoat majmuasining zarurligi, maqsadi, vazifalari va tarkibi

XXI asrning birinchi o'n yilligida jahonda fan-tehnika, texnologiya innovatsiyasi jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ularni amaliyotga joriy etish maqsadida davlatlararo siyosiy hamda iqtisodiy munosabatlar ham rivojlanmoqda. Bunday jarayon o'z navbatida xalqaro miqyosda mehnat taqsimotini yanada yuksalishini hamda takomillashishini talab etmoqda. Jahondagi aholi soni ham yil sayin oshib bormoqda.

Respublikamizning erkin bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishi ta'minlanayotgan yillarda mamlakat aholisining o'rtacha soni bir yilda 440-460 ming nafarga yoki 1,2-1,4 foizga o'smoqda. Shu bilan birga sanoat korxonalarini soni va ishlab chiqarish quvvatlari ham yil sayin oshib bormoqda. Bunday holatlar respublikada xomashyo, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishni rivojlantirilishini taqozo etmoqda. Bu muammolarni yechish uchun eng avval tarmoqlararo mehnat taqsimotini rivojlantirgan holda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish hamda qayta ishlash tarmoqlarini mutanosib ravishda rivojlanishini ta'minlashga erishish, so'ngra tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va ularni iste'molchilarga yetkazuvchi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy bog'lanishini ta'minlash lozim.

Ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligini barqaror ravishda rivojlantirish, samaradorligini yuksaltirish uchun uni yangi qishloq xo'jalik mashinalari, texnikalari, transport va kimyoviy vositalar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i hamda

yog'lovchi materiallar, qurilish materiallari, ozuqa moddalari bilan to'liq va mutanosib ravishda ta'minlab, mustahkam moddiy-texnika bazasini barpo etish kerak. Demak, qishloq xo'jaligining kelajakdagi rivoji dastavval uning uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari faoliyatiga bevosita bog'liqdir. Shuningdek, agrar sohaning ravnaqi unga xizmat ko'rsatuvchi, ya'ni qishloq xo'jaligi korxonalarini ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlovchi, tarmoqdagi mashina-traktor va boshqa texnikalarni ta'mirlovchi, xo'jalik obyektlarini quruvchi, irrigatsiya-melioratsiya va kimyoviy, texnik va transport xizmatlarini bajaruvchi tarmoqlar faoliyatiga ham bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi esa tarmoqda yetishtirilgan xom ashyolardan aholining barcha talablarini to'liq va sifatli qondira oladigan oziq-ovqat, gazlama, kiyim-bosh, oyoq kiyim va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarining serqirrali faoliyatiga ham bog'liq.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'lishicha, respublika fuqarolarining tayyor oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining to'liq qondirilishi bu muammoning hal etilishini ta'minlashda qatnashuvchi barcha tarmoqlarga turli xildagi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqardagian sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, unga xizmat ko'rsatuvchi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlab, tayyor mahsulot darajasiga yetkazuvchi va ularni iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy bog'lanishini obyektiv holda taqozo etadi. Shuning uchun ular maqsadga muvofiq ravishda joylashtirilib, ixtisoslashtirilib, xalq xo'jaligi miqyosida mehnat taqsimoti amalga oshirilishini ta'minlashlari zarur. Yuqorida ta'kidlangan tarmoqlar yagona maqsad yo'lida o'zaro bog'lanishi natijasida respublika agrosanoat majmuasi shakllanadi. Mamlakat agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi – aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdir. Bu masala ulkan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darajasini yuksaltiradi, ularni farovon yashashini ta'minlaydi. Shuning uchun ham bu masalaga respublika hukumati tomonidan alohida e'tibor berilmoqda, ya'ni agrosanoat majmuasiga

kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ularni hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasi o'z maqsadga erishishi uchun quyidagi asosiy vazifalarni yechilishini taqozo etadi:

- Respublika agrosanoat majmuasining maqsadini to'liq va samarali bajarilishini taminlay olish qobiliyatiga ega bo'lgan tarkibning (ya'ni tarmoqlarni) maqsadga muvofiq holda tashkiliy, texnologik, texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'zaro uzviy bog'lanishini ta'minlash;

- majmua tarkibidagi korxonalarni barcha omillarni e'tiborga olgan holda maqsadga muvofiq oqilona joylashtirish hamda ularning ixtisoslashtirilishi va integratsiyalashuvini ta'minlash;

- samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida barcha korxonalarni zamonaviy texnikalar bilan jihozlash, ularda ilg'or, innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar ixtiyoridagi barcha resurslardan (tabiiy, kapital, mehnat) tadbirkorlik bilan oqilona foydalanib, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashtirish orqali doimiy va o'zgaruvchan harajatlarni kamaytirib, ekologik talablarga javob beradigan mahsulotlarni zarur miqdorda ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga yetkazib berib, ko'proq foyda olishni ta'minlash;

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o'rtasida ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini o'zaro samarali ayriboshlanishini ta'minlaydigan narxlarni maqsadga muvofiq miqdorini ma'lum muddatlarga belgilash;

- majmuada faoliyat ko'rsatayotgan rahbar, ishchi va xizmatchilarning malakalarini oshirish, ular mehnatlarining miqdoriga, pirovard natijasiga ko'ra rag'batlantirilishini rivojlantirish va boshqalar.


Agrosanoat majmuasi maqsad hamda vazifalaridan kelib chiqqan holda uning tarkibi quyidagi 4 ta bo'g'indan (sohadan) tashkil topishi mumkin: (4.1-chizma)

Respublika agrosanoat majmuasining 1-bo'g'iniga –agrosanoat majmuasi

tarkibidagi korxonalar uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari. Ular tarkiban qishloq xo‘jalik mashinasozlik, traktorsozlik sanoati; kimyo sanoati; neft mahsulotlari sanoati, mikrobiologiya sanoati; oziq-ovqat mashinasozligi, stanoksozlik sanoati; qurilish materiallari sanoati va boshqalardan tashkil topadi. Ularning ko‘lami, ayniqsa, mashinasozlik va stanoksozlik sanoati tarmoqlarining ko‘lami respublikadagi barcha omillarni e‘tiborga olgan holda hozircha cheklangan, lekin kelajakda rivojlanishi mumkin.

Shu bo‘g‘indagi tarmoqlarning asosiy maqsadi – agrosanoat majmuasi tarkibidagi, xususan, qishloq xo‘jaligi va unga irrigatsiya-melioratsiya, texnika

4.1-chizma
Respublika agrosanoat majmuasi va uning tarkibi



ta'minoti va ta'mirlash, kimyolashtirish, zooveterinariya, elektrlashtirish xizmatlarini ko'rsatuvchi hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi paxta tozalash sanoati, don mahsulotlari, meva, sabzavot, uzum sanoati, go'sht-sut sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini va nihoyat, tayyor mahsulotlarni yetkazib berishda zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalari (mashina, traktor, stanok, kimyoviy vositalar, yoqilg'ilar, ozuqa moddalari) bilan ta'minlashdir. Demak, birinchi bo'g'in tarkibidagi tarmoqlar boshqa tarmoqlarni rivojlanishni ta'minlaydigan moddiy-texnika bazasini barpo etishga ulkan hissa qo'shadi. Ularning moddiy-texnika bazasi talab darajasida shakllantirilishi natijasida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilib, mexanizatsiyalashtirilib, elektrlashtirilib, jonli mehnat sarfi qisqartirilib, mehnat unumdorligining yuksalishi ta'minlanadi. Ular shu tarmoqlardagi mehnatning harakterini, o'zgarishiga ta'sir etadi, ya'ni oddiy mehnat industrlashgan mehnatga aylanib borishini ta'minlaydi. Bu soha tarmoqlarida minglab korxonalar faoliyat ko'rsatib, jami ichki mahsulotning sezilarli qismi yaratilmoqda.

2-bo'g'in – agrosanoat majmuasining asosiy tarmog'i hisoblangan qishloq xo'jaligidan tashkil topadi. U tarkiban o'simlikchilik, bog'dorchilik va chorvachilik, baliqchilikdan iborat. O'simlikchilik hamda chorvachilik tarmoqlarida qayta ishlash sanoat tarmoqlari uchun xom ashyolar (paxta xom ashyosi, boshqoli donlar, kanop, zig'ir, qand lavlagi, jun, teri, kunjut, uzum, baliq, go'sht, sut) aholi iste'moli uchun esa go'sht, sut, sabzavot, poliz, meva mahsulotlari yetishtiriladi.

Bu bo'g'inda 2020 yilning 1 yanvariga 400 mingga yaqin fermer xo'jaliklari, 50 taga yaqin davlat xo'jaliklari, 4,5 mln. ga yaqin oilaviy-dehqon xo'jaligi hamda xo'jalik hisobidagi 18 ta korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligidagi barcha xo'jaliklar 2019 yili qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 70,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga, 26,9 foizi fermer xo'jaliklari va 3,0 foizi boshqa qishloq xo'jaligi korxonalar ulushiga to'g'ri keladi.

Shu yil barcha xo'jaliklar 1568 ming tonna kartoshka, 5441,3 ming tonna sabzavot mahsulotlari yetishtirganlar. Shu yili yetishtirilgan qishloq xo'jaligi

mahsulotlarining 38,4 foizi fermer, 52,4 foizi oilaviy-dehqon xo‘jaliklari, qolgan qismi yirik tovar ishlab chiqaruvchilar zimmasiga to‘g‘ri keladi.

Paxta xomashyosini yetishtirish bilan asosan yirik tovar ishlab chiqaruvchi hisoblangan fermer va davlat xo‘jaliklari shug‘ullanmoqdalar. Chunki ular shu sohaga ixtisoslashgan.

Qishloq xo‘jaligi agrosanoat majmuasining asosiy, ya‘ni markaziy bo‘g‘ini hisoblanadi. Uning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi, yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi hamda iste‘molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlar faoliyatiga bog‘liq. Chunonchi, ular qishloq xo‘jalik korxonalarini talab etilgan barcha turdagi texnikalar, kimyoviy vositalar, yoqilg‘i, qurilish materiallari, stanoklar bilan o‘z vaqtida ta‘minlab, mavjud qishloq xo‘jalik texnikalarini arzon va sifatli ta‘mirlab, tarmoqning rivojlanishini ta‘minlaydigan xizmatlarni ko‘rsatib, unda yetishtirilgan mahsulotlarni yig‘ib-terib, qayta ishlab, iste‘molchilarga sifatli holda yetkazib bersalar, qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan bo‘ladilar. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishi natijasida majmua tarkibidagi tarmoqlarning ham yuksalishi ta‘minlanadi. Masalan, tarmoqning ko‘lami kengaysa, ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan talab ortadi. Bu talabni qondirish uchun sanoat tarmoqlari intensiv faoliyat ko‘rsatish bilan hajman kengayishga ham erishishlari lozim. Tarmoqda qishloq xo‘jalik mahsulotlari hajmining barqaror ravishda o‘sishi ularni qayta ishlovchi tarmoqlar samarali faoliyat ko‘rsatishini talab etadi. Demak, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlar qishloq xo‘jaligi bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun respublika qishloq xo‘jaligini maqsadga muvofiq tashkil etish va zamon talabi asosida boshqarishga alohida e‘tibor berish lozim. Bu muammoni hal etishda tarmoqning maqsad va vazifalaridan kelib chiqish zarur. Tarmoqni tashkil etish va boshqarish bilan Respublika qishloq xo‘jaligi vazirligi shug‘ullanmoqda.

Uning tarkibida:

- qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishi;
- suv xo‘jaligi tarmoqlari;

- o‘rmon xo‘jaligi tarmoqlari mujassamlashgan.

Vazirlikning maqsadi va faoliyat ko‘rsatish yo‘nalishlari qilib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkasmasi tomonidan quyidagilar belgilangan:

- qishloq va suv xo‘jaligi bo‘yicha ilm-fanning barcha yo‘nalishlarini jahon andozalariga moslashtirgan holda rivojlantirish;
- fan-texnika taraqqiyotini e‘tiborga olgan holda yagona fan-texnika siyosatini va monitoringini amalga oshirish;
- seleksiya, urug‘chilik va naslchilik bilan shug‘ullanadigan fanlarni tartibga solish hamda rivojlantirish;
- qishloq va suv xo‘jaligida amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonini tartibga solish, uning monitoringini amalga oshirish
- dehqonchilik, chorvachilik tizimlarini takomillashtirish, rivojlantirish, ularning hayotga tatbiq etilishini ta‘minlaydigan mashinalar tizimini, texnologiyalarni barpo etish;
- erkin bozor talabini e‘tiborga olgan holda ekinlarni almashlab ekish siyosatini amalga oshirish, uni ta‘minlaydigan darajada ekinlarni maqsadga muvofiq joylashtirishga erishish hamda monitoringini bajarish;
- naslchilikni, urug‘chilikni tashkil etish;
- chorvachilik uchun barcha servis xizmatlarini tashkil etish, ularning amalga oshirilishini ta‘minlash;
- davlat suv kadastrini yuritish, suv resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlash, suv xo‘jaligi obyektlaridan to‘liq foydalanish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga oid tadbirlarni amalga oshirish;
- o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish, o‘rmonlarni nazorat qilish va ulardan samarali foydalanish;
- tarmoq talabini qondiradigan kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularni oqilona, samarali rag‘batlantirish va boshqalar.

Bu sohada mamlakat yalpi ichki mahsulotining 18 foiziga yaqini yaratilmoqda.

Agrosanoat majmuasining 3-bo'g'inini qishloq xo'jaligini rivojlanishiga xizmat ko'rsatadigan tarmoqlar kiritiladi, jumladan, ekinlarni, chorva hayvonlarini suv bilan ta'minlaydigan, yerlarning meliorativ holati yaxshilanishini ta'min etuvchi chora-tadbirlar tizimini amalga oshiradigan suv xo'jaligi tarmog'i; Qshloq xo'jalik subyektlariga yer haydash, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, yetishtirilgan hosilni yig'ishtirib olish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni ko'rsatuvchilar tarmoqda foydalanilayotgan barcha texnikalarga servisi sharoitini yaratuvchilar; tarmoqda yirik bino-inshootlarni quruvchi, mavjudlarini ta'mirlovchi tarmoq; tarmoqqa zooveterinariya xizmati, shuningdek, hasharotlarga, zararkurandalarga, begona o'tlarga qarshi kurashish maqsadida kimyoviy xizmat ko'rsatadigan sohalarni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligini yonilg'i va yog'lovchi materiallar hamda elektroyenergiya bilan ta'minlaydigan tarmoqlar ham shu soha tarkibiga kiritiladi.

Yuqorida ta'kidlangan tarmoqlar qishloq xo'jaligiga barcha turdagi ishlarni, xizmatlarni o'z vaqtida, sifatli ko'rsatishlari natijasida turli xildagi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga ulkan hissa qo'shadilar. Jumladan, ular texnikalarni ta'mirlab, ekinlar ekiladigan maydonlarni agrotexnik muddatlarda sifatli haydab, ekishga tayyorlab, ekib, unib chiqqan o'simliklarga ishlov berib, yetishtirilgan hosilni belgilangan muddatlarda sifatli yig'ib olish natijasida qishloq xo'jalik mahsulotlarining miqdorini oshirishga, ularning sifatini yaxshilashga bevosita ta'sir ko'rsatadilar. Ularni oqilona hamda uddaburonlik bilan sotish natijasida esa qishloq xo'jalik korxonalari foyda massasini ko'paytirishga erishishlari mumkin.

Bu tarmoqlar yuqori unumli texnikalar yordamida barcha turdagi ish va xizmatlarni mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini, elektrlashtirilishini hamda kimyolashtirilishini ta'minlashga ko'maklashib, jonli mehnat sarfi kamaytirilishi evaziga mehnat unumdorligi darajasini oshishiga muayyan hissa qo'shadilar. Respublika hukumati qishloq xo'jaligida servis sharoitini yaratish maqsadida infratuzilma tizimini rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlarni keng ko'lamda amalga oshirish natijasida qishloqda infratuzilma tizimini barpo etishga erishdi. Sohada 1757ta MMTP, 1712ta SFU, 1389ta YMM, 935ta mineral

o'g'itlarni sotish shahobchalari, 1478ta minibanklar, 424ta qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, 2411ta zotli mollarni sotish va zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatuvchi, 300ta konsalting xizmatini ko'rsatuvchi, 78ta toza idishlar va qadoqlash bilan shug'illanuvchi shahobchalar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bu sohadagi tarmoqlarning asosiy maqsadi – qishloq xo'jalik korxonalariga barcha turdagi xizmatlarni, ishlarni muddatida, sifatli bajarishdir. Ular respublika yalpi ichki mahsulotini ortishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Agrosanoat majmuasining 4-bo'g'ini Unga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, jumladan, paxta tozalash, donni, kanopni, qand lavlagini, go'sht va sutni, baliqni, tamakini, sabzavot va poliz mahsulotlarini, meva, uzumni qayta ishlash, saqlovchi yengil va boshqa sanoat tarmoqlari; bozor talabini e'tiborga olgan holda tayyor mahsulotlarni ulgurji va chakana holda yetkazib beradigan savdo tarmoqlari kiradi.

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibiga kiruvchi barcha tarmoqlarni 1-chizmadan ko'rish mumkin. Bunday turkumlashtirish ma'lum darajada shartli ham hisoblanadi. Hozirgi davrda mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibidagi subyektlarning umumiy miqdori 110 mingdan oshadi. Ular respublika yalpi ichki mahsulotining asosiy qismini yaratib bermoqda.

Respublika ASM yirik majmua hisoblanib, u bir qancha hududiy iqtisodlashgan majmualardan va agroklastarlardan tashkil topishi mumkin. Masalan:

- hududiy pahtachilik agrosanoat majmuasi;
- g'allachilik agrosanoat majmuasi;
- sabzavotchilik agrosanoat majmuasi;
- bog'dorchilik, mevachilik agrosanoat majmuasi;
- go'sht va sut agrosanoat majmuasi va boshqalar.

Respublika agrosanoat majmuasini barqaror rivojlantirishda mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy hamda ijtimoiy infratuzilmalarning ham ahamiyati, ta'siri ulkan. Ular agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning rivojlanishini ta'minlash maqsadida bank, sug'urta, investitsiya, soliq, lizing, sog'liqni saqlash,

ta'lim-tarbiya, ma'naviy, madaniy, san'at, kommunal xizmatlarni amalga oshiradilar. Shuning uchun barcha majmualar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro manfaatli holda amalga oshirilgani ma'qul.

4.2. Agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi munosabatlar

Agrosanoat majmuasining maqsadidan kelib chiqqan holda uning ishlab chiqarish jarayonida o'zaro uzviy bog'langan quyidagi bosqichlar mavjud:

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- majmua takror ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish, texnikaviy va texnologik xizmatlarni amalga oshirish;
- qishloq xo'jalik mahsulotlaridan oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish, saqlash;
- oziq-ovqat hamda xalq iste'moli tovarlarini iste'molchilarga yetkazib berish.

Ularni to'g'ri, sifatli va samarali hal etish uchun barcha bosqichlar o'rtasidagi munosabatlarni hamma turdagi qonunlar asosida samarali amalga oshirilishini ta'minlash lozim. Bu munosabatlarni ularning mazmun hamda shaklini e'tiborga olgan holda quyidagicha guruhlashtirish mumkin: huquqiy, tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida, dastavval, barcha turdagi erkin munosabatlarning huquqiy asosi yaratilishi zarur. Shuning uchun ham respublikamizda bu masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Bunga mamlakat Oliy Majlisi tomonidan qonunlar bosqichma-bosqich qabul etilayotganligi yaqqol dalil bo'ladi. Ularga agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha xo'jaliklar, albatta, rioya etishlari lozim. Majmua tarkibidagi barcha subektlar o'rtasidagi munosabatlar qiymat qonuni talabi asosida pul-tovar munosabatlari yordamida amalga oshirilishi lozim. Shuning uchun ulardagi rahbar va mutaxassislar barcha qonunlarning

mazmunini hamda ularni amalga oshirish yo‘llarini yaxshi bilishlari kerak. Lekin hayotda doimo ham shunday emas. Chunonchi, bir korxonada ikkinchisidan zarur bo‘lgan mahsulotni shartnoma asosida sotib olib, uning haqini vaqtida to‘lamaydi.

Bunday hol qonun talabi to‘liq bajarilmayotganligidan dalolat beradi. Huquqiy davlatda qonun ustuvorligi ta‘minlanishi kerak.

Qishloq xo‘jalik korxonalarini o‘z ishlab chiqarishlarini rivojlanishini va samaradorligi yuksalishini ta‘minlash maqsadida ekologiyaga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydigan, kimyoviy vositalarni, yoqilg‘i, yonilg‘i materiallarini bevosita sanoat tarmoqlaridan sotib olish uchun shartnoma tuzadilar. Ular shuningdek, texnikalarini ta‘mirlatish, yerlarini haydash, ekinlarni ekish, yetishtirilgan hosilni yig‘ib-terib olish maqsadida ixtisoslashgan mashina-traktor parklari bilan, hasharotlarga hamda zararkunandalarga qarshi kurash maqsadida esa kimyoviy xizmatlarni amalga oshiradigan tashkilotlar bilan, ekinlarning suvga bo‘lgan talabini qondirish uchun suv xo‘jaligi tashkilotlari bilan shartnomalarni rasmiylashtiradilar. Shartnomalarning shartlari bajarilishini tomonlar, albatta, ta‘minlashlari kerak. Shunda buyurtmachining ham, bajaruvchining ham faoliyati samarali bo‘lib, yaxshi natijalarga erishiladi. Lekin amaliyotda buyurtmani bajaruvchilar shartnomada ko‘rsatilgan muddatda texnikalarni, mineral o‘g‘itlarni, kimyoviy vositalarni, yoqilg‘ini, ozuqa moddalarini iste‘molchilarga o‘z vaqtida yetkazib bermayaptilar, ularni suv bilan to‘liq ta‘minlamayaptilar. Bunday kamchiliklar aksariyat hollarda shu tadbirlar to‘g‘ri tashkil etilmaganligi oqibatida yuz bermoqda. Majmuadagi munosabatlar doimo ham maqsadga muvofiq tashkil etilmaganligi, yetishtirilayotgan mahsulot miqdoriga, uning sifatiga salbiy ta‘sir etadi. CHunonchi, talab etilgan suv ekinga vaqtida berilmasligi oqibatida avvalo, uning o‘sishi susayib, hosil to‘plashi kamayadi, talab etilgan texnika vaqtida borib, hosilni terib olmasa, hosil salmog‘i kamayib, sifati pasayadi. Shuning uchun shartnomada ko‘rsatilgan shartlar muddatida, sifatli amalga oshirilishini ta‘minlaydigan barcha chora-tadbirlarni ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun tomonlar juda intizomli, mas‘uliyatli, bir-biriga hurmatda, madaniyatli bo‘lishlari kerak. Bu bozor iqtisodi munosabatlarining eng muhim talabidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jaliklar faoliyatining rivojlanishi va samarali bo'lishi iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilishiga ham bevosita bog'liq. Masalan, majmua tarkibidagi tarmoqlar o'rtasida tovar ayirboshlash jarayonida pul-tovar munosabatlarini amalga oshirishda ekvivalentlikni, ya'ni mutanosiblikni saqlashga alohida e'tibor berish lozim. Gap bu yerda baho haqida bormoqda. Bunda talab va taklif qonunlarining talablari ham inkor etilmasligi shart.

Demak, baholar talab va taklifdan kelib chiqqan holda o'zaro mutanosib bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Lekin agrosanoat majmuasida bunday mutanosiblik, afsuski, to'liq ta'minlangani yo'q. Ayniqsa, qishloq xo'jalik mahsulotlarining baholari bilan qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan sanoat korxonalarini mahsulotlarining baholarini belgilash masalasi doimo sanoat tarmoqlari foydasiga hal etilmoqda. Jumladan, 1994-2009 yillarda qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi ularning turlari bo'yicha 80-90 marta oshgan bo'lsa, sanoat mahsulotlarining baholari esa 800-950 martaga o'sgan. Ya'ni qishloq xo'jalik mahsulotlarining bahosi masalan, 2 marta oshgan bo'lsa, shu tarmoqda foydalanilayotgan, sanoat mahsuloti hisoblangan ishlab chiqarish vositalarining baholari 10 martaga oshgan. Qishloq xo'jaligi hamda sanoat tarmoqlari mahsulotlarining baholari o'rtasidagi nomutanosiblikni yana quyidagi ma'lumotlardan ham ko'rish mumkin:

1991 yilda bir dona «TTZ-80» markali traktorni sotib olish uchun 3,7 tonna paxta xomashyosini sotishdan olingan pul etgan bo'lsa, 2008 yilda shu traktorni sotib olish uchun esa 92,8 tonna paxta xomashyosini sotish kerak bo'lgan. Bu boradagi mutanosiblik 1991 yilda 1:3,7 bo'lgan bo'lsa, 2002 yilda 1:89,7 bo'lgan, ya'ni farq 24,2 martani tashkil etgan.

Shuningdek, xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bajarayotgan xizmatlar uchun narxlar asoslanmagan holda yuqori darajada ekanligiga ham alohida e'tibor berish zarur. Jumladan, 2009 yilda tumanlarda barpo etilgan mashina-traktor parklari 1 gektar g'o'za maydonidagi pahta hosilni terib berish uchun 100 ming so'mdan haq olganlar. Respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan mashina-traktor parklari qishloq xo'jalik korxonalariga yerlarni haydash, g'alla, paxta hosilini yig'ib-terib

berish uchun ham yuqori narxlar qo‘ymoqdalar. Bunday hollar texnika-ta‘mirlash xizmatini ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatida ham mavjud.

Buning obyektiv va subyektiv sabablari bor. Sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarilib, aksionerlik korxonalariga aylantirilishi natijasida to‘liq iqtisodiy erkinlikka egadirlar. Shuning uchun ular talab va taklifni hamda o‘zlarining bozordagi o‘rnini e‘tiborga olgan holda mahsulotlariga erkin baholarni belgilamoqdalar. Qishloq xo‘jalik korxonalarini esa davlat mulki hisoblangan yerlarda mahsulot yetishtirmoqdalar, shuningdek, yetishtirilayotgan asosiy mahsulotlar (paxta, g‘alla, sholi)ga davlat buyurtmasi mavjudligi tufayli bu mahsulotlarning harid narxlari davlat tomonidan belgilanmoqda. Bu masalani kelajakda qishloq xo‘jaligiga oid davlat dasturlari ishlab chiqilishi bilan almashtirishga bosqichma-bosqich o‘tish natijasida hal etish imkoniyatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Bu sohada ham iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayonini chuqurlashtirishga oid tadbirlar ishlab chiqib, ularning amaliyotga joriy etilishini ta‘minlashga harakat qilish zarur. Bundan tashqari qishloq xo‘jalik korxonalarini yetishtirayotgan mahsulotlarining sifatini yaxshilab, ularni ichki va tashqi erkin bozorga chiqarib, sotish yo‘llarini qidirishlari kerak. Buning huquqiy asoslari yaratilgan. Ulardan foydalanish uchun mahsulot sotuvchilar savdo-sotiq bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkiliy, iqtisodiy munosabatlarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari kerak.

Agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o‘rtasida pul-tovar munosabatlarini amalga oshirish jarayonida ham uzilishlar yuz bermoqda. Jumladan, qishloq xo‘jalik korxonalarini sanoat korxonalaridan paxta terish mashinalarini, haydov va chopiq traktorlarini, mineral o‘g‘itlarni, kimyoviy vositalarni, yonilg‘i, yoqilg‘i materiallarini olib, ularning haqini belgilangan muddatda to‘lay olmayotirlar. Xuddi shunday holat xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining bajargan ishlariga, xizmatlariga haq to‘lash borasida ham sodir bo‘lmoqda. Qayta ishlash sanoati korxonalarini esa qishloq xo‘jalik korxonalaridan paxta xomashyosini, don mahsulotlarini, sabzavot-poliz, bog‘dorchilik hamda chorvachilik mahsulotlarini shartnomlar asosida sotib olamoqdalar. Afsuski

ularning haqini belgilangan muddatlarda to'lay olmayotirlar. Bunday hollar majmua tarkibidagi korxonalarining iqtisodiy beqarorligi shakllanishiga ma'lum darajada sabab bo'lmoqda. Chunki ularning o'zaro qarzlari ortib bormoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalarini sotgan mahsulotlari uchun mablag'larini vaqtida olaolmaganliklari sababli ular ham «O'zqishloqxo'jalik-ta'minotuzatish» qo'mitasi, «O'zqishloqxo'jalikkimyo», avtotransport, energetika va boshqa tarmoqlarning mahsulotlari, xizmatlari uchun to'lanadigan mablag'larni vaqtida bera olmayotirlar.

Shu davrni o'zida, qishloq xo'jaligining kreditorlik qarzlari 653580 million so'mga teng bo'lgan. Shunday miqdordagi qarzlarning mavjudligi tarmoqlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buzilayotganligidan dalolat bermoqda. Natijada korxonalar o'rtasida o'zaro ishonchsizlik muhiti rivojlanmoqda. Korxonalar qarz mablag'larini qonun yo'li bilan undirish uchun xo'jalik sujdalariga murojaat etmoqdalar, ular esa tushgan da'volarni ko'rib, tegishli qarorlar chiqarmoqdalar.

Shuning natijasida vaqtdan yutqazib, mablag'larini ola olamyotganliklari oqibatida majmua tarkibidagi korxonalarining ishlab chiqarishi talab darajasida rivojlanmayapti.

Demak, kelajakda agrosanoat majmuasi tarkibidagi korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning pul-tovar munosabatlari asosida yo'lga qo'yilishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Buning uchun barcha subyektlar shartnomaviy munosabatlarini o'z vaqtida bajarishlariga odatlanishlari shart.

4.3. Agrosanoat majmuasining holati, iqtisodiy-ijtimoiy samaradorlik darajasi, ularni rivojlantirilishi

Respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlarning tashkiliy, texnikaviy, texnologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy o'zaro bog'lanishi, ya'ni integratsiyalashuvi natijasida mehnat taqsimoti amalga oshirilmoqda. Bu hol agrosanoat majmuasi ixtiyoridagi barcha resurslardan, shu jumladan, cheklanganlaridan ham samarali foydalanilishini ta'minlashga, texnika va texnologiyalarni rivojlantirishga, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga,

avtomatlashtirishga, elektrlashtirishga, kompyuterlashtirishga hamda tarmoqlarni boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan. Ular talab darajasida amalga oshirilishi natijasida haridorgir, raqobatbardosh oziq-ovqat hamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish hajmi ortadi. Ular iste'molchilarga sifatli va qulay usullar bilan yetkazib borilishi natijasida aholining shu mahsulotlar bilan ta'minlanishi darajasi ortib, majmua tarkibidagi tarmoqlarning foydalari ko'payadi. Natijada agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligi yuksaladi.

Agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorlik darajasini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin:

Jumladan, Respublika agrosanoat majmuasining yalpi mahsuloti. U majmua tarkibidagi tarmoqlar korxonalarining bir yil mobaynida ishlab chiqargan tayyor mahsulot va ko'rsatgan xizmatlar summasidan tashkil topadi. Yalpi mahsulotning miqdori har bir tarmoq bo'yicha absolyut, ya'ni natural ko'rsatkichlar yordamida hisoblanadi (tonna, dona, banka, litr, shisha idishda, tonna.km, et.gektar.). Bu ko'rsatkich yordamida agrosanoat majmuasidagi tarmoqlar yalpi mahsulotining miqdori alohida- alohida aniqlanib, avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslanib, tarmoqlarning qanday holatdaligi aniqlanadi.

Lekin bu natural ko'rsatkichlar agrosanoat majmuasining umumiy holatini to'liq ifodalay olmaydi. Buning uchun agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining qiymatini aniqlash lozim. Yalpi mahsulot qiymati majmua tarkibidagi barcha korxonalar bir yilda ishlab chiqargan tayyor mahsulotlarning, ko'rsatgan xizmatlarning bozor baholaridagi qiymatidan iborat. Ayrim korxonalarda ishlab chiqarilgan ba'zi mahsulotlarning ma'lum bir qismidan korxonalar ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun foydalaniladi, ma'lum miqdordagisi esa shu yilning o'zida sotilmay qoladi. Ularning qiymati belgilangan tartibda aniqlanadi.

Yalpi mahsulot qiymatini hisoblashda mahsulotlarning bir necha marta hisobga olinishini bartaraf etish maqsadida, agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat summasini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki qo'shilgan qiymat – bu, korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan yetkazib beruvchilardan sotib olingan va iste'mol qilingan

xomashyo va materiallar qiymati (amortizatsiya summasidan tashqari) chiqarib tashlanganidan soʻng qolgan qismining bozor baholaridagi qiymatidir.

Majmua yalpi mahsulotining haqiqiy baholardagi qiymatini respublika yalpi ichki mahsulot qiymatini aniqlab, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi va oʻzgarishini ham aniqlash mumkin. Agarda agrosanoat majmuasi yalpi ichki mahsulotining qiymatini respublika yalpi ichki mahsulotidagi salmogʻi oʻsayotgan boʻlsa, yalpi ichki mahsulot oshgan holda majmuaning mamlakat iqtisodiyotidagi oʻrni yuksalayotganligidan dalolat beradi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining haqiqiy baholarda foydalangan holda ishlab chiqarishning rentabellik darajasini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimini aniqlashda foydalanish mumkin. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyotining qator yillardagi oʻzgarishini aniqlash uchun esa uning yalpi mahsuloti qiymatini oʻzgarmas, yaʼni qiyosiy baholarda aniqlash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda qiyosiy baho sifatida 1996 yildagi oʻrtacha baholar olinmoqda. Shu tartibda yalpi mahsulotning qiymati aniqlanib, uni avvalgi yillardagi raqamlar bilan taqqoslash orqali agrosanoat majmuasi yalpi mahsuloti qiymatining oʻzgarishini aniqlash mumkin. Shunday qilib, yalpi mahsulot qiymatiga va boshqa koʻrsatkichlar darajasiga baholar oʻsishining taʼsiri bartaraf etiladi. Agrosanoat majmuasi yalpi mahsulotining 1996 yil baholaridagi qiymati majmuaning real yalpi mahsuloti ekanligidan dalolat beradi. Shu real yalpi mahsulot qiymati koʻrsatkichidan foydalangan holda agrosanoat majmuasida qator yillardagi mehnat unumdorligi, fondlar qaytimi, sigʻimi kabi koʻrsatkichlar darajasini aniqlab, ularning oʻzgarishini ham bilib olish, bu koʻrsatkichlarni majmua tarkibidagi tarmoqlar miqyosida aniqlab, ularning oʻzgarishini tahlil qilish mumkin.

Agrosanoat majmuasining tarmoqlari boʻyicha mamlakat eksportidagi, yaʼni valyuta tushumidagi ulushi. Uni aniqlash uchun agrosanoat majmuasi tarmoqlaridagi korxonalarining eksport qilgan mahsulotlariga, xizmatlariga olingan valyuta shaklidagi tushumlarining bir yillik yigʻindisini aniqlash zarur. Uni yagona valyuta birligida koʻrsatish uchun AQSH dollariga davlat kursiga binoan aniqlash lozim, kelajakda oʻz mavqesini oshirib borayotgan yevroda ham hisoblash

maqsadga muvofiqdir. Agrosanoat majmuasi barcha valyuta tushumining respublika jami valyuta tushumiga nisbati bilan majmuaning salmog'ini aniqlash mumkin. Hozirgi davrda bu ko'rsatkichning salmog'i 45 foizga yaqinlashib qolgan. Shundan 8-9 foizini paxta tolasini sotishdan olinayotgan valyuta tushumlari tashkil etmoqda.

Respublika qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 2009-yilda qishloq xo'jalik mahsulotlarini hammasi bo'lib 5011.9mln AQSH dollariga sotgan. Shundan asosiy qismini paхта tolasini sotishdan tushgan valyuta tashkil etmoqda.

Demak, mamlakat eksport salohiyatini belgilovchi muhim ko'rsatkich bo'yicha qishloq xo'jaligi bilan «O'z paxtasanoat» uyushmasining salmog'i katta. Bu yaxshi, lekin kelajakda paxta tolasini chetga sotishning maqsadga muvofiq miqdorini saqlagan holda uni qayta ishlab, iste'mol uchun tayyor hisoblangan xalq iste'moli tovarlari eksportga chiqarilishini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shu bilan birga qishloq xo'jaligida sabzavot, poliz hamda bog'dorchilik, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash sohalarini rivojlantirib, olingan sifatli, ekologik jihatdan toza hisoblangan tayyor mahsulotlarni ham chet ellarga sotishni rivojlantirishga alohida e'tibor berish vaqti keldi.

Bu muammoni hal etish jarayonida respublikada qayta ishlash tarmoqlarining rivojlanishi, yangi ish joylarining tashkil etilishi, savdo sohalarining taraqqiyoti ta'minlanadi. Natijada nafaqat iqtisodiy, balki aholini ish bilan ta'minlashdek ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan muammo ham ma'lum darajada hal etiladi.

Aholining oziq - ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanganlik darajasi. Bu ko'rsatkichning mutlaq darajasini aniqlash uchun agrosanoat majmuasida ishlab chiqarilib, iste'molchilarga sotilgan mahsulotlar (turlari bo'yicha) miqdorini respublika aholisining umumiy soniga taqsimlash lozim. Shunda jon boshiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori aniqlanadi. Agarda uning miqdori yil sayin ortib, tibbiyot me'yorlariga yaqinlashsa, u holda bu aholining

yashash sharoiti yuksalayotganligidan, xalqning farovon hayot kechirishi ta'minlanayotganidan dalolatdir.

Agrosanoat majmuasi, tarmoqlari va korxonalarida foydalanilayotgan, sarflanayotgan ishlab chiqarish fondlarining, qilinayotgan harajatlarning samaradorligi. Bu ko'rsatkichlarni aniqlash uchun agrosanoat majmuasining yalpi mahsulotini, milliy mahsulotini hamda sof foyda summasini ishlab chiqarish fondlariga, harajatlar summasiga taqsimlash zarur. Shunda 1 so'mlik ishlab chiqarish fondlari, harajatlari evaziga olingan yalpi mahsulot, milliy mahsulot hamda sof foyda summasi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkichlarning mutlaq (absolyut) miqdori oshib borsa, u holda bu fondlarning, harajatlarning iqtisodiy samaradorligi oshayotganligidan dalolat beradi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari, korxonalari faoliyatining rentabellik darajasi. Uni aniqlash uchun tarmoqlarning, korxonalarining sof foydasini jami harajatlar summasiga taqsimlab, natijani 100 ga ko'paytirish lozim. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda agrosanoat majmuasining ijtimoiy samaradorligini aniqlashda bir qancha qo'shimcha ko'rsatkichlardan, jumladan, tarmoqlar bo'yicha bir kishining o'rtacha oyligi, kadrlarning bilimlilik salmog'i, aholi jon boshiga ko'rsatilayotgan xizmatlar miqdori va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

So'nggi yillarda respublika agrosanoat majmuasida ijobiy o'zgarishlarga erishilmoqda. Agarda 1993 yilda respublika qishloq xo'jaligida 2,2 mln.tonna don mahsulotlari yetishtirilgan bo'lsa, 2005 yilga kelib, bu miqdor 6,0 mln. 2019-yilda 7.3 mln tonnani tashkil etdi. Bu aholining non va non mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi yuksalishiga olib keldi. Shu yillar ichida konditer mahsulotlari ishlab chiqarish 16,7 foizga, etil spirti ishlab chiqarish 43.5foizga ko'paydi.

Eslatib o'tish kerakki, respublikada go'sht va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish o'tish bosqichining dastlabki yillarida anchaga qisqargan edi. Lekin 1999 yildan boshlab bu sohada ham ijobiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Sababi jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirini susaytirish maqsadida Davlat

tomonidan chorva hayvonlarini bosh sonlarini ko'paytirishga, ularni zotlarini yaxshilashga va ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan real tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, agrosanoat majmuasining faoliyati asta - sekin rivojlanib bormoqda. Natijada ayrim sohalarining iqtisodiy samaradorligi yuksalmoqda.

Respublika agrosanoat majmuasini rivojlantirish, uning samaradorligini yuksaltirish maqsadida mamlakat miqyosida agrosanoat korxonalarini, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ular paxtachilik, don, un va un mahsulotlari, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari hamda boshqa majmualar bo'yicha ixtisoslashgan bo'lishi mumkin. Masalan, aholining un va un mahsulotlariga bo'lgan iste'mol talabini qondirish maqsadida shu sohada ixtisoslashgan agrosanoat kombinatini shakllantirish mumkin. Uning tarkibiga:

- don mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jalik subyektlari;
- don mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini;
- qishloq xo'jalik va sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar;
- ular uchun maxsus asosiy va aylanma vositalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- ayrim chorvachilik va parandachilik korxonalarini;
- chorvachilik va parrandachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar;
- kombinat ishlab chiqaradigan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi savda tashkilotlari va boshqalar.

hududning imkoniyalari, xususiyatlari hamda talablarini e'tiborga olgan holda shakllantirilishi mumkin. Shuning natijasida:

- ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq joylashishi hamda hududdagi mehnat taqsimoti;
- ish joylarni barpo etish, ishsizlikni kamaytirish;
- barcha resurslardan to'liq va samarali foydalanish;
- aholining daromadlarini oshirish, ularni shu mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish masalalarini hal etish imkoni ta'minlanadi.

Shu tadbirlar agrosanoat majmuasining samaradorligini yuksaltirishga ijobiy ta'sir etadi.

4.4. Oziq-ovqat va xalq iste'moli mollari majmuasi. Davlatning oziq-ovqat xavfsizligi

Respublika hukumatining eng muhm vazifalaridan biri aholining iste'mol tovarlariga nisbatan o'sib borayotgan talabini qondirishdir. CHunonchi, aholi oziq-ovqat hamda nooziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlanishi natijasida ularning farovon hayot kechirishlari uchun asos yaratiladi. Bu muammoni agrosanoat majmuasi hal etadi. Agrosanoat majmuasida barcha tarmoqlar o'zaro uyg'unlashishi (integratsiyalashuvi) hamda ixtisoslashishi natijasida aholining ikki xil ehtiyojini qondiradigan mahsulotlar ishlab chiqarilib, iste'molchilarga yetkazib berilishi zarur.

Ulardan birinchisi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish. U oziq-ovqat mahsulotlari majmuasini tashkil etadi. Unga non va non mahsulotlari, qandolat, shakar, go'sht va go'sht mahsulotlari, choy, uzum vinosi, kon'yak, aroq, turli xildagi konservalar va boshqa mahsulotlar kiradi. Bu oziq-ovqat mahsulotlari inson organizmi uchun zarur moddalarni berib, uning sog'lom o'sishini ta'minlaydi.

Shu bilan birga agrosanoat majmuasi aholi uchun hayot kechirish jarayonida foydalaniladigan tovarlar ishlab chiqaradi. U xalq iste'moli mollari majmuasini tashkil etadi. Unda oyoq kiyimi, kiyim-bosh, gazlamalar, sanoat spirti, texnika yog'lari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shu majmua rivojlanishi bilan aholining yashash sharoiti o'zgaradi. Bu yerda aholining zarur bo'lgan boshqa buyumlar, vositalar, shuningdek, uy-joy bilan ta'minlanishi, unga turli xidagi xizmatlar ko'rsatilishi va boshqalar ham e'tiborga olinishi kerak.

Aholining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi davlatning oziq-ovqat xavfsizligiga ham bog'liq. CHunki mamlakat miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi unga bo'lgan mamlakat ehtiyojini tashqi omillarga (chet el davlatlariga) bog'lanmagan holda ta'minlashi lozim. Shuning natijasida mamlakat miqyosida siyosiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlik ta'minlanadi. O'zbekiston

Respublikasi sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan davrda uning un va un mahsulotlariga bo'lgan talabi asosan respublikaga chetdan keltiriladigan mahsulotlar evaziga qondirilardi. Bu holatni respublika mustaqilligi davrida saqlab qolish mutlaqo maqsadga muvofiq emas edi. Shuning uchun ham respublika hukumati o'tish davrining birinchi yillaridan boshlab g'alla mustaqilligi siyosatini izchillik bilan amalga oshirib kelmoqda. Bunga erishish uchun samarali hisoblangan paxta xomashyosi ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga harakat qilindi. Natijada «ikkinchi non» hisoblangan kartoshka yetishtirish ham rivojlantirildi. Hozirgi davrda mahsulotning bu turi chet eldan sotib olinayotgani yo'q, chunonchi, bu borada ham davlat xavfsizigiga erishilmoqda, lekin hozirgi davrda respublika aholsining go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, yog' mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi tibbiyot normativiga nisbatan ancha past. Bu masalani hal etish maqsadida agrosanoat majmuasi markaziy bo'g'ini hisoblangan qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarini intensiv rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunda chorvachilik tarmoqlarini ustuvor sur'atlarda rivojlantirishga harakat qilinmoqda. Jumladan, parrandachilikni sanoat negizida rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Qoramolchilik, qo'ychilik bilan shug'ullanadigan nodavlat korxonalarini uchun har tomonlama iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda. Ularni moliyaviy mablag'lar bilan barqaror ravishda ta'minlash maqsadida imtiyozli kreditlar berish yo'lga qo'yilmoqda, soliq imtiyozlari berilmoqda, ularning ishlab chiqarishlari uchun zarur bo'lgan, chet ellardan keltirilayotgan vositalar bojxona to'lovlaridan ozod etilmoqda. Bularning hammasi xalq iste'moli mollari miqdorini ko'paytirishga yo'naltirilgan tadbirlar hisoblanadi.

Aholining oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan ta'minlanishini yuksaltirish uchun eng avvalo, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishini, fan-texnika yangiliklari hamda ilg'or, samarali texnologiyalar ishlab chiqarishga izchil joriy etilishini o'zaro bog'liq holda ta'minlash zarur. Shu bilan birga majmua tarkibidagi qayta ishlash tarmoqlari ko'lamini kengaytirib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini ko'paytirib, ularning raqobatbardoshligini ta'minlab, sifatli saqlab,

aholiga o'z vaqtida yetkazib berilishiga erishish lozim.

Yuqorida ta'kidlangan muammolarni hozirgi zamon talabi darajasida hal etish uchun:

- agrosanoat majmuasi tarkibidagi mashinasozlik, neft, kimyo va boshqa sanoat tarmoqlari qishloq xo'jaligini va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlarni arzonroq, sifatli, unumdor ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlashlari;
- qishloq xo'jalik tarmoqlari mavjud bo'lgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalangan holda talabni qondiradigan miqdorda sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishlari;
- qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlash maqsadida ularga turli xildagi xizmatlarni vaqtida, sifatli va arzon narxlarda amalga oshirish, jumladan, ekinlarni suv bilan, texnikalar, kimyoviy vositalar, o'g'itlar, ozuqa-em, yoqilg'i, yonilg'ilar bilan, texnikalarni ta'mirlash va xizmatlar ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni nobud etmasdan vaqtida, sifatli tayyorlab, qayta ishlab, tayyor mahsulotlar iste'molchilarga yetkazib berilishini ta'minlash lozim. Bunda mahsulotlarni sotib olib, qayta ishlash korxonalari ko'lamini rivojlantirishga alohida e'tibor berish, qishloqqa sanoatni olib borish kerak. Shu bilan tarmoqdagi aholining ish bilan ta'minlanishi, real daromad olishi uchun katta imkoniyat yaratiladi;
- respublika agrosanoat majmuasi tarkibidagi tarmoqlar o'rtasidagi barcha o'zaro munosabatlarni (baholar, soliqlar, to'lovlar) takomillashtirishga va ularni erkinlashtirishga qaratilgan tadbirlarni hamma bo'g'inlarda ishlab chiqib, ularning hayotga tatbiq etilishini ta'minlashga erishish kerak.

Bu tadbirlar tufayli aholining oziq-ovqat hamda iste'mol tovarlari bilan tibbiyot me'yorlari darajasida ta'minlanishiga erishiladi. Bu hol davlatning oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Agrosanoat majmuasini shakllantirishning zarurligini isbotlang.
2. Agrosanoat majmuasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Agrosanoat majmuasi tarkibiga nimalar kiradi?
4. Agrosanoat majmuasining rivojlanishini qanday ko'rsatkichlar ifodalaydi, ular qanday aniqlanadi?
5. Agrosanoat majmuasining respublika iqtisodiyotidagi o'rnini qanday ko'rsatkichlar ifodalaydi va ular qanday aniqlanadi?
6. Agrosanoat majmuasining oziq-ovqat hamda xalq iste'moli mollari majmualarini shakllantirishdagi ahamiyatini tushuntirib bering

5-mavzu. BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT RAHBARLIGI VA AMALGA OSHIRILAYOTGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR

5.1. Islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish bosqichlari.

5.2. Baliqchilikni rivojlantirish yo'nalishidagi islohotlarning qisqa tarixi va hozirgi holati.

5.3. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida agrar sohaning rivojlantirish tamoyillari hamda yo'nalishlari.

5.1. Islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish bosqichlari

Respublikada baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda hajmlarini oshirish, sohani tartibga solish bo'yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta'minlash choralari ko'rilmogda.

Shu bilan birga, intensiv usulda baliq yetishtirish bo'yicha ishlarga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapti, hududlarda baliqchilik tarmog'ini rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish, baliqchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar yetarli darajada emas.

Baliqchilik xo'jaliklariga birlashtirilgan suv havza maydonlaridan ilmiy yondashuv asosida samarali foydalanish, ularning meliorativ holatini yaxshilash, shuningdek, resurs tejankor texnologiyalar va innovatsiyalarni keng ko'lamda

joriy qilish ishlariga yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Sun'iy suv havzalari hosildorligini oshirish uchun baliqchilik xo'jaliklarining mineral o'g'itlarga bo'lgan talabi to'liq qondirilmayapti. Shuningdek, mineral o'g'itni boshqa muqobil o'g'itlar bilan almashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish yo'lga qo'yilmagan.

Baliqni intensiv usulda yetishtirish, ovlash va qayta ishlash uchun zarur as mavzu-uskuna, anjom va mexanizmlarni mahalliy ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan. Buning oqibatida ko'plab tadbirkorlar vaqt va mablag'ini ortiqcha sarflab, ularni chet eldan harid qilmoqda.

Baliqchilik sohasiga to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalarni kiritish ishlari zarur darajada tashkil etilmagan, bu borada horijiy davlatlar va tashkilotlar bilan samarali, o'zaro manfaatli hamkorlik yo'lga qo'yilmagan.

Respublikada intensiv usulda baliq yetishtirishni bosqichma-bosqich yo'lga qo'yish va rag'batlantirish, mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish, sohaga innovatsion g'oyalar, ilmiy ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini keng ko'lamda joriy qilish, baliqchilik tarmog'ini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida:

- 2003-yil 13-avgust № 350 sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va "Baliqchilik tarmog'ida monopoliyadan chiqarish va xususiylashtirishni chuqurlashtirish chora – tadbirlari to'g'risidagi".
- O'zbekistonda 2008-2016-yillarda akvakultura va baliq ovlashni rivojlantirish konsepsiyasi va strategiyasi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yilda 1-martdagi "Baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora – tadbirlar" dasturi.
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 20-yanvardagi 03-35-46-sonli topshirig'iga muvofiq «2012 yilda Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi suv havzasidan samarali foydalanish, baliq yetishtirish hajmini ko'paytirish va baliq zahiralardan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar Dasturi.
- 2017-yil 1-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baliqchilik

tarmog`ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora – tadbirlari to`g`risida”gi
Qarori.

5.1.-jadval. Respublika bo'yicha 2019-yilda baliq yetishtirish va ovlash

Hududlar	Jami baliq yetishtirish va ovlash hajmi (tonna)	Shundan						
		Sun'iy suv havzalarda			Tabiiy havza va suv omborlarida	Qafas (sadox) moslamasida	Intensiv usulda kichik suv havzalarida	Yopiq suv aylanma tizimi (UZV)da
		jami	shundan					
			ekstensiv	yarim intensiv				
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15 000	5 250	4 200	1 050	8 000	300	850	600
Andijon viloyati	12 000	8 952	7 446	1 506	-	-	2 548	500
Buxoro viloyati	9 100	4 085	3 695	390	3 365	450	600	600
Jizzax viloyati	9 910	8 040	7 200	840	250	750	570	300
Qashqadaryo viloyati	12 000	6 885	5 785	1 100	1 700	900	2 115	400
Navoiy viloyati	13 000	4 030	2 830	1 200	3 000	4 500	1 170	300
Namangan viloyati	15 000	8 955	6 195	2 760	300	1 500	3 645	600
Samarqand viloyati	12 000	3 905	2 639	1 266	1 100	1 245	5 410	340
Sirdaryo viloyati	19 500	18 490	16 810	1 680	600	-	110	300
Surxondaryo viloyati	7 000	3 497	3 005	492	753	900	1 000	850
Toshkent viloyati	21 500	16 860	15 072	1 788	300	1 200	1 540	1 600
Farg'ona viloyati	20 000	12 065	10 223	1 842	500	3 000	3 495	940
Xorazm viloyati	16 000	13 305	11 842	1 463	1 000	-	1 025	670
<i>Aydar-Arnasoy ko'llari</i>	<i>19 490</i>	-	-	-	<i>17 330</i>	<i>2 160</i>	-	-
Jami	201 500	114 319	96 942	17 377	38 198	16 905	24 078	8 000

5.2-jadval. 2019-yilda Andijon viloyatida baliq yetishtirish va ovlash

Hududlar	Jami baliq yetishtirish va ovlash hajmi (tonna)	Shundan						
		Sun'iy suv havzalarda			Tabiiy havza va suv omborlarida	Qafas (sajok) moslamasida	Intensiv usulda kichik suv havzalarda	Yo-piq suv aylanma tizimi (UZV)da
		jami	shundan					
			ekstensiv	yarim intensiv				
Respublika bo'yicha	201 500	114 319	96 942	17 377	38 198	16 905	24 078	8 000
Andijon tumani	122	72	72				50	
Asaka tumani	220	70	70				150	
Baliqchi tumani	350	250	238	12			100	
Bo'z tumani	124	116	92	24			8	
Buloqboshi tumani	86	36	36				50	
Jalolquduq tumani	206	56	56				150	
Izboskan tumani	659	59	53	6			600	
Qo'rg'ontepa tumani	446	96	90	6			50	300
Marhamat tumani	600	50	50				400	150
Oltinko'l tumani	493	143	143				350	
Paxtaobod tumani	72	22	22				50	
Ulug'nor tumani	8 120	7 620	6 174	1 446			500	
Xo'jaobod tumani	230	180	168	12			50	
Shahrixon tumani	272	182	182				40	50
Andijon viloyati	12 000	8 952	7 446	1 506			2548	500

- 2018-yil 6-noyabrdagi Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari qabul qilingan.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-noyabrdagi PQ-4005-son qaroriga 1-ILOVAga asosan 2019-yilda baliq yetishtirish va ovlash prognozlari keltirib o‘tilgan

5.2. Baliqchilikni rivojlantirishda olib borilayotgan islohotlarning asoslari

Baliqchilik – xalq xo‘jaligining suv havzalarida baliq zahirasini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug‘ullanuvchi sohasi. Baliqchilik tabiiy suv havzalari baliqchiligiga va sun‘iy hovuz baliqchiligiga bo‘linadi. Baliqchilikda suv havzalarining meliorativ holati yaxshilanadi, baliq sun‘iy urchitiladi, baliqlar tuxum qo‘yadigan va yosh baliqchalar o‘sadigan joylarda tegishli sharoit yaratiladi; baliqlarning tuxum qo‘yadigan joylari tozalanadi, daryo to‘g‘onlariga baliq yo‘li yasaladi, sun‘iy tuxum qo‘yish joylari tayyorlanadi. Tabiiy suv havzalarida baliqlarni sun‘iy urchitish, ovlanadigan baliqlar miqdorini ko‘paytirish yoki ularni yangi zot baliqlar bilan almashtirish ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun maxsus baliq zavodlari quriladi. Baliq o‘stirish maqsadida suv omborlaridan foydalanish, boshqa zot baliqlarni mazkur joyga olib kelib iqlimlashtirish ham baliqchilikning asosiy vazifasidir. Buning uchun maxsus suv omborlari baliq ovlashga xalaqit beradigan buta va maxsus o‘tlardan tozalanadi, yosh baliqchalarni ko‘paytirish uchun baliqchilik pitomnigi quriladi. Baliqlar maxsus hovuzlarda ham o‘stiriladi. Bunday hovuzlarda baliqni urchitish, boqishdan tortib uni iste‘mol qilinadigan darajaga yetkazguncha bo‘lgan jarayonlar amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining daryo va ko‘llarida 106 turdagi baliqlar mavjud (zog‘ora baliq, do‘ngpeshona, sudak, oqcha, tovonbaliq, ilonbosh, cho‘rtan, laqqa baliq, qizilko‘z va boshqalar).

O‘zbekistonda baliqchilikni sanoat asosida rivojlantirish 1937-yildan boshlangan. O‘sha yili Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanida “Toshkent baliq chavoqlari xo‘jaligi” tashkil etildi. Keyinchalik bu xo‘jalik baliq chavoqlarini

baliq xo`jaliklari va tabiiy suv havzalari uchun ham yetkazib bera boshladi. 1946-yil O`zbekiston xalq xo`jaligi Kengashi huzurida Baliqchilik xo`jaligi bosh boshqarmasi tashkil etildi. 1946-yildan Toshkent viloyatining Zangiota tumanida baliq yetishtirishga yo`naltirilgan baliqchilik xo`jaligi tashkil etildi va ishga tushirildi.

1960-yillargacha baliq mahsuloti asosan, Orol dengizi, dengiz yaqinidagi ko`llar va Sirdaryo hamda Amudaryodan ovlana edi (yiliga 25-28 ming tonna). Biroq keyinchalik dengiz ekotizimidagi muvozanatning buzilishi natijasida 1980-yilga kelib dengiz o`zining baliqchilik tarmog`idagi o`rnini butunlay yo`qotdi. Natijada mamlakatda baliq yetkazib beradigan yangi manbalarni topish va takomillashtirish ehtiyoji paydo bo`ldi.

Aslida bunday manbalarni topish ishlari biroz ilgariroq boshlangan edi. Xususan, o`tgan asrning 70-yillarida baliq ovlash Orol dengizidan tashlama suvlarni yig`ishga mo`ljallangan, yangidan tashkil etilgan ichki suv omborlari va ko`llarga ko`chdi. Asosiy e`tibor akvakulturani rivojlantirishga qaratildi. 1960-yillar boshida hukumat tomonidan baliq yetishtirishni rivojlantirish bo`yicha keng miqyosdagi dastur qabul qilinib, O`zbekistonning barcha mintaqalarida 20 ta baliqchilik xo`jaligi (10000 ga maydonda) tashkil etildi. Biroq Orol dengiziga tushadigan Sirdaryo va Amudaryo suvlarining kamayishi natijasida baliq yildan yilga kamayib bormoqda. Umumiy baliq tutishning miqdoriga kelsak, 1970-yilda 65%, 1975-yilda 43%, 1980-yilda 5%, 1990-yilga kelib 0,8% ga tushib qolgan.

Respublikada faqatgina karp balig`i yetishtirilar va hovuzlardan olinadigan hosil 15-18 s`ga dan oshmas edi. 1961-yilda Xitoydan keltirilib, iqlimlashtirilgan o`simlikxo`r baliqlardan oq do`ngpeshona, oq amur, targ`il do`ngpeshona turlari bu yer sharoitiga tez moslashib, keyinchalik baliq yetishtirishning keskin rivojlanishiga zamin yaratdi.

1970-1990 yillarda mavjud bo`lgan hovuz xo`jaliklarida baliq yetishtirish texnologiyasiga asosan, baliq yetishtirish uchun hovuzlarga eng ko`p miqdorda karp o`stirilgan bo`lsa, undan keyin do`ngpeshona va eng oxirgi o`rinda oq amur o`stirilgan. Oq amurni har bir gektar suvlikda, mavjud bo`lgan o`tlarni yeyish

maqsadida yoki hovuzlar biomelioratori sifatida har bir gektar suvlikka 100-150 dona o`stirilgan. Ammo bu son keyingi yillarda o`zini oqlay olmadi.

O`zbekiston qishloq xo`jaligi iqtisodiyotida baliqchilik muhim o`rin egallaydi. Ammo, shunga qaramasdan, so`nggi yillarda bu tarmoqning rivojlanish jarayoni biroz susayib qoldi. Raqamlarga murojaat qiladigan bo`lsak, tarmoqning oxirgi yillardagi yalpi milliy mahsulotdagi ulushi 0,1% dan pasayib ketgan. Yetarli miqdordagi suv zahiralari (hovuzlar, suv omborlari, ko`llar, kanallar va boshqalar) bo`lishiga qaramasdan, yurtimizda baliq ishlab chiqarish ko`rsatkichi 1991-yilda 27 000 tonnani tashkil etgan bo`lsa, 2008-yilga kelib, bu ko`rsatkich 7 100 tonnaga tushib qolgan.

Respublika mustaqillikka erishgandan so`ng 1994-2003-yillarda baliqchilik tarmog`ida iqtisodiy islohotlar amalga oshirilib, baliqchilik xo`jaliklari bosqichma – bosqich xususiylashtirildi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida qator dasturlar ishlab chiqildi. Tuzilgan dasturlar asosida joylarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilishi natijasida 2009-yilda 9 236 tonna baliq yetishtirilgan bo`lsa, 2010-yilda 10 732 tonna baliq yetishtirilib, 2011-yilda bu ko`rsatkich 16 051 tonnani tashkil etib, 2009-yilga nisbatan 6 815 tonnaga yoki 174% o`shishga erishildi. Dastur bajarilishi davomida 230 dan ortiq baliqchilik yo`nalishida ish olib boruvchi xo`jalik subyektlari yangidan ish boshlab, 16 00 dan ortiq yangi ish o`rinlari tashkil etildi.

Baliqchilik xo`jaliklari va tabiiy ko`llarni ijaraga olgan korxonalarni zamonaviy texnologik vositalar bilan jihozlash, granulalangan omuxta yem, mineral o`g`it va mavsumiy aylanma mablag`lar bilan ta`minlash maqsadida tijorat banklari tomonidan 2010-yilda 4 mlrd. so`m kredit ajratildi, 2011-yilda 8 mlrd. 525 mln so`m kredit mablag`lari ajratilib, o`tgan yilga nisbatan 4,5 mlrd. so`m yoki 213,1% o`shishga erishildi. 2010-yilda baliqchilik xo`jaliklari tomonidan 1 400 tonna mineral o`g`itlar olindi, 2011-yilda Vazirlar Mahkamasining joriy yilda ajratilgan 3166 tonna ammofos o`g`itlari “O`z kimyosanoat” korxonalari tomonidan yetkazib berildi, bunda o`shish 226% ni tashkil etdi. “O`zdonmahsulot” kompaniyasi korxonalari va Chinoz omuxta yem ishlab chiqarish zavodidan 2010-

yilda 7080 tonna omuxta yem yetkazib berilgan bo`lsa, 2011-yilda 11 973 tonna (169,1%) omuxta yem, baliqchilik xo`jaliklariga shartnoma asosida yetkazib berildi. Respublikada mayda baliq urug`lari yetishtirishga ixtisoslashgan xo`jaliklar tomonidan 221 mln.dona lichinka olinib, ulardan 29,2 mln.dona bir yozlik baliq urug`lik materialini yetishtirildi. Agar 2010-yilda baliqlantirish uchun qishlash havzalariga 27,4 mln dan ortiq bir yillik chavoqlar ko`chirib o`tqazilgan bo`lsa, 2011-yilda 29,2 mln dona (107,3%) bir yozlik baliq chavoqlari qishlash havzalariga o`tqazildi va fevral-mart oylarida baliqlarni boqish havzalariga o`tkazish davom ettiriladi.

Respublikadagi suv omborlari ham baliqchilikni rivojlantirishda ma`lum ahamiyatga ega. Har yili To`dako`l suv omboridan 500, Chimqo`rg`on va Jizzax suv omborlaridan 70-100 tonnagacha baliq ovlanadi. 1999-yilning o`zida “O`z baliq” korporatsiyasi tizimida 8 birlashma (Quyichirchiq Baliqchi tajriba – namunaviy baliqchilik birlashmasi, Mo`ynoq, Xorazm va Jizzax baliqchilik birlashmalari, Qoraqalpog`iston baliqchilik xo`jaliklari birlashmasi va boshqalar), 7 kanallar tizimi (Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxandaryo, Damachi va Navoiy baliqchilik kanallar tizimlari), 10 ta baliqchilik xo`jaligi: Andijon, Namangan, Farg`ona, Beshariq, Gulbog` (Namangan viloyati), Yangiyer (Sirdaryo viloyati), Kogon (Buxoro viloyati), Forish (Jizzax viloyati), Uzun (Surxandaryo viloyati) xo`jaliklari, shuningdek Toshkent xonbaliq (Bo`stonliq tumani) xo`jaligi, Xorazm viloyatida To`rtko`l fermer xo`jaligi, baliq chavoqlari yetishtirish davlat xo`jaligi (Yangiyo`l), Ixtiopatologiya markazi (Toshkent), Chinoz baliq omuxta yem ishlab chiqarish korxonasi, ulgurji savdo omborxonalari va boshqalar mavjud bo`lgan.

2011-2013-yillarda sohani rivojlantirishga qaratilgan 2300 ga yaqin loyiha doirasida 68 000 gektardan ziyod tabiiy va 11 000 gektar sun`iy suv havzalari baliqchilik uchun ajratildi. Sohani moliyaviy qo`llab-quvvatlash maqsadida banklar tomonidan qariyb 56 milliard so`mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan. Faqat 2013-yilning o`zida sohani rivojlantirish dasturi bo`yicha tashkil etilgan 480 dan ortiq xo`jaliklar uchun 178 gektar tabiiy va 1658 gektar sun`iy suv havzalari

ajratilgan, 1400 dan ziyod ish joylari yartilgan. Baliqchilikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida banklar tomonidan ushbu soha uchun imtiyozli shartlarda 5,3 milliard so'm miqdorida kreditlar berilgan. Natijada respublika miqyosida baliqchilik fermer xo'jaliklarining soni 2000 dan oshib, ular tomonidan sun'iy va tabiiy ko'l – hovuzlarda 35 ming tonnadan ziyod baliq yetishtirildi.

2013-yil statistika ma'lumotlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, o'sha davrda 1601 ta, ya'ni 296 ta tabiiy va 1305 ta sun'iy suv havzalarida baliqchilik fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatgan. Ular hisobida jami 583,7 ming gektar suv havzalari bo'lib, shundan 566,6 ming gektari tabiiy va 17,1 ming gektari sun'iy suv havzalaridir. Baliq yetishtirish 7,6 ming tonnani tashkil etgan. Shu yilning o'zida sohani rivojlantirishga qaratilgan 448 ta loyiha tasdiqlanib, uni amalga oshirish uchun 17838 gektar tabiiy va 1658 gektar sun'iy suv havzalari ajartilga, hamda tijorat banklari tomonidan 5249 mln. so'm miqdorida kredit mablag'lari yo'naltirilgan. Yana shunisi ahamiyatliki, 2004-yilda tovar baliq yetishtirish maqsadida xo'jaliklari suv havzalarida 6,7 mln dona bir yillik baliqlar chavoqlari tashlanib, baliqlar soni ko'paytirilgan bo'lsa, sun'iy suv havzalariga tashlangan baliq chavoqlari 32,3 mln donani tashkil etdi. To'dako'l suv omborida 2004-yilda 292 tonna baliq ovlangan bo'lsa, 2012-yilda baliq ovlash hajmi 821 tonnaga yetgan.

2014-2015-yillarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mamlakatimizda 580 ming gektardan ziyod ko'l va suv omborlarida qariyb 2600 ga yaqin korxonalar va xo'jalik baliq yetishtirish bilan shug'ullanib, 38 ming tonnadan ziyod baliq yetishtirilgan. Uning 15 ming tonnasi sun'iy ko'llarda parvarishlangani e'tiborga loyiq.

“Aqua-To'dako'l” O'zbek-Amerika qo'shma korxonasida baliq lichinkalarini o'stirish jarayoni 90 gektardan ziyod maydonni egallagan 16 ta sun'iy hovuzlarda amalga oshiriladi. Birgina 2014-yilning o'zida korxonalar tomonidan 200 tonnadan ortiq, o'rtacha og'irligi 35-50 grammdan bo'lgan baliq chavoqlari To'dako'l suv havzasining baliq zahiralarini to'ldirish maqsadida tashlangan.

Hozirgi kunda baliqchilik tarmog'ida turli mulkchilik shaklidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiy suv havzalaridan (ko'l, suv omborlari va boshqalar)

baliq ovlash xususiy korxonalar va fermerlar tomonidan ijara shartlari asosida amalga oshirilmoqda. Tabiiy suv havzalaridan baliq ovlash mahalliy hokimiyatlar bilan kamida 10 yil muddatga ijara shartnomasi tuzgan korxonalar tomonidan olib boriladi. Korxonalar baliq ovlashni mavjud talab asosida hamda biologik resurslardan kelib chiqqan holda kvotasiz amalga oshiradilar. Ular havzalarda baliq zahiralari saqlash va ko'paytirish tadbirlarini amalga oshirishlari zarur.

Ushbu tartib asosida respublikada mavjud 630 ming gektar tabiiy suv havzalarining 424,5 ming gektari ijaraga berilgan. Surxondaryo viloyatida 7966 gektar tabiiy suv havzalari 4 ta korxonaga ijaraga topshirilgan.

Hozirgi kunda respublikada 424,5 ming gektar suv havzalaridan baliq yetishtirishda foydalanib kelinmoqda. Ularda mingdan ortiq baliqchilik fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, joriy yilda 398 ta suv havzalarida baliq yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari tashkil etildi va ularga tegishli bo'lgan suv havzalariga 12 mln 535 ming dona bir yillik baliqchalar tashlandi. Joriy yilda baliq chavoqlari o'stirishni ta'minlash maqsadida mavjud barcha xo'jaliklardagi 4700 dona ona baliqlar to'dasi bonitirovkadan o'tkazildi, mavsumda inkubatsiya sexlarida 205 mln dona lichinkalar olindi.

O'zbekiston hududidan Sirdaryo, Amudaryo va Zarafshon daryolari oqib o'tib, 300000 gektar maydonga tabiiy ko'llar barpo qilgan. Shularning eng kattasi Arnasoy suv havzasi bo'lib, Chordara suv omboridan suv oqizilishi natijasida paydo bo'lgan va shartli ravishda uch qismga: Haydar ko'l (130000 ga), Tuzkon ko'l (40000 ga) va Arnasoy ko'lga (10000 ga) bo'linadi. Har bir ko'lning joylashish hududi, chuqurligi, eni va uzunligiga qarab ularning gidrokimyoviy va gidrologik rejimlari har xildir. Baliq o'stirish uchun qulay sharoit Arnasoy ko'lning suvida mavjud bo'lib, zog'ora (sazan), laqqa, do'ngpeshana, jereh va boshqa baliqlarning urchish makoni hisoblanadi. Hozirgi paytda respublikamiz bozorlarida sotilayotgan baliqlarning 30% ini shu ko'llardan ovlangan baliqlar tashkil etadi.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 97,2 trln. so'mni, shu jumladan,

dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 93,9 trln. so'mni, o'rmon xo'jaligi – 2,8 trln. so'mni, baliq xo'jaligi – 0,5 trln. so'mni tashkil qildi. YaIM (YaQQ) tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 24,1% ni tashkil etdi. Mazkur tarmoqning YaIM mutloq o'sish sur'atiga ta'siri 0,6% ni tashkil etdi.

Baliqchilikni rivojlantirishning intensiv usullari, seleksiya ishlari, zotli baliq turlarini o'rganish va ko'paytirish, oziqlantirishni takomillashtirish va turli xil kasalliklarning oldini olish maqsadida Respublika Baliqchilik ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Sohani yanada rivojlantirish uchun intensiv usulda baliq yetishtirish keng targ'ib etilmoqda. 2020-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 33 830 t. (2019-yilning yanvar – iyuniga nisbatan 12,3% ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 49,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasida umumiy maydoni 12 000 gektar bo'lgan sun'iy ko'l va hovuzlarda 22 000 tonna tovar baliq mahsulotlari yetishtirish imkoniyatlari bor.

2017-2018-yillarda yiliga 375 tonna miqdordagi qayta ishlangan baliq va yarim fabrikantlar ishlab chiqarish quvvatiga ega sex barpo etish belgilangan. Shuningdek bu loyihada 300 tonna sig'imga ega muzlatkichli saqlash kameralari ham bunyod etiladi.

2017-yil 1-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorni imzoladi. Hujjatda ta'kidlanishicha, baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish, baliqchilik va baliq ovlash tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish, baliq mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, tabiiy va sun'iy suv havzalaridan oqilona foydalanish, shuningdek, baliq yetishtirishning ilmiy asoslangan usullari va intensiv texnologiyalarini joriy etish maqsadida

“O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasi tashkil etildi. Uning tarkibiga joylarda baliqchilik tarmog‘i tashkilotlari ishlarini muvofiqlashtiruvchi 13 ta hududiy “Baliqsanoat” mas‘uliyati cheklangan jamiyati kiradi. Bundan tashqari, baliqchilik tarmog‘ida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada takomillashtirish, ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy va texnik yangiliklarni tadbirkorlik subyektlariga yetkazish maqsadida Baliqchilikni rivojlantirish ilmiy-tajriba stansiyasi Baliqchilik ilmiy-tadqiqot institutiga aylantirildi va Aydar – Arnasoy ko‘llar tizimida hamda respublikaning boshqa hududlarida uning filiallarini ochish belgilandi.

Tarmoq loyihalarini birgalikda moliyalashtirish, shuningdek, maslahat, axborot – tahlil va marketing xizmatlari ko‘rsatish yo‘li bilan baliqchilikni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilishiga ko‘maklashish uchun qarorda “Ipoteka-bank” aksiyadorlik tijorat ipoteka bankining investitsion kompaniyasini tashkil etish ma‘qullandi va uning ulushi yangidan tashkil etilayotgan hududiy “Baliqsanoat” mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarining ustav fondida kamida 51% ni tashkil etadi.

“O‘zbekbaliqsanoat” uyushmasini, uning hududiy “Baliqsanoat” mas‘uliyati cheklangan jamiyatlarni va uyushma tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga 2023 – yilning 1 – yanvarigacha urug‘, baliq chavoqlari va tovar baliq yetishtirishdan, baliq mahsulotlarini tayyorlash va qayta ishlashdan olingan daromatlardan yagona soliq to‘lovi to‘lashdan ozod etish bo‘yicha imtiyozlar berilmoqda. Mazkur qaror bilan, shuningdek, baliq yetishtirish va uni qayta ishlash hajmini ko‘paytirishga, baliq chavoqlari bilan ta‘minlashga, baliq yetishtirishning zamonaviy usullarini joriy etishga yo‘naltirilgan 2017-2021 yillarda baliqchilik tarmog‘ini yanada kompleks rivojlantirish bo‘yicha dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etildi. Yuqori mahsuldor baliq turlarini iqlimlashtirish ishlarini ilmiy asosda tashkil etish hisobiga baliqlarning afrika laqqasi, tilyapiya, forel, vengriya sazani va osyotr turlarini ko‘paytirish yo‘lga qo‘yiladi. Bu, o‘z navbatida, ichki bozorlarga uzluksiz ravishda keng assortimentdagi arzon va sifatli baliq mahsulotlari yetkazib berishini taminlaydi.

Navoiy viloyatida To`dako`l suv ombori havzasida Vyetnam texnologiyasi asosida yiliga 1000 tonnadan ziyod baliq yetishtirish mo`ljallanmoqda. Natijada viloyatda baliq yetishtirish ko`rsatkichi yiliga 8,5 ming tonnaga yetkaziladi.

“Akva-To`dako`l” qo`shma korxonasi tomonidan baliq chavog`i yetishtiruvchi inkubatsion sex, 250 tonna muzlatkichli omborxonasi, 1000 tonna baliqni qayta ishlash, 400 tonna baliq filesi hamda 300 tonna yarim tayyor mahsulot ishlab chiqish sexlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. “Ipotekabank” krediti evaziga yangi havzalar qazish va ularda suv ta`minotini yaxshilash uchun horijdan mahsulot, texnika va mexanizmlar, nasoslar keltiriladi.

Loyihaning umumiy qiymati 18,7 milliard so`m bo`lib, shundan 13,3 milliard so`m bank kreditlari, 5,4 milliard so`mi korxonasi mablag`idir. Ushbu loyiha xalqimiz dasturxoniga sifatli baliq mahsulotlari yetishtirib berish, 90 ga yaqin ish o`rni yaratish imkonini beradi.

Aydar-Aynasoy hovuzlardan foydalanishni tartibga solish, noqonuniy baliq ovlashga chek qo`yish, bu yerda inkubatsiya sexlari tashkil etish hisobiga yetishtirilayotgan baliq hajmini kelgusi uch yilda 20 ming tonnaga yetkazish bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. Unga ko`ra, Davlat soliq qo`mitasi huzurida “Aydar-Aynasoy ko`llar tizimi direksiyasi” davlat unitar korxonasi tashkil etildi. Ko`l havzasida baliq yetishtirish bo`yicha mamlakatimizning barcha viloyatlariga 14 hudud ajratib berildi.

5.3. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida agrar sohaning rivojlantirish tamoyillari hamda yo`nalishlari.

Mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlik jadal sur`atlarda o`rishini ta`minlash iqtisodiyotning barcha yetakchi tarmoqlarini, jumladan, agrar sohani modernizatsiyalash, yangi texnika va tejamkor texnologiyalarni keng tatbiq etish bilan bir qatorda qishloq xo`jaligida ishlab chiqarish tarkibini tubdan yangilash, uni o`zgartirish va diversifikatsiyalashni taqozo etmoqda. Ma`lumki, fermer xo`jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash orqali qishloq xo`jaligida yer-suv resurslari cheklanganligi sharoitida ishlab chiqarishning doimiy o`rishi zarurligini

ta'minlashda, agrar soha va iqtisodiy resurslar salohiyatidan to'la va samarali foydalanish orqali mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, boshqa sanoat va qayta ishlash tarmoqlarini xom ashyo bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligida bandlikni optimal tarzda ta'minlash orqali ishchi kuchlarni boshqa tarmoqlarga jalb etish hamda aholi turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish imkoniyatlari kengayadi. Shu jihatdan fermer xo'jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash, uni tashkil etish borasida respublikamiz mintaqalarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda fermerlik faoliyatini ixtisoslashtirish borasidagi mavjud tizimni takomillashtirishni shart qilib qo'yimoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli agrar islohotlar fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish faoliyatini diversifikatsiyalash, ya'ni zamonaviy ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini shakllantirish va ularni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda mazkur sohaga davlat agrar siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq qishloq xo'jaligida yil sayin ijobiy yutuqlar qo'lga kiritilib borilmoqda. Bu borada qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatini yaxshilash, tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, shuningdek, iqtisodiyot barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlashga dastak bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda, bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashda, eng muhimi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini yanada yuksaltirishda, qishloq joylarda aholi turmush darajasini yanada oshirishda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida fermer xo'jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalashni shart qilib qo'yimoqda.

Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya va diversifikatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan dasturiy chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmlarini 6,6 foizga, jumladan, meva-sabzavot – 11,2 foizga, kartoshka – 9,7 foizga, sabzavot mahsulotlari etishtirish 10,4 foizga o‘shirishni ta‘minladi.

Keyingi yillarda fermer xo‘jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash natijasida fermer xo‘jaliklarida xususiy mulkka bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi va ularda ishlab chiqarishni bozor talablari asosida tashkil etish va boshqarishni zamonaviy menejment tamoyillari asosida olib borish amaliyoti rivojlanmoqda.

Maqbullashtirish jarayonida fermer xo‘jaliklari o‘zini zarur texnika, aylanma mablag‘lari bilan ta‘minlash, kredit qobiliyatiga ega bo‘lish, eng asosiysi – o‘z harajatlarini qoplash va foyda topib ishlash, fermer xo‘jaligi daromadini oshirishni ishonchli asosga aylantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Fermer xo‘jaliklarining salohiyatini oshirilishi, moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ta‘minlanishi natijasida ular tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va assortimentini ko‘paytirish bo‘yicha imkoniyatlari yanada oshmoqda.

Jumladan, meva-sabzavotchilik va uzumchilik, hamda chorvachilik sohalarida fermer xo‘jaliklari tomonidan intensiv texnologiyalarni joriy etilishi ularni imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Iqtisodiy islohotlar hamda tarkibiy o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirishning hozirgi bosqichida mamlakatimizda fermer xo‘jaliklarini moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash bilan birga modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. So‘nggi yillarda diversifikatsiya atamasi jahon amaliyotida keng qo‘llanilib u turlicha talqin etilmoqda.

Diversifikatsiya so‘zi mamlakatimizning barcha sohalarini tubdan qayta isloh etish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiyalash zaruriyatidan kelib chiqib iqtisodiy kategoriya sifatida ilmiy adabiyotlarga kirib keldi. Bu esa o‘z navbatida diversifikatsiya so‘zining mazmun-mohiyatini va uning ijtimoiy-

iqtisodiy ahamiyatini chuqurroq talqin etishni shart qilib qo‘ymoqda. Demak, iqtisodiy integratsiyalashuv chuqurlashib borayotgan bir paytda diversifikatsiya tushunchasining mohiyatini to‘g‘ri tushunish hamda uni qishloq xo‘jaligi amaliyotiga, jumladan, fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishga keng tatbiq etishni davr talab qilmoqda.

Diversifikatsiya so‘zi lotincha “diversification” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgartirish, xilma-xil taraqqiyot degan ma‘noni beradi, uning lug‘aviy ma‘nosi istilohiy ma‘nosidan ayro bo‘lmagan holda, ishlab chiqarilgan mahsulot assortimenti, ya‘ni turini ko‘paytirish, yangi iste‘mol bozorlarini izlab topish, ishlab chiqarishning yangi ko‘rinishlarini o‘zlashtirishdir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy foyda ko‘rish, riskni kamaytirish va inqiroz xavfining oldini olish hisoblanadi. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, diversifikatsiya so‘zining mohiyati ko‘pgina mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinadi.

Qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish bugungi kunda bevosita fermer xo‘jaliklarini diversifikatsiyalash bilan bog‘liqdir. Negaki diversifikatsiyaning maqsadi fermerlarning bozor kon‘yunkturasi o‘zgarishini o‘z vaqtida ilg‘ay olish va xo‘jalikning iqtisodiy faoliyatini barqarorlashtirishdan iborat.

Fermer xo‘jaliklarida avvalo riskni kamaytirish maqsadida investitsiya yoki boshqa mablag‘larni bir necha sohalar bo‘yicha yo‘naltirish va shu orqali mahsulotlar ishlab chiqarish turlarini ko‘paytirishga erishish hamda ularning manfaatdorliklarini ta‘minlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Fermer xo‘jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash uchun olib boriladigan muhim vazifalar sifatida quyidagilarga e‘tibor qaratish zarur:

- fermer xo‘jaliklarida moddiy-texnika bazasini yangi texnika va texnologiyalar kiritish asosida yaxshilash va yangilash;
- ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va qishloq xo‘jalik mahsulotini yetishtirishda tor ixtisoslashtirishga o‘tish;
- xo‘jalikdagi har bir jarayonni ilmiy asoslangan holda raxbarlik qobiliyatiga ega shaxs tomonidan boshqarilishi va kadrlarni to‘g‘ri tanlay bilish;

- turli agroinnovatsiyalarni xo‘jalikka jalb etish va uni tatbiq qilish;
- bozor kon’yunkturasi, talab va taklifning elastikligini hisobga olgan holda kuchli raqobatga dosh bera olish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish;
- har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib istiqbolli diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqishi lozim.

Fermer xo‘jaliklari faoliyatini diversifikatsiyalash natijasida ularning iqtisodiy imkoniyatlari, huquq va vakolatlari kengayadi, bunda ularni tashkil qilish afzalliklari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- avvalo, oraliq va takroriy ekinlarni to‘g‘ri tanlash, almashlab ekishni yo‘lga qo‘yilishi natijasida yerning strukturasi va hosildorlik yuqori bo‘ladi;
- tabiiy sharoit noqulay kelishi sababli hosildorlik pasayishi natijasida olinadigan foyda kamayib ketgan hollarda boshqa tarmoqdan ularni qoplash imkoni tug‘iladi;
- aholi o‘rtasida, ayniqsa, qishloq joylarda yil davomida doimo ish bilan bandligi ta‘minlanadi;
- xo‘jalikning moliyaviy barqarorligi ta‘minlanadi, ya‘ni faqat bir tarmoqdan keladigan daromadga qarab qolmaslik imkonining mavjud bo‘lishi;
- xo‘jalikda yetishtirilgan mahsulotlarni shu yerning o‘zida qayta ishlashning mavjudligi tannarxning arzonlashuvi va yuqori iqtisodiy samaradorlikga olib keladi;
- tekin mahalliy o‘g‘itlardan unumli foydalanib, tuproq unumdorligini oshirishga va hosildorlikni ko‘paytirishga erishiladi;
- aholini oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji ma‘lum darajada qondiriladi, ayniqsa, chorva mahsulotlaridan go‘sht, sut, tuxumga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Baliqchilikni rivojlantirishda davlat rahbarligi qanday amalga oshirilmoqda?
2. Agrar-iqtisodiy islohotlar qanday yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda?

3. Baliqchilik yoʻnalishida qanday tartibda islohotlar amalga oshirilmoqda?
4. Mulk islohati qanday amalga oshirilmoqda?
5. Moliya-kredit islohotlari qanday amalga oshirilmoqda?
6. Soliq va toʻlovlar tizimining oʻzgarishini tushuntirib bering.

6-mavzu. BALIQCHILIKDA MULK VA TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA ULARNING RIVOJLANISHI

6.1. Baliqchilik korxonalari bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi mulkchilik turlarini barpo etishning zarurligi.

6.2. Baliqchilikda tadbirkorlik shakllari va mulkiy munosabatlarning mazmuni.

6.3. Fermer xo‘jaligi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.

6.4. Dehqon xo‘jaligi tashkil etishning obyektiv zarurligi.

6.1. Baliqchilik korxonalari bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi mulkchilik turlarini barpo etishning zarurligi

Baliqchilik korxonalari o‘zining asosiy maqsadiga erishish uchun tarmoqda tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshirilishini taqozo etadi. Tadbirkorlik - mulkchilik subyektlarining qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish hamda xizmatlar ko‘rsatish natijasida foyda yoki daromad olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan faoliyat ko‘rsatishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik qishloq xo‘jaligida ham yuridik, ham jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda ular O‘zbekiston Respublikasining «Mulk to‘g‘risida»gi, «Korxonalar to‘g‘risida»gi hamda «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlari talablariga qat’iy rioya etishlari zarur. Ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari uchun mustahkam iqtisodiy negizga ega bo‘lishlari kerak. Ularning iqtisodiy negizini esa mulk tashkil etadi. Mulk O‘zbekiston Respublikasida “Mulk to‘g‘risi”dagi qonunga binoan quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

-Xususiy hamda shaxsiy mulk. Bu shakldagi mulk egasi o‘z mol-mulkiga xususiy, shaxsiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlariga egadir. Xususiy mulk mulkdorning ishlab chiqarish jarayonida o‘z mehnati va yollanma mehnatni qo‘llashi orqali shakllanadi. Shaxsiy mulk uning egasining shaxsiy mehnat qilishi natijasida tashkil topadi. Ularga shaxsiy va oila mulki hisoblangan fermer, dehqon xo‘jaliklarining mulki kiradi.

-Jamoa mulki. Bu mulk tarkibiga qishloq xo‘jaligida jamoa korxonalarining,

shirkat xo'jaliklarining, ijara korxonalarining hamda birlashmalarning mulklari kiradi.

-Aralash mulk. Bu mulk turli xildagi mulkchilik shakllarining o'zaro manfaatli uyg'unlashishi natijasida shakllanadi. Jumladan, respublika qishloq xo'jaligidagi jamoa va davlat mulkchiligiga asoslangan xo'jaliklarning chet ellardagi korxonalar bilan birikib faoliyat yuritish maqsadida tashkil etgan qo'shma korxonalarining mulki.

Davlat mulki. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan davlat korxonalarining mulkidir.

Boshqa davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar, yuridik hamda jismoniy shaxslar mulki. Mulkchilikning bu shakliga asoslangan holda chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar, yuridik hamda jismoniy shaxslar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan mustaqil korxonalarni yoki o'z bo'limlarini, vakolatxonalarini tashkil etishlari mumkin.

Demak hozirgi davrda qishloq xo'jaligida amaldagi qonunlar talablariga binoan mulkning quyidagi shakllari faoliyat ko'rsatmoqda:

- Davlat mulki;
- Jamoalar mulki;
- Xususiy mulk;
- Aralash (qo'shma) mulk.

Baliqchilik xo'jaligidagi tadbirkorlarning mulkiy huquq obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

- bino va inshootlar, uy-joylar;
- kuch va ishchi mashinalar, jihozlar;
- transport vositalari, as mavzu-uskunalar;
- hisoblash, kompyuter texnikalari;
- ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar;
- baliqlar va uning urug'lari;
- ko'p yillik daraxtlar (bog'lar, toklar, tutlar);

- yetishtirilgan barcha turdagi mahsulotlar;
- pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar;
- yonilg‘i, yoqilg‘i va yog‘lovchi materiallar;
- mahalliy va mineral o‘g‘itlar, kimyoviy vositalar;
- yem-xashak, ozuqa, ko‘chat, urug‘liklar;
- ishchi-xizmatchilarning intellektual qobiliyatlari...


Tadbirkorlar o‘z ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun chetdan o‘zgalarning mablag‘larini ham jalb etishlari mumkin. Tadbirkorlarning mulkka egalik qilish huquqi, uni tashkil etish hamda undan foydalanish masalalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Mulk to‘g‘risida» gi qonun va boshqa qonunlarda batafsil yoritilgan.

Mavjud bo‘lgan huquqiy va me‘yoriy hujjatlarga asoslangan holda agrar-iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonida respublika qishloq xo‘jaligida turli mulkchilikka asoslangan tadbirkorlikning quyidagi shakllari faoliyat ko‘rsatmoqda:

- davlat, jamoa va kooperativlarning mol-mulklariga egalik qilish, ulardan foydalanish asosida bir guruh fuqarolar va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan jamoa tadbirkorligi;
- fuqaro shaxsiy va xususiy mol-mulki asosida yollanma, shaxsiy mehnatga asoslangan holda amalga oshirilayotgan tadbirkorlik, oila-tomorqa va dehqon fermer xo‘jaligi tadbirkorligi.
- jismoniy va yuridik shaxslarning (respublika hamda horijiy davlatlarning) mol-mulklarini qonunlarda belgilangan tartibda jalb etish asosida amalga oshirilayotgan hamkorlikdagi tadbirkorlik (qo‘shma korxonalar).

6.1-chizma

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligidagi tadbirkorlik subyektlari, hamda shakllari



Respublika qishloq xo‘jaligida hozirgi davrda yuridik hamda jismoniy shaxs maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlikning quyidagi subyektlari hamda shakllari faoliyat ko‘rsatmoqda:(6.1-chizma)


Hozirgi davrda mamlakat qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik shakllarining eng muhimlari quyidagilardir:

- fermer xo‘jaliklari;
- davlat xo‘jaliklari;

- agroklastlar;
- agrofirma;
- qo'shma korxonalar;
- servis subyektlari;
- oila-tomorqa xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari.

Kelajakda qishloq xo'jalik, servis subyektlari, qayta ishlash korxonalar faoliyatini uyg'unlashtirish oqibatida agrosanoat korxonasi, kombinati, majmuasi ham barpo etilishi mumkin.

6.2-chizma. Ishlab chiqarilgan baliq mahsulotlarining xo'jalik turlari bo'yicha taqsimlanishi, 2019 yil, ming tonna




Baliq ovlash ko'rsatkichlarini 2019 yilda xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilish jarayonida, ovlangan baliqlar hajmining asosiy qismi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishi kuzatildi, 57,3 ming tonna yoki umumiy ovlangan hajmidan 49,8 %.

2019 yilning yanvar-dekabri natijalari bo'yicha baliq ovlashning kam hajmlari dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida kuzatildi, 9,8 ming tonna yoki umumiy ovlangan hajmidan 8,5 %.

2018 yilga nisbatan, fermer xo'jaliklarida 34,8 %, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 25,3 % va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 1,9 % o'sish kuzatildi.

6.3-chizma. Ishlab ciqarilgan baliq mahsulotlarining xo‘jalik turlari bo‘yicha taqsimlanishi, 2019 yil, %



Hududlar o‘rtasida umumiy ovlangan baliqlar hajmiga 2019 yilda nisbatan eng katta ulush Xorazm (14,0%) viloyatiga to‘g‘ri keldi. SHu bilan bir qatorda, yuqori ulush Navoiy (11,3%), Andijon (10,9%) viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (10,6%)da ham qayd etildi.

Tahlil qilingan davrda ovlangan baliqlarning umumiy hajmiga nisbatan eng kam ulush Surxondaryo (3,1%) va Buxoro (3,9%) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yilga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Samarqand (173,9%), Xorazm (170,1%), Sirdaryo (134,3%), Farg‘ona (131,1%), Navoiy (127,9%) viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston Respublikasi (123,6%)da qayd etildi.

6.2.Baliqchilikda tadbirkorlik shakllari va mulkiy munosabatlarning mazmuni

Respublika qishloq xo‘jaligida 1991 yildan boshlab siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tub agrar-iqtisodiy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat bosh islohotchi bo‘lgan bu jarayonda tarmoqdagi davlat mulkini uning tasarrufidan chiqarish negizida nodavlat mulkchilikni va shunga asoslangan nodavlat xo‘jaliklarini tashkil etishga asosiy e‘tibor qaratilmoqda. Bunda yerga umummilliy boylik sifatidagi davlat umumxalq mulkchiligi saqlab qolinmoqda. Boshqa mulklar esa davlat tasarrufidan bosqichma-bosqich chiqarilib,

xususiylashtirilmoqda. 1990 yilda davlat mulkchiligiga asoslangan xo‘jaliklar, ya’ni sovxozlar 1038 ta edi. Ular O‘zbekistonda XX asrning 30-yillarida tashkil etila boshlangan. Respublikaning Qarshi va Mirzacho‘l, Surxon-Sherobod, Markaziy Farg‘ona hududlarida yangi yerlarni o‘zlashtirish natijasida keng miqyosda davlat xo‘jaliklari tashkil etildi. Davlat xo‘jaliklari tashkil etilishida davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘ evaziga ishlab chiqarishni tashkil etish hamda yuritish uchun zarur bo‘lgan barcha ishlab chiqarish vositalarini davlat tomonidan o‘rnatilgan ulgurji baholarda sotib olishardi. Ulardan foydalangan holda faoliyat yuritib, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarini davlat tomonidan belgilangan harid narxlarda davlat tashkilotlariga sotar edi. Olingan yalpi mahsulot hamda foyda summalari davlat moliya-iqtisod organlari tomonidan o‘rnatilgan tartibda taqsimlanardi. Bunda asosiy e’tibor davlat manfaatlarini rivojlantirishga qaratilgan, davlat xo‘jaliklariga to‘liq erkinlik, ya’ni mustaqillik berilmagan edi. Shuning uchun ular yuqori tashkilotlar tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga bo‘ysungan holda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanar edilar. Ular asosan paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, chorvachilikka ixtisoslashgan bo‘lib, respublikada yetishtirilayotgan mahsulotlarning sezilarli qismini ishlab chiqarardilar. Bu xo‘jaliklar 1990 yilga kelib, respublikada yetishtirilgan yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 37,5 foizini yetishtirdilar. Lekin ular iqtisodiy negizi, faoliyat yuritish mazmuni bo‘yicha erkin bozor iqtisodiyoti talablariga javob bermasdi. Shuning uchun ham davlat mulkchiligiga asoslangan sovxozlar negizida tub tashkiliy, iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi zarur bo‘ldi. Islohotlar jarayonida ularning negizida dastavval jamoa xo‘jaliklari (kolxozlar), keyinchalik shirkatlar hamda mustaqil fermer xo‘jaliklari tashkil etila boshlandi.

Respublika hukumati qishloq xo‘jaligi oldidagi muhim vazifalarni e’tiborga olgan holda bir qancha muammolarni o‘z zimmasiga olgan. Bunda davlat bosh islohotchi ekanligini isbotlamoqda. Hozirgi davrda respublika hukumati agrar siyosatining strategik yo‘nalishlarini hamda taktikasini belgilab, uni ta’minlash bilan bog‘liq tadbirlarni amalga oshirish choralari ko‘rmoqda. Hukumatning

asosiy e'tibori qishloq xo'jaligining barcha sohaları yagona fan-texnika siyosatiga asoslangan holda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bu nihoyatda muhim muammo hisoblanadi. Chunki faqat ilm-fan, yangi, samarali texnika hamda ilg'or texnologiya, innovatsiyalar barcha yutuqlarning asosiy negizidir. Bu muammoni hal etish maqsadida respublika hukumati qishloq xo'jaligida davlat xo'jaliklarini saqlab, ularning faoliyatlarini diversifikatsiya qilib rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqda. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida davlat ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining yangi markazi tashkil etilgan. Markaz tarkibida ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi hamda davlat xo'jaliklari mavjud. 2010 yilning boshiga markaz tarkibida 100 taga yaqin davlat xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular asosan davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar evaziga qishloq xo'jaligining rivojlanishini ta'minlaydigan quyidagi ilmiy g'oyalarni yaratish, sinash asosida qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanmoqdalar:

- urug'chilik, naslchilik, ko'chatchilik, yangi, sermahsul, tezpishar navlarni yaratish, ularni rivojlantirish g'oyalari, muammolari;
- irrigatsiya-melioratsiya ishlarini rivojlantirish muammolari;
- iqtisodiyotda erkin bozor iqtisodi munosabatlarini yaratish va ularni chuqurlashtirish muammolari;
- yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni yaratish, agrotexnika tadbirlarini rivojlantirish hamda takomillashtirish muammolari va boshqalar.

Agrar iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan davrda shakllangan davlat mulki va ularga egalik qilish huquqi berilgan davlat korxonalarini davlat mulki asosida to'liq xo'jalik yuritish huquqiga ega. Korxonalar o'z mol-mulki bilan to'la xo'jalik yuritish huquqini amalga oshirar ekan, mazkur mulkka nisbatan o'z hohishi bilan qonun doirasida faoliyat yuritadi.

Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan davlat xo'jaliklaridagi mehnat jamoasi a'zolarining ham mol-mulki mavjud. Bu mulk davlat korxonasi tugatiladigan bo'lsa, uning byudjet, banklar oldidagi va boshqa qarzlari to'langanidan so'ng korxonaning mehnat jamoasiga beriladi. Bu tartib ham ma'lum darajada islohotlarning natijasi hisoblanadi.

Ilmiy markaz tarkibidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida yaratilayotgan yangiliklar, innovatsiyalar eng avvalo davlat xo‘jaliklari ishlab chiqarishida sinalib, so‘ngra amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya qilinmoqda. Lekin hozirgi davrda u xo‘jaliklarga mahsulot yetishtirish borasida davlat buyurtmalari berilmoqda. Bu hol ularning asosiy faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shuning uchun kelajakda ularni o‘z vazifalarini bajarishga yo‘naltirish zarur. Qishloq xo‘jaligidagi davlat xo‘jaliklari hozirgi davrda tarmoqda ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotning 1 foizini bermoqda. Kelajakda ularni faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ularning moddiy-texnika asosini mustahkamlashga, malakali ilmiy kadrlar bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor berish lozim.

6.3. Fermer xo‘jaligi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.

Respublika qishloq xo‘jaligida davlat rahbarligida, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mulkning xilma-xil turlari va ularga asoslangan korxonalar turlari shakllanmoqda. Jumladan, xususiy hamda shahsiy mulkga asoslangan fermer xo‘jaliklari tashkil etilmoqda. Yangi taxrirdagi “Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida, “Fermer” xo‘jaligi ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir”, deb tushuncha berilgan. Xozirgi davrda fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida kichik, tadbirkorlik vakili hisoblanadi. Chunki 2005 yilning 1-iyuliga bitta fermer xo‘jaligida o‘rtacha 6,5 ta yollanma ishchilar soni to‘g‘ri kelgan. Fermer xo‘jaligining asosi quyidagilardan iborat. Ya‘ni uzoq muddatga ijaraga olgan yerlardan, mavjud bo‘lgan barcha resurslardan yil davomida oqilona, to‘liq va samarali foydalanish natijasida ichki va tashqi bozor talablarini qondiradigan miqdorda, ekologik jihatdan sifatli bo‘lgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, iste‘molchilarga vaqtida sifatli holda yetkazish hamda turli xildagi xizmatlar ko‘rsatish oqibatida ko‘proq foyda olish. Bu fermer xo‘jaligining siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy maqsadidir. Uni to‘liq hal etish uchun fermer xo‘jaligi bir qancha muhim

vazifalarni amalga oshirishni belgilab oladi:

- 30 yildan 50 yilgacha ijaraga olingan yer uchastkasida, shu haqdagi shartnomaga va ixtisoslashuvga muvofiq o'z ishlab chiqarish faoliyatini to'g'ri tashkil etish;

- xo'jalik faoliyatini yuritish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo'lgan barcha tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni sifatli, o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlaydigan turli xildagi kontraktatsiya shartnomalarini to'g'ri va sifatli tuzish;

- ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning barcha qoidalariga rioya etishga erishish;

- ijaraga olingan yer uchastkalarini yil davomida oqilona, to'liq, samarali foydalanish maqsadida uning unumdorligining oshirilishini ta'minlaydigan almashlab ekish irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish hamda ularni vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta'minlash;

- xo'jalik faoliyatini samarali yuritish uchun talab etilgan mablag'larning miqdorini belgilash va ularning manbalarini oqilona aniqlash, xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha resurslardan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlarni aniq ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etilishiga erishish;

- xo'jalik ustavida ko'zda tutilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan tadbirkorlikni qo'llab, ularga kamroq mehnat, mablag' sarflash evaziga ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga sifatli holda yetkazib berish, xizmatlarni ko'rsatish, mulkni mustaqil, o'z hohishiga ko'ra tasarruf etish;

- tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari (paxta, don) uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti nazarda tutilgan miqdorda, sifatda yetkazib berilishini ta'minlash;

- xo'jalik ehtiyoji uchun harid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;

- marketing ishlarini amalga oshirib, sotadigan barcha turdagi davlat buyurtmasidan tashqari bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga erkin narx belgilash;

- o'z faoliyatining barcha sohalarida fan yutuqlarini, yangi texnika hamda samarali texnologiyalarni izchillik bilan hayotga tadbiq etish;

- barcha xodimlarining bilim va malakasini davr talabini e'tiborga olgan holda oshirish, ularni ma'naviyatli, ma'rifatli, halol, pok, muomalali yaxshi insonlar bo'lishini ta'minlashi, ular mehnatining natijasiga qarab moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

- soliqlar, yig'malar va boshqa majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vaqtida to'liq to'lash;

- tadbirkorlik faoliyatini huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida yuritish, ko'proq pul daromadlarni olish, ularni mustaqil tasarruf etish, xajmi cheklanmagan miqdorda sof foyda olish, unga erkin egalik qilish va samarali foydalanish;

- aktsiyalar va turli xildagi qimmatli qog'ozlarni olish;

- kichik biznes korxonalarini uchun yaratilgan imtiyozlar va proferentsiyalarning barcha turlaridan imkoniyat doirasida to'liq va samarali foydalanish;

- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish uchun sudga murojaat etish, zarur bo'lgan hollarda fermer xo'jaligini davlat bosh islohotchi, qonun ustivorligi, erkinlik hamda mustaqillik va boshqa tomonlari asosida amalga oshirsa, samarali bo'ladi.

Respublikada fermerlikni rivojlantirishning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy nihoyatda ulkan shuning uchun uning mohiyati quyidagilarga qaratilgan bo'lishi lozim:

- qishloqda turli turdagi mulk shakllarini va ularga egalik qilish, foydalanuvchi korxonalarini tashkil etish, yuritish va rivojlantirish;

- tarmoqdagi barcha mulkiy munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish, modernizatsiyalashtirish hamda erkinlashtirish;

- turli mulkchilikga asoslangan subyektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy, me'yoriy, iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

- qishloqdagi mulkdorlar sinfining mulkiy ongini barqaror yuksaltirish;

- qishloq xo'jaligida yangi ish joylarini barpo etish, tarmoqdagi aholini ish

bilan bandligini yuksaltirib, ishsizlar sonini kamaytirish;

- aholining va qayta ishlash sanoati korxonalarini qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta‘minlashni yuksaltirish;

- aholining daromadini ko‘tarish, ularning turmush darajasini yuksaltirish va boshqalar.

Ularni ijobiy hal etilishi respublikada erkin bozor munosabatlarini barpo etilishini ta‘minlashga hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston respublikasining Prezidenti va Hukumati fermerlikga oid bo‘lgan jahon tajribasi, mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda respublikada fermerlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonini amalga oshirmoqda.

Dastavval, O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishning huquqiy, me‘yoriy xujjatlari yaratildi. Jumladan, - 1998 yilda “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi.

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish Kontsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF – 3342 – sonli farmoni;

- Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyardagi “2004-2006 yillarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish Kontsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 476-sonli qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrdagi “2004-2007 yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 607-sonli qarori;

- qayta tashkil etilayotgan qishloq xo‘jaligi korxonasi negizida fermer xo‘jaligini tashkil etishda tanlov g‘oliblarini aniqlash to‘g‘risidagi Nizom (2005 yil 4 yanvar) “Ekin maydonlarini optimallashtirish va oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish to‘g‘risida”gi UP4041-sonli farmoni va boshqalar. Shu hujjatlar talablariga qat‘iy rioya etgan holda qishloq hududlarila fermer xo‘jaliklari tashkil etila boshladi. Mustaqillik yillarining dastlabki davrida dehqon, fermer xo‘jaliklari haqida aniq tushuncha bo‘lmagan edi. Bu hol 1998 yilda “Fermer xo‘jaligi

to'g'risida"gi qonuni qabul qilishi bilan echildi. Shu qonunning 5-moddasida Fermer xo'jaligi aksariyat hollarda ortiqcha mehnat resurslari bo'lmagan yerlarda va hududlarda tashkil etiladi. Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilik uchun 10 gektar, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa mahsulotlarni yetishtirish uchun esa 1 gektarni tashkil etadi.

Chorvachilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi kamida 30 ta shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi. Fermer xo'jaligiga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam miqdori bir shartli bosh chorva molga hisoblanganda Farg'ona vodiysi viloyatlariga, Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, qolgan viloyatlarda. Qoraqalpog'iston Respublikasida esa 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etishi, Nizomda esa aniq yer uchastkalari (konturlar) berilishi ko'rsatilgan. Bular mamlakatda fermerlikni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil etish quyidagi ikki xil tartibda amalga oshirildi:

- birinchisi, mehnat resurslari bo'lmagan yoki kam bo'lgan yerlarda va hududlarda:

- ikkinchisi, uch yil davomida rentabellik darajasi past bo'lgan shirkat xo'jaliklari negizida tashkil etildi. Ikkala usulda ham fermer xo'jaligini uni bo'lajak rahbari tashkil etadi. U o'zining mol-mulkini ko'rsatishi zarur. Fermer xo'jaligining iqtisodiy negizini uning mol-mulki tashkil etadi, unga quyidagilar kiritilishi mumkin: uy-joyi mavjud bo'lgan texnikalari, chorva hayvonlari mablag'I, mevali daraxtlari, intellektual qobiliyati va boshqalar;

Bo'lajak fermer xo'jalikning ustavini sifatli qilib tuzish lozim. U quyidagicha tartibda tuzilishi mumkin

- fermer xo'jaligining nomi;
- fermer xo'jaligi boshlijining familiyasi, o'zining va otasining ismi va yashash

joyi;

- fermer xo'jaligining joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar va pochta manzili;
- fermer xo'jaligining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari, yo'nalishlari;
- uning ustav fondining miqdori va boshqalar.

Fermer xo'jaligining ustaviga asoslangan holda uning biznes-rejasi ishlab chiqiladi. So'ngra fermerning rahbari belgilangan tartibda talab etilgan yer uchastkasini olishga kirishadi. Birinchi usulda fermer rahbari yer olish uchun qanday xo'jalik hududida joylashishini e'tiborga olgan holda, uning shirkat rahbariga, tugatilayotgan shirkat xo'jaliklarida esa esa tender o'tkazuvchi komissiyasining raxbarining nomiga ariza bergan. Arizalar belgilangan tartibda, muddatda ko'rib chiqilgan. Unda fermer, xo'jaligining barcha imkoniyatlari; mutaxassisligi, ma'lumoti, tarmoqdagi ish staji, pul mablag'lari, mavjud bo'lgan yaroqli texnikalari hamda rahbarning bilimi, qobiliyati, dunyoqarashi, ma'naviyatli, mafkuralik va boshqa qobiliyatlari aks ettirilgan. Shunday xususiyatlarga va imkoniyatga ega bo'lgan fuqarolarga talab etilgan yerni 30 yildan 50 yilgacha bo'lgan muddatga ijaraga berish to'g'risida qaror qabul qiligan. Bu qarorlar viloyat hokimi rahbarligidagi komissiya tomonidan belgilangan muddatda, tartibda ko'rib chiqilib qaror qabul qilinishi shart. Bu bir qancha muammolarni vujudga keltirilgan. Jumladan bo'lajak fermerlar masofaning uzoqligi munosabati bilan ortiqcha vaqt, mablag' sarflaganlar. Shundan so'ng fermer xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng tashkil etilgan deb hisoblangan. U to'liq yuridik shaxs maqomini olish uchun o'zi aloqa qiladigan banklarda turli xildagi hisob raqamlarini ochishi, tumanning soliq, statistika tashkilotlarida ro'yxatdan o'tib, o'z muhriga, blankalariga ega bo'lishi kerak bo'lgan. Shundan so'ng fermer xo'jaligi to'liq faoliyat yuritadigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan.

O'zbekistonda fermer xo'jaliklari mavjud bo'lgan huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida rivojlantirilmoqda. 2008 yilda, fermer xo'jaliklarining umumiy

soni 218.6 mingtani tashkil etib, ularga 5896.8 ming gektar yer uzoq muddatga foydalanish uchun ijaraga berilgan. Shu yerlarda 896.5 ming kishi faoliyat ko'rsatib qishloq xo'jaligida yetishtirilgan yalpi mahsulotning 30.4 foizi (2008 y) yaratganlar.

Fermer xo'jaliklarining rivojlanishini shartli ravishda uch davrga bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi va ikkinchi davrlarda fermer xo'jaliklari asosan jamoa hamda shirkat xo'jaliklarining hududida mehnat resurslari bo'lmagan yoki kam bo'lgan hududlarda tashkil etilgan. O'sha davrlarda qishloqlardagi fuqarolarning bilimi, tajribasi hamda iqtisodiy resurslari kam bo'lganligi munosabati bilan fermer xo'jaliklarining rivojlanish darajasi pastroq bo'lgan. Lekin yuqoridagi masalalarni hal etishga davlat tomonidan e'tibor berilishi natijasida 2000-2001 yillarda fermer xo'jaliklarining bir oz rivojlanishini ta'minladi. Ya'ni ikkinchi davrda fermer xo'jaliklarining soni 140 foizga ortib, 2001 yilda 55,4 mingtani tashkil etgan. Ularga berkitilgan yer shu yillar ichida 136.2 foizga ko'paygan. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik yalpi mahsulotidagi ulushi 3.5% dan 7,1% ko'tarilgan. Raqamlarning dalolat berishicha, ikkinchi davrda fermer xo'jaliklarining sonini, ularga ijaraga berilgan yerlarini o'sishi darajasi yalpi mahsulot tarkibidagi ulushiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sgan. Bunday hol fermer xo'jaliklari asosan ekstensiv usulda rivojlantirilganligidan dalolat beradi. Bu usuldan intensiv usulga o'tish chora-tadbirlari respublika hukumati tomonidan ishlab chiqilib, ularni hayotga tadbiq etishga alohida e'tibor berildi. Jumladan, kredit, soliq to'lovlar bo'yicha hamda mahsulotlarni erkin sotish imkoniyatlari berildi. Shuning bilan birgalikda fermer xo'jaliklarini iqtisodiy negizini mutahkamlash borasida tadbirlarni amalga oshirilishi ta'minlandi.

Asoslangan chora-tadbirlar natijasida uchinchi davrning dastlabki yillarida fermer xo'jaliklarining rivojlanishi hamda faoliyatining samaradorligi ma'lum darajada oshishi ta'minlandi. CHunonchi, 2008 yilda fermer xo'jaliklarining umumiy soni 2000 yilga nisbatan 5martaga ortib, yer maydonlari 6.6 martaga ko'paygan. Ularning qishloq xo'jaligida yaratilgan yalpi mahsulotidagi salmog'i

ko'payib, 2008 yilda 32.5 foizini tashkil etgan. Shu yilda ularning paxta ishlab chiqarishdagi salmog'i – 99.1%, g'alla ishlab chiqarishdagi salmog'i esa 78.9% dan oshib ketdi.

Bizning hisob kitoblarimizga ko'ra, jami fermer xo'jaliklarida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 7.2 foizi yaratilmoqda. Bu ma'lumotlar fermer xo'jaliklarining O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini va ahamiyatining ulkan ekanligidan dalolat bermoqda. Shuning uchun ham Respublikamizni birinchi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasida "...fermerlik qishloqda xo'jalik yuritishning eng istiqbolli va samarali shakli sifatida etakchi o'rnini egallamoqda", deb nihoyatda istiqbolli hulosaga qilingan.

6.1-jadvaldagi ma'lumotlar respublikada fermer xo'jaliklarini so'nggi yillarda barqaror rivojlanyotganligidan dalolat bermoqda. Bunday natijaga asosan ekstensiv usul yordamida erishilgan. Ya'ni 2005-yilda fermer xo'jaliklarini soni 2000-yildagiga ko'ra 4 marta o'sgan holda biriktirilgan yer maydoni 5.6 marta ko'paygan, lekin ekin maydoni 3.8 marta oshgan. Chorva hayvonlarini bosh sonlari ham ko'paygan. Shu davrda g'alla ishlab chiqarish 8.2 marta, kartoshka 6.4 marta, sabzavot mahsulotlari 12.3 marta oshgan. Lekin chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bunday yuqori bo'lgani yo'q. Shu yillarda ekinlarning hosildorligi 39.5 foizdan – 59.5 foizgacha oshgan. 2008-yilgacha bo'lgan davrda ham fermer xo'jaliklarining soni ko'payib ularning yer maydonlari, chorva hayvonlarining bosh sonlari ortib borgan. Natijada o'simlikchilik hamda chorvachilik mahsulotlarining miqdori oshib borgan.

Fermer xo'jaliklarini rivojlanishi ularning faoliyatlarini samaradorligi bundan ham yuqori bo'lishi mumkin edi. Lekin mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish hajmlarini maqsadga muvofiq hajmlarga yetkazilmaganligi ularni rivojlanishiga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Fermer xo'jaliklarini tabiiy, iqtisodiy hamda ixtisoslashishlarini e'tiborga olgan holda optimallashtirish jarayoni davom etishi mumkin. Hozirgi o'tish

davrida, ular faoliyatining samaradorligini yuksaltirish maqsadida ularning ixtiyoridagi barcha resurslaridan yil davomida to‘liq va samarali foydalanishga erishish lozim.

Bu masala yer, suv resurslariga bevosita taalluqlidir. Chunki ular tabiatda cheklangan hisoblanib, takror ishlab chiqarilmaydi. 2008-yilda fermerlarga uzoq muddatga foydalanish uchun ijaraga 5896,8 ming gektar yer berilgan, shu yerning 52 foiziga yaqini ma’lum darajada sho‘rlangan hisoblanadi. Bunday holat so‘zsiz ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hosildorligiga hamda ularning sifatiga salbiy ta’sir etib, ularga sarflanayotgan harajatlarning 20-30 foiziga oshishiga olib keladi.

Bunday holatni bartaraf etish maqsadida fermer xo‘jaliklari barcha yerlarni sifatli, tekis shudgorlab, mavjud bo‘lgan kollektor – zovurlarni belgilangan muddatlarda sifatli tozalab, ularning texnik holatini yaxshilashga erishishlari kerak. Lekin 2006-2007 yillarda shu borada amal oshirilgan ishlar barcha talablarga to‘liq javob bermaydi. Masalan, 2007 yilda mavjud bo‘lgan ichki kollektorlarning atigi 21%, xo‘jaliklararo kollektorlarning esa 24% tozalangan. Texnik talablarga ko‘ra, ular har 2-3 yilda to‘liq tozalanishi lozim. Shu yili yopiq drenajlarning faqatgina 1,4% yuvish yo‘li bilan tozalangan, 21% ga yaqin yerlar notekis haydalgan. Bunday holat birinchidan, fermer xo‘jaliklarida shu ishlarni to‘liq va sifatli amalga oshirilishini ta’minlay oladigan miqdorda mablag‘ning etishmasligi, ikkinchidan, esa ularda ekskavator, buldozer va skreperlarning yo‘qligi hamda shu ishlarni sifatli amalga oshiradigan malakali mutaxassislarning kamligi tufayli yuz bergan. 2005 yilning boshiga 103,9 mingga yaqin fermer, 410 shirkat xo‘jaliklari, 937 ta muqobil MTP va boshqa qishloq xo‘jalik tashkilotlarida 9,7 mingta xaydov, 16,7 mingtaga yaqin ishlov beradigan traktorlar, kam miqdorda ekskavatorlar, buldozerlar bo‘lgan. Kelajakda shunday holatni bartaraf etishda davlatning hamda boshqa korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy ko‘magi juda zarur.

Dastavval davlatning turli xildagi iqtisodiy mexanizmlarni ishga solgan holda fermer xo‘jaliklariga ko‘maklashishi maqsadida muvofiqdir. Chunki, ularga davlat mulki hisoblangan yer uzoq muddatga ijaraga beriladi. Shunday ekan ijaraga

berilayotgan yer va shu yerlardagi barcha irrigatsiya va melioratsiya inshootlari sifatli, talabga javob beradigan holatda fermer xo'jaliklariga berilishi lozim deb o'ylaymiz. Shuning bilan birgalikda turli xildagi korxonalar, tashkilotlar, mulkdorlar orasida tarjibot, tashviqot ishlarini keng ko'lamda amalga oshirib, ularni fermerlik harakatiga jalb etish lozim. Bunda ularga ko'rsatilayotgan xizmatlari uchun ma'lum darajada imtiyozlarni joriy etish mumkin. Jumladan, fermer xo'jaliklarida yetishtirilayotgan mahsulotlar bilan, hamda soliq va bojxona to'lovlar borasida imtiyozlar berish zarur.

Hozirgi davrda aksariyat tumanlarda xokimliklar tomonidan fermer xo'jaliklarida ekinlarni samarali, ya'ni almashlab ekishni joriy etilishini ta'minlash maqsadida ekinlarni joylashtirishda hamda davlat buyurtmalarini belgilashda fermerlarga qonun doirasida erkinlik berilayotgani yo'q. Shuning oqibatida fermer xo'jaligiga ajratilayotgan barcha yerlarga paxta hamda donli ekinlar ekilmoqda. Bunday hol so'zsiz birinchidan, asoslangan almashlab ekish sxemasining joriy etilishini ta'minlash imkoniyatini bermaydi, ikkinchidan esa fermer a'zolari o'zlarining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondira olmaydi. Shunday holatning oldini olish uchun fermer xo'jaliklariga ekinlarni joylashtirishda qonun doirasida erkinlik berish maqsadga muvofiqdir. Shuning bilan birgalikda fermer xo'jaliklariga paxta xom ashyosi va g'alla bo'yicha berilayotgan davlat buyurtmalarini qisqartirish lozim.

Xozirgi davrda suvdan foydalanishi havza usuliga o'tishiga qaramay fermer xo'jaliklari tomonidan foydalanilayotgan suv resurslari to'g'risida aniq ma'lumotlar yo'q darajasida, chunki uning hisob-kitobi respublika suv xo'jaliklari tomonidan to'liq va to'g'ri yo'lga qo'yilgani yo'q.

Shunday bo'lganligi munosabati bilan fermer xo'jaliklarida suvdan to'liq va samarali foydalanishiga doimo ham e'tibor berilayotgani yo'q. Bu sug'orishga asoslangan dehqonchilikda nihoyatda muhim masala. Uni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida hal etish uchun, eng avvalo, fermer xo'jaliklarining suv resurslariga bo'lgan talabini to'g'ri aniqlab, so'ngra ularni xo'jaliklarning talabini qondiradigan miqdorda hamda vaqtida yetkazib berishni yo'lga qo'yish lozim. Shuning bilan

birgalikda suvdan foydalanganlik uchun haq to'lash mexanizmini asoslangan holda yo'lga qo'yish zarur. Bu masalalarni suvdan foydalanuvchilar uyushmasi bajarishi maqsadga muvofiqdir. 2010-yilning boshiga Respublikada 1712 ta SFU faoliyat ko'rsatmoqda. Lekin, ular tomonidan barcha fermer xo'jaliklariga to'liq xizmat ko'rsatilayotgani yo'q. Chunki ularning mablag'lari hamda moddiy-texnik resurslari etarli darajada emas. Shunday ekan, endilikda bu uyushmalarning faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishga ham alohida e'tibor berish vaqti keldi.

Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi ham hal etilishi mumkin bo'lgan masalalardir. Sababi 2008 yilda faoliyat ko'rsatayotgan barcha fermer xo'jaliklari belgilab berilgan agrar-iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish natijasida 2006-yildagiga nisbatan yerdan foydalanish ko'effitsiyentini 0,07 punktga suvdan foydalanish ko'effitsiyentini esa 0,04 punktga, oshirishga, bir gektar ekin maydoniga sarflanayotgan yoqilg'ini 44 kg.ga mineral o'g'itlarning sarfi esa 42,7 kg.ga tejab, paxta hosildorligini 18,5% ga, g'allachilikda 12,4% ga oshirishga erishdilar. Bular fermer xo'jaliklarining rivojlanib, faoliyat samaradorligining yuksalayotganligidan dalolat beradi.

Bularga iqtisodi rivojlangan davlatlarning tajribalaridan foydalanish ham ma'lum darajada ta'sir etgan. Masalan, Germaniya, Fransiyada, Niderlandiyada, AQSHda qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismi fermer xo'jaliklarida ishlab chiqariladi. Masalan, AQSHda 2.5 mln. fermer xo'jaligi yiliga 300-350 mln. tonna g'alla ishlab chiqarmoqda. Ulardagi fermer xo'jaliklari asosan yirik, iqtisodi mutahkam. Ularga to'liq erkinlik berilgan. Lekin raqobat asosida rivojlanmoqda.

Fermerlikni rivojlantirishga ustuvorlikning berilishi asosan quyidagi holatlar bilan isbotlanadi;

- jahon tajribasida, respublikada fermer xo'jaligi qishloqda xo'jalik yuritishning asosiy shakli hisoblanganligi;
- fermer yerlarni uzoq muddatga ijaraga olib, yerdan foydalanish huquqiga barqaror ega bo'layotganligi;
- fermer mulk egasi bo'lib, unga egalik qilish hamda foydalanishni erkin, mustaqil ravishda amalga oshirayotganligi;

- fuqarolar ongida fermerlik harakatiga ishonchning barqaror ravishda o'sib borayotganligi;
- fermer yuridik shaxs hisoblanib, barcha munosabatlarni shartnomalar asosida amalga oshirilayotganligi;
- davlat buyurtmasidan ortiqcha ishlab chiqargan barcha turdagi mahsulotlarni erkin sotish imkoniyatiga egaligi;
- fermer tadbirkorlik faoliyati natijasida olayotgan pul daromadlarini va sof foydasini mustaqil tasarruf etayotganligi va boshqalar.

Ustuvor yo'nalishning samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida fermerlarga xizmat ko'rsatish, ularni zarur moddiy resurslar va texnika bilan ta'minlash bo'yicha bozor infratuzilmasini shakllantirish jarayonini tezlashtirish zarur.

Bu muhim masalani hal etish maqsadida qishloqda bozor infratuzilmasini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Qishloq hududlarida 2003-2009 yillarda muqobil MTPlar, YOMM, mineral o'g'itlarni va boshqa kimyoviy vositalarni sotish shoxobchalari, suvdan foydalanuvchilar uyushmasi, mini banklar va boshqalar shakllantirilib, rivojlantirilmoqda. Lekin tashkil etilgan bozor infratuzilma subyektlari o'zlarining oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq va samarali hal etishga erishganlaricha yo'q. Chunki ularda binolar, texnikalar bo'lgan holda mablag' va malakali mutaxassislar bilan to'liq ta'minlanmagan.

Qishloqlarda barpo etilayotgan bozor va ijtimoiy infratuzilmasi subyektlarining aksariyat qismi tijorat korxonalarini hisoblanadi. Ularda bino, inshootlarni, mashina, traktor va texnikalarni etarli miqdorda barpo etish uchun imtiyozli kreditlash tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ular shuningdek boshqa manbalardan mablag'larni jalb etishga alohida e'tibor berishlari zarur. Shuning bilan birgalikda ko'rsatayotgan xizmatlarini, sotayotgan mahsulotlarining narxlarini asoslangan holda o'rnatishlari lozim. Ularning ijobiy hal etilishi kelajakda barpo etiladigan bozor infratuzilmasi subyektlarini to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda ustuvorlik shartnoma majburiyatlarini to'liq bajarilishini ta'minlashga qaratilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha

subyektlar uchun har qanday munosabatlarning (ayniqsa iqtisodiy) asosini to'g'ri tuzilgan shartnomaviy munosabatlar tashkil etadi. Shuning uchun shartnomalarni sifatli qilib tuzish lozim. Shartnoma shartlari bajarilmagan hollarda xo'jalik subyektlari inqirozga uchrashimumkin. Faoliyat ko'rsatayotgan fermerlar shartnoma shartlarini bajarishga katta e'tibor bermoqdalar. Lekin shunga qaramasdan shartnoma shartlarining bajarilmaganlik holatlari ham mavjud. Masalan, fermerlar o'zlarining banklardagi hisob varaqasidagi mablag'larni zarur bo'lgan paytlarda ololmayotganligi, zarur bo'lgan ishlab chiqarish vositalarini kerak bo'lgan paytda ularni sotuvchi shahobchalaridan to'liq ololmayotganligi hollari mavjud. So'zsiz bu kamchiliklarga kelajakda barham berish kerak.

6.4. Dehqon xo'jaligi tashkil etishning obyektiv zarurligi

Qishloq hududlarida o'z talablarini hamda erkin bozor talabini qondirish maqsadida mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqdalar. Ular mustaqil dehqon xo'jaliklari hamda oila tomorqa xo'jaliklari shaklida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari kichik tadbirkor hisoblanib oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga (merosxo'rga) foydalanishga berkitilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiradi. ular mahsulotlarni dastavval o'z talablarini qondirish uchun ishlatib, ortiqchasini turli xildagi bozorlarda iste'molchilarga erkin sotadilar. Dehqon xo'jaligi o'z faoliyatini «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonun asosida amalga oshiradi. Dehqon xo'jaliklari tarkibiga tomorqa yerlariga ega bo'lgan oila xo'jaliklarini ham kiritish mumkin. Ularning asosiy maqsadi – shaxsiy mehnatlari, mol-mulklaridan foydalangan holda o'z talablarini hamda boshqalarning talablarni qondirish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish. Oila tomorqa xo'jaliklari chorvachilik, sabzavot, poliz mahsulotlari bilan iste'mol bozorini to'ldirishda faol qatnashmoqdalar. Aholi iste'mol qilayotgan mahsulotlarning aksariyat qismini dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari yetkazib bermoqda. 2010-yilning boshiga qishloq xo'jaligida 4,7mln

dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqdalar. Ulardan 44,2mingtasi dehqon xo'jaliklari hisoblanadi, shundan 16mingtaga yaqini yuridik shahs maqomiga egadir. Ularga hammasi bo'lib 694,9ming gektar yer umrbod foydalanish uchun berilgan, shundan 511,5ming gektari sug'oriladigan yer hisoblanadi.

Barcha dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari 2008-yilda 1313,9ming tonna don, 1166,7 ming tonna kartoshka, 3467.3ming tonna sabzovot, 506ming tonnage yaqin poliz mahsulotlari, 732.3ming tonna meva hamda 367.3ming tonna uzum yetishtirganlar. Ular aholi iste'mol etayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetishtirmoqdalar. Dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari 2019-yil respublikada yetishtirilayotgan sutning-96.8 foizini, go'shtning-94.9 foizini, kartoshkaning - 83.4foizini, sabzavot mahsulotlarining - 66.5 foizini, poliz mahsulotlarining- 51.6 foizini ishlab chiqarmoqdalar.

Ular shunday miqdordagi qishloq xo'jalik mahsulotlarining yetishtirib berishlari natijasida ularning obro'si, qadri oshib bormoqda. Shuning uchun ham ular faoliyatini rivojlantirish uchun hukumat tomonidan katta e'tibor berilmoqda. Jumladan kam ta'minlangan oilalarni iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida ularga bir boshdan sigir berildi. Ularning chorva hayvonlarini ozuqa moddalari bilan ta'minlash maqsadida ozuqa mahsulotlarini sotadigan shahobchalar tashkil etildi. Shu va boshqa tadbirlarni amalga oshirish oqibatida respublikada dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari rivojlanib bormoqda. (6.3-jadval)

Dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari asosan mustaqillik yillarida ko'payib rivojlana boshladi. Chunki respublikamiz mustaqillikka erishganidan so'ng prezidentimiz farmoniga ko'ra hududlardagi oila rahbarlariga uy-joy qurish hamda oila tomorqa xo'jaliklarini yuritish uchun cheklangan miqdordagi yerni ularga umrbod meros qoldirish uquqi bilan foydalanishga berila boshladi. Natijada oila xo'jaliklariga berilgan qishloq xo'jalik yerlari 2martadan oshib 2009-yilning boshiga 505ming gektarni tashkil etgan. Shundan 90-93%ga ekinlar ekib turli hildagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirmoqdalar. Agarda ular 2000-yilda 759ming tonnage yaqin don mahsulotlarini ishlab chiqargan bo'lsa 2008-yilda

1308.4ming tonna yoki 72.5%ga ko‘p yetishtirganlar. Shu davrda kartoshka ishlab chiqarish 99.3%ga ko‘paygan, sabzavot yetishtirish – 75%ga. Huddi shunday poliz mahsulotlarini, uzum, go‘sht sut, tuxum va boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarish ham sezilarli darajada ko‘paygan.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmiga, hududlarning (viloyatlarning) tabiiy-iqlim sharoitlari, iqtisodiy resurslari hamda dehqon va oila tomorqa xo‘jaliklarining iqtisoslashuvi bevosita ta‘sir etgan. Dehqon va oila tomorqa xo‘jaliklarida, masalan kartoshka ishlab chiqarish Samarqand, Toshkent, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida, sabzavot mahsulotlarini yetishtirish esa Toshkent, Andijon, Samarqand va Farg‘ona

6.3-jadval

Respublikada dehqon va oila tomorqa xo‘jaliklari holati.*

Ko‘rsatgichlar	O‘lchov birligi	2000 yil	2010 yil	2019 yil
Xo‘jaliklar soni	Mingta	3090.0	4544.7	4703.4
Ularga berilgan q/x yerlari	Ming ga	445.1	509.3	505.0
Jami ekin maydoni	Ming ga	401.5	441.9	466.7
Ishlab chiqarilgan g‘alla	Ming tonna	758.6	1118.5	1308.4
Ishlab chiqarilgan kartoshka	Ming tonna	585.5	850.8	11668
Sabzavot mahsulotlari	Ming tonna	1982.7	2716.0	3470.0
Poliz mahsulotlari	Ming tonna	286.8	376.5	506.0
Meva mahsulotlari	Ming tonna	466.1	566.5	732.7
Uzum	Ming tonna	205.8	299.5	367.6
Go‘sht (so‘yish vaznda)	Ming tonna	458.4	598.0	728.9
Sut	Ming tonna	3401.9	4409.2	5250.2
Tuxum	Mln dona	751.8	1165.8	1500.8
G‘alla hosildorligi	Sent/ga	39.9	52.2	54.8
Kartoshka hosildorligi	Sent/ga	133.3	175.2	201.1
Sabzavotlar hosildorligi	Sent/ga	196.2	230.7	262.7
Poliz mahsulotlari hosildorligi	Sent/ga	170.5	213.4	220.7
Qoramollar bosh soni	Ming bosh	4613.3	6061.3	7449.2
Qo‘y va echkilar	Ming bosh	6021.3	8417.7	10433.6

* Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

viloyatlarida, poliz mahsulotlarini ishlab chiqarish esa Surhandaryo, Jizzax, Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida, meva mahsulotlari bo‘lsa asosan Andijon, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida ishlab chiqarilgan. Sholi yetishtirish asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasida, Xorazm,

Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida rivojlangan. Go'sht va sut ishlab chiqarish Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro va Jizzax viloyatlarida rivojlangan.

Bunday hol albatta shunday hududlarning savdo shahobchalarini hamda aholini shu mahsulotlarga bo'lgan talablarini qondirilishiga ijobiy ta'sir etadi. Dehqonlar hamda oila tomorqa xo'jaliklari ishlab chiqargan ortiqcha mahsulotlarni esa ularga nisbatan talab bo'lgan hududlarga olib borib sotadilar. Kelajakda respublika aholisini bosh soni oshadi, bu esa oilani ko'payishini taqazo etadi. Shuning munosabati bilan respublikada ularni yer bilan ta'minlashga alohida e'tibor berish lozim. Shuning bilan birgalikda ularga yetishtirgan mahsulotlarni sotishda qonun doirasida ko'proq erkinlik berish bilan birgalikda, turli hildagi imtiyozlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Ularga turli yo'nalishlarda hizmat ko'rsatish bo'yicha yordam berishni rivojlantirish lozim. Masalan, ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini sifatli va samarali sotish uchun idishlar bilan ta'minlashda, mahsulotlarni tashishda, qayta ishlab sotishda va boshqa tadbirlarga ko'maklashishi kerak. Shuning bilan birgalikda kelajakda dehqon va oila tomorqa xo'jaliklari o'zlarining ixtiyoridagi barcha resurslaridan to'liq va samarali foydalanishga, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga doimo alohida e'tibor berishlari zarur.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Tarmoqda mulkchilik munosabatlarning huquqiy asoslari qaysi qonunlarda o'z aksini topgan?
2. Qishloq xo'jaligida mulkchilikning qanday shakllari mavjud?
3. Qishloq xo'jaligida qanday mulk subyektlari mavjud?
4. Nimalar korxonalarining mulk obyekti hisoblanadi?
5. Baliq yetishtiruvch xo'jalik turlari haqida tushuncha bering.
6. Fermer va dehqon xo'jaliklari ta'rifini izohlab bering.
7. Fermer xo'jaliklari rivojlanishining samaradorligini isbotlab bering.
8. Qo'shma korxonalar haqida tushuncha bering.
9. Fermer xo'jalik to'g'risida sizning tushunchangiz qanday?
10. Fermer xo'jaligining maqsad va vazifasi nimadan iborat?

11.Fermer xo‘jaligini tashkil etishning huquqiy asoslarini qanday xujjatlar tashkil etadi?

12.Fermer xo‘jaligini tashkil etishdagi xususiyatlar nimalardan iborat?

13.Fermer xo‘jaligi qanday tartiblarda tashkil etilmoqda?

14.Fermer xo‘jaliklarining respublika iqtisodiyotidagi o‘rni va ahamiyati qanday?

15.Fermerlikni rivojlantirish bosqichlari qanday?

16.Dehqon va oila tomorqa xo‘jaliklarini holatini ko‘rsatib bering.

17.Nima uchun fermerlikni rivojlantirishga ustuvorlik berilgan?

18.Fermerlikni rivojlantirishdagi ustuvorlik yo‘nalishlari nimalardan iborat va boshqalar.

7-mavzu: BALIQCHILIKDA YER FONDIDAN VA SUV

RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH. YER KADASTRI

7.1. Respublikamizda baliqchilikni rivojlantirishda yer va suv resurslarini ishlab chiqarishdagi ahamiyati va xususiyatlari.

7.2. Baliqchilikda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

7.3. Yer kadastri, uning tarkibi va mazmuni.

7.1. Respublikamizda baliqchilikni rivojlantirishda yer va suv resurslarini ishlab chiqarishdagi ahamiyati va xususiyatlari.

Yer kurrasini umumiy maydoni 510 mln kvadrat km. Yoki 51 mlrd gektar. Shundan 134 mln kvadrat km yoki 13.4 mlrd gektari yer fondidir. U qit’alar bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan: Osiyo qit’asida 33.1 foiz, Yevropada – 8.0 foiz, Afrikada – 22.5 foiz, Amerikada (shimoliy va janubiy) - 30.1 foiz va nihoyat Avstraliya hamda Okeaniyada – 6.3 foiz. O‘zbekistonning yer fondi 2020-yilning 1-yanvariga ko‘ra 44410.3 ming gektarni tashkil etadi. Jahonning hamda O‘zbekiston Respublikasining yer fondini amaliy jihatdan bir gektarga ham ko‘paytirish imkoni yo‘q. Shuning uchun yer fondi iqtisodiyotda cheklangan resurslar tarkibiga kiritilgan. Lekin unga jahonda hamda O‘zbekistonda talab yil

sayin oshib bormoqda. Bunga eng asosiy sabab aholi sonining yil sayin oshib borishidir. Aholining oshishi natijasida uning barcha turdagi (uy-joy, korhonalarni) qurish uchun ma'lum miqdordagi yer ajratiladi. Oqibatda foydalaniladigan yer maydoni kamayib boradi. Bunday holat, qolgan yerlardan samarali va to'liq foydalanishni taqozo etadi. Bu ayrim hududlarda nihoyatda dolzarb muammoga aylanmoqda. Bu muammoni yanada dolzarb bo'lishiga quyidagi omillar ham ta'sir etadi. Jumladan, aholini joylashishi. Jahonda 2007-yilga 6469.8 mlrd kishi istiqomat qilgan. Shulardan 60.55% Osiyo qit'asida, 11.15% yevropada, 13.73% Afrikada, 13.76% Amerika qit'asida va 0.81% Avstraliya va Okeaniyada joylashgan. 2020-yilning iyuliga esa jahon aholisi 7.5 milliardni tashkil etgan.

7.1-jadvaldagi raqamlar jahonning yer fondini hamda aholisini bir hilda taqsimlanmaganligidan dalolat beradi. Masalan Osiyoda jahon yer fondining 33.1 foizi joylashgan holda jahon aholisining 60.55 foizi yashamoqda. Amerika qit'asida esa jahon yer fondining 30.1 foizi joylashgan holda jahon aholisining 13.76 foizi yashamoqda.

7.1-jadval

Jahon yer fondini hamda aholisini qit'alar bo'yicha joylashishi.*

Hududlar. (Qit'alar)	Jami yer fondi		Aholi bosh soni		Bir kishiga to'g'ri keladigan yer. ga
	Maydoni mlrd.ga	Salmo-g'i%	Kishi mln.	Salmo-g'i%	
Osiyo	4.43	33.1	3917.5	60.55	1.13
Yevropa	1.07	8.0	721.6	11.15	1.48
Afrika	3.02	22.5	888.0	13.73	3.40
Amerika	4.03	30.1	890.5	13.76	4.53
Avstraliya va Okeaniya	0.85	6.3	52.2	0.81	16.28
Jahon bo'yicha	13.4	100.0	7269.8	100.0	2.07
O'zbekiston Respublikasi	44.4 mln	100.0	34 mln	100.0	1.59

* Davlat statistika Qo'mitasi hamda Ru.wikipedia.org/wiki ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Jahonning suv resurslari ham shunday nomutanosibda taqsimlangan. yevropada esa yer fondi kam bo'lgan holda aholi zich joylashgan. Natijada bir kishiga to'g'ri keladigan yer maydoni, ya'ni aholini yer bilan ta'minlanganlik

koefitsenti qit'alar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududlarida ham yer fondi, aholi hamda suv resurslari hududlar bo'yicha bir hilda taqsimlanmagan. Masalan Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari hududida mamlakat aholisining 45 foiziga yaqini yashayotgan bo'lsa, jami yer fondining 4.16 foizi joylashgan. Qoraqolpog'iston, Buxoro, Navoiy viloyatlarida buning aksidir. Demak shu hududlarda aholini yer fondi bilan ta'minlanishi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu indikatorni kam bo'lishi, shu hududda yerdan foydalanish muammosini keskinligidan dalolat beradi.

Professor A.S.Bulatovning ma'lumotlariga ko'ra, jahonning jami suv resurslari 1386 mln km.kubni tashkil etadi. Undan 96.5 foizi sho'r okean va dengiz suvlaridir. O'zbekiston Respublikasining suv resurslari turlicha manbalarda ko'ra yiliga 18-20 mlrd m.kubni tashkil etadi. Bu mamlakatning suv resurslariga bo'lgan talabning 40% iga yaqinini tashkil etadi. Shuning uchun suv resurslaridan to'liq va samarali foydalanishga doimo katta e'tibor berish kerak. Suv resurslari respublika hududlarida bir meyorda taqsimlanmagan. Farg'ona, Zarafshon vohasining yuqori hududlarida suv bilan taminlash yahshi bo'lsa, respublikaning g'arbiy va janubiy hududlarida suv tanqisligi mavjud.

Jahonda hamda O'zbekiston hududlarida yer-suv resurslari tabiatan talabga nisbatan nomutanosib joylashgan. Mavjud bo'lgan nomutanosiblikni e'tiborga olgan holda respublika hududlarida ishlab chiqarish kuchlarini maqsadga muvofiq joylashtirishga doimo katta e'tibor berilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda mamlakat yer fondi quyidagicha taqsimlanadi. (7.2-jadval)

7.2-jadvaldagi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki respublikada asosiy yerdan foydalanuvchilar bo'lib qishloq hamda o'rmon xo'jaliklari korhonalari hisoblanadi. 2020-yilning boshiga ularning ixtiyoridagi yer fondi 30.1 mln. gektardan ortiqroq yoki 67.8 foizni tashkil etgan.

So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini rivojlanishi natijasida ular foydalanayotgan yer maydonlari ham oshib borgan. Masalan sanoat, transport, aloqa va mudofaa subektlarini rivojlanishi natijasida so'ngi o'n yil

mobaynida ularning yer maydonlari salkam 83 ming gektarga yoki 0.18 foizga kengaygan.

Respublika aholisini yil sayin oshib borishi natijasida uy-joy bilan taminlash va ularga servis sharoitini shakllantirish maqsadida uy-joy, infratuzilma subektlarini qurish uchun yer ajratilishi oqibatida ular ixtiyoridagi yer maydonlari ham ko‘paygan. Respublikada suv tanqisligi muammoasini yamshatish maqsadida suv xo‘jaliklari subektlari va ularning maydonlari ham kengaytirilmoqda. So‘ngi yillarda mamlakatda ekalogiya masalalariga katta e‘tibor berilishi oqibatida ularni ham yer maydonlari ma‘lum bir qismi zahira yerlar tarkibiga o‘tkazilgan.

Kelajakda mamlakat iqtisodiyotini yuksalishi hamda aholi talabini qondirilishini to‘liqroq ta‘minlanishi, respublika yerlarini foydalanuvchilar bo‘yicha o‘rgatib turishni talab etadi. Bu obyektiv jarayon.

7.2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasining yer fondi, uning foydalanuvchilar bo‘yicha taqsimlanishi*

№	Yerdan foydalanuvchilar	1999-yil		2020-yil	
		ming ga	foiz	ming ga	foiz
	Jami yer fondi	44405.0	100.0	44410.3	100.0
1	Qishloq xo‘jalik korhonalari foydalanayotgan yerlar	25295.9	56.94	21453.2	48.31
2	O‘rmon xo‘jalik korhonalari foydalanayotgan yerlar	8696.5	19.58	8661.0	19.50
3	Sanoat, transport, mudofaa, aloqa va boshqa tashkilotlar yerlari	1883.0	4.24	1965.8	4.42
4	Aholi yashash joylar	230.4	0.52	236.0	0.53
5	Gidrotehnika va boshqa suv xo‘jaligi tashkilotlari yerlari	799.3	1.80	813.6	1.83
6	Tabiatni muhofaza etish, sog‘lomlashtirish mo‘ljallangan yerlar	11.3	0.03	74.6	0.17
7	Davlat zahirasi yerlari	7488.6	16.86	11193.7	25.21
8	Boshqa subektlar yerlari	12.2	0.04	12.4	0.03

* Davlat yer resurslari qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

Respublikaning ichki suv resurslari 18-20 mlrd.m.kub bo‘lgan holda yiliga

oʻrtacha 41-42 mlrd. m. kub suvdan foydalaniladi. Suvdan foydalanuvchilar quyidagilardir:

- Qishloq va oʻrmon xoʻjalik korxonalari.
- Sanoat korxonalari.
- Energetika tashkilotlari.
- Kommunal xoʻjalik tashkilotlari.
- Baliqchilik korxonalari va boshqalar.

Yerdan va suvdan foydalanuvchi subektlarning asosiy maqsadi davlat tomonidan ajratilgan yer va suv resurslaridan doimo toʻliq va samarali foydalanishdir.

Mamlakatimiz yer fondi tizimida suv fondi yerlari mustaqil toifani tashkil etadi. 2020 yining 1 yanvar holatiga koʻra ushbu toifa yerlarining maydoni 832.4 gektarni, yoki jami foydalaniladigan yerlarning 1.85 foizini tashkil etadi. Suv fondi yerlarining maʼnosi Oʻzbekiston Respublikasi Yer kodeksining 77-moddasida oʻz ifodasini topgan. Unga koʻra, suv fondi yerlari deganda davlatning vakolatli organlari tomonidan suv xoʻjaligi ehtiyojlari uchun ajratilgan, suv bilan qoplangan, gidrotexnika inshootlari joylashgan, suv obyektlari qirgʻoqlari egallagan mintaqalar tushuniladi.

Suv fondi yerlarining huquqiy holati Oʻzbekiston Respublikasining bir qator qonunlarida belgilangan. Bu qonunlar jumlasiga Oʻzbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida»gi, «Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida»gi qonunlarini, Yer kodeksini koʻrsatish mumkin. Ushbu qonunlarda suv fondi yerlarining tushunchasi, ulardan foydalanish va muhofaza etish tartibi ham da shartlari belgilangan. Chunonchi, Yer kodeksining 77-moddasida koʻrsatilishicha, suv fondi yerlariga suv havzalari (daryolar, koʻllar, suv omborlari va shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xoʻjaligi inshootlari egallab turgan, shuningdek suv havzalarining va boshqa suv obyektlarining qirgʻoqlari boʻylab ajratilgan mintaqadagi suv xoʻjaligi ehtiyojlari uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda berilgan yerlar kiradi.

Demak, suv fondi yerlari tarkibini uch qismdan iborat deyish mumkin. Shulardan birinchisi suv bilan qoplangan, yaʼni suv ostida, tubidagi yerlardir.

Bularga suv havzalari, ya'ni daryolar, ko'llar, suv omborlari bilan band bo'lgan yerlar kiradi. Aytish mumkinki, suv fondi yerlarining asosiy qismini suv bilan qoplangan yerlar tashkil etadi. Suv bilan qoplangan yerlar deganda yil davomida doimo yoki yilning ko'p qismida suv tagida bo'lgan yerlar tushuniladi. Qisqa vaqt davomida – sug'orish davrida, yomg'ir vaqtida, daryo toshgan vaqtda suv bilan qoplangan yerlarni biz bu toifaga kiritmaymiz. Suv bilan qoplangan yerlarga yana vaqtinchalik sug'orish kanallari, sho'ri yuviladigan maydonlar, basseynlarni ham kiritish mumkin emas.

Ikkinchi qism suv fondi yerlariga gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallab turgan yerlarni kiritish mumkin. Suv xo'jaligi inshootlari deganda lotoklar, quvurlar, suv xo'jaligiga xizmat qiladigan ma'muriy binolar, to'g'onlar va boshqalar tushuniladi. Ularni joylashtirish uchun, albatta, yer uchastkalari ajratilishi lozim bo'ladi. Ana shu inshootlar egallagan yerlar ham suv fondi yerlarini tashkil etadi.

Uchinchi qism suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalarining qirg'oqlari bo'ylab ajratib qo'yilgan mintaqalardagi yerlar kiritiladi. Bunga 20 metr kenglikdagi qirg'oq mintaqalari, kemalar uchun ajratilgan mintaqalar hamda muhofaza qilish uchun ajratilgan zonalar kiradi.

7.2. Baliqchilikda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi.

Yer, suv qishloq xo'jaligining eng asosiy ishlab chiqarish vositalari ekan, ulardan qanday foydalanilganini bilish zarur. Buning uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin:

a) Umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsiyenti (foizda). Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin bo'lgan yer maydoniga taqsimlash lozim. Buni quyidagi tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$EFK = \frac{FE}{FME} * 100$$

Bunda: EFK–umumiy yer fondidan foydalanish koeffitsiyenti, (foizda);

FE–qishloq xo‘jaligida foydalanilgan yer maydoni, ga;

FME – foydalanilishi mumkin bo‘lgan yer maydoni, ga.

Bu ko‘rsatkich koeffitsiyentda yoki foizda aniqlanishi mumkin. Uni aniqlash natijasida yerdan foydalanishning to‘liqlik darajasi aniqlanadi. Uni haqiqiy darajasi, ya’ni koeffitsiyenti 1 dan yoki 100 foizdan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Bu ko‘rsatkichni aniqlash natijasida tarmoqda (xo‘jalikda) qancha yerdan foydalanilgan va qanchasidan foydalanilmaganligi bilinadi. Shundan so‘ng bunday holning sabablari aniqlanib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

b) Suvdan foydalanish koeffitsiyenti. U haqiqatda sug‘orilgan maydonni shu suv bilan sug‘orilishi mumkin bo‘lgan maydonga taqsimlash natijasida aniqlanadi.

Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$SFK = \frac{SM}{SMM} * 100$$

Bunda: SFK-suvdan foydalanish koeffitsiyenti yoki foizi;

SM-haqiqatda sug‘orilgan maydon, ga;

SMM-sug‘orilishi mumkin bo‘lgan maydoni,ga.

Buni aniqlash natijasida suvdan foydalanish darajasi belgilanadi. Bu ko‘rsatkichni aniqlashda ekinlarga suv berish me‘yoriga alohida e‘tibor berish maqsadga muvofiqdir. Chunki unga rioya qilinsa, albatta, suvdan foydalanish darajasi yuqori bo‘ladi. Demak, uning darajasi, ya’ni koeffitsiyenti 1 dan yoki 100 foizdan yuqori bo‘lmasligi lozim. Agarda yuqori bo‘lsa, unda ekin maydonlari sifatli sug‘orilgan bo‘lmaydi.

c) Foydalanish mumkin bo‘lgan yerlardan bir yilda necha marta foydalanilganlik darajasi. Uni aniqlash uchun haqiqatda urug‘, chigit ekilgan maydonni mavjud ekin ekilgan yer maydoniga taqsimlanadi. Bunda quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EFS = \frac{UEM}{FM}$$

Bunda: EFS - yerdan foydalanish soni, ya’ni 1 ga maydondan necha marta foydalanilganlik soni;

UEM- bir yil mobaynida urug‘, chigit ekilgan maydon, ga;

FM- foydalanilgan yer maydoni, ga;

Bu ko‘rsatkich yordamida bir maydonga necha marta ekin ekib, foydalanilganlik darajasi, ya‘ni soni aniqlanadi. Demak, uning soni birdan ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun mavjud bo‘lgan yerlardan bir necha marta ekin ekib, hosil olishga intilish lozim.

d) yer (ekin) maydonlarining mahsuldorligi, hosildorligi. Bu ko‘rsatkich asosan ekin turlari hamda umumiy maydon bo‘yicha, natural hamda qiymat ko‘rinishlarida aniqlanadi, ya‘ni ular 1 gektar foydalanilgan maydondan qanday mahsulotlarni qancha miqdorda (kg, sen, tonna) hamda necha so‘mlik mahsulot yoki foyda olinganligi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$EX = \frac{YM}{EEM}$$

Bunda: EX- 1 ga ekin maydonidan olingan mahsulot miqdori va qiymati (sent,so‘m)

YM- ekin ekilgan maydondan olingan yalpi mahsulot miqdori, yoki qiymati (tonna, ming so‘m)

EEM- ekin ekilgan haqiqiy maydon, ga.

Bu ko‘rsatkich yordamida 1 gektar ekin ekilgan maydondan qancha miqdorda hosil olinganligi ekin turlari bo‘yicha alohida-alohida aniqlanadi. Uning miqdori qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi. Bu ko‘rsatkich u yoki bu ekin ekilgan maydonning mahsuldorligini isbotlaydi. Jami ekin maydonlari mahsuldorligini aniqlash uchun ko‘rsatkichni quyidagi qiymat ko‘rsatkichlarida aniqlash, buning uchun har bir ekinning yalpi hosili qiymatini aniqlab olish lozim. So‘ngra ularning yig‘indisini aniqlash kerak.

$$EM = \frac{YAMQ}{YAMQEM} ; \frac{YAD}{EM} ; \frac{SF}{EM}$$

Bunda: EM- foydalanilgan yerlarning mahsuldorligi. Ya‘ni, bir gektar ekin ekilgan yoki yaylov, pichanzor maydondan necha so‘mlik yalpi mahsulot, yalpi daromad hamda sof foyda olinganligi aniqlanadi;

YAMQ- olingan yalpi mahsulot qiymati, soʻmda;

EM- ekinlar ekilgan maydon, ga;

YAD- olingan yalpi daromad summasi;

SF- olingan sof foyda summasi.

Tuproqning banitet ballidan foydalanish samaradorligi. Bu koʻrsatkich tuproqning unumdorligini ifodalovchi banitet ballining qobilyatidan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Uni bir gektar yerdan hosil miqdorini yoki hosil qiymatini shu gektarining banitet balliga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$BBs = \frac{YaX:YaMR}{BB}$$

Bunda: BBs-tuproqning banitet ballining samaradorligi.

BB-oʻsha gektarning banitet balli miqdori.

Shu tenglik yordamida 1 banitet ball evaziga qancha miqdorda yoki soʻmda u yoki bu mahsulot yetishtirilganligini aniqlash mumkin. Bu koʻrsatkichning miqdori yuqori boʻlgani maqul.

d) Suvdan foydalanish samaradorligi. Bu koʻrsatkich yordamida har bir metr kub suv evaziga olingan yalpi mahsulot miqdori, qiymat, daromad va sof foyda summasi quyidagi tenglik yordamida aniqlanadi:

$$SFS = \frac{YAM}{FSM}; \frac{SF}{FSM}$$

Bunda: SFS-suvdan foydalanish samaradorligi;

FSM-foydalanilgan suv miqdori. Bu natura hamda qiymat koʻrinishida aniqlanadi. Bunda 1 m³ suvdan foydalanish natijasida qancha miqdorda paxta, gʻalla va boshqa mahsulotlar yetishtirilganligi hamda necha soʻmlik yalpi mahsulot va yalpi daromad, sof foyda olinganligi aniqlanadi.

Yuqorida koʻrsatilgan koʻrsatkichlar tizimidan foydalangan holda tarmoqda yoki qishloq xoʻjalik subyektlarida yerdan hamda suvdan foydalanish darajasini hamda samaradorligini aniqlash natijasida ularning faoliyatini toʻliq tahlil qilish mumkin. Shundan soʻng yer va suv resurslaridan istiqbolda foydalanish chora-tadbirlarini asoslangan holda ishlab chiqish mumkin.

Davlat suv fondi yerlarining asosiy xo‘jalik vazifasi suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish faoliyatiga xizmat qilishdir. Shuning uchun bu yerlarning huquqiy holati suv obyektlarining huquqiy holati xususiyatlarini aks ettiradi.

Barcha suvdan foydalanuvchilarga suv havzalari qirg‘oqlarini, boshqa suv obyektlari yer maydonlari ustki qismini yaxshi saqlash majburiyati yuklatilgan.

Ko‘pchilik daryolar, magistral kanallar va kollektorlar, suv omborlari va boshqa suv havzalarining, shuningdek ichimlik va ro‘zg‘or suv ta‘minotining davolash hamda madaniy sog‘lomlashtirish ehtiyojlariga xizmat qiladigan manbalar maxsus himoya qilinadi. Shu maqsadda qonun shunday suv havzalari atrofida himoya zonalari tashkil qilishni belgilaydi. Xususan, shunday joylarda sanitariya zonalari o‘rnatiladi. Sanitariya zonalari 3 ta mintaqaga bo‘linib, ularning har biriga yerdan foydalanishning alohida holatlari (rejimi) o‘rnatiladi. Masalan, birinchi mintaqada yashash, qandaydir qurilish inshootlari qurish man etiladi.

Suv ob‘ektlarini muhofaza qilish zonalari va ularni mintaqalarga bo‘lishni belgilash maxalliy xokimiyat organlarining qarorlariga binoan amalga oshiriladi.

Suv havzalari qirg‘oq mintaqalarida yer haydash, mol boqish, zaharli kimyoviy moddalar qo‘llash, ishlab chiqarishga xizmat qiladigan qurilishlar qilish, dam olish bazalari qurish man qilinadi. Demak, suv fondi yerlari huquqiy holatidagi muxim xususiyatlardan biri shundan iboratki, bu yerlarda suv obyektlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan xo‘jalik faoliyat yuritish va qurilish ishlari olib borish taqiqlanadi (Yer Kodeksining 77-moddasi). Chunki, xo‘jalik faoliyati yoki qurilish ishlari suvni ifloslanishi va zaharlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan, bu yerlar alohida tartibda muhofaza qilinadi. Shuning uchun Yer kodeksining 77-moddasida belgilanishicha, bunday holatlar ro‘y bergan taqdirda bu yerlar tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlari uchun yer egalaridan va yerdan foydalanuvchilardan olib qo‘yilishi mumkin.

Ichki suvlar qirg‘oq mintaqalarida qurilmalar va inshootlar qurish faqat tegishli xokimiyat idoralarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu qurilma va inshootlar suv xo‘jaligi maqsadlariga xizmat qilishi lozim.

Amaldagi yer va suv qonunchiligiga asosan suv fondi yerlaridan

foydalanuvchilar bo‘lib yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Mulkchilikning shaklidan qat’iy nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo‘jaliklari ham da O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari suv fondi yerlaridan foydalanuvchilar bo‘ladilar.

Suv fondi yerlari doimiy va muddatli (vaqtincha) foydalanish uchun berilishi mumkin.

Suv fondi yerlaridan doimiy foydalanish huquqi yer uchastkasidan doimiy foydalanish huquqini beruvchi davlat hujjati bilan tasdiqlan adi. Suv fondi yerlaridan umumiy va maxsus foydalanish turlarining ro‘yxati suv xo‘jaligi, tabiatni muhofaza qilish, sanitariya nazorati, geologiya va minyeral resurslar organlari tomonidan belgilab qo‘yiladi.

Suv fondi yerlaridan birgalikda yoki tanxo foydalanish mumkin. Birgalikda foydalaniladigan suv obyektlari va suv fondi yerlariga tanxo foydalanish uchun berilmagan suv obyektlari va suv fondi yerlari kirishi mumkin.

Tanxo foydalaniladigan suv fondi yerlari va suv obyektlariga maxalliy xokimiyat organlari qarori asosida biron korxonalar, tashkilot va muassaga butunlay yoki qisman berib qo‘yilgan suv obyektlari va u bilan bog‘liq yerlar kiradi.

“Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonunning 26-moddasiga asosan; Suv obyektlari tanho foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi yoxud tegishli vakolatga ega bo‘lgan davlat organi tomonidan qonunlarda belgilangan tartibda batamom yoki qisman beriladi. Suv obyektlari tanxo foydalanish uchun suvdan maxsus foydalanish uoki suvni maxsus iste‘mol qilish ruxsatnomasi albatta rasmiylashtirilgan holda beriladi.

Tanho foydalanmoq uchun suv obyektlari va ularga tegishli yerlar berib qo‘yilgan korxonalar, tashkilot va muassasalar - suv fondi yerlaridan birlamchi foydalanuvchilar bo‘lib, ular suv xo‘jaligi va tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishib, boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va suvdan ikkilamchi foydalanish uchun ruxsat berishga xaqilidirlar.

Suv fondi yerlardan ikkilamchi foydalanish uchun berilgan ruxsatnomada suv obyekti va boshqa yerlarni berish maqsadi va u toifa yerlardan foydalanishning

asosiy shartlari ko'rsatilgan. Suv fondi yerlaridan birlamchi foydalanuvchi suv fondi yerlari va obyektlaridan ikkilamchi foydalanuvchining butun suv fondi yerlaridan foydalanish uchun javobgar bo'ladilar. Suv fondi yerlaridan ikkilamchi foydalanuvchi, bosharti suv fondi yerlari va obyektini tegishli ulushini suvdan birlamchi foydalanuvchi o'zlashtirib olgan yoki undan noto'g'ri foydalangan taqdirda, unga nisbatan da'vo qo'zag'atishga va etkazilgan zarar qoplashini talab qilishga xaqlidir.

7.3. Yer kadastri, uning tarkibi va mazmuni

Suv fondi yerlari huquqiy holatidagi asosiy xususiyatidan biri bu toifa yerlardan foydalanuvchilar huquq va majburiyatlarining o'ziga xos tartibda bo'lishligidadir. Ya'ni, suv fondi yerlaridan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarining bir vaqtning o'zida ham suvdan foydalanuvchi va suv iste'molchisi, ham yerdan foydalanuvchi hisoblanib, bir qator huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar. Bu huquq va majburiyatlar Yer kodeksi hamda suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunda belgilangan. Suv fondi yerlaridan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga egadirlar: suv fondi yerlari qanday maqsadda berilgan bo'lsa, ana shu maqsadda foydalanish; suvdan oqilona foydalanishni amalga oshirish uchun, suv inshootlari, qurilmalar va boshqa eqologik xavfsiz obyektlarni qurish; suv fondi yerlaridagi mavjud suvlarni va yerlarni sifat va samaradorligini, chiqdorini tekshirib turish; qonunlarda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, suv fondi yerlarini muhofaza qilish va tiklashni talab qilish; suv fondi yerlarida keng tarqalgan o'rmonzorlar, hayvonot dunyosi va suv obyektlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish; suv fondi yerlaridan foydalanish maqsadi va loyiha hujjatlariga muvofiq suv obyekti va inshootlarini ta'mirlash, qurish va bo'zib tashlash; suv fondi yerlari olib qo'yilganda unga etkazilgan zararni (shu jumladan boy berilgan foydaning) qoplanishini yoki suv fondi yerlaridan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda sarflangan harajatlarning to'lanishini talab qilish; suv fondi yerlaridan foydalanish

bo'yicha qonunda taqiqlanmagan boshqa ishlarni amalga oshirish.

Bundan tashqari, suv fondi yerlaridan foydalanuvchilar va suv iste'molchilarining quyidagi majburiyatlarni bajarishlari lozim: suv fondi yerlaridagi qurilgan suv obyektlaridan oqilona foydalanishlari, suvni tejab-tyergab sarflash, suv fondi yerlaridagi suvni sifatini yaxshilash, tiklash va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik; suv fondi yerlarini muhofaza qilish maqsadida iflos moddalar aralashib qolgan oqindi suvlarni suv obyektlariga oqizishni tamomila to'xtatish choralarini ko'rishlari; suv fondi yerlari hududida ekologik vaziyatni yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik; suv fondi yerlarini muhofazalaydigan ixota, butazor va boshqa daraxtlarni saqlash; suv fondi yerlarida suvni muhofazalaydigan va boshqa suv xo'jalik inshootlarini ham da texnik qurilmalarni soz holda tutishlari, olinayotgan suvni hisob-kitob qilib borishlari; suv fondi yerlaridan fodalanganlik uchun yer solig'ini yoki suv fondi yeri uchun ijara xaqini o'z vaqtda to'lashi; boshqa yerdan foydalanuvchilar, yer egalari, yer uchastkasi ijarachilari va mulkdorlarining huquqlarini bo'zmasliklari; maxalliy davlat xokimiyati organlariga suv fondi yerlaridan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan ma'lumotlar o'z vaqtda taqdim etishlari; suv fondi yerlarini suv, shamol yeroziyasidan saqlash; ushbu kategoriya yerlarini meliorativ, agrotexnik va boshqa talablarga javob berishini ta'minlash; suv fondi yerlarida suvdan va yerdan foydalanuvchilarga berilgan huquqlarining buzilishiga, shuningdek xo'jalik va tabiat obyektlariga (yerlar, o'rmonlar, hayvonot dunyosi, foydali qazilmalarga va boshqalarga) zarar etkazilishiga yo'l qo'ymasliklari; davlat organlari suv fondi yerlarini muhofaza qilish yuzasidan respublika dasturi va hududiy dasturlar doirasida zarur chora-tadbirlarni ko'rishlari lozim.

Suv fondi yerlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari suv fondi yerlaridan oqilona foydalanishni va ularni muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Yer va suv resruslarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati, yer va suv resurslari

qishloq xo'jaligining asosiy vositasi ekanligi.

2. Yer va suvlarning tarkibi, ularni xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Yer va suvdan foydalanish darajasini hamda samaradorligini qaysi ko'rsatkichlar ifodalaydi?
4. Yer kadastri, uning tarkibi, amalga oshirilishi haqida nimalarni bilasiz?
5. Yer monitoringi, uning mazmuni haqidachi?
6. Yer va suv resurslaridan foydalanish darajasini hamda samaradorligini oshirishning qanday yo'llari bor?
7. Suv fondi yerlari tushunchasi nimani anglatadi?
8. Suv fondi va suv fondi yerlari tushunchalari o'rtasida qanday farq mavjud?
9. Suv fondi yerlari huquqiy holatida qanday xususiyatlar mavjud?
10. Suv fondi yerlarining huquqiy holati qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga
11. solinadi?
12. Suv fondi yerlaridan foydalanuvchilarning qanday huquqlari mavjud?
13. Suv fondi yerlaridan foydalanuvchilarga qanday majburiyatlar yuklatilgan?

**8-mavzu: BALIQCHILIKDA MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI, FAN-
TEXNIKA TARAQQIYOTI, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA
ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH**

8.1.Baliqchilikda moddiy-texnika resurslari mohiyati, zarurligi va tarkibi.

8.2.Baliqchilik xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

8.1.Baliqchilikda moddiy-texnika resurslari mohiyati, zarurligi va tarkibi.

Davlatning, aholining hamda tashqi bozorning talablarini sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan qondirish uchun ularni yetishtirishni ko'paytirish obyektiv zaruriyat hisoblanmoqda. Baliqchilik xo'jaligini intensiv rivojlantirishda, mavjud ishlab chiqarish potentsialining samaradorligini oshirishda moddiy-texnika bazasining ahamiyati katta bo'lib, uni kengaytirish, qayta tashkil qilish va

rekonstruktsiya qilish talab etiladi.

Baliqchilik xo‘jaligini moddiy-texnika bazasi baliqchilik xo‘jaligida mavjud bo‘lgan barcha mehnat vositalari va mehnat buyumlari yig‘indisidir.

Uning tarkibiga yer resurslari, suv havzalari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, baliqchilik xo‘jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, baliqlar, baliq urug‘lari, mahsuldor va ishchi hayvonlar, ko‘p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug‘lik, baliq ozuqalari, neft mahsulotlari, kimyo vositalari, urug‘liklar, yem-xashaklar, yoqilg‘i, yog‘lovchi, qurilish materiallari va boshqalar kiradi.

Baliqchilik xo‘jaligilari moddiy-texnika bazasining tarkibiy tuzilmasi:

- baliqchilik xo‘jaligilari tasarrufidagi yer uchastkalari.
- baliqchilik xo‘jaligilaridagi ko‘p yillik daraxtlar va uzumzorlar.
- mahsuldor va ishchi hayvonlar.
- baliqchilik xo‘jaligilaridagi bino-inshootlar, texnikalar, mashinalar va boshqa ish qurollari.
- baliqchilik xo‘jaligilaridagi aylanma mablag‘lar (urug‘lik, ozuqa, yoqilg‘i, mineral o‘g‘itlar).
- baliqchilik xo‘jaligilarining hisob raqamidagi pul mablag‘lari, qimmatbaho qog‘ozlar.
- baliqchilik xo‘jaligilarining ta‘sischiligi asosida tashkil qilingan qayta ishlash korxonalari, do‘konlari va agrofimlar hisobidagi mol-mulki.

Moddiy resurslar yordamida baliqchilik xo‘jaligida turli xildagi ishlar, xizmatlar bajarilib, mahsulotlar yetishtiriladi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida ularning sifati, holati yaxshilanadi, yangilarini yaratish maqsadida katta ishlar qilinadi. Moddiy resurslarni ishlab chiqarishda qo‘llash natijasida serhosil, tezpishar navlar, sermahsul chorva zotlari, har tomonlama qulay va samarali hisoblangan ilg‘or texnologiyalar yaratiladi.

Baliqchilik xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari milliy iqtisodiyot resurslarining muhim qismi hisoblanadi. Ular mulk sifatida tarmoqning, korxonalarining iqtisodiy asosini tashkil etadi. Korxonalarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo‘lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos

mavjudligidan dalolat beradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, baliqchilik xo‘jaligilarini yuqoridagi moddiy-texnika vositalariga ega bo‘lmashliklari ularni kelgusida iqtisodiy baquvvat xo‘jalik sifatida faoliyat ko‘rsata olmasliklarini bildiradi.

Har bir hududda baliqchilik xo‘jaligilarining moddiy-texnika ta‘minotini mustahkamlashda hisobga olinadigan omillarga quyidagilar kiradi:

- hududlar bo‘yicha baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi;
- baliqchilik xo‘jaligilarining ixtisoslashganlik darajasi;
- baliqchilik xo‘jaligi ekinlarining tarkibi;
- baliqchilik xo‘jaligi baliqlarining mahsuldorligi;
- baliqchilik xo‘jaligi baliqlarining moddiy-texnika resurslariga bo‘lgan talabi.

Baliqchilik xo‘jaliklarining moddiy-texnika vositalari bilan ta‘minlash va mustahkamlash mamlakat miqyosida moddiy-texnika resurslarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar faoliyatini modernizatsiyalashtirish, ya‘ni o‘zaro raqobatlashadigan, ichki va tashqi bozorga sifatli hamda talabgor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar safini ko‘paytirish talab etiladi.

Fan-tehnika taraqqiyotini amalga oshirilayotganligi tarmoqda bug‘doy, chiqit va boshqa urug‘larning yangi navlarini yaratilayotganligi, yangi traktor, kombayn va boshqa texnikalarni ishlab chiqarilayotganligi va boshqalar yaqqol misol bo‘la oladi.

Fan-tehnika revolyutsiyasi deganda biz amalda foydalanilayotgan moddiy-tehnik resurslarning o‘rniga mutlaqo mavjud bo‘lmagan yangi resurslarni ishlab chiqarilishi nazarda tutiladi. Lekin ular mavjudlaridan mazmunan, mohiyatan tubdan farq qilmasligi mumkin. Tarihda bunga traktor, kombaynlarni, kimyoviy vositalarni yaratilishi misol bo‘lishi mumkin. Istiqbolda esa markazdan boshqariladigan texnikalarni yaratilishi va boshqalar. Shuning natijasida tarmoq uchun serhosil, tezpishar navlar, sermahsul chorva zotlari, har tomonlama qulay va samarali hisoblangan texnikalar, ilg‘or texnologiyalar yaratildi.

Shunday moddiy-tehnika resurslarning qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishidagi

ahamiyati nihoyatda ulkan. Chunki barcha turdagi dehqonchilik hamda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda yerdan foydalaniladi. Demak, yer boʻlmasa, yuqoridagi mahsulotlarning yetishtirilishi taʼminlanmaydi. Mamlakatimiz dehqonchiligi sugʻorishga asoslanganligi munosabati bilan suv resurslarining ahamiyati ham ulkan. Kam suv talab etadigan, tezpishar, sifatli va sermahsul urugʻlar, navlar boʻlmasa mahsulotlar miqdorini taʼminlash imkoniyati cheklangan. Barcha talablarga javob beradigan texnikalar boʻlmasa ishlarni bajarish muddatlari choʻzilib jonli mehnat sarfi oshib ketadi.

Qishloq xoʻjaligining moddiy-texnika resurslarini iqtisodiy mazmuni, mohiyati va barpo etilishi hamda foydalanilishi boʻyicha 8.1-chizmadagi tartibda turkumlashtirish mumkin. Ular;

I – barpo etilishi boʻyicha;

II – ishlab chiqarishga munosabati boʻyicha;

III – ishlab chiqarishda qatnashishiga koʻra;

IV – takror ishlab chiqarilishi boʻyicha, guruhlashtirilgan

Demak, qishloq xoʻjaligining moddiy-texnika resurslari respublika xalq xoʻjaligi resurslarining muhim qismi hisoblanadi. Ular mulk sifatida tarmoqning, korxonalarining iqtisodiy negizini, asosini tashkil etadi. Korxonalarining moddiy-texnika bazasi mustahkam boʻlsa, ularni iqtisodiy jihatdan rivojlanish uchun asos mavjudligidan dalolat beradi. Qishloq xoʻjaligining moddiy-texnika resurslari barpo etilishi boʻyicha tabiiy va iqtisodiy resurslardan iboratdir. Tabiiy resurslar yer, suv, oʻrmon, ayrim chorva hayvonlari, issiqlik hamda yogʻingarchilik miqdoridan tashkil topadi. Ularning asosiy qismi davlat tasarrufida boʻlib, korxonalariga, fuqarolarga foydalanish uchun beriladi.


Iqtisodiy resurslar esa iqtisodiy potentsialning tarkibiy qismi boʻlib, moddiy, moliyaviy hamda mehnat resurslaridan tashkil topadi. Qishloq xoʻjaligini:

-moddiy-texnika resurslariga ishlab chiqarishning moddiy vositalari: binolar, inshootlar, mashinalar, traktorlar, kombaynlar, barcha turdagi kimyoviy vositalar, oʻgʻitlar, urugʻliklar, yem-xashaklar, chorva hayvonlari, yoqilgʻi, yogʻlovchi, qurilish va boshqa materiallar kiradi.

-moliyaviy resurslariga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘lar, xo‘jaliklarning joriy, valyuta schyotlaridagi, g‘aznadagi pullari, amortizatsiya fondi, aksiyalardan olayotgan foydalari, bank kreditlari hamda ichki va tashqi investitsiyalarini amalga oshirish natijasida olinayotgan mablag‘lar, ta‘sischilar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan mablag‘lar kiradi.

Ularning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi o‘rni va ahamiyati juda ulkan. Chunki takror ishlab chiqarish jarayonida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari talab darajasida yetishtirilishi hamda ish va xizmatlar ko‘ngildagidek bajarilishi barcha resurslarning miqdoriga hamda sifatiga bog‘liq. Respublika dehqonchiligi sug‘orishga asoslanganligi sababli sug‘oriladigan yerlar va suv resurslarining ta‘siri juda katta.

Moddiy-texnika resurslarining turkumlashtirishi



Tarmoqning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining amalga oshirilishi asosan moliyaviy resurslar bilan bog‘langan. Shunday ekan, kelajakda qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari talab darajasida barpo etilishiga alohida e‘tibor berish zarur. Uni davlat, tarmoq va xo‘jaliklar miqyosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari tarmoqda foydalaniladigan va foydalanilmaydiganlarga bo'linadi. Tarmoqda u yoki bu maqsadda foydalanilayotganlari – foydalanilayotgan resurslarni, tarmoqda mavjud bo'lib, ayrim obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, vaqtincha foydalanilmayotganlari esa foydalanilmayotgan zahira resurslarni tashkil etadi. Foydalanilayotgan zahira resurslarga zahiradagi meliorativ yerlar, ayrim suv havzalaridagi suvlar, o'rmonzorlar kiradi.

Tarmoq korxonalarida foydalanilayotgan moddiy-texnika resurslari barcha resurslarning eng muhim qismi hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, quyidagicha guruhlariga bo'linadi:

- ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishlatiladigan, ya'ni qatnashadigan resurslar;
- ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan resurslar.

Ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan resurslar yordamida turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar va xizmatlar bajariladi. Ularga ekin ekilgan yerlar, yaylov va pichanzorlar, ekinlarni sug'orish uchun sarflanayotgan suvlar, mashina, yer haydaydigan, ekinlarga ishlov beradigan traktorlar, hosilni yig'ishtirib oladigan barcha turdagi kombaynlar, mahsulotni ko'paytirish uchun sarflanayotgan kimyoviy vositalar, o'g'itlar, hayvonlarga berilayotgan yem-xashaklar, chorva hayvonlari, mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. Shular yordamida ko'proq, yaxshiroq mahsulot yetishtirish ta'minlanadi.

Korxonalarining ombor, idora binolari, ayrim inshootlari, texnikalari, aloqa vositalari, kompyuterlari ishlab chiqarish jarayonida bilvosita qatnashadilar. Ularni mahsulot yetishtirishga bevosita aloqasi cheklangan.

Moddiy-texnika resurslarining mahsulot yetishtirishda, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ahamiyati ulkan. Shuning uchun ularni yaratish, barpo etish, takror ishlab chiqarish zarur. Shu bilan birga ular mehnatning harakterini o'zgartirib, unumdorligini yuksalishini ta'minlaydi. Masalan, xo'jalikning moddiy-texnika bazasi qanchalik mustahkam (u zamonaviy mashinalar, traktorlar, kombaynlar, stanoklar) ta'minlangan bo'lsa, barcha ishlar shu texnika vositalari yordamida

bajarilishi ta'minlanadi. Mehnatning industrilashganligini ifodalovchi bunday sharoit natijasida qo'l kuchi bilan bajariladigan ishlar kamayadi. Bu mehnatning harakteri o'zgarayotganligidan dalolat beradi, ayni paytda ishchi-xizmatchilarning bilimi, malakasi oshirilishi talab etadi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari o'ziga xos bir qancha xususiyatlarga ega. Ayrim moddiy resurslar tabiat mahsuli hisoblanadi. Jumladan, yer, suv, harorat, yog'ingarchilik (ular haqida yer va suv resurslari masalalariga bog'ishlangan mavzuda batafsil to'xtalib o'tilgan). Ularning barpo etilishi hamda takror ishlab chiqarilishi ko'proq tabiatga bog'liq. Lekin qishloq xo'jaligida band bo'lgan fuqarolar o'zlarining bilimlarini, tajribalarini hamda tadbirkorligini ishga solgan, fan-texnika yutuqlaridan, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda bu tabiiy omillardan samarali, o'rinli foydalanishga harakat qilib, aksariyat hollarda yaxshi natijalarga erishadilar. Shuning uchun ham tarmoq ishlab chiqarishi tabiatga ham bog'liq.

Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari tarkibiga chorva hayvonlari, o'simliklar, mevali daraxtlar qatnashishi tarmoqning muhim xususiyati ekanligiga alohida e'tibor berish, shuningdek, sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika vositalari, traktorlar, mashinalar, mexanizmlar, dastgohlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yonilg'i hamda yog'lovchi materiallar va boshqalarning ishtirokini ham e'tiborga olish lozim. Sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan moddiy-texnika vositalari, ma'lumki, inson mehnati natijasida yaratiladi. Ulardan foydalanish samaradorligi tarmoq ishlab chiqarishining mavsumiylikiga ham bog'liq.

Qishloq xo'jaligining mustahkam moddiy-texnika bazasini yaratishda yuqorida ta'kidlangan xususiyatlarni e'tiborga olish, shuningdek, ishlab chiqarishning joylashganligi hamda ixtisoslashganligiga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir. Shuning bilan birga ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etilishini barcha texnologik jarayonlarda bajariladigan barcha ishlarni mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish imkonini yaratish lozim.

Yuqoridagi talablarga javob beradigan moddiy-texnika resurslari asosan

quyidagi manbalar hisobiga barpo etiladi:

- korxonaning mablag‘lari evaziga;
- chetdan jalb etiladigan mablag‘lar hisobidan.

Birinчисiga korxonalarning mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag‘, amortizatsiya fondidan ajratilayotgan mablag‘, foydalanilmayotgan ayrim ishlab chiqarish vositalarini sotishdan, ijaraga berilayotgan vositalardan foydalanish natijasida va boshqa manbalardan olingan mablag‘lar kiradi. Bunda xo‘jaliklarning aksiyalar chiqarib sotishdan olayotgan pul daromadlari ham muhim manba hisoblanadi. Lekin bu masala respublika qishloq xo‘jaligida hozircha hal etilgani yo‘q. Juda muhim bo‘lgan bu masalani kelajakda, albatta, hal etish zarur.

Ikkinчисiga irrigatsiya-melioratsiyaga, ekologiyaga hamda ijtimoiy sohalarga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag‘lar, tijorat institutlarining kredit mablag‘lari, turli manbalardan jalb etilayotgan investitsiyalar, homiylarning, hamkorlarning mablag‘lari va boshqa manbalardan jalb etiladigan mablag‘lar kiradi. Bu mablag‘lar hisobiga qishloq xo‘jalik korxonalari moddiy-texnika vositalarini ularni ishlab chiqaruvchilarning bevosita o‘zlaridan yoki birjalardan, ko‘rgazmalardan, auktsionlardan shartnomalar asosida sotib olib, moddiy-texnika bazalarini mustahkamlashlari, ayrim hollarda foydalanish uchun ijaraga olishlari mumkin. Shunday tartibda shakllantirilgan moddiy-texnika resurslaridan xo‘jaliklar yil mobaynida to‘liq va samarali foydalanishsa, barcha turdagi tadbirlarni vaqtida, sifatli amalga oshirilishini ta‘minlaydi .

Qishloq xo‘jaligini ustuvor darajada rivojlantirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kerak. Tarmoqning moddiy-texnika resurslari shakllantirilishi, rivojlantirilishi, ulardan samarali foydalanish masalalari fan-texnika taraqqiyotiga va uning darajasiga bevosita bog‘liq. Fan-texnika taraqqiyoti deganda, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlanishi natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutish lozim. Bu

o‘rinda ta’kidlash kerakki, fan rivojlanishi natijasida shu davrgacha bo‘lmagan mutlaqo yangi fan – «Moddiy-texnika resurslari» ham yaratilishi mumkin. Bu jarayon fan-texnika inqilobidan dalolat beradi. Demak, fan-texnika taraqqiyoti inqilobi - intellektual ong rivojlanishining mahsulidir. Buning uchun intellectual-larni tayyorlaydigan ta’lim, ixtirochilik tizimini yangi bosqichga ko‘tarish taqazo etiladi. Ular qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan qulay va samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalarni yaratilishini, mavjudlari takomillashtirilishini, serhosil, tezpishar ekin navlari, sermahsul chorva zotlari, ilg‘or texnologiyalarni yaratadigan fanlarning, fan-texnika, texnologiya rivojlanishini ta’minlaydi. Natijada moddiy-texnika resurslarining miqdori oshadi, sifati yaxshilanadi.

Bu jarayonni respublikamiz misolida ham ko‘rish mumkin. CHunonchi, fan-texnikani taraqqiy ettirish yo‘lidan borilayotgan O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi uchun qishloq xo‘jalik mashinasozlik sanoati korxonalarida yangi, sifatli haydov, ishlov beruvchi traktorlar, paxta teradigan mashinalar, kimyo sanoatida poliyetilen quvurlar, plyonkalar ishlab chiqarilmoqda. Yomg‘irlatib, tuproq ostidan, tomchilatib sug‘orish uchun yangi samarali texnikalar barpo etilmoqda. Bu hol qishloq xo‘jaligida samarali, ilg‘or texnologiyalar joriy etilishini ta’minlaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti yagona davlat siyosati asosida kechishi, bu jarayonda qatnashuvchilarning tashabbuskorligi, tadbirkorligi ham uyg‘unlashishi lozim.

➤ yangi yerlarni kompleks o‘zlashtirish, zax va sho‘rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta’minlanish tadbirlarini amalga oshiradigan ishlab chiqarish vositalarini yaratish, takomillashtirish;

➤ tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatli va serhosil urug‘ navlarini, sermahsul chorva zotlarini yaratish;

➤ qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida amalga oshiriladigan barcha ish jarayonlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda mexanizatsiyalashtirishni ta’minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;

➤ qishloq xo‘jaligi servisini tarmoqda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning zarur miqdorini qayta ishlab, sifatli saqlab, iste’molchilarga vaqtida, yaxshi holatda

yetakzib berish qobiliyatiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish;

➤ qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini erkinlashtirilishini ta'minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish va ularni hayotga izchillik bilan joriy etish;

➤ fan-texnika taraqqiyoti natijalarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o'z vaqtida joriy etish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotganlarini rag'batlantirilishini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan mexanizmlarni yaratish va boshqalar.

Fan-texnika taraqqiyotining shu yo'nalishlari bo'yicha tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirish ta'minlanadi.

8.2. Baliqchilik xo'jaligining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik hamda ulardan foydalanganlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlashga doimo katta e'tibor berilmoqda. Chunki bu sarflanadigan mehnat hamda mablag' harajatlari kamayishi, mehnat unumdorligi yuksalib, foyda summasi ko'payishi uchun imkoniyat yaratadi. Shunday ekan, qishloq xo'jalik korxonalarining moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanish va bu vositalardan foydalanish jarayonini va bu boradagi o'zgarishlarni bilish talab etiladi. Buning uchun bir qancha ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. eng avvalo, bu boradagi asosiy ko'rsatkich – jamoa, shirkat hamda qo'shma va davlat korxonalarining, hissadorlik jamiyatlarining moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash kerak. Ma'lumki, xo'jalik o'z faoliyatida amalga oshiradigan ishlarni tez va sifatli bajarishga intiladi, bu jarayonda texnika vositalari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashga alohida e'tibor beradi. Sababi – traktorlar ko'p, ularga tirkaladigan mexanizmlar kam yoki aksi bo'lsa, kutilgan samaraga erishib bo'lmaydi. Chorva hayvonlari ko'p bo'lib, em-xashak kam bo'lishi ham foydasizdir. Demak, korxonalar samarali muvozanatdagi moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlangan bo'lishlari kerak. Uning darajasini quyidagi

formula yordamida aniqlash lozim:

$$MTR_{TD} = \frac{(Eq + (AFq - As) + AFq + BGk)}{QXY}$$

Bunda: MTR_{TD} – moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm;

Eq - qishloq xo'jalik yerlarining qiymati (so'mda);

AFq - asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (so'mda);

AS – asosiy vositalarning o'rtacha yillik eskirish summasi (so'mda);

AFQ – aylanma vositalarning o'rtacha yillik summasi (so'mda);

BGk - bog'lar, tokzorlarning o'rtacha yillik summasi (so'mda).

QXY - qishloq xo'jalik yerlarining maydoni.

Bu ko'rsatkich yordamida har bir xo'jalik ixtiyoridagi foydalanilayotgan 1 ga qishloq xo'jalik yeriga yoki ekin maydoniga qancha so'mlik moddiy-texnika resurslari to'g'ri kelayotganligi aniqlanadi. Uning miqdori talab, ya'ni me'yor darajasida bo'lishi kerak. Bu umumiy ko'rsatkich maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda boshqa aniq ko'rsatkichlar yordamida yanada aniqlashtiriladi.

Jumladan, xo'jalikning ta'minlanganlik darajasini, masalan, asosiy va aylanma fondlar yoki haydov, chopiq traktorlari bilan ta'minlanganlik darajasini shu ko'rsatkich tarkibidagi boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha ham alohida-alohida aniqlash mumkin. Ular ushbu darslikning 7-mavzuida batafsil yoritilgan.

Masalan, korxonalarining energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi. Uning miqdori xo'jalikdagi jami energetik resurslar miqdorini (ot kuchi hisobida) foydalanilayotgan qishloq xo'jalik yerlari yoki ekin maydoniga taqsimlanib aniqlanadi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$Ert = \frac{ERq}{Em(QXY)}$$

Bunda: ERq - jami energetik resurslar quvvati (ot kuchida);

$Em(QXY)$ – jami ekin maydoni (qishloq xo'jalik yerlari).

Uning miqdori ham me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnatning energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi. U yuqorida

ta'kidlangan jami energetik resurslar miqdorini (ot kuchida) mehnat qilgan kishilarning o'rtacha yillik miqdoriga (kishilar) taqsimlab aniqlanadi. Bunda ushbu tenglikdan foydalanish mumkin:

$$Erk = \frac{ERq}{MR}$$

Bunda: Erk- mehnatni energetis resurslari bilan qurollanganlik darajasi (ot kuchi/kishi).

MR – ishlagan mehnat resurslarining o'rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko'rsatkichlar korxonada bajariladigan barcha ishlarning qay darajada mexanizatsiyalashayotganligini yoki avtomatlashayotganlik holatini o'rganishga yordam beradi. Lekin ularning miqdori, yuqorida qayd etganimizdek, belgilangan me'yor darajasida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday ekan, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasini ham aniqlash lozim. Buning uchun traktor, mexanizmlar, mashinalar yordamida bajarilgan jami ish (etalon gektarda) miqdori korxonada bo'yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga (etalon ga) taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Md = \frac{Mi}{Ji} * 100\%$$

Bunda:

Md - ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

Mi -mashina, traktorlar mexanizmlar yordamida bajarilgan ish (et.ga tonnada);

Ji - jami bajarilgan ish miqdori (et.ga).

Bu ko'rsatkich jami hamda ayrim ish, ekin turlari bo'yicha ham aniqlanishi mumkin. Masalan, ekinlarni ekish, ularga ishlov berish, hosilini yig'ishtirib olish bo'yicha. CHorvachilikda esa sigirlarni sog'ish, chorva hayvonlarini sug'orish, ularga em berish va boshqa ish turlari bo'yicha. Sigirlarni sog'ish jarayonining mexanizatsiyalashganlik darajasini aniqlash uchun mashina, agregatlar yordamida sog'ilgan sigirlar bosh sonini jami sog'ilgan sigirlar bosh soniga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish lozim. Bu ko'rsatkichlar 100 foizdan yuqori

bo'limasligi shart.

Yangi texnikalardan, texnologiyalardan foydalanish natijasida mehnat, mablag' harajatlari tejalishi ta'minlanadi. Uning darajasini aniqlash uchun yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avval qilingan harajatlardan ular joriy etilganidan so'ng qilingan harajatlarning miqdori, summasi ayrilib, aniqlangan raqam dastlabki harajatlarga taqsimlanadi va 100 foizga ko'paytiriladi. Ularni quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$Xt = \frac{X_1 - X_2}{X_1} * 100\%$$

Bunda:

Xt – tejalgan harajat;

X_1 - yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi harajatlarning (so'm);

X_2 - yangi texnika, texnologiya joriy etilgandan so'ngi harajatlarning (so'm).

Yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlar bilan birgalikda xo'jaliklardagi mavjud moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ham aniqlanadi. Buning uchun avvalo, mashina-traktor hamda avtomashinalar parkidan foydalanish ko'effitsiyenti aniqlanadi. Buni hisoblash uchun xo'jalikda foydalanilgan mashina-traktorlar miqdorini unda mavjud bo'lgan mashina-traktorlar miqdoriga taqsimlash lozim. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$MTPFk = \frac{Fs}{Ms}$$

Bunda: MTPFk – mashina-traktor parkidan foydalanish ko'effitsiyenti.

Fs - foydalanilgan mashina-traktorlarning soni (dona).

Ms - mavjud bo'lgan mashina-traktorlarning soni (dona).

Yangi texnika-texnologiyalarga qilingan investitsiyalarning samaradorligi ham aniqlanadi. Buning uchun ularni joriy etish tufayli tejalgan harajatlarning natijasida qo'shimcha olingan sof daromad summasini ularga qilingan investitsiyalar summasiga taqsimlash lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar holatini aniqlab, moddiy-texnika resurslari holati, darajasi, samaradorligi aniqlanib, chuqur tahlil qilinadi. Natijada

ularga ta'sir etgan omillar aniqlanib, kelajakda ularni yaxshilash chora-tadbirlari belgilanadi.

Moddiy resurslar – energiya resurslari, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalari, kimyoviy moddalar, transport vositalarini o'z ichiga oladi. Baliq xo'jaligida elektr energiyasi asosan ishlab chiqarishda mexanik maqsadlar uchun, shuningdek texnologik maqsadlar uchun (sovuq, elektrokapping va boshqalar) ishlatiladi. Ba'zi baliq turlarini jalb qilish va konsentratsiyalash uchun sirt va suv osti yoritgichi yoki zaif elektr maydon ishlatiladi. Konserva ishlab chiqarishda mikroto'lqinli energiya va infraqizil nurlanish yordamida baliqni qovurish usuli qo'llaniladi. Zamonaviy tijorat floti kuchli energiya qurilmalariga ega.

Baliq sanoati sohasida mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish alohida ahamiyatga ega baliq va baliq ovining boshqa obyektlari tez buziladigan xom ashyo hisoblanadi. Mexanizatsiyalash vositalari mahsulot ishlab chiqarishni oshirish, texnologik rejimga aniq rioya qilishni ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish tsiklini qisqartirishga erishish, sifatini oshirish imkonini beradi.

Korxonaning asosiy va yordamchi ishlab chiqarishning me'yoriy ishlashi uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik resurslarga, shuningdek, kapital qurilishiga bo'lgan ehtiyojini rejalashtirish;

Talab qilinadigan resurslar miqdori bo'yicha talab va spetsifikatsiyalarni tayyorlash;

- Ta'minot usullari va shakllarini aniqlash;
- Moddiy resurslarni yetkazib beruvchilarni tanlash;
- Resurslar narxini muvofiqlashtirish va yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar tuzish;
- Sifatni, miqdorini va yetkazib berish vaqtini nazorat qilishni tashkil etish;
- Korxonaning omborlariga resurslarni joylashtirishni tashkil etish;
- Resurslarni ishlab chiqarish bo'linmalariga yetkazib berishni tashkil etish va korxonaning sevlari va xizmatlari bo'yicha resurslarning sarflanishini nazorat qilish.

Moddiy-texnika ta'minotini rejalashtirish jarayonida quyidagilar aniqlanishi

kerak:

- korxonaning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatini ta'minlash uchun qanday moddiy resurslar zarur; ishlab chiqarish dasturini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar soni;
- resurslarga bo'lgan ehtiyoj ularning turlari va muddatlari bo'yicha jadval asosida;
- yetkazib beruvchilarni tanlash va ularning imkoniyatlarini aniqlash;
- resurslarni saqlash uchun zarur ombor joylari;

Moddiy-texnika ta'minoti uchun harajatlar;

ishlab chiqarishda ayrim moddiy resurslarni o'z korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyati.

Resursga bo'lgan ehtiyojni hisoblash mumkin: to'g'ridan-to'g'ri hisob-kitob usuli (sarf me'yori * ishlab chiqarish hajmi);

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Moddiy-texnika resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarmoqni rivojlantirishda moddiy-texnika resurslarining o'рни va ahamiyatini tushuntirib bering.
3. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslarining tarkibi nimalardan iborat, ular o'ziga xos qanday xususiyatlarga ega?
4. Moddiy-texnika taraqqiyoti, yo'nalishlari, samarali texnologiya deganda nimalarni tushunasiz?
5. Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ko'rsatkichlari deganda-chi?
6. Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi nimalardan tashkil topadi? Uning o'zgarish sabablarini ko'rsating.
7. Tarmoqning moddiy-texnika resurslaridan to'liq va samarali foydalanish uchun qanday masalalarni hal etish kerak?

9-mavzu: BALIQCHILIKDA ASOSIY FONDLARI VA ASOSIY VOSITALAR ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

9.1.Asosiy va aylanma fondlar (vositalar) haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlashtirilishi

9.2.Asosiy fondlari (vositalar) va ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularning aniqlanishi.

9.3.Aylanma fondlar (vositalar), ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ularning aniqlanishi.

9.4.Asosiy va aylanma vositalarning, fondlarning shakllantirishi, barpo etilishi

9.1.Asosiy va aylanma fondlar (vositalar) haqida tushuncha, ularning ahamiyati va turkumlashtirilishi

Baliqchilik xo‘jaliklarini barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun uning moddiy-tehnika bazasini mustahkam qilib barpo etish lozim. Chunki moddiy-tehnika resurslari yordamida barcha turdagi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ularga yer resurslari, suv havzalari, ishlab chiqarish imoratlari, inshootlari, baliqchilik xo‘jaligi mashinalari va jihozlari, transport vositalari, baliqlar, baliq urug‘lari, mahsuldor va ishchi hayvonlar, ko‘p yillik daraxtlar, suv resurslari, urug‘lik, baliq ozuqalari, neft mahsulotlari, kimyo vositalari, urug‘liklar, yem-xashaklar, yoqilg‘i, yog‘lovchi, qurilish materiallari va boshqa vositalar kiradi.

Ularni baliqchilik xo‘jaliklari ishlab chiqarishda qatnashib, o‘zlarining mazmun, mohiyatiga qarab asosiy va aylanma vositalarga ajratiladi. **Asosiy vositalar deb** qishloq xo‘jaligida uzoq yillar davomida xizmat qilib o‘z ko‘rinishini o‘zgartirmasdan, o‘z qiymatini asta-sekinlik bilan (eskirishini) ishlab chiqarilgan mahsulotlarga, ish va hizmatlarga yilma-yil o‘tkazib beradigan vositalarga aytiladi.


Aylanma vositalar deb tarmoq ishlab chiqarishidagi ish jarayonlarida bir marta qatnashib, o‘zining shaklini to‘liq o‘zgartiradigan hamda o‘z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga, ish va hizmatlarga to‘liq o‘tkazadigan vositalarga aytiladi. Asosiy va aylanma vositalarning qiymat holdagi ko‘rinishiga **fondlar** deyiladi.

Ular*ni* iqtisodiy mohiyati, shakllanishi, ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish fondlariga bo'linadi. Ular*ni* ayrim hollarda ishlab chiqarish jarayonida bevosita va bilvosita qatnashadiganlarga ham bo'linadi. Masalan, yer, suv, o'g'it, urug'lik, em-xashak, yer haydaydigan, ishlov beradigan traktorlar qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda bevosita qatnashadi. CHunki ular mahsulot yetishtirish hajmiga, sifatiga bevosita ta'sir etadi. Xo'jaliklarning ma'muriy, madaniy va boshqa binolari, dala shiyponlari, omborxonalar, xizmat ko'rsatuvchi texnikalar, kompyuterlar va boshqa vositalar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga, ularning sifatiga bilvosita ta'sir etadi. Lekin ularning mahsulotlarni ishlab chiqarishdagi umumiy ahamiyatini inkor etish maqsadga muvofiq emas. Ular iqtisodiy mohiyatiga, ya'ni shakllantirilishi, mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish jarayonida qatnashishiga ko'ra, asosiy hamda aylanma fondlarga bo'linadi. Ular natural holda ko'rinishi va qatnashishi bo'yicha asosiy va aylanma vositalar ham deb ataladi (9.1-chizma).

Ular ishlab chiqarish jarayonidagi funksional faoliyatiga ko'ra, mehnat predmetlari hamda mehnat vositalariga bo'linadi. Xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida yaratilib, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda inson mehnati yordamida ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o'z shakllarini to'liq o'zgartiradigan predmetlar, vositalar tarmoqning mehnat predmetlarini tashkil etadi. Ularning natura holdagisi aylanma vositalar, qiymat holdagisi esa **aylanma fondlar deb ataladi.**

9.1-chizma

Baliqchilik xo'jalik fondlarini turkumlashtirilishi



Ularga sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan yoqilg'i, yog'lovchi materiallar, kimyoviy vositalar, mahalliy o'g'it, yem - xashak ish haqi, arzon, tez to'zuvchi materiallar va boshqalar kiradi. Ular tarmoqning mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida bir marta qatnashib, o'z shakllarini to'liq o'zgartirib, qiymatini ham ularga o'tkazadigan predmetlardir. Tarmoqda band bo'lgan insonlarning ongli mehnati qaratilgan mehnat predmetlari yordamida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, xizmatlarni bajarish maqsadida bir necha yillar davomida foydalaniladigan narsalar, vositalar mehnat vositalari hisoblanadi. Ular tabiat tomonidan hamda sanoat, qishloq xo'jalik tarmoqlarida yaratilgan bo'lib, turli xildagi mahsulotlarni yetishtirishda, xizmatlarni, ishlarni bajarishda bir necha yillar davomida foydalanilib, o'z ko'rinishini, shakllarini o'zgartirmasdan, lekin qiymatining ma'lum bir qismini mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga o'tkazib boradigan vositalardir. Bunday vositalar hozirgi davrda respublikada 15 (Rossiya Federatsiyasida 50) minimal oylikdan yuqori qiymatga ega bo'lgan va 1 yildan ko'proq xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalaridir. Ularga qishloq xo'jalik texnikalari hisoblangan mashina-traktorlar, kombaynlar, seyalkalar, kultivatorlar sug'orish inshootlari, binolar, stanoklar va boshqalar kiradi. yerlar, tabiiy o'rmonlar – tabiat mahsulidir. Ishchi va mahsuldor chorva hayvonlari, bog'zorlar, tokzorlardan qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish uchun bir necha yillar mobaynida foydalaniladi. Ular qishloq xo'jaligining asosiy vositalarini tashkil etadi. Asosiy vositalar yillar davomida jismoniy hamda ma'naviy eskiradi. Fan-texnika taraqqiyoti innovatsion jarayon natijasida yangi, zamonaviy texnikalarning yaratilishi tufayli ular ma'naviy jihatdan ham eskiradi.

Asosiy vositalarning eskirishini ularning amaldagi eskirish me'yorlari (normativlari) yordamida aniqlash mumkin. Ularning eskirish qiymati amortizatsiya summalari, deb ataladi. Asosiy vositalarning eskirish me'yorini

belgilab beruvchi amortizatsiya me'yori asosida ularning eskirish qiymati (summasi) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$As = \frac{ABq}{An} * 100$$

Bunda: As - asosiy vositaning amortizatsiya summasi (so'm);

ABq - asosiy vositaning balans qiymati (so'm);

An - asosiy vositaning eskirish me'yori (koeffitsiyentda, foizda, yilda).

Asosiy vositalarning amortizatsiya summalari yordamida ularning xizmat qilish muddatlarini ham aniqlash mumkin. Buning uchun asosiy vositaning boshlang'ich, balans qiymatini uning eskirish summasiga taqsimlash lozim.

Asosiy vositalarning eskirish me'yori (normativi) berilmaganda asosiy vositaning balans qiymatini uning xizmat muddatiga taqsimlash natijasida eskirish me'yori aniqlanadi. Xo'jalikda bir necha yillar davomida ishlatilgan vositalar kapital ta'mirlangan bo'lsa, ular balans qiymatiga qo'shiladi.

Bozor iqtisodi sharoitida korxonalar fan-texnika taraqqiyoti innovatsion jarayon natijasida yaratilgan yangi, serunum texnika vositalarini sotib olishga intiladi. Xo'jalikda uzoq yillar davomida ishlatilayotgan, ma'naviy jihatdan eskirgan vositalar esa ishlab chiqarishdan chiqariladi. Bunda asosiy vositalarning eskirish summasini aniqlashda tezkor amortizatsiya usulidan ham foydalaniladi. Uni aniqlashning belgilangan me'yori yo'q. Shuning uchun xo'jaliklar eskirish summasini o'z imkoniyatlarini, fan-texnika taraqqiyoti ta'sirini e'tiborga olgan holda hisoblaydilar. Agarda ishlatilayotgan mashinalar, traktorlar, kombaynlar ma'naviy jihatdan eskirgan bo'lsa, ularni normativ bo'yicha emas, qisqaroq davrda eskirishini hisoblab, ishlab chiqarishdan chiqarish mumkin. Lekin bu jarayon ular yordamida yetishtiriladigan mahsulotlarning tannarxlariga bevosita ta'sir etadi. Chunki bunda mahsulot tannarxiga olib boriladigan amortizatsiya summasi ko'payadi. Shuning uchun bu usulni qo'llashdan avval ularning o'rindoshligini hamda sarf-harajatlarini, daromadlarini va boshqa jihatlarini e'tiborga olish lozim.

Eskirish qiymatlari yetishtiriladigan mahsulotlarga, xizmatlarga me'yoriy

hujjatlarda belgilangan tartibda o‘tkaziladi.

Asosiy va aylanma vositalar mahsulot ishlab chiqarib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki ularsiz talabni qondiradigan miqdorda sifatli mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas. Masalan, yersiz, suvsiz, urug‘siz turli xildagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyati nihoyatda cheklangan. Mashina, traktor, kombaynlar va mexanizmlarsiz mehnat va mablag‘ sarfi tejalishi ham cheklangan. Demak, ulardan oqilona foydalanish natijasida mehnat va mablag‘ harajatlari tejaladi.

Demak, asosiy va aylanma vositalardan oqilona va samarali foydalanish tufayli baliqchilik xo‘jaliklari iqtisodiyoti rivojlanadi. Natijada aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi. Shuning uchun bunday vositalarni yaratishga, qurishga, ta‘mirlashga, ulardan yaxshi foydalanishga hukumatimiz alohida e‘tibor berib kelmoqda.

9.2. Asosiy fondlari (vositalar) va ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.


Baliqchilik xo'jaliklari ishlab chiqarish fondlari (vositalari)ning katta qismini asosiy fondlar tashkil etadi. Ularga qishloq xo'jaligida qatnashadigan barcha mehnat vositalari kiradi. Ular qishloq xo'jalik korxonalarining doimiy kapitalini tashkil etadi. Funktsional vazifasiga qarab, asosiy fondlar (vositalar) ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalariga bo'linadi. (9.2.1-chizma).

Ishlab chiqarish vositalariga bevosita moddiy ishlab chiqarish sohasida qatnashadigan fondlar (vositalar), noishlab chiqarish vositalariga esa, xo'jalikning klublari, madaniyat saroylari, maktablar, sog'likni saqlash idoralari, yasli, hammom, ombor va hokazolar kiradi. Ular mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishda katta rol o'ynaydi.

Asosiy fondlarning alohida turlari Baliqchilik xo'jaliklari ishlab chiqarishida bir xilda ishtirok etishmaydi. Ulardan ba'zilar asosiy ishlab chiqarish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan va chorvachilik, o'simlikchilik mahsulotlarini ko'paytirishda asosiy omil hisoblanadi. Ularga traktorlar, kombaynlar, yuk mashinalari, Baliqchilik xo'jaliklari mashinalari, texnikalari va hokazolar kiradi. Boshqa asosiy fondlar qurilish, savdo va qishloq xo'jalik korxonalaridagi umumiy ovqatlanishga va boshqalarga yo'naltirilgan. Shuning uchun asosiy fondlar (vositalar) qishloq xo'jaligida bevosita qatnashuvchi va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishda bevosita qatnashmaydiganlarga bo'linadi.

Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarishda asosiy rol qishloq xo'jaligida qatnashuvchi fondlarga tegishlidir, chunki ular asosiy ishlab chiqarish fondining 80 foizini tashkil qiladi. Bu fondlarga quyidagilar kiradi:

- yer resurslari, ayniqsa qishloq xo'jalik yerlari;
- ishlab chiqarish sohasidagi binolar;
- inshootlar;
- mashina va texnikalar;
- transport vositalari;
- ishlab chiqarish va xo'jalik inventarlari;



9.1-chizma. Baliqchilik xo'jaliklari asosiy fondlari (vositalari) ning turkumlashtirilishi

- sut beruvchi qoramollar;
- go'sht beruvchi qoramollar;
- ko'p yillik ekinlar;
- yerni yaxshilash uchun qilingan sarflar (inshootlardan tashqari).
- asmavzular va hokazaolar.

Qishloq xo'jaligining asosiy vositalari, fondlari tarmoqda qatnashish xususiyati bo'yicha o'simlikchilik, chorvachilik va umumiy fondlarga bo'linadi. Ko'p ukladli iqtisodiyot shakllanishida esa asosiy fondlar xususiy, ijaraga olingan va ijaraga berilgan, jamoa fondlardan tashkil topadi.

Bundan tashqari qishloq xo'jaligida tor doirada faoliyat ko'rsatadigan asosiy fondlar borki, ulardan faqatgina bir mahsulotni ishlab chiqarishda foydalaniladi. Masalan, don kombaynlari, paxta teruvchi mashinalar, sigir sog'uvchi apparatlar va hokazo.

Asosiy vositalar, fondlar ishlab chiqarishning so'ngi natijalariga bir xilda ta'sir etmaydilar. Shuning uchun ular aktiv va passiv fondlarga ajratiladi. Aktiv fondlarga ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan traktorlar, kombaynlar, avtomobillar, Baliqchilik xo'jaliklari texnikalari, transport vositalari, mahsulotlarni realizatsiya qilishda ishtirok etadigan vositalar va boshqalar kiradi. Passiv fondlarga esa Baliqchilik xo'jaliklari ishlab chiqarishida bevosita qatnashmaydigan binolar, inshootlar, melioratsiya obyektlari kiradi. Barcha asosiy vositalardan to'liq va samarali foydalanishga harakat qilish kerak. Buning uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligining asosiy vositalari (fondlar) ishlab chiqarishda qatnashishiga ko'ra quyidagicha turkumlantiriladi. Ulardan qishloq xo'jaligida doimo to'liq va samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Asosiy fondlar (vositalar)dan foydalanish darajasi hamda samaradorligini aniqlashda bir qancha ko'rsatkichlardan, jumladan, asosiy vositalardan foydalanish darajasini isbotlovchi natural ko'rsatkichlardan foydalaniladi. CHunonchi, bitta mashinaning bir yil mobaynida bajargan ishi, bitta kombaynning bir yilda ishlagan kuni, hosilini yiqqan maydoni hamda yig'ishtirgan hosili. Ularni quyidagi

formulalardan foydalangan holda aniqlash mumkin:

$$XM = \frac{MI}{XM}; XT = \frac{TI}{XT}; XK = \frac{KI}{XK}$$

Bunda: XM, XT, XK – ishlagan mashinalarning, traktorlarning, kombaynlarning o‘rtacha soni (dona);

MI, TI, KI – mashinalar, traktorlar, kombaynlar bilan jami bajarilgan ish hajmi (tn.km; et; ga, tonna).

Bu ko‘rsatkichlar yordamida har bir turdagi texnikalarning o‘rtacha bir donasi qancha ish bajarganligini ya’ni ularning har birini unumdorligini aniqlash mumkin bu ko‘rsatkichlar darajasi meyoridagidan yuqori bo‘lgani ma’qul. Asosiy fondlardan foydalanish darajasi xo‘jalik, uning ishchi va xizmatchilari fondlar bilan ta’minlanganligiga hamda mehnatning qurollanganligiga bog‘liq. Shunday ekan, xo‘jalikda bu ko‘rsatkichlarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagi tartibda aniqlanadi: jumladan, xo‘jalikning asosiy fondlar bilan ta’minlanganligini aniqlash uchun undagi asosiy fondlarning o‘rtacha yillik summasini unda foydalanilgan yer maydoniga taqsimlash lozim.

Bu quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Aft = \frac{\bar{X}AFk}{FY}$$

Bunda: Aft – asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik darajasi (so‘m/ga);

$\bar{X}AFk$ – asosiy fondlarning yillik o‘rtacha sumasi (so‘mda);

FY – foydalanilayotgan yer maydoni (ga).

Mehnatning asosiy fondlar bilan ta’minlanganlik yoki qurollanganlik darajasi esa, asosiy fondlarning yillik o‘rtacha summasi, shuningdek, ularning quvvati ishlagan ishchi-xizmatchilar (mehnat resurslari) ning o‘rtacha yillik soniga taqsimlanadi. Ularni ushbu formulalar yordamida aniqlash mumkin:

$$Mt = \frac{\bar{X}AFk}{\bar{X}MR}; Mt = \frac{\bar{X}AFku}{\bar{X}MR}$$

Bunda: Mt – mehnatning (1 kishiga) asosiy fondlar bilan ta’minlanganligi (so‘m/kishi);

$\bar{X}AFk$ – asosiy vositalarning o‘rtacha yillik quvvati (ot kuchida);

$\bar{X}MR$ – mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko‘rsatkichlar xo‘jaliklarning ixtisoslashishiga, mashina-texnikalar bilan ta‘minlanganligiga ko‘ra, farq qilishi mumkin. Ayniqsa, oxirgi formula yordamida aniqlangan ko‘rsatkich ishlab chiqarish mexanizatsiyalashtirilishini, avtomatlashtirilishini ta‘minlab, jonli mehnat harajatlarini tejab, mehnat unumdorligi yuksalishiga olib keladi.

Asosiy fondlarning iqtisodiy samaradorligi esa bir qancha ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi. Qishloq xo‘jaligida asosiy fondlar natura va qiymat holida ishtirok etadilar.

Asosiy fondlardan foydalanish samaradorligining qiymat ko‘rsatkichlari: fond qaytimi va fond sig‘imidir. Fond qaytimini qishloq xo‘jaligida ishlatilgan asosiy fondlarning o‘rtacha yillik summasiga qishloq xo‘jaligida bir yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot qaytimini taqsimlash natijasida aniqlash mumkin.

$$AFq = \frac{YAMq}{\bar{X}AFq}$$

Bunda: AFq - fond qaytimi (so‘m);

$YAMq$ - yalpi mahsulot qiymati (so‘m);

$\bar{X}AFq$ - asosiy fondlarning yillik o‘rtacha qiymati (so‘m).

Fondlar qaytimini bir so‘mlik asosiy fond evaziga ma‘lum muddatda olingan yalpi daromad va sof foyda ko‘rsatkichlari yordamida ham aniqlash mumkin. Ular yalpi daromad, sof foyda summasini asosiy fondlarning yillik o‘rtacha qiymatiga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Bunda quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$YADFq = \frac{\sum YAD}{XAFq}; SFFq = \frac{\sum SF}{XAFq}$$

Bunda: $YADFq$ – yalpi daromad bo‘yicha fond qaytimi (so‘m);

$\sum YAD$ - yillik yalpi daromad summasi (so‘m);

$SFFk$ – sof foyda bo‘yicha fond qaytimi (so‘m);

$\sum SF$ – yillik sof foyda summasi (so‘m).

Bu ko‘rsatkichlar yordamida 1 so‘mlik asosiy fondlar evaziga necha so‘mlik

yalpi mahsulot, yalpi daromad va sof foyda olinganligi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar miqdori yuqori bo'lgani yaxshi.

Fondlar sig'imi. Uni aniqlash uchun asosiy fondlarning yillik o'rtacha summasini yetishtirilgan yalpi mahsulot qiymatiga taqsimlash zarur. Buning uchun quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:

$$Fs = \frac{XAFq}{YAMq}$$

Bunda: F_s – fond sig'imi (so'm).

Fond sig'imi esa, bir so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotini yetishtirish uchun qancha asosiy fond qiymati to'g'ri kelishini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish fondlarining (asosiy va aylanma) iqtisodiy samaradorligi rentabellik ko'rsatkichi bilan ham harakterlanadi. Iqtisodiyotda bu ko'rsatkichni foyda normasi (me'yori) deyiladi. U quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Fn = \frac{Fs}{AFq + AylFq} * 100\%$$

Bu yerda: F_n -foyda normasi, foiz;

F_s - foyda summasi, so'mda.

Foyda normasi bir birlik ishlab chiqarish fondlari qiymatiga qancha foyda olinganligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichning darajasi yuqoriga intilishi maqsadga muvofiqdir.

9.3. Aylanma fondlar (vositalar), ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlanishi.

Baliqchilik xo'jaliklari vosita va fondlarining muhim qismini aylanma fondlar tashkil etadi. Aylanma fondlar ishlab chiqarish va realizatsiya jarayonining to'xtamay amalga oshishini ta'minlab turadi. Ularning natura holidagi ko'rinishi aylanma vositalar deyilsa, pul (qiymat) shaklidagi ko'rinishi aylanma fondlar, mablag'lar, deb ataladi.

Aylanma fondlarga (vositalarga) ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan, qatnashadigan mehnat vositalari va moddiy ne'matlarning ayrimlari kiradi.

Aylanma vositalar, mablag'lar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, bir shakldan ikkinchi shaklga aylanib turadi. Masalan, bug'doy urug'i ekilib, niholi unib chiqishi. So'ng u yana g'allaga aylanadi. Bu jarayon falsafa qonuniga ko'ra, inkorni-inkor etish, deb ataladi. Aylanma fondlar asosiy fondlardan farqli o'laroq, bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z moddiy qiymatini va shaklini to'liq o'zgartiradi. Misol: ekilgan urug' o'simlikka, mineral o'g'itlar esa oziqa moddalarga aylanadi, yonilg'idan foydalanish natijasida mashina-traktorlar ish bajaradi, chorva hayvonlariga yem berilsa, ulardan go'sht sut yetishtiriladi va hokazolar.

Baliqchilik xo'jaliklari ishlab chiqarishi mavsumiy bo'lganligi uchun, aylanma fondlarning sarflanishi, tarkibi yil davomida o'zgarib turadi. Masalan, qishda aylanma fondlarning ko'p qismi urug' va ozuqada, yozda esa fondlarning aksariyat qismi neft mahsulotlari, mashina ehtiyot qismlari, tugallanmagan ishlab chiqarish bilan band bo'ladi.

Baliqchilik xo'jaliklari korxonalarining aylanma vositalariga, fondlariga quyidagilar kiradi:

- xomashyo materiallar;
- o'g'itlar va boshqa kimyoviy vositalar;
- yoqilg'i, yog'lovchi moddalar;
- idish va idish materiallari;
- urug' va urug'lik materiallari;
- qurilish materiallari;
- ehtiyot qismlari;
- ozuqalar, em-xashaklar;
- boquvdagi hayvonlar;
- arzon baholi va tez eskiruvchi predmetlar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish harajatlari:
 - a) o'simchilikda;
 - b) chorvachilikda;
 - v) sanoat va yordamchi ishlab chiqarishda;

- realizatsiyaga tayyor mahsulot;
- haridorlar bilan hisob-kitob qilishdagi mablag‘lar;
- material va xomashyolarni sotib olish uchun pul mablag‘lari;
- hisob raqamidagi, g‘aznadagi mablag‘lar va boshqalar.

Ularning ishlab chiqarish jarayonida bajarayotgan vazifalarini e’tiborga olgan holda quyidagicha guruhlantirish – ishlab chiqarish zahiralariga, tugallanmagan ishlab chiqarish hamda muomaladagi vosita va mablag‘larga bo‘lish mumkin (9.3.1-chizma).

Aylanma fondlarining aylanishi o‘zida uch bosqichni mujassamlashtiradi: ta’minot, ishlab chiqarish va realizatsiya (sotish).

Aylanma fondlar (vositalar) baliqchilik xo‘jaliklari mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo‘jalik faoliyatining so‘ngi natijalariga bir xil ta’sir etmaydi. Ta’sir etish darajasiga qarab aylanma fondlar:

-Baliqchilik xo‘jaliklari yalpi mahsulotining hajmini ko‘payishiga to‘g‘ri ta’sir qiluvchi;


-ishlab chiqarish jarayoniga va samaradorligiga bilvosita ta’sir qiluvchi fondlarga vosita va bo‘linadi.

Birinchi guruhga urug‘lik, ko‘chatlar, ozuqa, o‘g‘itlar, ximikatlar, baliqlar, boquvdagi hayvonlar kabilar, ikkinchi guruhga yoqilg‘i materiallari, mashina ehtiyot qismlari va boshqalar kiradi.

Aylanma fondlarning tarkibi korxonaning ixtisosiga qarab o‘zgarib turadi. Masalan, don mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalarda aylanma fondlarning asosiy tarkibini yoqilg‘i, urug‘lik, ehtiyot qismlar, texnikalar band etgan bo‘lsa, chorvachilik korxonalarida bu tarkibni asosan ozuqa, boquvdagi hayvonlar band etadi. Mavjud bo‘lgan aylanma vositalardan (fondlardan) to‘g‘ri, ya’ni maqsadga muvofiq hamda samarali foydalanish zarur.

Aylanma fondlar (vositalar)dan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

Aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti. Uni aniqlash uchun sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining, ko‘rsatilgan xizmatlarning, bajarilgan ishlarning



9.3.1.-chizma. Baliqchilik xo'jaliklari aylanma fondlari (vositalari)ning turkumlashtirilishi

umumiy qiymatiga asosiy podaga o'tkazilgan yosh hayvonlarning qiymatini qo'shib, undan asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan mablag'ni ayirgandan so'ng qolgan qiymatni aylanma fondlarning yillik o'rtacha qoldiq

summasiga taqsimlash lozim.

Bu ko'rsatkich xo'jaliklardagi aylanma fondlarning bir yil davomida aylanish tezligini ko'rsatadi. Uning miqdori imkoniyat doirasida birdan yuqori bo'lgani ma'qul. Shu ko'rsatkichga asoslangan holda aylanma fondlarning aylanish muddati ham aniqlanadi.

Uni yuqoridagi ko'rsatkichdan foydalanib, yil davomida aylanma fondlar (vositalar) aylanishining o'rtacha davrini topamiz. Buning uchun bir yildagi kalendar kunlari umumiy sonini (365 yoki 366) aylanish ko'effitsiyentiga taqsimlab, quyidagi tenglikdan foydalaniladi:

$$Ad = \frac{365}{K}$$

Bunda-Ad-aylanma fondlarning aylanish muddati, kun.

Yuqoridagi ko'rsatkichlardan tashqari qishloq xo'jalik korxonalarida aylanma vositalarning ayrimlaridan foydalanilganlik darajasini ham aniqlash mumkin. Jumladan, mineral o'g'itlardan, em-xashak va ozuqa moddalardan, yoqilg'ilardan va boshqalardan. Ularni natura yoki qiymat holida aniqlash imkoniyati mavjud.

Baliqchilikda esa sarflangan oziqa birligining samaradorlik darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$SOs = \frac{BMm(BMq)}{SOM}$$

Bunda:

Sos – mahsulot yetishtirish uchun sarflangan ozuqa miqdorining samaradorlik darajasi;

BMm – yetishtirilgan baliqchilik mahsulotlarining miqdori, kg;

BMq – yetishtirilgan baliqchilik mahsulotlarining qiymati, so'm;

SOM – chorva mahsulotlarini yetishtirishga sarflangan ozuqa birligi.

Albatta, aylanma fondlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda fond qaytimi va fond sig'imi ko'rsatkichlaridan ham foydalanish mumkin.

9.4.Asosiy va aylanma vositalarning, fondlarning shakllantirilishi, barpo etilishi

Baliqchilik xo‘jaliklari uchun zarur bo‘lgan asosiy va aylanma vositalar bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida turlicha yo‘llar bilan shakllantirilib, barpo etilmoqda. Qishloq xo‘jaligidagi korxonalar ayrim asosiy vositalarni (bino, inshootlarni) o‘zlari qurmoqdalar, qishloq xo‘jalik texnikalarini ta‘mirlamoqdalar, chorva hayvonlarini parvarish qilib, yetishtirmoqdalar. Masalan, bog‘zorlar, tokzorlarni barpo etmoqdalar. Ayrimlarini, ya‘ni texnikalarni sotib olmoqdalar, ba‘zi birlarini ijaraga olmoqdalar. Bunda o‘z mablag‘laridan hamda chetdan jalb etilgan mablag‘lardan, asosiy vositalarni barpo etishda sof daromadlaridan ajratilayotgan mablag‘, amortizatsiya fondi, asosiy vositalarni sotishdan, tugatishdan tushayotgan mablag‘lardan foydalanmoqdalar. Ular etmagan hollarda aktsiyalar chiqarib, sotish natijasida ham mablag‘larni barpo etish mumkin. Lekin bu munosabat Baliqchilik xo‘jaliklari korxonalarida ayrim sabablarga ko‘ra rivojlanayotgani yo‘q.

Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida davlat mablag‘lar bilan yordam bermoqda. Dastavval davlat byudjetidan qishloq xo‘jaligida yangi yerlarni o‘zlashtirish, foydalanilayotgan zax va sho‘rlangan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv bilan ta‘minlash ishlari hamda ekologiyani sog‘lomlashtirish uchun mablag‘ ajratiladi. Buning uchun Respublika Moliya Vazirligi qoshida davlat buyurtmalari bo‘yicha belgilangan miqdordagi mahsulotlarni sotib olish uchun maxsus fond tashkil etilgan. Shu fondan qishloq xo‘jaligiga mablag‘lar transh shaklida berilmoqda. Uning asosiy qismi yilning boshida xo‘jaliklarga ajratilmoqda. Xo‘jaliklar bu mablag‘larning 93 foizidan ko‘proq qismini o‘g‘itlar, yoqilg‘i, yonilg‘i, yog‘lovchi materiallar hamda ehtiyot qismlar sotib olganliklari uchun maqsadga muvofiq sarflaydilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy va aylanma vositalarni ta‘sischilarning, homiylarning mablag‘laridan foydalangan holda ham qurish, sotib olish mumkin. Hozirgi davrda qishloq xo‘jalik korxonalarini yerlarning unumdorligini oshirish maqsadida sug‘orish, kollektor-drenaj tizimlarini hamda xo‘jalik uchun zarur bo‘lgan bino va

inshoatlarni qurishda, kapital ta'mirlashda ixtisoslashgan qurilish tashkilotlari xizmatlaridan ham foydalanmoqdalar.

Bu kabi ishlarni bajarishga xo'jaliklarning o'z mablag'lari etishmagan hollarda ular o'zgalarning vaqtincha bo'sh bo'lgan mablag'laridan kreditlar shaklida hamda lizing kreditlaridan ham foydalanishlari maqsadga muvofiqdir. Bunda respublikada faoliyat ko'rsatayotgan «Agromashlizing» kompaniyasining xizmatlaridan foydalanish mumkin. CHetdan jalb etilayotgan mablag'larga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar, tijorat banklaridan, hamkorlardan, chet ellardan olinayotgan uzoq, qisqa muddatli qarzlari kiradi. Ular hisobidan asosiy va aylanma vositalar barpo etilmoqda. Asosiy va aylanma vositalar barpo etishning bir qancha yo'llari mavjud. eng avvalo, qishloq xo'jalik korxonalarini o'z ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqaruvchilarning o'zidan olgani ma'qul. Bunday munosabatda o'rtada vositachilar bo'lmasligi sababli tegishli vositalar arzonroqqa tushadi. Shuning uchun xo'jaliklar bu aloqaning doimiyligini ta'minlashga harakat qilishlari kerak.

Lekin hozirgi davrda Baliqchilik xo'jaliklari korxonalarini aksariyat asosiy va aylanma vositalarni xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning tashkilotlaridan, bazalardan (yoqilg'i, kimyoviy vositalar), birjalardan, auktsionlardan hamda ko'rgazmalardan sotib olmoqdalar. Ulardan sotib olinayotgan ishlab chiqarish vositalarining bahosi vositachilik ustamasi evaziga ancha yuqori bo'lganligi sababli ko'plab mablag'lar ortiqcha sarflanmoqda.

Kelajakda qishloq xo'jalik korxonalarini ishlab chiqarish vositalarini barpo etish manbalari hamda shakllantirish yo'llarini rivojlantirishga alohida e'tibor berishlari, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni rivojlantirishga erishishlari maqsadga muvofiqdir. Bunda ular hamkorlar bilan imkoniyat doirasida uzoqroq muddatga shartnomalar tuzishga intilishlari, shartnomalarning sifatli tuzilishini, to'liq bajarilishini ta'minlab, o'zaro ishonch muhitini yaratishlari kerak.

Shu bilan birga ichki va tashqi investitsiyalarni olib kirishga va ularning ko'lamini kengaytirishga katta e'tibor berish lozim. Buning uchun katta, kichik hajmdagi hamkorlikni rivojlantirish zarur. Shu yo'llar bilan tarmoq va xo'jalik

rahbarlari asosiy va aylanma vositalarga bo'lgan talabini qondirishga erishishlari mumkin.

Baliqchilik komplekslarining iqtisodiy salohiyatini rivojlantirish ko'p jihatdan ularning asosiy fondlari holati va foydalanish samaradorligiga bog'liq. O'zbekistonda baliqchilik sohasini rivojlantirishning

2025 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda Baliqchilik sanoatini rivojlantirish strategiyasining (keyingi o'rinlarda Strategiya) vazifalaridan biri bu zamonaviy baliqchilik xo'jaliklarini texnik qayta jihozlash, tashkil etish va modernizatsiya qilishdir. Ushbu vazifaning bajarilishi mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, baliq mahsulotlarining global raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha umumiy maqsadga erishishda o'z hissasini qo'shishi kerak.

Ushbu muammolarni hal qilishda zamonaviy flotning roliga baho berish qiyin. Kamroq resurslardan foydalanadigan kichik xo'jalik narxlar raqobatida g'olib chiqadi. Fermer xo'jaliklarini zamonaviy qayta ishlash uskunalari bilan jihozlash narxdan tashqari raqobatni rivojlantiradi. Uskunalarni yangilash yo'nalishini tanlash uning texnik holatini ham, undan foydalanish samaradorligini tahlilini ham har tomonlama tahlil qilishga asoslangan bo'lishi kerak. Biroq, bunday tahlilga individual ko'rsatkichlarni hisoblash uchun ma'lumotlarning yetishmasligi, e'lon qilingan statistik ma'lumotlarning gorizontal va vertikal jihatdan taqqoslanmasligi, shuningdek alohida boshqaruv obyektlari bo'yicha ma'lumotlarni ajratishning iloji yo'qligi xalaqit beradi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Baliqchilik xo'jaligi moddiy texnika bazasi va uning tarkibi qanday?
2. Asosiy va aylanma vositalardan samarali foydalanish yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. Asosiy vositalar nima?
4. Aylanma vositalar nima?
5. Baliqchilik xo'jaligining moddiy-texnika resurslari darajasini ifodalovchi

ko'rsatkichlar va ularni aniqlash tartibi qanday?

6. Innovatsiyaviy texnika, texnologiyalarni baliqchilik xo'jaligida ko'llashning samaradorligi nimadan iborat?

7. Innovatsiyaviy boshqaruvni baliqchilik xo'jaligida ko'llashning samaradorligi nimadan iborat?

8. Fond sig'imi nima?

9. Fond qaytimi nima?

10. Amortizatsiya nima?

10-mavzu: BALIQCHILIKDA MEHNAT RESURSLARI, ULARNING BOZORI, ULARDAN FOYDALANISH VA MEHNAT UNUMDORLIGI

10.1. Mehnat resurslari haqida tushuncha.

10.2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

10.3. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori va uni rivojlantirish masalalari

10.4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari

10.1. Mehnat resurslari haqida tushuncha.

Mamlakatimizning qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan barcha talablarini qondirishda jonli va buyumlashgan mehnatning ahamiyati ulkan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun moddiy, mehnat va kapital resurslari mavjud bo'lishi shart. Ushbu resurslar ichida mehnat faol resurs bo'lib, qolgan ikkita resursni bir-biri bilan bog'laydi va uning darajasi ishlab chiqarish jarayonining natijalariga ta'sir ko'rsatadi.

Mehnat - bu insonning ongli, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Ishlab chiqarish jarayoni inson mehnati, mehnat predmetlari va vositalari, tabiiy sharoitlarning samarali uyg'unlashishini talab etadi. Inson shu ishlab chiqarish vositalarini ma'lum hududda, davrda ishga solib, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ishlab chiqarish jarayonining samarasi, avvalo, mehnat resursining bilimiga, malakasiga, mehnatga munosabatiga, qolaversa, fan-texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish vositalarining sifatiga, holatiga va nihoyat, tabiiy sharoitga bogliq. Demak, inson o'z faoliyatini ularning barchasini oqilona, uddaburonlik bilan samarali ishga solishga qaratishi kerak. Shunday mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning tabiati ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Demak, talabni qondira olish qobiliyatiga ega boigan qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, xizmatlarni bajarish insonning ongli faoliyati, ya'ni mehnatiga bevosita bogliqdir.

Chunki u qiymatni yaratadi, qolaversa, mehnat insonning ongli-maqсадga yo'naltirilgan faoliyatidir. U bilan mehnat predmetlari hamda vositalari uyg'unlashgan holda ish jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayonning mahsuli qiymat hisoblanadi.

Demak, talabni qondira olish qobiliyatiga ega bo'lgan mahsulotlarni yetishtirish, xizmatlarni bajarish insonning jonli faoliyati (mehnati) bilan mehnat predmetlari va vositalarining maqsadga muvofiq bog'lanishiga bog'liq. Ya'ni, inson mehnati yer traktor chigit (urug') va yoqilg'ilarning ijobiy bog'lanishi natijasida baliq va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladi. Ularning miqdori, sifati bevosita yuqoridagi omillarga bog'liq. Lekin inson va uning ongli faoliyati bo'lmasa hech qanday mahsulot yaratilmaydi, ish yoki xizmat bajarilmaydi. Shunday ekan, faqat inson o'zining ongli faoliyati bilan mahsulotlarni yaratadi, ishlarni, xizmatlarni bajaradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda tabiiy sharoitning (harorat, yog'in va issiq kunlar miqdori) ahamiyati katta. Ishlab chiqarish inson mehnati hamda mehnat proyedmetlari va vositalari, tabiiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda samrali uyg'unlashishini talab etadi. Inson shu ishlab chiqarish vositalarini ma'lum hududda, davrda ishga solib, ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi. Bu jarayon bir qancha mehnat jarayonlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, , baliq yetishtirish uchun xavzalar tayyorlash, ularni ozuqalariga qarash, kislorodga to'yintirish, ishlov berish, hosilni terib olish va boshqalar.

Ishlab chiqarish jarayonining samarasi, avvalo, insonning ongiga, bilimiga, malakasiga, munosabatiga, qolaversa, fan-texnika taraqqiyotiga, ishlab chiqarish vositalarining sifatiga, holatiga va nihoyat, tabiiy sharoitga bog‘liq. Demak, inson o‘z faoliyatini ularning barchasini oqilona, uddaburonlik bilan samarali ishga solishga qaratishi kerak. Shunday mehnat iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning tabiati ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadi. Qishloq xo‘jaligida mehnat tarmoqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi xususiyatlarga ega:

- mehnat va uning samarasi tabiiy sharoit bilan bog‘liqligi;
- mehnatdan foydalanishga ishlab chiqarish mavsumiyligining ta’sir qilishi;
- qishloq xo‘jaligidagi mehnatning o‘simliklar hamda tirik mavjudotlar (hayvonlar, o‘simliklar) bilan uzviy bog‘langanligi;
- qishloqdagi mehnat saviyasi va bilim darajasining nisbatan pastligi;
- o‘simchilik va chorvachilik tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilganlik va mexanizatsiyalashtirilganlik hamda elektrlashtirilganlik darajasi pastligi;
- tarmoqda tor doiradagi ixtisoslashishning kamligi;
- qishloq xo‘jaligida sarflanayotgan mehnat tarkibida ayollar va yoshlar mehnati salmog‘i (hissasi) ning ko‘pligi;
- qishloq xo‘jaligida mehnatga to‘lanayotgan haq va uning ijtimoiy himoyalanihi boshqa tarmoqlardagiga nisbatan pastligi va boshqalar.

Ta’kidlangan xususiyatlar tarmoqda sarflanadigan mehnatning miqdoriga, sifatiga va samarasiga bevosita ta’sir etadi. Turlicha tabiiy sharoitda, har xil darajada ixtisoslashgan xo‘jaliklarda bir xil ish jarayonlarini amalga oshirish uchun har xil miqdorda bir turdagi mehnat sarflanadi, uning samaradorligi ham birbiridan farq qiladi. Kech kuz, qish va erta bahorda mehnat sarfi keskin kamayib, hosilni yig‘ib olishda unga bo‘lgan talab ortadi. Shu davrda mavsumiy ishchilar shartnoma asosida jalb etiladi. O‘simchilik va chorvachilikda bajariladigan ishlarning ko‘pchiligi yuqori darajada bilim va malaka talab etmaydi. Qishloq xo‘jaligidagi mehnat tarkibida ayollar mehnatining salmog‘i hozirgi davrda ancha yuqori. Shuning uchun ham tarmoqda mehnatga to‘lanayotgan haq kamroq.

Tarmoqning yangi, unumli texnikalar bilan talab darajasida ta'minlanmaganligi ayrim ish jarayonlarini (sug'orish, chikanka qilish, hosilni yig'ib olish, chorva hayvonlarini oziqlantirish, sog'ish) to'liq mexanizatsiyalashtirish imkonini bermaydi, natijada oddiy jonli mehnat harajatlari ortadi. Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonini amalga oshirishda uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun barcha xususiyatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolarni mehnat resurslari deb ataladi. Ularning huquqiy asoslari tarkibi hamda faoliyati Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Mehnat kodeksi»da (04.1996y), «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi (05.1998y) qonunda batafsil ko'rsatilgan. Mehnat resurslari 16 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan yerkaklar, 54 yoshgacha bo'lgan ayollar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan o'smirlar va nafaqaxo'rlar ham mehnat resursi sanaladi. Ularning tarkibida iqtisodiy faol mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar alohida ahamiyat kab etadi. Ularni 16-54 yoshgacha bo'lgan ayollar, 59 yoshgacha bo'lgan yerkaklar tashkil etadi. Ular mehnat resurslarining asosini tashkil etadi. Ular Respublikada 2020 yilning boshiga mavjud aholining 56,4%, jami mehnat resurslarining esa 99,5 foizini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida 2019 yilning oxirida 18949 ming kishi band bo'lgan. Bu jami aholining 56,4 foizini tashkil etgan.

Mavjud mehnat resurslarining 2020 yilning 2 choragi ma'lumotlariga ko'ra 3400,7 ming kishiga yoki 23,2 % yaqini qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatadi. Ular o'zlarining ongli, maqsadli mehnatlari bilan qishloq xo'jaligini rivojlantirishga, uning samardorligini yuksaltirishga ulkan hissa qo'shishi lozim. Demak, ularning mehnatlari unumli bo'lishi kerak. Shu bilan «mehnat unumdorligi» tushunchasi paydo bo'lmoqda. Mehnat unumdorligi deganda, foydalanilayotgan texnikalar, texnologiyalar yordamida bir birlikdagi mahsulotni yetishtirish, ishni bajarish uchun sarflanadigan vaqtning miqdorini nazarda tutish lozim. Bu «Mehnatni tejash» iqtisodiy qonunining amal qilishidan dalolat beradi.

Mehnat unumdorligining amaliyotdagi tushunchasi ham mavjud. Ya'ni sarflanayotgan bir birlikdagi vaqt ichida yaratilgan qiymat yoki ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish mehnatning unumdorlik darajasini ifodalaydi. Mehnat unumdorligi to'g'risidagi bu tushunchalar bir-birini inkor etmaydi, aksincha to'ldiradi. Qishloq xo'jaligidagi mehnat ongli, maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, uning unumdorligi yuqori bo'ladi. Bu esa tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydi.

10.2. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularni aniqlash tartibi

Mehnat resurslari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ishlab chiqarish resurslarining eng faol omili sifatida katta ahamiyatga ega. Ular ishlab chiqarish jarayonida ongli ravishda qatnashib, ko'proq, sifatliroq mahsulotlarni talabni qondiradigan miqdorda yetishtirishga, ish va xizmatlarni tez va samarali bajarishga harakat qiladi. Shunday ekan, ulardan yil davomida to'liq, samarali foydalanishga erishish lozim. Buning uchun mehnat resurslaridan foydalanilayotganlik darajasini aniqlash kerak. Uni aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

a) Mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti. Uni aniqlash uchun ishlab chiqarish jarayonida haqiqatda qatnashgan mehnat resurslari miqdorini (kishi) xo'jalikda shartnoma (buyruq) bo'yicha mavjud bo'lgan mehnat resurslari miqdoriga taqsimlanadi. U quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MK = \frac{\sum IMr}{\sum MMr}$$

Bunda: M_k – mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyenti;

$\sum IMr$ – haqiqatda ishlagan jami mehnat resurslari, kishi;

$\sum MMr$ – mavjud bo'lgan jami mehnat resurslari, kishi.

Bu ko'rsatkichning darajasi birga yaqin bo'lgani yaxshi. Shunda u mavjud mehnat resurslaridan foydalanish darajasi yuqori bo'lganligidan dalolat beradi.

b). Mehnat resurslarining xo'jalik faoliyatida qatnashishi (1 oyda, 1 yilda). Uning miqdorini xo'jalik faoliyatida jami sarflangan vaqtni sarflangan mehnat resurslarining umumiy miqdoriga taqsimlash natijasida aniqlash, bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin.:

$$MRXQk = \frac{\sum MRSv}{\sum IMR}$$

Bunda: $MRXQk$ – mehnat resurslarining ma’lum bir muddatda o‘rtacha ishlagan ish vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

$\sum MRSv$ mehnat resurslarining jami sarflagan ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu ko‘rsatkichning mutlaq (absolyut) miqdori aniqlanayotgan davrdagi (oyda, yilda) bir kishining ish vaqti fondidan yuqori bo‘lmaydi. Mehnat resurslarining har bir guruhi uchun amaldagi qonunlarda yillik yoki oylik ish vaqti fondi belgilanadi. Uning miqdorini bir yildagi kalendar kunlar miqdoridan barcha turdagi bayram (agar u qonun bo‘yicha dam olish kuni hisoblansa), dam olish hamda ta’til (otpuska) kunlarini ayirish orqali aniqlanadi. Respublikada yillik ish vaqti fondi 276-286 kun yoki 2208-2288 soat miqdorida belgilangan. Bu iqtisodiy faol mehnat resurslarining yillik ish vaqti fondi hisoblanadi. O‘smirlar uchun bu fond ularni ijtimoiy jihatdan himoya qilgan holda belgilangan. Xuddi shunday imtiyozlar inson salomatligi uchun zarur ishlarni bajaruvchilar uchun ham o‘rnatilgan.

s). Belgilangan ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti ham aniqlanadi. U bir ishchi yoki xizmatchining ishlab chiqarishda haqiqatda ishlagan vaqtini (kishi-kuni, kishi-soatini) qonunda belgilangan miqdorda ishlashi lozim bo‘lgan vaqtga taqsimlash natijasida aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$IVFk = \frac{MRIV}{MRIN}$$

Bunda: $IVFk$ – ish vaqti fondidan foydalanish koeffitsiyenti %;

$MRIV$ – mehnat resurslari hisoblangan bir kishining bir yilda ishlagan vaqti, kishi-kuni, kishi-soati;

$MRIN$ – bir kishi uchun qonunda belgilangan, ishlashi lozim bo‘lgan vaqt, kishi-kuni, kishi-soat.

Bu koeffitsiyentning miqdori birdan oshmasligi kerak. Agar u qanchalik kam bo‘lsa, bu mehnat resursi foydali mehnat jarayonida kam qatnashganligidan

dalolat beradi.

e) Mehnatning unumdorligi darajasi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun haqiqatda sarflangan jami ish vaqti miqdorini shu davrda ishlab chiqilgan mahsulot miqdoriga, qiymatiga hamda bajarilgan ish hajmiga taqsimlash zarur. Bu mehnatni tejash iqtisodiy qonunining talabi.

Amaliyotda esa u haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulotning, bajarilgan ishning miqdori yoki qiymatini unga sarflangan ish vaqtiga taqsimlash natijasida aniqlanmoqda. Bunday usulda ular bir-birlarini inkor etmaydi, balki to'ldiradi. Ularni aniqlash uchun ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$MU = \frac{Sv}{Em} \text{ yoki } MU = \frac{Em}{Sv}$$

Bunda: Mu —mehnatning unumdorlik darajasi, kishi-kuni, soati, so'm;

Sv —mahsulot yetishtirish, xizmat ko'rsatish uchun sarflangan ish vaqti, kishi-kuni, soatda;

Em —sarflangan vaqt ichida yetishtirilgan mahsulot, so'm.

Bu ko'rsatkich yetishtirilayotgan bir birlikdagi (tsen, tonna, so'm) mahsulot uchun qancha vaqt sarflanganligini yoki sarflangan bir birlikdagi vaqt evaziga qancha mahsulot yetishtirilganligining, xizmatlar bajarilganligining darajasini ifodalaydi. Mahsulot birligiga sarflangan jonli mehnat miqdori kamaysa yoki sarflangan bir birlik mehnat evaziga yetishtirilgan mahsulot birligi ko'paysa, mehnat unumdorligi oshganligidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligida ayrim ish, mahsulot turlari, davrlari hamda xo'jalik miqyosida natura hamda qiymat ko'rinishida aniqlanadi. Uning darajasini qiymat ko'rinishida bir necha yillar davomida aniqlashda qiyosiy baholardan foydalanish lozim. Shunda qishloq xo'jalik mahsulotlari baholari o'zgarishining ta'siri bartaraf etiladi. Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida qatnashayotgan mehnat resurslaridan qanday foydalanilayotganlik hamda sarflanayotgan mehnatning unumdorlik darajasi aniqlanib, chuqur tahlil etiladi.

Shunga asoslangan holda kelajakda mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash va sarflanishi zarur bo'lgan mehnatning unumdorligini oshirish uchun

qanday tadbirlarni ishlab chiqish kerakligi belgilanadi.

Bu ko'rsatkichni qishloq xo'jaligi tarkibidagi tarmoqlar (o'simchilik, chorvachilik, baliqchilik) doirasida ham aniqlash mumkin. Bunda qishloq xo'jaligi asos qilib olinadi. Ichki tarmoqlarning shunga nisbatan salmog'i aniqlanadi. Tarmoq miqyosida mamlakat qishloq hududlarida yashayotgan aholining qanday salmoqqa egaligi, qishloq xo'jaligida bandligi ham aniqlanishi mumkin. Uning darajasini aniqlash uchun qishloq xo'jaligida band bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdorini qishloq hududlarida yashayotgan umumiy aholi miqdoriga taqsimlab, 100 ga ko'paytirish kerak. Chunki bu ko'rsatkich foizda aniqlanadi.

Shu ko'rsatkichlar yordamida makroiqtisod doirasida qishloq xo'jalik tarmog'ida band bo'lgan mehnat resurslarining salmog'i, ular mehnatining unumdorlik darajasi aniqlanib, tahlil qilinishi mumkin. Shuning natijasida tarmoqda mehnat resurslarining bandligiga oid chora-tadbirlar mikro va makroiqtisod doirasida ishlab chiqilishi mumkin.

10.3. Qishloq xo'jaligida mehnat bozori va uni rivojlantirish masalalari

Qishloq hududlarida mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish, ularning mehnatlari unumdorligini yuksaltirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoyalash eng dolzarb muammo hisoblanadi. Bu muammo muvaffaqiyatli hal etilishi uchun quyidagi masalalar aniqlanib, ularning echimini ta'minlashga qaratilishi lozim:

- qishloq hududlarida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining umumiy miqdorini, istiqbolda ularning o'zgarish (ko'payish, kamayishi) darajasini aniqlash;
- qishloq hududlaridagi barcha tadbirkorlik shakllarida qisqa va uzoq muddatga bo'sh bo'lgan ish joylari miqdorini mutaxassislik turlari bo'yicha belgilash;
- qisqa va uzoq muddatga bo'sh bo'lgan ish joylarini ishlovchilar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni asoslangan holda ishlab chiqish (kadrlar malakasini oshirish, ularni qayta tayyorlash ...);
- amalga oshirilishi lozim bo'lgan hamma tadbirlarni, barcha resurslar bilan

ta'minlovchi ishlarni amalga oshirish;

- ish bilan ta'minlanmaganlarning umumiy miqdorini aniqlash, ularni iqtisodiy, ijtimoiy himoyalash bo'yicha me'yoriy tadbirlarni ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va boshqalar.

Ta'kidlangan muammolarning samarali hal etilishi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lganlar bilan mehnat jarayonini tashkil etuvchi subyektlar hamda iqtisodiy, ijtimoiy himoyalashni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Bu masalalarni hal etish, mehnat bozori zimmasiga yuklanmoqda. Mehnat bozori, mehnat birjasining huquqiy asoslari yaratilmoqda. Ular o'z faoliyatlarini «Mehnat kodeksi», «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi hamda «Birjalar to'g'risida»gi qonunlar asosida yuritmoqdalar.

Qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo'jaligidagi) fuqarolarning mehnat qilish imkoniyatini, ya'ni taklifini, ularni ishga yollash (sotib olish), ya'ni ish bilan ta'minlovchilar hamda ijtimoiy-iqtisodiy himoya qiluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qonun talablari darajasida amalga oshiradigan maskan (hudud) yoki subyekt mehnat birjasi ekanligidan dalolat beradi.

Erkin bozor iqtisodi sharoitida o'z mehnatini taklif etayotgan fuqaro mehnat bozoriga chiqadi. U yerda mavjud bo'lgan takliflarni o'rganib, o'zining intellektual qobiliyatini, mehnatini taklif etadi. Ular bir-biriga mos kelganda shartnomalar tuzilib, ishga yollanadi. O'zbekiston Respublikasida ham shunday tartib joriy etilmoqda. Bu vazifani qishloq hududlarida tuman hokimiyati tarkibidagi Mehnat birjasi yoki aholini ish bilan ta'minlash bo'limi amalga oshirmoqda.

Demak, mehnat bozorida o'zlarining mehnat qilish qobiliyatini (intelektini) taklif etuvchilar bir tomondan, ularning shu imkoniyatlarini iste'mol etuvchi, ya'ni ishga yollovchi subyektlar ikkinchi tomondan uchrashib, mehnat almashuv (mehnat oldi-sotdisi) jarayonini amalga oshiradilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozorining nazariy asoslari shotlandiyalik iqtisodchi A.Smit, ingliz iqtisodchisi D.Rikardo, Nobel mukofoti lauriyati, amerikalik iqtisodchi Paul A.Samuyelson va boshqa olimlar tomonidan

etarli darajada asoslangan. Yaratilgan nazariyani hayotga tatbiq etish yo‘llari ham hal etilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat shu bozorda erkin sotilishi lozim. Shundagina u qiymatga ega bo‘ladi, ya’ni tovar shaklida ayirboshlanadi.

Demak, mehnat bozori erkin raqobat asosida amalga oshirilishi zarur. Bu bozorda mehnat munosabatlariyu, iqtisodiy, ijtimoiy qonunlar talab va taklif iqtisodiy qonunlari talablari asosida amalga oshirilishi lozim. Mehnat bozorida inson o‘zini emas, balki mehnat qilish (jismoniy, aqliy) qobiliyatini taklif etadi. Iste‘molchi, ya’ni mehnatni oluvchi shu qobiliyatni sotib oladi. Demak, oldi-sotdi jarayonidagi iqtisodiy munosabat predmeti insonning mehnat qilish qobiliyati hisoblanadi. Insonning mehnat qilish qobiliyatiga to‘lanayotgan ish haqi shu mehnatning qiymati, ya’ni bahosi ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasida erkin bozor iqtisodi bosqichma-bosqich shakllanishi munosabati bilan mehnat va u bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlar ham asta-sekin hal etilmoqda. Dastavval tumanlarda mavjud bo‘lgan Mehnat resurslari bo‘limi negizida hokimiyat tarkibida Mehnat birjasi tashkil etildi. Mehnat birjalariga qishloq xo‘jaligidagi mehnat bozorini tashkil etish, uni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Ular faoliyatini «Birjalar to‘g‘risida»gi qonun, o‘z Ustavi hamda yuqori tashkilotlarning me‘yoriy hujjatlari asosida yuritmoqdalar.

Qishloq hududlaridagi mehnat bozorini samarali shakllantirishda quyidagi holatlarni e‘tiborga olish zarur:

- respublika aholisining 62,0 foizi (2008y) qishloq hududlarida yashayotganligi munosabati bilan jami mehnat resurslarininng 60 foizdan ortig‘i qishloq hududlari zimmasiga to‘g‘ri kelishi;

- aholining ish bilan band bo‘lmagan qismining 60 foizdan ortig‘i qishloq hududlariga to‘g‘ri kelishini, ular tarkibida ayollar salmog‘i ko‘pligini;

- qishloq hududlarida aholi sonining o‘shish darajasi shaharlardagiga nisbatan yuqori ekanligini, bu hol kelajakda mehnat resurslarining yuqori sur‘atlarda o‘shishiga ta’sir etishini;

- qishloq hududlarida sanoat korxonolari talab darajasida rivojlanmaganligini va barcha resurslarni e‘tiborga olgan holda

joylashtirilmaganligini;

- hozirgi davrda qishloq hududlarida ish bilan ta'minlanmagan, iqtisodiy faol mehnat resurslari hisoblangan yerkaklarning yirik shaharlarga ish qidirib kelayotganini;

- qishloq hududlarida shaxsiy va xususiy mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik shakllari talab darajasida rivojlanmaganligini, shuningdek, infratuzilma subyektlari (madaniy, maishiy, kommunal va boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi) ko'lamining torligini.

Mehnat bozorlari yuqorida ta'kidlangan barcha xususiyatlarni e'tiborga olgan holda erkin shakllanishi uchun:

- qishloq hududlaridagi (jumladan, qishloq xo'jalik korxonalaridagi) mehnat resurslarining umumiy miqdorini, tarkibini aniqlash;

- mehnat resurslarining taklifini va hududdagi barcha tadbirkorlik subyektlarining ularga bo'lgan talabini tarkibi bo'yicha aniqlash;

- erkin mehnat bozorini shakllantirish hamda ularning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni ishga solish;

- qishloqda mehnat resurslarining maqsadga muvofiq bandligini ta'minlashga hissa qo'shish;

- mehnat bilan band bo'lmagan fuqarolar miqdorini aniqlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan himoya qilishga ko'maklashish;

- erkin mehnat bozori amalga oshirilishini ta'minlovchi turli ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish, ularning samarali o'tkazilishiga erishish;

- mehnat bozorining rivojlanishini ta'minlovchi barcha resurslarni topib, samarali sarflash kabi vazifalarni bozor talablari darajasida amalga oshirish lozim.

Qishloqlarda mehnat bozorini oqilona tashkil etib, samarali boshqarish uchun hududiy usullardan foydalanish kerak.

Respublikamizning mehnat resurslari ortiqcha hududlari, avvalo, Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro

va Xorazm viloyatlari uchun mazkur bozorni tartibga solishning ancha samarali usullari, ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshishi va uning taklifi kamayishini hisobga olish zarur.

Mazkur usullar nimalarda ifodalanilishini batafsil ko'rib chiqaylik.

a) Ishchi kuchiga talabni oshirish usuli.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish, iqtisodiyotimizni tarkibiy o'zgartirish, zararga ishlayotgan korxonalarni tugatish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va intensiv texnologiyalarni joriy etish hisobiga asosan ishlab chiqarishdan bo'shatilayotgan xodimlar – mehnatkashlar soni tez ko'paymoqda.

Ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirishni rag'batlantirish usullarini tadqiq etish mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlashga hamda mazkur hududlar uchun samarali tarmoqlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va harid qilish hamda agroservis xizmati ko'rsatish va shaxsiy mehnat faoliyati bo'yicha ish joylarini yaratish, ishlab chiqarish kuchlari va bandlikning noan'anaviy shakllarini rivojlantirish, agrar sektordagi ishdan vaqtincha bo'shatilayotgan shaxslar uchun mavjud korxonalarni kengaytirish va qayta ta'mirlash hamda yangi ish joylarini yaratish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar – sarmoyalar qo'llanishining asosiy yunalishlaridir.

Ishchi kuchlariga talabni oshirishni agrosanoat majmuining mehnat resurslarini qayta taqsimlashdan manfaatdor tarmoqlarida ish joylarini yaratish hamda mavjudlarini qayta ta'mirlash va yangi, zamonaviy kasblarni egallashga sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish orqali tartibga solish mumkin. Dotatsiyalar, subsidiyalar va kreditlarni agrosanoat majmui korxonalarini, ayniqsa, qayta ishlash korxonalarini qurish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va rekonstruksiyalashga, shaxsiy mehnat faoliyatini rivojlantirish yo'li bilan xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirishga, shuningdek, ko'p bolali ayollar, mehnatga layoqatli pensionerlar, nogironlar, o'smirlar va hokazolarga mos ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir. Shu tariqa ortiqcha mehnat

resurslarini yuqorida aytib o‘tilgan tarmoqlarga va ayrim maxsus ish joylariga jalb etish, ayni paytda ishchi kuchlarining kasbiy malaka tarkibiga bevosita ta’sir o‘tkazishi mumkin.

Muvaqqat ish joylarini yaratish va mulkchilik turli shakllarini rivojlantirish aholi bandligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri. U korxonalarining iqtisodiy manfaatdorligini oshirish, byudjet to‘lovi va xodimlarning vaqtincha va qisman bandligi uchun ijtimoiy sug‘urta badallarini kamaytirish, ularni ishga qabul qilish jarayonini yengillatish, bandlikning noan’anaviy shakllarini tashkil etish bilan bog‘liq sarf-harajatlarni to‘lash kabi chora-tadbirlar yordamida amalga oshiriladi.

b) Ishchi kuchlariga taklifni kamaytirish usuli.

Ishchi kuchlariga bo‘lgan taklifni kamaytirishga, shuningdek, ularning mehnat bozoriga oqib kelishini qisqartirish va boshqa joyga ketishini rag‘batlantirish hamda ish vaqti va mavjud ish joylarini ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar o‘rtasida qayta taqsimlash orqali samarali ta’sir etish mumkin. Respublikamizda «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» asosida umumta’lim dasturlarini kengaytirish va o‘qish muddatini uzaytirish bilan kasbiy tayyorgarlikni yaxshilash, o‘quv yurtlarida kunduzgi o‘quvdagi talaba o‘rinlarini qisqartirish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o‘qiyotganlarga stipendiyalarni oshirish, ayollarga bola parvarishi uchun to‘lanadagin nafaqalar va beriladigan ta’til muddatini ko‘paytirish, mehnat stajini hisoblashda ularga imtiyoz berish; nafaqaxo‘rlar, nogironlar hamda ularni parvarishlaydigan shaxslarning nafaqalarini oshirish mehnat bozoriga ishchi kuchlarining oqib kelishini kamaytirish chora-tadbirlari hisoblanadi.

Ish bilan bandlar orasida ish vaqti va ish joylari ishchi kuchlariga bo‘lgan taklifni kamaytirish maqsadlarida qayta taqsimlanadi. Aholi bandligining xususiy va vaqtinchalik shakllariga o‘tishini rag‘batlantirish-ga ularga ham ish bilan to‘la band shaxslarga mo‘ljallangan ijtimoiy muhofaza turlarini, ta’tillar va boshqa ijtimoiy kafolatlarning miqdorlarini o‘rnatish, kafolatlangan eng kam miqdordagi ish haqi bilan ta’minlash, har yili beriladigan ta’tillarni o‘z vaqtida berish, ish kuni

va ish haftasi davomiyligini qisqartirish orqali erishish mumkin.

Mamlakatimizning mehnat resurslari etishmaydigan mintaqalari (Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi) da ishchi kuchlariga talabni kamaytirish hamda ular taklifini ko‘paytirish mehnat bozorini tartibga solishning maqsadga muvofiq usullaridir.

Ushbu usullarning mohiyati quyidagilardan iborat:

a) Ishchi kuchlariga talabni kamaytirish usuli.

Mazkur guruhga hududiy hokimiyatlarning u yoki bu mintaqalarida va tarmoqlarida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va yangi ish joylarini vujudga keltirishni sekinlashtirishga oid quyidagi chora-tadbirlar: ortiqcha ish kuchlaridan foydalanganlik uchun qo‘shimcha soliqlarni belgilash: izchil kredit siyosatini o‘tkazish, korxonaga xodimni ishga olganligi uchun bir martalik to‘lovni joriy etish, ortiqcha ishchi va xizmatchilarni qisqartirishni rag‘batlantirish va hokazolar kiradi. Bundan tashqari, ishchi kuchlariga talabni kamaytirishda mehnat unumdorligini oshirish va tejamkorlikka erishish muhim ahamiyatga ega.

Rivojlangan bozor munosabatlari sharoitlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish raqobat, foydani taqsimlash mexanizmi, soliq siyosati kabi iqtisodiy mexanizmlar va dastaklar yordamida ta‘minlanishi lozim. Hozirgi paytda sanoat ishlab chiqarishi samaradorligini oshirishni rag‘batlantirishning umumxo‘jalik mexanizmlari yaxshi takomillashtirilma-ganligini hisobga olib, mehnat resurslari uchun ilgari joriy qilingan to‘lovlarni qayta tiklash maqsadga muvofiqdir. Ular mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va shtatdan tashqari xodimlar sonini kamaytirishga ko‘maklashgan. Bu xil to‘lovlar korxonalar va tashkilot tomonidan shtatdan tashqari xodimlarni saqlash uchun qat‘iy stavka shaklida o‘rnatiladi. Shu bilan birga, ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-harajatlar o‘rnini qoplash uchun ijtimoiy sug‘urta solinadigan soliq va ishsizlikdan muhofaza qilish jamg‘armasiga solinadigan maxsus soliqdan (ikkalasi ham mehnatga haq to‘lash fondidan, foizlarda) foydalanish mumkin. Ishchi kuchlarini takror ishlab chiqarishga sarf-harajatlarning ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan bunday tizimi jonli mehnatdan foydalanishning

intensiv shakllarini ifodalaydi hamda mehnat bozoridagi xodimning ijtimoiy jihatdan muhofazalanishi uchun zarur kafolatlar yaratadi.

b) Ishchi kuchlari taklifini ko'paytirish usuli.

Hozirgi sharoitlarda mehnat bozoriga ishchi kuchlari taklifini mutlaq ko'paytirish imkoniyati cheklangan. Chunki ishchi kuchlari taklifini mutlaq ko'paytirish, qayta ishlash sanoati va xizmat kursatish tarmoqlari, shoxobchalari hamda shaxsiy mehnat faoliyati sohalarining rivojiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, hozirgi paytda ishchi kuchi taklifi na kasb, na malaka strukturasi bo'yicha hudud iqtisodiyoti noqishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi jonli mehnatga talabning o'sish sur'atiga javob bermaydi. Shu bois ishchi kuchi taklifining sifat ko'rsatkichlarini o'zgartirish hamda uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish lozim. Buning uchun esa, bandlik davlat xizmati tizimidagi va boshqa o'quv yurtlaridagi xodimlarning malakalarini oshirishni tashkil etish, korxonalarining o'zidagi maxsus kurslarda kasb-korga o'rgatishni yaxshilash va ularga soliq to'lovida imtiyozlar berish mahalliy kadrlar raqobatbardoshligini oshirishning maxsus dasturini ishlab chiqish kerak.

Ishchi kuchlari taklifini rag'batlantirish xodimlarni ishga yollash va joylashtirishga yordamlashish usullarini qo'llash orqali ham amalga oshiriladi. Bu usullar tashkiliy tusda bo'lib, bo'sh ish joylari va ishga joylashish hamda qayta o'qitishga muhtoj fuqarolarning soni haqidagi ma'lumotlar bankini tashkil etishni, aholining ishga joylashish imkoniyatlari haqidagi axborotlar bilan ta'minlanishni, ishsizlarni ro'yxatga va hisobga olishni, kasbga yo'naltirishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish va o'tkazish kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

Mehnat resurslarini qayta taqsimlashning ancha samarali usullari orasida turmush darajasini tartibga solishini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Mazkur uslublar hududlar moliyaviy resurslari hisobidan xodimlarning mehnat va uy-joy shart-sharoitlari hamda madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish darajalarini yaxshilash kabi tadbirlarni o'tkazib, ularni tartibga solish asosida tatbiq etiladi.

10.4. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish yo'llari

Respublika qishloq xo'jaligidagi mavjud bo'lgan mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish natijasida ularning mehnatlari unumdorligini kelajakda yuksaltirish eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Uni muvaffaqiyatli hal etish keng miqyosda tashkiliy, iqtisodiy hamda ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Dastavval qishloq hududlarida, jumladan, qishloq xo'jalik korxonalarida mavjud bo'lgan mehnat resurslarining real miqdorini aniqlash lozim. Shu bilan birga aholining mutlaq (absolyut) o'sishini e'tiborga olgan holda mehnat resurslarining ko'payish yoki kamayish jarayonini aniqlash kerak. Mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan aholining harakatini ham hisobga olish zarur.

Shundan so'ng qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan ish joylarining hozirgi hamda istiqboldagi sonini real aniqlashga alohida e'tibor berish kerak.

Shularga asoslangan holda mehnat balansi ishlab chiqilishi zarur.

Yuqoridagilarga asoslanib, mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajas, shu orqali qishloq hududlarida (korxonalarda, tarmoqlarda) mavjud bo'lgan mehnat resurslarining ish bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlanadi. Uning darajasi birga yaqin bo'lsa yaxshi, Aks holda mehnat resurslarini ish bilan ta'minlash chora-tadbirlari asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun qishloq xo'jalik korxonalari xo'jalik ichida yangi ish joylarini tashkil etish imkoniyatlarini rejalashtiradi. Yangi yerlarni o'zlashtirish, qurilishni, ta'mirlashni, mahsulotlarni qayta ishlashni (o'simchilik, chorvachilik), xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni, xizmat ko'rsatish sohalarini tashkil etish va rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarni belgilab, ularning hal etilishini ta'minlashga harakat qilinadi. Bu masalalar respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilishini ham e'tiborga olish lozim.

Mehnat resurslaridan foydalanishni rivojlantirish maqsadida ularni takror ishlab chiqarish jarayonlarini, ya'ni malakalarini oshirish, tayyorlash va qayta tayyorlash tadbirlarini ham belgilab olib, amalga oshirilishiga e'tibor berish zarur.

Korxonalarda mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan fuqarolar mehnat unumdorligi darajasini yuksaltirishga hozirgi davrda alohida e'tibor berish lozim. Bu masalaning hal etilishida eng ta'sirchan omil moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyoti sharoitida kim yaxshi, sifatli ishlasa, ko'p haq oladi. Shunday ekan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ham yaxshi, samarali mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchi mehnatiga yarasha ko'proq haq olishi lozim. Shunda u rag'batlantirilgan hisoblanadi. Shu bilan birga mehnatkashlarni moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirishni amalga oshirishni ta'minlash kerak. eng avvalo, mehnatlari natijalarini e'tiborga olgan holda mukofotlash, turli xildagi unvonlarni berish lozim. Bu unvonlar ham ma'lum darajada fuqarolarni mablag'lar bilan ta'minlaydi. Jumladan, Respublikada xizmat ko'rsatgan iktisodchi, agronom, irrigator unvolarini olganlarning asosiy ish haqlariga eng kam oylikning 60 foizi miqdorida ustama beriladi. Demak, ma'naviy rag'batlantirish ham ayrim hollarda moddiylashadi.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida sarflanayotgan mehnatning unumdorligi oshirishini ta'minlash mumkin. Buning uchun xo'jaliklar ixtiyoridagi barcha mashinalar, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish hamda ulardan yil davomida to'liq foydalanishga erishish tadbirlarini shakllantirish lozim. eng avvalo, ularni malakali kadrlar, ta'mirlash ustaxonalari bilan ta'minlash kerak. Xo'jaliklarning ishlab chiqarish resurslari bilan ta'minlanganligini ham talab darajasiga yetkazish zarur. Buning uchun esa moliyaviy resurslar bilan ta'minlash choralarini aniqlab, ularning bajarilishini ta'minlash kerak.

- Demak, qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan yil davomida to'liq va samarali foydalanish hamda ularning mehnatlari unumdorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir:

- tarmoqning rivojlanishini e'tiborga olgan holda qo'shimcha ish joylarini tashkil etish;

- tarmoqning ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va moddiy-texnika ta'minotini yuksaltirish;

- qishloq xo'jaligiga yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni izchillik bilan tatbiq etish;
- qishloqda tadbirkorlik shakllarini rivojlantirish;
- qishloqda ishlash va yashash uchun barcha sharoitlarni yaratish;
- mehnatni tashkil etishning samarali turlarini tashkil etish va rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlash, malakalarini oshirish, ularni moddiy, ma'naviy rag'batlantirishni takomillashtirish va boshqalar.

Bu kabi chora-tadbirlarning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga joriy etilishi tarmoqdagi mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilab, mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan «Biznes maktablari»da faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarining bilimini oshirish bo'yicha yangidan tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklarining rahbarlarini tayyorlash uchun maxsus o'quv kurslari tashkil etildi. Bu kurslarda yirik olimlar, tajribali mutaxassislar qatnashib, fermerlarni tayyorlashga o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Shu kurslarda fermerchilik faoliyatidagi barcha masalalar o'rgatilmoqda. Bu hol albatta, fermerlarni bilimlarini, malakalarini yuksalishini ta'minlaydi. Lekin ayrim hollarda o'qishda qatnashayotgan fermerlarda loqaydlik, e'tiborsizlik, mas'uliyatsizlik hollari yuz bermoqda. Shuning uchun bo'lajak fermerlarni tanlashda shu masalalarga katta e'tibor berish zarur deb hisoblaymiz.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Mehnat va mehnat resurslari haqida tushuncha.
2. Mehnat unumdorligi haqida tushuncha.
3. Mehnat resurslaridan foydalanish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar nimalardan iborat?
4. Mehnat unumdorligi darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar-chi?
5. Mehnat resurslaridan foydalanish va mehnat unumdorligi darajasining holati qanday aniqlanadi?
6. Mehnat bozori nima? Uning maqsadi, vazifasi nimalardan iborat? U qanday tashkil etiladi va rivojlantiriladi?

7. Mehnat resurslaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishning qanday yo‘llari bor?

11-mavzu. BALIQCHILIKDA INVESTITSİYALAR (KAPITAL QO‘YILMALAR), MANBALARI, ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

11.1. Investitsiyalar haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

11.2. Kapital qo‘yilmalar tushunchasi, foydalanishning asosiy yo‘nalishlari, tarkibi va moliyalashtirish manbalari

11.3. Kapital qo‘yimalardan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari

11.4. Kapital qo‘yimalardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

11.1. Investitsiyalar haqida tushuncha, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

«Investitsiya» atamasi, lotincha «invest» so‘zidan olingan bo‘lib, «qo‘yilma» ma’nosini bildiradi

Investitsiyalar - bu kapitalni yanada ko‘paytirish maqsadida amalga oshiriladigan kapital qo‘yimalardir.

Kapitalning ko‘payishi, investor mavjud mablag‘lar iste’molidan voz kechganini kompensatsiyalashi, tavakkalchilik uchun mukofotlashi va ushbu davrdagi inflyatsion yo‘qotishlarni qoplash uchun yetarli bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiyaviy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonunida, «investitsiyalar» tushunchasi «iqtisodiyot yoki boshqa faoliyat obyektlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga egalik qilish huquqi» deb izohlangan.

Investitsiyalar (kapital qo‘yilmalar) – bu iqtisodiyotni barcha sohalari kabi agrosanoat majmuasi sohasini ham asosiy ishlab chiqarish vositalari yordamida rivojlantirishga, qayta ishlab chiqarishni kengaytirishga yo‘naltirilgan moddiy, mehnat va pul resurslari harajatining majmuidir. Investitsiya so‘zi bizning

iqtisodiyotimiz uchun nisbatan yangi bir qancha qamrovli makroiqtisodiy tushunchadir.

Moliyaviy ta'rifi bo'yicha investitsiyalar – bu foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yiladigan mablag'larning barcha turlaridir: iqtisodiy ta'rif bo'yicha esa asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish, qayta tiklash va texnik qayta jihozlashga ketgan qo'yimalardir.

Ishlab chiqarish nuqtai - nazaridan investitsiyalar deganda yangi kapital, shu jumladan ishlab chiqarish vositalari va intellektual salohiyat, qayta ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni tushuniladi.

Respublikamizda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash birinchi navbatda, agrosanoat majmuasiga, shuningdek qishloq xo'jaligi sohasiga ichki va horijiy sarmoyalarni yo'naltirishni talab etadi. Olib borilayotgan tashqi savdo, iqtisodiy, shu jumladan, investitsion siyosat va aloqalarda quyidagi yo'nalishlar ustuvor va muhim ahamiyatga molik hisoblanadi:

- ✚ agrar sohada eksport salohiyatini rivojlantirish va yanada mustaxkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

- ✚ respublika qishloq xo'jaligida eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo qishloq xo'jaligi zahirida qimmatbaho xom ashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini rivojlantirish. Xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda zamonaviy korxonalar barpo etish, ularni ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlash asosida raqobatbop mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;

- ✚ eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo'llash bilan bir qatorda importning salmog'ini qisqartirish (sof eksport hajmini oshirish)ga qaratilgan siyosatni izchillik bilan amalga oshirish, ishlab chiqarish mumkin bo'lgan tovarlar va mahsulotlarning chetdan keltirilishiga barham berish;

- ✚ tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga, xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda, o'z mahsulotlariga chet el bozorlarida sotish uchun ko'proq erkinlik berish, tovarlarni eksport va import qilishda imtiyozlar tizimini yanada kengaytirish borasida aniq,

maqsadli siyosat olib borish;

✚ xorijiy sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar tizimini vujudga keltirish va tashqi iqtisodiy o'zgarishlarga mos holda muvofiqlashtirish;

✚ tashqi iqtisodiy faoliyat tarkibiy qismlari majmuasini – ixtisoslashtirilgan tashqi savdo, lizing, konsalting va sug'urta firmalarni, tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish manfaatlari va sharoitlariga mos keladigan transport, aloqa va kommunikatsiya tizimlarini vujudga keltirish.

Kredit – bu qaytarish, to'lovlilik, muddatlilik va foizlilik shartlarida moliya tashkilotlarining bo'sh turgan pul mablag'laridan foydalanish.

Baliqchilik xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit liniyalari tomonidan yo'naltirilgan investitsiyaviy loyihalar turlari:

✚ baliqchilik xo'jaliklarining o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan:

✚ zaruriy mashina, uskuna, qurilma, texnikalarni sotib olish;

✚ baliqchilik inshootlarini qurish;

✚ baliq urug'lari, yosh chorva mollari, parranda, yem-xashak va omuxta yem, veterinariya dori-darmonlari, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari, mineral o'g'it, urug'lik, ko'chatlar sotib olish;

✚ baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash;

✚ qishloq joylarida eksportga yo'naltirilgan va import o'rni bosadigan ishlab chiqarishlarni ustuvor ravishda tashkil qilishdan iborat.

Hozirda investitsiyani baliqni qayta ishlash korxonalariga, sun'iy baliq havzalarini yaratishga yo'naltirish barqaror foyda keltirishini tasdiqlovchi tadqiqotlar ko'payib bormoqda.

Lizing – ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mashina, uskuna, qurilma va inshootlarning uzoq muddatli ijarasidir.

Uskunalarga ega bo'lishning ikkita usuli mavjud – uni harid qilish va lizing.

Lizing xizmatini tashkil etish va uni takomillashtirish baliqchilik tizimida faoliyat yurituvchi korxonalarda, baliqchilik moddiy-texnika tizimida iqtisodiy

islohotlarni amalga oshirishda mavjud moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish va ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlash imkoniyatini yaratadi.

Mamlakatimizda lizing xizmatining rivojlanishiga asosan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28 avgustdagi «Lizing faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni asosiy turtki bo'lib xizmat qildi. Shuning uchun ham, hozirgi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida lizingga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Lizing bo'yicha qarz bir necha yil davomida ketma-ket to'lanib boriladi. Lizing o'z ustunliklariga ega bo'lib, ulardan eng asosiysi qimmat uskunani harid qilish uchun katta mablag'ga ega bo'lish shart emas. Ushbu bosqichdagi barcha harajatlarni lizing kompaniyasi qoplaydi. Lizingni tor ma'noda bank operatsiyasi deb aytib bo'lmaydi. U moliyalashtirishning bank shakliga juda yaqin bo'lib, savdo-sanoat korxonalarini tomonidan qo'shimcha operatsiya sifatida amalga oshirilishi mumkin. Ammo birinchi navbatda lizing bilan maxsus tuzilgan lizing kompaniyalari shug'ullanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida lizing operatsiyalarini amalga oshirishda "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" kompaniyasi (lizing beruvchi), MTP viloyat birlashmalari, muqobil MTPlari, baliqchilik xo'jaliklari (lizingga oluvchilar), qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodlari va qo'shma korxonalarini (texnika vositalarini ishlab chiqaruvchilar) bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi qoshidagi qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, "Agrobank" va "O'zagrosug'urta" kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda agrar sohani rivojlantirish maqsadida lizing operatsiyasiga yo'naltirilgan mablag'larni o'zlashtirishda lizing operatsiyalarining 95,1 foizi qishloq xo'jaligi texnikalarini olishga to'g'ri kelmoqda.

Baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi hajmining oshishi mos ravishda tarmoq moddiy-texnik bazasini rivojlantirishni talab qiladi. Ishlab chiqarish fondlari hajmining ko'payishi baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqarish

potentsialini kengaytirishga yo'naltirilgan moddiy va pul vositalariga qo'shimcha qo'yilma hisobiga amalga oshiriladi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida agrosanoat majmui tarmoqlarining barqaror rivojlanishi korxonalariga zarur moddiy va pul resurslari berishda investitsion faollikka ehtiyoj tug'diradi.

Investitsiya deganda xo'jalik faoliyati jarayonida asosiy fondlarni va aylanma vositalarni sotib olishga ajratilgan uzoq muddatli mablag'lar tushuniladi. Demak investitsiya bu nafaqat asosiy fondlarni kengaytirishga mablag'lar, banki korxonaning aylanma vositalarini shakllantirishga va ularni to'ldirishga ajratilgan harajatlarni hamdir. Xo'jalik faoliyati obyektlariga ajratilgan uzoq muddatli kapitalning qo'yilishi shunda o'zini oqlaydiki, agar ular foyda olishga va samaradorlikka erishishga imkoniyat yaratsa. Investitsiya bozori kapital va moliyaviy qo'yilmalar yo'li bilan asosiy va aylanma vositalarga harajatlarni shakllantirishni bildiradi.

Moliyaviy va real investitsiya turlari mavjud. Birinchisi, qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishni, shunigdek ishlab chiqarishga maqsadli pul qo'yishni ko'zda tutadi. Real investitsiya – bu kapitalni asosiy fondlarini takror ishlab chiqarishga moddiy ishlab chiqarish zahiralarni qo'shimcha o'stirish maqsadida qo'yishdir. Real investitsiya kapital qo'yilmalar deyiladi. Milliy hisoblar tizimida real investitsiya deganda asosiy kapitalga va moddiy ishlab chiqarish vositalari qo'shimcha o'sishga ajratilgan qo'yilma tushuniladi.

Baliqchilik xo'jalik ishlab chiqarishida investitsiya quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

- Eskirgan va ishdan chiqqan investitsiyalarni almashtirish
- Yangi texnologiyalarni joriy qilish va zamonaviy texnika asmazu uskunalarni qo'llash.
- Baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish
- Ishlab chiqarishning yangi turlarini rivojlantirish.

Baliqchilik xo'jaligida investitsiyaning shakllanishi qo'yilgan mablag'larning qaytish tezligini hisobga olgandagi iqtisodiy asosda amalga oshiriladi. Bu yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishning ko'payishi va uning tannarxining pasayishi

sharoitidagina erishiladi.

Investitsiya qo‘shimcha sof daromad olish bilan va mablag‘larning qaytish muddatini qisqarishi bilan bevosita aloqadordir. Qoplash muddati qancha oz bo‘lsa, investitsiyaga rag‘bat shuncha ko‘p bo‘ladi, chunki investitsiya jarayoni oqibatida mablag‘larning qaytishi uzoq muddatga cho‘zilsa sarflangan resurslarning qadrsizlanishi ro‘y beradi. Bundan tashqari, mahsulot ishlab chiqarishdan olingan sof daromad yangi ishlab chiqarishga qo‘yilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiya siyosatining zaruriy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- Raqobatbardosh loyihalarni konkurs asosida tanlash;
- Harajatlarning tez qoplanishi mo‘ljalini olish;
- Investitsiyani mahsulotni sotish bozori va uning sifatini hisobga olgan holda iqtisodiy asoslash;
- Raqobatchilarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olish.

Baliqchilik xo‘jaligida investitsiya faoliyatini jonlantirmasdan turib ishlab chiqarishni oshirish, moliyaviy barqarorlikka erishish va tarmoq iqtisodiyotini ko‘tarish mumkin emas.

Investitsiya umumiy va sof investitsiyalarga bo‘linadi. Sof investitsiya kapital qo‘yilmalar va amortizatsiya ajratmalari miqdori ayirmasidan tashkil topadi. U xususiy resurlardan samarali foydalangan taqdirda qancha qo‘shimcha mablag‘ qo‘yish talab etilishini ko‘rsatadi. Sof investitsiya (Is) quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$Is = KQ - A$$

Bu yerda KQ – tarmoqdagi kapital qo‘yilmalar hajmi, so‘m;

A – asosiy fondlar eskirishidagi amortizatsiya miqdori, so‘m.

Investitsiyadan foydalanishni tahlil qilish mablag‘larni birinchi navbatda eng muhimroq obyekt va ishlab chiqarishlarga yo‘naltirish zarurligini aniqlashga imkon beradi.

U quyidagi tartibda olib boriladi:

- Dastavval eng zarur bo‘lgan investitsiya aniqlanadi. Masalan, tovar ishlab

chiqaruvchiga traktor, avtomobil sotib olish va baliq boqish uchun xovuz kompleks qurish zarur. Shu obyektlardan hozirda eng muhimrogi investitsiyalash uchun tanlab olinadi;

- Mavjud vositalar uchun, tovar ishlab chiqaruvchi bank kreditidan foydalanadimi yoki yo'qmi bundan qat'iy nazar dastlabki to'lovlar miqdori o'rnatiladi. Bu tovar ishlab chiqaruvchining to'lov qobiliyatligini o'rnatish va uning ishlab chiqarishni investitsiyalash bo'yicha maqsadining jiddiyligini aniqlash uchun talab etiladi;

- Shu investitsiya turidan yillar davomida mablag' tushishi baholanadi. Masalan, traktor, avtomobil yoki suv havzasidan foydalanishdan;

- Tovar ishlab chiqaruvchi investitsiyadan foydalanishga rozi bo'lgan bank krediti bo'yicha foiz stavkasi tanlanadi;

- Yillar davomida qo'yilgan mablag'ni sof daromadga taqqoslash yo'li bilan pul mablag'larining joriy miqdori hisoblanadi.

- Investitsiya variantini tanlash haqida qaror qabul qilinadi. Bunday holda, agar shu mablag'dan kelgan sof daromad investitsiya kapitali miqdoridan ko'p bo'lsa, unda shu variant optimal deb tan olinadi.

Investitsiyalash variantini tanlashni kelajakdagi daromadni diskontirlash yordamida o'tkazish mumkin. Tovar ishlab chiqaruvchi kapital tovarni sotib olish va sotish harajatlarini taqqoslashdan kelib chiqqan holda amalga oshiradi. Kutilayotgan daromad, kapital tovarni uning xizmat muddati davomida foydalanishdan tushadigan har yilgi tushumidan yig'iladi, bunda investitsiyalash bir vaqtda amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan shu kapital tovarga investitsiya miqdorini aniqlash talab etiladi. Bu shu shart bilanki, ma'lum bir muddat foydalanganda kerakli daromad olinadigan bo'lsin. Bunday hisob-kitoblarni kelajakdagi daromadlarni diskontirlash deb, shu paytdagi kapital tovar uchun to'lanadigan kerakli mablag'ni esa – diskontirlashgan qiymat deb qabul qilingan. Diskontirlashgan qiymat (Dq) foiz stavkasiga bog'liq. Har yili bir xil miqdordagi daromadda diskontirlashgan qiymat quyidagi formulada topiladi:

$$Dq = \frac{A}{(1 + F)^y}$$

Bu yerda: A – bankning yillik foiz stavkasida kutilishi mumkin bo‘lgan pul;

F – foiz stavkasi, %

y- yillik daromadlar kutilayotgan davr, yil.

Masalan, agar tovar ishlab chiqaruvchi 5%li stavkada, ikki yildan keyin 22000 so‘m pul olishini hohlasa, unda diskontlashgan qiymat quyidagiga teng bo‘ladi:

$$Dq = \frac{22000}{(1 + 0.05)^2} = 19954$$

Agar qo‘yilgan mablag‘dan keladigan har yillik daromad turlicha unda diskontirlashgan qiymatning miqdori (Dqm) quyidagi formulada aniqlanadi:

$$Dqm = \frac{P_1}{(1 + F)} + \frac{P_2}{(1 + F)^2} + \dots + \frac{P_n}{(1 + F)^n}$$

Bu yerda: P₁, P₂, P_n – har yillik daromadning kutilayotgan miqdori, so‘mi;

n – yillik daromadlar kutilayotgan davr, yillar soni

Masalan, birinchi yili daromad 33000 so‘mni, ikkinchi 66000 so‘mni va uchinchi yil 44000 so‘mni tashkil etgan. Har yillik 8%li stavkada diskontlashgan qiymat quyidagiga teng bo‘ladi.

$$\begin{aligned} Dqm &= \frac{33000}{(1 + 0.08)} + \frac{66000}{(1 + 0.08)^2} + \frac{44000}{(1 + 0.08)^3} = \\ &= 30555 + 56584 + 34929 = 122068 \end{aligned}$$

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi investitsiyasiga bir qator omillar ta‘sir qiladi. Shulardan ba‘zilarga tovar ishlab chiqaruvchilar ta‘sirini o‘tkazishi mumkin, boshqalari esa tashqi sharoitlarga bog‘langan va tovar ishlab chiqaruvchilarga bog‘liq emas. Tovar ishlab chiqaruvchilarga bog‘liq omillarga quyidagilar kiradi:

- Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi hamda baliq va mollar mahsuldorligi;
- Birinchi navbatdagi investitsiya obyektlarni tanlash;
- Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash;
- Asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi;

- Investitsiya harakteri: uzoq muddatli, qisqa muddatli;
- Mehnat unumdorligi darajasi va mahsulot ishlab chiqarish tannarxi.

Tovar ishlab chiqaruvchilarga bog‘liq bo‘lmagan omillarga quyidagilar kiradi:

- Baliqchilik xo‘jalik mahsuloti va sanoat mahsulotlari baholari;
- Kredit uchun foiz stavkasi;
- Inflyatsiya jarayoni ;
- Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning mavsumiyligi;
- Baholar nisbatini hisobga olgan holda mahsulotga bo‘lgan talab;
- Baliqchilik mahsulotlarini yetkazib berishning muqarrarligi;
- Mahsulotga qo‘yiladigan jahon baholari

Xo‘jalik faoliyati obyektlariga uzoq muddatli kapitalning qo‘yilishi, ular foyda olishga va ijtimoiy samaradorlikka erishgandagina o‘zini qoplaydi. Investitsiya samaradorligini ko‘rsatkichlarini hisoblash ma’lum bir davr davomida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar qo‘shimcha o‘shishi nisbatlariga asoslanadi. Umumiy samaradorlik ko‘rsatkichi sof mahsulot qo‘shimcha o‘shishining shu davrdagi investitsiya hajmiga nisbati sifatida aniqlanadi. Bozor munosabatlarga o‘tish sharoitida, yuqori darajadagi inflyatsiyada bu ko‘rsatkich investitsiya samaradorligi to‘g‘risida aniq tushuncha bermaydi. Shuning uchun qishloq xo‘jaligidagi investitsiyani va yillar bo‘yicha yalpi daromad dinamikasini taqqoslash maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya samaradorligi darajasi bevosita ularni moliyalashtirish manbalariga bog‘liq. Eng past darajadagi samaradorlik imtiyozli investitsiya kreditlarida kuzatiladi. Nisbatan yaxshiroq iqtisodiy natijalarga davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiyalarda erishiladi. Ba’zida kredit mexanizmi orqali yoki byudjetdan bevosita moliyalashtirish vositasi sifatida davlat tomonidan investitsiyaga ajratilgan mablag‘lar maqsadli foydalanilmasdan, balki ish haqi uchun to‘lovlarga, ilgari olingan kreditlarni qoplashga va moliyaviy aktivlar bilan bo‘ladigan operatsiyalarga ham ishlatilish hollari ham uchrab turadi.

Investitsiyaning qaytarilishi olingan foydani investitsiyaning umumiy hajmiga bo‘lib topiladi va foizlarda ifodalanadi.

$$Iqd = \frac{F}{Iu} * 100$$

Bu yerda: Iqd – investitsiyaning qaytarilish darajasi, %

F - foyda, so‘m

Iu – investitsiyaning umumiy hajmi, so‘m

Investitsiyaning qaytarilish darajasi kredit uchun foiz stavkalari bilan taqqoslanadi. Bu holda, agar investitsiyaning qaytarilish darajasi kredit uchun foiz stavkasidan yuqori bo‘lsa unda tovar ishlab chiqaruvchining kapital qo‘yilmada miqdorini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

Kapitalning me‘yoriy samaradorligi va investitsiyaning me‘yoriy samaradorligi bir-biridan farq qiladi. Kapitalning me‘yoriy samaradorligi – bu qo‘shimcha mablag‘ning bir so‘midan keladigan qaytim. Investitsiyaning me‘yoriy samardorligi – kapital tovarning taklifi baholari va talabi baholari o‘rtasidagi muvozanat o‘rnatilganda, kredit uchun foiz stavkasidir. Foiz stavkasi qancha yuqori bo‘lsa, kreditga talab shuncha past bo‘ladi. Boshqa tomondan, foiz stavkasi qancha past bo‘lsa, kreditning taklifi shuncha yuqori bo‘ladi.

11.2. Kapital qo‘yilmalar tushunchasi, foydalanishning asosiy yo‘nalishlari, tarkibi va moliyalashtirish manbalari

Baliqchilik xo‘jaligi ishlab chiqarishi jarayonida harakatdagi asosiy vositalarning asta-sekin eskirishi, so‘ngra esa hisobdan chiqarilish ro‘y beradi, bu esa ularni – oddiy yoki kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishni moliyalashtirish kapital qo‘yilmalar manbalari hisobiga amalga oshiriladi.

Baliqchilik xo‘jaligida kapital qo‘yilmalar deb harakatdagi asosiy vositalarni tiklashga va kengaytirishga yo‘naltirilgan pul vositalariga aytiladi.

Kapital qo‘yilmalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo‘linadi.

1. Ishlab chiqarish kapital qo‘yilmalarga mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar kiradi. Bu harajatlar traktor, qishloq xo‘jalik mashinalari, ishchi va mahsuldor mollar, baliqlar, urug‘lar, binolar va inshootlar, yo‘l qurilishi

va boshqalarga sarflanadi. Ishlab chiqarish kapital qo'yimlariga, iqtisodiy mohiyati bo'yicha, shuningdek asosiy baliqlar to'ldasini vujudga keltirish harajatlari ham kiradi. Lekin mavjud uchyo't sistemasida kapital qo'yimlar sistemasiga bu harajatlari kirmaydi va alohida hisobga olinadi.

2. Noishlab chiqarish kapital qo'yimlariga uy-joy qurilishi madaniy-maishiy binolar va sog'liqni saqlashga sarflanadigan harajatlari kiradi.

Kapital qo'yimlar – bu potentsial asosiy vositalari bo'lib, ular ma'lum obyektlarni foydalanishga topshirilgandan keyin asosiy vositalarga aylanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda kapital qo'yimlardan foydalanishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

1. O'simlikchilik va baliqchilik ishlab chiqarish binolari, ustaxonalar, uy-joy, madaniy-maishiy obyektlari va boshqalarining kapital qurilishi va rekonstruksiyasiga;

2. Ishlab chiqarish qurollari (mashina, uskunalar) baliq va chavoqlari sotib olinadi, shuningdek mahsuldor baliqlari to'ldasini shakllantiriladi.

3. Yerni melioratsiyalash, baliq hovuzlari qurish, ko'p yillik daraxtlarni o'tkazish, hosilga kirgancha o'stirish va boshqalar.

Bevosita qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ajratilgan pul vositalaridan tashqari, butun kompleks ishlar bo'yicha qishloq xo'jalikni rivojlantirishga sarflanadigan kapital qo'yimlar o'ziga quyidagi bir qator harajatlarni oladi:

1. Davlat va jamoa xo'jaliklarini texnika bilan ta'minlaydigan korxonalar va tashkilotlari qurilishi uchun vositalari;

2. Qishloq xo'jalik ilmiy tadqiqot muassasalari qurilishiga;

3. Qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar barpo qilishga;

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarni qayta ishlash va boshqa maqsadlarga.

Ma'lum bir davrga mo'ljallangan kapital qo'yimlarning jami summasi kapital qo'yimlarning to'plamini tashkil qiladi (KQ). Kapital qo'yimlarning sig'imi (KQS) deganda 1 gektar yer maydoniga (qishloq xo'jalik yaroqli yerga, haydaladigan yerga) to'g'ri keladigan kapital qo'yimlar summasi - (Er) tushiniladi va quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$KQS = \frac{KQ}{Er}$$

Kapital qo'yimlarning miqdor va sifat harakteristikasi ularning tarkibini, ya'ni u yoki bu elementning umumiy hajmdagi nisbatini aks ettiradi.

Kapital qo'yimlarning tarmoq, takror ishlab chiqarish va texnologik tuzilishi mavjud. Kapital qo'yimlarning tarmoq tuzilishi qishloq xo'jaligida turli tarmoqlar yoki ishlab chiqarish turlari bo'yicha investitsiyalar nisbatini ifodalaydi. Takror ishlab chiqarish nuqtai nazardan tuzilishi kapital qo'yimlarning turli yo'nalishlari bo'yicha foydalanish salmog'ini ifodalaydi. Texnologik tuzilish esa, uskunalarga, qurilish-montaj ishlariga va loyiha-qidiruv ishlariga foydalaniladigan kapital qo'yimlarning salmog'ini ifodalaydi.

Kapital qo'yimlarning tarkibiy tuzilishi:

I - Tarmoq tuzilishi:

1. Baliqchilik binolari qurilishi va jihozlash;
2. Suv xo'jalik qurilishi;
3. Elektrlashtirish;
4. Hovuzlar barpo qilish;
5. Traktorlar, mashina va uskunalar sotib olish;
6. Uy-joy va madaniy-maishiy qurilish;

II-Takror ishlab chiqarish tuzilishi:

1. Ishlab chiqarishni rekonstruksiyasi;
2. Mavjud ishlab chiqarishni kengaytirish;
3. Yangi qurilish.

III-Texnologik tuzilishi:

1. Uskunalar;
2. Qurilish-montaj ishlari;
3. Loyiha-qidiruv ishlari;
4. Boshqa qo'yimlar.

Xo'jalik yuritishning barcha shakllari va baliqchilik korxonalarining barcha turlari uchun umumiy ishlab chiqarishda mustaqillik va o'zini-o'zi

moliyalashtirishni taqozo qiladigan, bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital qo'yimlarni moliyalashtirishni bosh manbai sifatida xususiy manbalar - asosiy vositalar amortizatsiyasi, foyda va boshqalar hisoblanadi. Bunda amortizatsiya ajratmalari oddiy takror ishlab chiqarish manbai sifatida, foyda esa ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy vositalarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish manbai sifatida tashkil topadi. Agar shu maqsadlarga xususiy vositalar yetmay qolsa, bank kreditlari jalb qilinadi. Davlat baliqchilik korxonalarida katta miqdordagi pul vositalarini asosiy baliq to'dani tashkil qilishga sarflanadi. Baliqlar asosiy to'dasini tashkil qilish harajatlari va moliyalashtirish manbai umumiy holda kapital qo'yimlarga qo'shilmaydi. Davlat korxonalarining to'dani tashkil qilish harajatlari xususiy vositalari hisobiga moliyalashtiriladi: baliqlar amortizatsiyasi va boshqa manbalar. Agar bu mablag'lar korxonada yetishmasa, u holda moliyalashtirish bank kreditlari hisobiga amalga oshiriladi. Davlat qishloq xo'jalik korxonalariga byudjet vositalari faqat muhim maqsadlarni (yirik ishlab chiqarish va noishlab chiqarish obyektlariga, melioratsiyaga va boshqalarga) moliyalashtirishga ajratadi.

Jamoa mulkchiligida kapital qo'yimlarni moliyalashtirishning bosh manbai xususiy vositalardir. Unga amortizatsiya ajratmalari, voyaga yetgan baliqlarni sotishdan kelgan pul tushumi, xo'jalik o'rmonidan daraxt sotish, sof daromaddan ajratmalar, asosiy vositalar sug'urtasi qaytimi va boshqa manbalardir. Davlat xo'jaliklaridan farq qilgan holda jamoa mulkchiligi xususiy mablag'lari yetmay qolganda kapital qo'yimlarni moliyalashtirish bankning faqat uzoq muddatli kreditlari orqali qoplanadi. Uzoq muddatli kredit miqdori kapital qo'yimlar harajatining rejadagi hajmi va jamoa xo'jaligining moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Xo'jaliklararo korxonalar va birlashmalarda kapital qo'yimlarni moliyalashtirish paychilar ajratgan vositalar hisobiga, amortizatsiya ajratmalari va birlashma hamda ularning kengashi ustavi aniqlagan miqdorda foydadan ajratmalar hisobiga amalga oshiriladi. Davlat korxonalarida, qishloq xo'jalik kooperativlarida va aksionerlik korxonalarida va birlashmalarida kapital qo'yimlarni moliyalashtirish manbai – ta'sisчилarning pul va material vnoslari,

qimmatbaho qog'ozlar (aktsiya, obligatsiya)dan keladigan daromadlar, xayriya vzoislari, korxonalar tashkilot va fuqarolarning ehsonlari hisoblanadi. Dehqon xo'jaligi asosiy vositalarni oddiy va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiradilar. Ular zarur bo'lib qolganda, bankdan uzoq va qisqa muddatli ssudalarni davlat korxonalarini amal qiladigan qoidalar asosida olish huquqiga egadirlar. Bundan tashqari shaxsiy mol-mulklarini garovga qo'yib, ipoteka banklar kreditlaridan foydalanadilar.

11.3. Kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash usullari

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yimlarning iqtisodiy samaradorligi deganda, rejadagi yoki haqiqatdagi erishilgan samarani, shu samaraga erishishga olib kelgan kapital qo'yimlarga nisbati tushuniladi. Qishloq xo'jaligida kapital qo'yimlar iqtisodiy samaradorligini hisobga olish va tahlil qilish uchun ko'rsatkichlar sistemasidan foydalaniladi. Qaysi maqsadda aniqlanishiga qarab kapital qo'yimlarning umumiy(absolyut) yoki taqqoslama iqtisodiy samaradorligi aniqlanadi. Kapital qo'yimlarning umumiy(absolyut) iqtisodiy samaradorligi kapital qo'yimlarning natijasini baholashda, shuningdek rejalashtirishda va loyihalashtirishda, qaysiki sof mahsulot, sof daromad yoki foydani aniqlash imkoniyati bo'lganda hisoblaniladi. Kapital qo'yimlar iqtisodiy samaradorligi umumiy (absolyut) koeffitsiyenti, shuningdek kapital qaytirmo ko'rsatkichi ($Kqay$), sof mahsulot, sof daromad yoki foydaning qo'shimcha o'sishini shu o'sishni ta'minlagan kapital qo'yimlarga nisbati bilan o'lchanadi:

$$Kqay = \frac{SM; SD; F}{Kqo'yilma}$$

Kapital qo'yimlar, agarda olingan umumiy (absolyut) samaradorlik koeffitsiyenti normatividan kam bo'lmasa, shuningdek oldingi haqiqatdagidan kam bo'lmasa samarali hisoblanadi. Kapital qo'yimlarning umumiy (absolyut) samaradorligining teskari ko'rsatkichi ularning qoplash muddati hisoblanadi (QM) va kapital sig'imi ko'rsatkichi deyiladi.

$$QM = \frac{Kqo'yilma}{SM;SD;F}$$

Qoplash muddati, samaradorlikning teskari ko'rsatkichi bo'lganligi uchun u quyidagicha ham hisoblanadi:

$$QM = \frac{1}{Kqay}$$

Kapital qo'yilmalar, boshqa barcha teng sharoitlarda qisqa muddatlarda qoplansa, u ancha samarali hisoblanadi. Masalan: 0,07 koeffitsiyenti kapital qo'yimlarning 14 yilda qoplanishini bildiradi.

Qishloq xo'jaligida kapital qo'yimlarning iqtisodiy samaradorligi, shuningdek yer va suvdan - bosh ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilash bilan ham ifodalanishi mumkin. Shuning uchun kapital qo'yimlarning umumiy (absolyut) samaradorligini bilvosita ko'rsatkichi 1 gektar qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerga to'g'ri keladigan baliqchilik yalpi mahsulotining (qiymat shaklida) qo'shimcha o'sishi hisoblanadi.

$$Kqay = \frac{SM;YM}{QXY;HY}$$

Baliqchilik xo'jaligida kapital qo'yimlar umumiy (absolyut) iqtisodiy samaradorligini, shuningdek, kapital qo'yimlar hisobiga mehnat unumdorligining oshishi va mahsulot yoki bajarilgan ish tannarxining pasayishi bilan ham harakterlanadi.

Mehnat harajatlarini pasayishi quyidagicha aniqlanadi:

Absolyut $X = X_a - X_b$

$$\text{Nisbiy } X = \frac{X_a - X_b}{X_a} * 100$$

bu yerda: X-mehnat harajatlarini pasayishi, k/s, %;

X_a -kapital qo'yilmagacha mehnat harajati, k/s;

X_b -kapital qo'yilmadan keyingi mehnat harajati, k/s.

Mahsulot va bajarilgan ishning tannarxini pasayishi quyidagicha aniqlanadi:

Absolyut $T = T_a - T_b$

$$\text{Nisbiy } T = \frac{T_a - T_b}{T_a} * 100$$

bu yerda: T-tannarxnning pasayishi so‘m, %;

Ta-kapital qo‘yilmagacha tannarx, so‘m;

Tb-kapital qo‘yilmadan keyingi tannarx, so‘m.

Kapital qo‘yilmalarning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi xo‘jalik bir qancha variantlarini, yangi texnikani joriy qilishni, harakatdagi korxonalar yoki alohida inshootlarni rekonstruktsiya qilish yoki yangisini qurishni taqqoslashda ishlatiladi. Kapital qo‘yilmaning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi eng qulay variantda keltirilgan harajat miqdori hisoblanadi. (KX)

$$KX = X + KQ * MK$$

bu yerda: X-joriy ishlab chiqarish harajatlari(tannarx), so‘m

MK-kapital qo‘yilmalar samaradorligining me‘yoriy koeffitsiyenti.

Keltirilgan harajatlarning o‘z ichiga joriy ishlab chiqarish harajatlari va kapital qo‘yilmalar taqqoslama iqtisodiy samaradorligi bir xil miqdorda yagona normativ koeffitsiyent orqali keltirilgan kapital qo‘yilmalarni oladi. Qishloq xo‘jalik uchun kapital qo‘yilmalarning taqqoslama iqtisodiy samaradorligi normativ koeffitsiyenti 0,12 ga teng deb tavsiya qilingan, o‘simlikchilik uchun – 0,20, chorvachilik uchun – 0,08. Bu shuni bildiradiki, mahsulot tannarxi pasayishidan qilingan tejam 1 so‘mlik qo‘shimcha kapital qo‘yilmaga 12,20 va 8 tiyindan kam bo‘lmasligi kerak.

Taqqoslanayotgan variantlarda keltirilgan harajatlarning summasi qancha oz bo‘lsa, boshqa barcha teng sharoitlarda kapital qo‘yilma shuncha samarali bo‘ladi.

Quyidagi misolda bu yaqqol ko‘zga tashlanadi:

	I-variant	II-variant
T	8800 m.s.	10560 m.s.
KQ	26400 m.s.	17600 m.s.
MK	0,12	0,12

I-variant: $KX = 8.800 + 26.400 * 0,12 = 8.800 + 3.168 = 11.968$ m.s.

II-variant: $KX = 10.560 + 17.600 * 0,12 = 10.560 + 2.112 = 12.672$ m.s.

Misoldan shu narsa ko‘rinib turibdiki, boshqa teng sharoitlarda I variant garchi u 1.5 baravar ko‘p kapital qo‘yilma talab qilsa ham ancha samarali.

Keltirilgan harajat I variantda 11698 m.s, II variantda esa 12672 m.s.

11.4. Kapital qo'yimlardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari

Baliqchilikda kapital qo'yimlar samaradorligini oshirishning foydalanilmagan anchagina imkoniyatlari va rezervlari mavjud. Ular quyidagilar iborat:

1.Kapital qo'yilmaning kompleksligini va proportsionalligini ta'minlash. Baliqchilikda bino va inshootlarni qurish harajatlarni asosiy sermahsul ba;iiqlarni yaratish, shuningdek kompleks mexanizatsiyani joriy qilish harajatlari bilan qo'shib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari meliorativ tadbirlar hisobiga ozuqa bazasini yaxshilash, ozuqa sexlari va omuxta yem zavodlari va sexlari qurilishi bilan bog'lash zarur;

2.Vositalarni sarflash va iqtisodiy samara olish o'rtasidagi vaqtni, farqni qisqartirish, ayniqsa kapital qurilishda. Baliqchilikda qurilishda kapital qo'yimlar hajmi yildan-yilga o'sib boradi va bir vaqtning o'zida tugallanmagan qurilish hajmi ko'payadi. Buning asosiy sabablaridan biri qurilishlar muddatining cho'zilib ketishi.

3.Mahalliy qurilish materiallaridan foydalanish, tejamkorlik rejimiga qattiq rioya qilish, shuningdek qurilish-montaj ishlarini yuritishning ilg'or metodlaridan foydalanish hisobiga ishlab chiqarish va noishlab chiqarish kapital qurilishining tejamkorligini oshirish.

4.Ishlab chiqarish binolari va inshootlari xususiyatlariga qarab, harakatdagi asosiy vositalarning rekonstruktsiyasiga investitsiyani ko'paytirish. Rekonstruktsiyaga ketgan harajatlar yangi qurilishga tashlangan mablag'larga qaraganda 2-2.5 marta tezroq qoplanadi, bunda asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi muddati 10-15 yilga suriladi;

5.Qurilishdagi kapital qo'yimlarni kerakli mehnat va moddiy resurslar bilan, ayniqsa qurilish materiallari bilan to'la ta'minlash;

6.Xo'jalik hisobi munosabatlaridan foydalanish asosida kapital qurilish muddatlarining qisqarishi va qurilish-montaj ishlaridagi tejamkorlik va sifatni oshirish uchun xodimlar moddiy manfaatdorligi;

7. Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligini va chorva mollari mahsuldorligini oshirish imkoniyatlarida to'laroq foydalanish va h.k.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?
2. Turli xil belgilar bo'yicha investitsiyalarning turkumlanishi qanday?
3. Investitsiyalarni moliyalashtirishning asosiy manbalarini sanab o'ting.
4. Investitsiyaviy faoliyatning obyekt va subyektlari.
5. Kreditning mohiyati nimada?
6. Kreditning asosiy shakllarini sanab o'ting.
7. Kredit tizimi va kredit munosabatlariga ta'rif bering.
8. Kreditning iqtisodiyotdagi funktsiyalari.
9. Kreditlashning asosiy tamoyillarini sanab o'ting.
10. Kredit tizimining asosiy tarkibiy qismlari.
11. Lizing tushunchasiga ta'rif bering.
12. Lizing operatsiyalarining turlari.
13. Kapital qo'yilmalar deb nimaga aytiladi?
14. Kapital qo'yilmalarning manbalari nimalar?
15. Kapital qo'yilmalarning kengaytirilgan takror ishlab chiqarishdagi roli?
16. Kapital qo'yilmalarning samaradorlik ko'rsatkichlari
17. Kapital qo'yilmalarning samaradorligini oshirish omillari va imkoniyatlari

12-mavzu. BALIQCHILIKDA SERVIS, UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

12.1. Baliqchilik xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati.

12.2. Baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi va uni boshqarish.

12.1. Baliqchilik xo'jaligida infratuzilmaning mohiyati va ahamiyati.

Infratuzilma milliy xo'jalik ishlab chiqarish tarmoqlari va ijtimoiy sferaning umumiy sharoitini ta'minlash uchun servis xizmat qiladigan sohalar majmuasini

ifodalaydi. *Infratuzilma* - lotincha soʻz boʻlib, infra-quyi, asos, structure (tuzilma)-tuzilish, oʻzaro joylashuv maʼnosini ifodalaydi.

U ishlab chiqarish, texnologik, iqtisodiy va tashkiliy aloqalar jarayonida vujudga keladigan munosabatlar orqali baliqchilik xoʻjaligining samarali ishlashini taʼminlaydi. Infratuzilma jamiyat ishlab chiqarish kuchlarning boʻlinmas qismi hisoblanadi. U Baliqchilik xoʻjaligining samarali faoliyatini taʼminlaydi va baliqchilik xoʻjaligining pirovard mahsulotining miqdoran koʻp va sifati yuqori boʻlishga yoʻnaltiradi. Infratuzilma baliqchilik ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligini oʻsishining muhim omili hisoblanadi. Koʻp qirrali xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotiga xos muammolarni hal etishda keng imkoniyatlar yaratadi.

Baliqchilik sohasida xoʻjalik yuritishda xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalarning oʻrni va ahamiyati juda beqiyosdir. Chunki baliqchilik xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarida, yaʼni baliq urugʻini tayyorlash, urugʻni alohida hovuzga solishdan, zarur yem ozuqalar tayyorlash tadbirlarini amalga oshirish, yetishtirilgan mahsulotlarni tutish va boshqa boʻladigan barcha jarayonlarda turli xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar ishtirok etadi. Bundan tashqari baliqchilik xoʻjaligining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi albatta ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalarni qanchalik taraqqiy etganligiga bogʻliqdir. Baliqchilik xoʻjaligida mahsulot hajmining oshishi, ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlanishi xizmat turlarining koʻpayishi bilan bogʻliq. Hozirgi vaqtda nisbatan rivojlangan baliqchilik xoʻjaligiga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar, xususan texnika, melioratsiya va oqar suv bilan taʼminlash, zooveterinariya, transport, selektsiya va urugʻchilik, yoqilgʻi-moylash materiallari, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash hamda ixtisoslashgan bank va sugʻurta xizmatlarini sanab oʻtish mumkin.

Mamlakatda chuqur iqtisodiy islohotlarni olib borilishi iqtisodiyotning barcha jabhalari singari, baliqchilik xoʻjaligida, unga xizmat koʻrsatuvchi infratuzilmalar tizimida ham tub oʻzgarishlarga olib keldi. Yangi servis (konsalting, injinering, lizing va boshqa) xizmatlari vujudga keldi. Aksariyat servis

xizmati ko'rsatuvchi korxonalarining faoliyati tubdan o'zgardi, xizmat turlari kengaydi.

Infratuzilma subyektlari har qanday iqtisodiyotning asosiy tarkibi hisoblanib, ko'rsatilayotgan turli xizmatlari bilan barcha tarmoq va sohalarning iqtisodiy barqaror rivojlanishiga asosiy poydevor yaratadi.

Infratuzilma subyektlari baliqchilik xo'jaligida ishlab chiqarish munosabatlari va qishloqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosi hisoblanadilar. Xizmat ko'rsatish va ta'minot tizimidagi korxonalar faoliyati rivojlantirilmasdan baliqchilik xo'jaligida iqtisodiy barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, baliqchilik xo'jaligi korxonalari va dehqonlarning daromadlarini ko'paytirish mumkin emas. Infratuzilmaning asosiy vazifalari:

- Baliqchilik xo'jaligiga tovar – moddiy boyliklarni yetkazib berish (urug'chilik, yem, yoqilg'i moylash materiallari, mineral o'g'it, kimyo vositalari, suv ta'minoti);
- Baliqchilik xo'jaligiga texnika va texnik servis xizmatlar ta'minoti;
- O'simliklarni himoya qilish va zooveterinariya xizmatlari;
- Baliqchilik xo'jaligida mahsulotlarni saqlash, tayyorlash va qadoqlash xizmatlari;
- Aloqa, transport, energetika va suv bilan ta'minlash xizmati;
- Bank xizmati;
- Birja va brokerlik xizmati;
- Ulgurji savdo va yarmarkalar xizmati;
- Audit va sug'urtalash xizmati;
- Axborot va konsalting markazlari;
- Balichi mutaxassislarni tayyorlash va qayta o'qitish;
- Yuridik xizmatlar.

Baliqchilik xo'jaligida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish, qayta tashkil etish va takomillashtirishning eng muhim obyektiv zaruriyati quyidagilardan iborat:

- ✚ turli mulkchilik va xo'jalik yurituvchi subyektlarni yuzaga kelishi, mayda

tovar ishlab chiqaruvchilarga aylanishi, ularni umumiy sonining ortishi, har biriga birlashtirilgan yer maydonlari hajmini kichiklashib borishi;

✚ rejali iqtisodiyot tizimida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarga mablag' davlat tomonidan ajratilgan. Hozirda esa xo'jalik yurituvchi subyektlarni o'z mablag'laridan sotib olishi, natijada xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni tuzishda mablag'i va imkoniyati yetarli emasligi;

✚ sifatli, arzon va kafolatli xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarga bo'lgan talabning oshganligi;

✚ mavjud xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining asosiy qismini yirik xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganligi, mayda tovar ishlab chiqaruvchilar ehtiyojlari hisobga olinmaganligi;

✚ ilgari barcha baliqchilik xo'jaligi korxonalarining moddiy-texnika ta'minoti bevosita davlat tomonidan fond orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida esa, moddiy resurslarni xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'z mablag'lari hisobiga sotib olishi;

✚ mayda tovar ishlab chiqaruvchilarda pul mablag'lari aylanish hajmining kamligi va moliyaviy jihatdan zaifligi, har biri o'zida servis xizmati ko'rsatishni tashkil etish imkoniyatiga ega emasligi.

12.2. Baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi va uni boshqarish.

Respublikada baliqchilik mahsulotlarini barcha talablarni to'liq qondira oladigan darajada ularni sifatli qilib ishlab chiqarish, ularni istemolchilarga sifatli holda yetkazib berish uchun tarmoqda bozor iqtisodiyoti talablariga to'liq javob bera oladigan servisni barpo etish talab etiladi. Tarmoqda servisni ta'minlash uchun servis subyektlarini tashkil etish zarur. Bu subyektlar baliqchilik korxonalariga talab etilgan davrda barcha turdagi ishlarni va xizmatlarni sifatli qilib vaqtida bajarishi lozim. Masalan, baliq yetishtirish uchun talab etilgan urug'likni, yoqilg'i, yonilg'i materiallarni o'z vaqtida yetkazib berishlari, hovuzlarni boqishga tayyorlashga, ishlov berishga, zararkunandalarga qarshi kurashishga, hosilni yetishtirib olishga, tashishga, ma'lum bir miqdordagisini qayta

ishlab, saqlashga va nihoyat sotishga xizmat ko'rsatishlari zarur.

Demak, servis subyektlari ya'ni xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmoqdagi korxonalariga baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va ularni istemolchilarga sifatli holda yetkazib berish jarayonida quyidagi yo'nalishlarda xizmatlarni amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ya'ni kimyoviy o'g'itlarni, yoqilg'i, yog'lovchi materiallarni, baliq urug'ini, baliqchilik texnikalarini, mexanizmlarini, biologik vositalarni, ozuqa va boshqa materiallarini tashish, saqlash va sotish borasida;

- baliqlarning o'sishiga, ekinlarning mahsuldorligiga salbiy ta'sir etuvchi xashoratlarga, mavjud bo'lgan zararkunandalarga, kasalliklarga qarshi tadbirlarni amalga oshirish;

- tarmoq korxonalarini tez yetiluvchi, kam ozuqa talab qiladigan, sifatli, hosili yuqori bo'lgan navlar bilan ta'minlash, sifatli baqliqlarni sotish, zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatish;

- audit va konsalting xizmatlarini amalga oshirish;

- moliya, kredit, sug'urta, bojxona va boshqa iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish;

- irrigatsiya, melioratsiya tadbirlarini amalga oshirish;

- yetishtirilgan hosilni, mahsulotni qiyta ishlash, ularni saqlash va istemolchilarga yetkazib berish borasida;

- baliqchilik korxonalarini yetarli informatsiyalar bilan ta'minlash borasidagi xizmatlar;

- tarmoqda bilimli, malakali, insoniy hislatlarga ega bo'lgan yosh iqtidorli mutaxasislarni tayyorlash, faoliyat ko'rsatayotgan rahbar va mutaxasislarni bilimlarini oshirish borasida va boshqa yo'nalishlarda;

- qishloqda yashovchi aholida barcha turdagi xizmatlarni vaqtida va sifatli amalga oshirish borasida va boshqa yo'nalishlarda.

Baliqchilik korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha yuqorida ta'kidlangan xizmatlar quyidagi vazifalarni ijobiy hal etilishini

ta'minlashga qaratilgandir:

-jonli mehnat sarflarini tejash, uning natijasida mehnat unumdorligini yuksalishini ta'minlashga;

-jonli mehnatni industrilashgan mehnatga aylantirishni ta'minlashga;

-ishlab chiqarish hamda boshqarish harajatlarini tejalishini ta'minlab mahsulot tannaxini pasayishini ta'minlaydi;

-baliqlarning mahsuldorligini oshirishga, yetishtirilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilanishiga shuning oqibatida mahsulotlarning raqobatbardoshligini yuksalishini ta'minlaydi;

- ishlab chiqarish madaniyatni yuksalishini ta'minlaydi;

- tarmoqda barcha turdagi munosabatlar tizimini yashilaydi va barcha muhim tashkiliy iqtisodiy hamda ijtimoiy masalalarni hal etishni ta'minlashi mumkin.

Natijada baliqchilik xo'jaligini rivojlanishini, uni samaradorligini yuksalishini ta'minlaydi.

Qabul qilingan huquqiy va me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda baliq xo'jaligida servisni tashkil etish hamda rivojlantirish maqsadida servis subyektlarini tuzish talab etiladi.

Baliq xo'jaligini yanada rivojlantirish uning samaradorligini yuksaltirishda infratuzilmaning ahamiyati nihoyatda ulkan. Shunday ekan tarmoqda shunday infratuzilmani barpo etish kerakki, u tarmoqda amalga oshiriladigan barcha munosabatlarni qonun doirasida sifatli bajarilishini ta'minlashi lozim. Bu juda muhim jarayon. Infrastrukturaning birdaniga yaratib bo'lmaydi. Bu- ancha uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo'lib, boshqa talablar bilan bir qatorda yuksak kasbiy, maxoratga ega kadrlar bo'lishini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar ham, aholi ham xo'jalik faoliyatining yangi sharoitlariga ruhan moslashishini talab qiladi. Bundan tashqari infratuzilma tizimini tizimli ya'ni zanjirsimon bo'lishligi muhim ahamiyatga ega. Agarda bir bo'g'ini bo'lmasa, uning samarasi kutilgan natijani bermaydi. Shunday infratuzilmani barpo etish katta miqdordagi mablag'ni ham talab etadi. Demak, tarmoqda bozor iqtisodiyoti talablariga har tomonlama javob beradigan infratuzilmani barpo etish maqsadga

muvofigdir. Barpo etiladigan infratuzilma tizimi tarmoq iqtisodiyotining yuqoridan quyidagicha bo'lgan barcha bo'g'inlari hamda barcha sohalarning ya'ni bo'g'inlarning yo'nalishlariga (ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, ...) servis sharoitini yaratib berishi kerak. Shunday talablarga javob berish imkoniyatiga ega bo'lgan infratuzilma tizimida baliqchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tenib olish va tashish, qayta ishlash, saqlash hamda taqsimlash bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi munosabatlar tizimlashtirilgan. Unda:

Birinchi, tarmoqdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi subyektlarni moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash, texnika vositalarini ta'mirlash, ulardan foydalanish yo'nalishlari va boshqa xizmat turlari o'z aksini topgan;

Ikkinchi, tarmoq subyektlariga uzoq muddatga umrbod meros qoldirish huquqi bilan yerni va suv havzalarini berish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar, irrigatsiya-melioratsiya tizimini qurish mavjudlarini ta'mirlash, ulardan foydalanish yerlarni o'zlashtirish, kapital tekislash, yer eroziyasiga qarshi va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatilgan;

Uchinchi, tarmoq subyektlariga suv yetkazib berish, suv sarfi limitlari bilan bog'liq bo'lgan hamda suv ekologiyasiga oid xizmatlar o'z aksini topgan;

To'rtinchi, tarmoq uchun tez yetiluvchi, yuqori va sifatli hosil beradigan yangi sermahsul zotlarni baliq navlarini yaratish, ularni amaliyotga tadbiiq etish bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar ko'rsatilgan;

Beshinchi, ekinlarga agrotexnik muddatda sifatli qilib ko'rsatiladigan xizmatlar tizimi ham aks ettirilgan;

Oltinchi, tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish, ularni yig'ishtirish, tashish, qayta ishlash, saqlash hamda sotish bilan bog'liq xizmatlar o'z aksini topgan;

Ettinchi, tarmoqdagi subyektlarni samarali faoliyat yuritishini ta'minlashga qaratilgan xizmatlar tizimi kiritilgan;

Nihoyat sakkizinchi, tarmoqda band bo'lgan mehnat resurslariga hamda ularning oila a'zolari uchun ko'rsatiladigan xizmatlar tizimi o'z aksini topgan.

Tarmoqda kelajakda iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion taraqqiyot oqibatida yangi xizmat turlari ham paydo bo'lishi mumkin.


Shunday infratuzilma tizimini shakllanib, faoliyat ko'rsatishi natijasida qishloq xo'jaligiga innovatsion fan-texnika yangiliklari, investitsiyalar kirib kelib tarmoqdagi barcha ishlab-chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirib, avtomatlashtirilib, yangi ish joylari tashkil etilib mehnatning harakteri o'rganilib, mehnat unumdorligi yuksalib, harajatlarni tejalishi ta'minlashi oqibatida mahsulot tannarxini pasayishiga erishiladi. Ishlab chiqariladigan raqobatbardosh mahsulot miqdori oshib, ularning sifati yaxshilanadi. Ularni istamolchilarga qulay usullarda sotish oqibatida yalpi daromad ko'payadi. Shuning natijasida foyda summasi ko'payadi. Bu o'z navbatida davlatning, korxonaning manfaati qondirilishini ta'minlab, uning hodimlarini rag'batlantirilishini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligining barcha sohalarida mahsulot ishlab-chiqarish, ularni yig'ishtirib olish, qayta ishlash, saqlash hamda sotish jarayonlarida turli xildagi xizmatlarni amalgam oshirish maqsadida turli xildagi subyektlar ya'ni korxonalar, tashkilotlar, muassasalar tashkil etilishi lozim. Hozirgi davrda qishloq xo'jaligiga infratuzilma xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarning quyidagi turlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir (12.1-chizma).

Tarmoqda servis sharoitini ta'minlaydigan subyektlar qishloq xo'jaligini unda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni rivojlanishiga ularning faoliyatini samaradorligiga turlicha ta'sir etadi. Masalan, mineral o'g'itlarni yetkazib berish, ularni ekin maydonlariga solish, sifatli urug'larni ekishga oid xizmatlarni ko'rsatish natijasida ekinlarning hosildorligi oshishi ta'minlansa, ishlab-chiqarish jarayonlarida mashina texnikalaridan to'g'ri foydalanish jonli mehnat harajatlarini tejab mehnat unumdorligini yuksalishini ta'minlaydi. Ijtimoiy infratuzilma xizmatlarini amalgam oshirish ishchi, xizmatchilarni bilimini, malakasini oshiradi, ularning sog'lig'ini yaxshilab, umrini uzaytiradi, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksalishini ta'minlaydi. Naslli chorva hayvonlarini to'yimli ozuqalar bilan ta'minlashga oid xizmatlarni ko'rsatish natijasida chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshishi ta'minlanadi. Demak, infratuzilma xizmatlarini amalgam oshirilishi oqibatida yuqorida ta'kidlanganidek, tarmoqda ma'lum bir natijalarga erishiladi.

Ya'ni infratuzilma tizimi subyektlarini tashkil etilishi yangi ish o'rinlarini barpo etilishini, shu joylarda odamlarni ishlashi natijasida aholini ish bilan ta'minlash darajasioshib, ishsizlik koyefsiyenti pasayadi. Ularni samarali faoliyat ko'rsatishi oqibatida mahsulot ishlab-chiqarish hajmi ko'payadi, moddiy, mehnat hamda mablag' harajatlari kamayadi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati yaxshilanadi ya'ni raqobatbardoshligi oshadi, ularni saqlab sotish natijasida korxonalarining pul tushumi ortadi. Yuqoridagilar yalpi va sof foydani ko'payishini ta'minlaydi. Yuqoridagi holatlarga batafsil, to'liq baho berish uchun ko'rsatgichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar tizimi.



Bunday hol infratuzilmalar xizmatlari qishloq xo'jaligiga qanday ta'sir etayotganligini ifodalovchi ko'rsatgich tizimini ishlab chiqarilishini talab etadi.

Infratuzilma xizmatlarini har birini samarasini uning maqsadi hamda vazifasini e'tiborga olgan holda aniqlash zarur. Masalan, fermer xo'jaliklariga mineral o'g'itlarni vaqtida yetkazib berish, ularni ekin maydonlariga talab etilgan miqdorda agrotexnik muddatda solish natijasida fermerlarning vaqtini tejash bilan ekinlarning hosildorligini oshishini ta'minlab, ulardan foydalanish samaradorligini oshishini ta'minlaydi. Ularni quyidagicha tartibda aniqlash mumkin. O'g'itlarni yetkazib berish oqibatida tejalgan vaqtni aniqlash maqsadida fermerlar barcha o'g'itlarni o'zlari tashigandagi sarflangan kishi kunlarini (vaqtni) hamda sarflangan

mablag'ini so'ngra kimyoviy vositalarni tashib va ekin maydonlariga solib beruvchilar sarflagan kishi kunlarini va pul sarflarini aniqlash lozim. Aniqlangan raqamlardan bir-birini ayirish yo'li bilan ular o'rtasidagi farq aniqlanadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalanish lozim.

$$T_v(TS)=F_{XX}-KV_{TSX}$$

Bunda: $T_v(TS)$ -tejalgan vaqt k/k, mablag' ming so'm;

F_{XX} -fermer xo'jaliklarining o'g'itlarni tashish va solish uchun sarflagan vaqti (k/k), harajati (ming so'mda);

KV_{TSX} -kimyoviy vositalarni etkazib beruvchi tashkilotlarning shu tadbirga mehnat (k/k) va mablag' (ming so'm) sarfi.

Irrigatsiya-melioratsiya xizmatlarini ko'satish natijasida sug'oriladigan yerlarning suv bilan taminlanishi, yer osti suvlarining sathi pasayadi, yerning sho'rlanishi yaxshilanadi, shu erlardagi ekinlarning hosildorligi oshadi, mahsulot sifati yaxshilanadi, mahsulot tannarxi pasayadi, shu tadbirga sarflangan investitsiyaning samaradorligi oshadi.

Baliqchilikda naslchilikni rivojlantirish, sifatli ozuqa (em) bilan ta'minlashga oid xizmatlarning samaradorligini aniqlash uchun xizmat ko'rsatilgan davrgacha hamda xizmat ko'rsatilgandan so'ng yetishtirilgan baliq va boshqa mahsulotlarni yillik miqdorini xizmat ko'rsatilgancha bo'lgan miqdorda taqsimlanadi. Baliqlarning mahsuldorligi oshganligini aniqlash uchun yetishtirilgan baliqchilik mahsulotini baliqlarning o'rtacha yillik soniga taqsimlash lozim.

Xizmat ko'rsatilgandan so'ng baliqlarning mahsuldorligi oshgan bo'lsa xizmatlar samarali bo'ladi, aks holda samarasizdir. Xuddi shunday tartibda har bir infratuzilma xizmatlarining samaradorligini aniqlash mumkin.

Baliqchilik xo'jaligiga ko'rsatilayotgan infratuzilma xizmatlarini boshqa turlarini samaradorligini ko'rsatgichlarini har bir xizmat turini u yoki bu samaradorligini aniqlash lozim, lekin qishloq xo'jaligiga ko'rsatilgan barcha turdagi xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini ham aniqlash talab etiladi. Buning uchun dastavval infratuzilma subyektlarining barcha resurslarini qiymatini aniqlab

ularni keltirilgan harajatlarga (belgilangan usulda) keltirish lozim, soʻngra unga barcha xizmatlarni amalga oshirish jarayonida sarflangan harajatlar qoʻshiladi.

Shu summaga infratuzilma xizmatlarini koʻrsatish natijasida olingan sof foyda summasi taqsimlanishi kerak. Bu koʻrsatgichni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$ITX_{IS} = \frac{ITX_{yq1} - ITX_{yq2}}{ITX_{jx}} = \frac{ITX_{sf}}{ITX_{jx}}$$

Bunda: ITX_{IS} -infratuzilma xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi;

ITX_{YQ1} -infratuzilma xizmatlari koʻrsatilgan davrgacha olingan yalpi mahsulot qiymati (soʻm);

ITX_{YQ2} -infratuzilma xizmatlari koʻrsatilishi natijasida olingan yalpi mahsulot qiymati (soʻm);

ITX_{jx} -infratuzilma xizmatlarini koʻrsatish uchun sarflangan jami harajat (soʻm);

ITX_{SF} -infratuzilma xizmatlarini koʻrsatish natijasida olingan sof foyda.

Shu koʻrsatgich yordamida infratuzilma xizmatlarini koʻrsatish jarayonida sarflangan 1 soʻm evaziga olingan sof foyda summasi aniqlanadi. Bu koʻrsatgichning absolyut miqdori qancha koʻp boʻlsa shuncha samarasi yuqori boʻladi, lekin uning ham meʼyori mavjud.

Kelajakda qishloq xoʻjaligida ekilayotgan ekinlarning hosildorligi, chorva hayvonlarining mahsuldorligi yanada oshishi zarur. Buning uchun amalga oshiriladigan barcha agrotexnik va zootexnik tadbirlarni vaqtida sifatli qilib amalga oshirish lozim. Shuning bilan birgalikda, yetishtirilgan mahsulotlarni vaqtida, sifatli qilib yigʻishtirib olib, tashish, imkoniyat darajasida qayta ishlab, saqlash, isteʼmolchilarga yetkazib berish talab etiladi. Ularni talab darajasida ijobiy hal etish uchun infratuzilma subyektlarini sonini maqsadga muvofiq ravishda tashkil etish, barcha resurslar bilan taʼminlab faoliyatlarini rivojlantirish hamda samaradorligini yuksaltirish obektiv holda talab etiladi. Buning uchun tabiiy va iqtisodiy omillarni hamda talabni eʼtiborga olgan qishloq xoʻjaligini maqsadga muvofiq joylashtirishni va ixtisoslashtirishni yanada teranlashtirish zarur. Shunda

ustuvorlik sabzavotchilik, bog'dorchilik, xo'jaliklarini sifatli ko'chatlar bilan ta'minlovchi, chorva hayvonlariga sifatli zooveterinariya xizmatlarni ko'rsatuvchi, yetishtirilgan bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa mahsulotlarini yaxshi joylashtirish uchun tara-idishlarini qadoqlash materiallarini ishlab chiqaruvchi, axborot bilan ta'minlovchi, konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi infratuzilma subyektlarini tashkil etishga berilishi maqsadga muvofiqdir. Infratuzilma subyektlarini tashkil etishda ular o'rtasidagi raqobatchilikni ta'minlash maqsadida nodavlat, notijorat hamda xususiy tashkilotlarni tashkil etishga ham keng imkoniyat yaratib berish zarur. Ular irrigatsiya-melioratsiya inshootlarini qurish, ekspluatatsiya qilish, ta'mirlash, texnika, agrotexnik va zooveterinariya xizmatlarini ko'rsatish mahsulotlarni sotish, qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi subektlar bo'lishi mumkin. Ularni talabni e'tiborga olgan holda bosqichma –bosqich tashkil etishga aloxida e'tibor berish lozim. Ularni samarali faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash uchun mablag'lar bilan yetarli darajada ta'minlash maqsadida ularni kreditlashtirish tizimini yanada soddalashtirish talab etiladi.

Infratuzilma subyektlariga ichki va tashqi investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish uchun qulay investision muhitni hamda xuquqiy, iqtisodiy sharoitlatni yaratib berishga ham katta e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Barcha yo'nalishdagi infratuzilma subyektlarini faoliyatlarini maqsadga muvofiq ravishda to'g'ri tashkil etish hamda samarali bajarish uchun bilimdon, malakali kadrlarni barcha turdagi bilim yurtlariga tizimli tayorlashga ham alohida e'tibor berish zarur. Shuning bilan birgalikda servis subyektlarida faoliyat ko'rsatayotgan raxbar va mutaxassislarining bilim va malakalarini bozor iqtisodiyoti talablariga yetarli darajada javob bera oladigan darajada qayta o'qitish va malakalarini oshirish masalalariga ham katta e'tibor berish zarur. Xozirgi davrda qishliq hududlarida joylashgan infratuzilma subyektlari bilimli va malakalali mutaxassislar bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Bunday holning sodir bo'lishiga asosiy sabab ularning ham moddiy ham ma'naviy jihatdan rag'batlantirish tizimining yetarli darajada takomillashtirilmaganligidir. Xozirgi

davrda infratuzilma subyektlarining xodimlari faqatgina o'zlarining faoliyatlarini yakunlariga ko'ra moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladilar. Bunday hol bozor iqtisodi talablariga to'liq javob bermaydi. Chunki infratuzilma subyektlarining xizmat ko'rsatishlari oqibatida baliqlarning mahsuldorligi ortadi, turli xildagi harajatlar tejaladi, sifatli tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga sotish natijasida baliqchilik subyektlarining olayotgan sof foydasi oshadi. Lekin bundan infratuzilma subyektlarining xodimlari rag'batlantirilmaydi. Shunday ekan infratuzilma subyektlari xodimlarini ham rag'batlantirishda albatta qishloq xo'jaligining natijalarini ham e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Shunda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining xodimlari ham qishloq xo'jaligini rivojlanishidan manfaatdor bo'ladi. Shunda ular barcha turdagi xizmatlarni belgilangan muddatlarda hamda sifatli qilib bajarishga intiladilar. Baliqchilik mahsulotlarining 40% ko'prog'i sun'iy havzalarda yetishtirilishini hamda suv resurslarining cheklanganligini e'tiborga olgan holda yangi texnikalarini hamda texnologiyalarni qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan turli xildagi subyektlarni tashkil etib, ularni faoliyat ko'rsatishga qulay imkoniyatlarni yaratish lozim.

Baliq xo'jaligida raqobatbardosh tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish darajasini yuksaltirish maqsadida tarmoqda vertikal hamda gorizantal integratsiyalashtirish jarayonini yanada teranlashtirish lozim. Shuning oqibatida baliq xo'jaligi sanoat bilan uyg'unlashib, ularning rivojlanishi ta'minlanadi.

Yuqorida qayd etilgan masalalarni shu sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan turli yoshdagi insonlar amalga oshiradilar. Shunday bo'lganligi munosabati bilan ularning shu sohadagi ongini shakllantirishga doimo katta e'tibor berish lozim.

Shakllangan infratuzilma subyektlari baliqchilik korxonalariga turlicha xizmatlarni ko'rsatishlari tufayli ijobiy natijalarni berish mumkin.

Ta'kidlangan masalalarni talab darajasida hal etilishi kelajakda infratuzilma subyektlarini rivojlanishini ularning faoliyatlarini yuksalishini ta'minlab, qishloq xo'jaligini ham rivojlanishini ta'minlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Baliqchilik xo‘jaligida infratuzilmaning mohiyati nimada?
2. Baliqchilik xo‘jaligi infratuzilmasi tarkibi jihatidan nechtaga bo‘linadi?
3. Ishlab chiqarish infratuzilmasi vazifalarini sanab bering?
4. Baliqchilik xo‘jaligida ijtimoiy infratuzilmaning o‘rni kanday?
5. Bozor infratuzilmasi muassasalari maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. Infratuzilmaning turkumlashtirilishi qanday olib boriladi?
7. Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis shoxobchalari faoliyatining ahamiyati qanday?
8. Qishloqda ishlab chiqarish va ijtimoiy infra-tuzilmalar barpo etish deganda nimani tushunasiz?
9. Qishloqda infratuzilma obyektlarini rivojlantirishning qanday yo‘nalishlari mavjud?
10. Baliqchilik xo‘jaligida infratuzilma faoliyatini baholang?
11. Baliq xo‘jaligida servis yoki infratuzilma xizmatlari deganda nimani tushunasiz?
12. Baliq xo‘jaligida servis (infratuzilma xizmatlarining) ahamiyatini tushuntirib bering?
13. Tarmoqda servisni qanday yo‘nalishlarda amalga oshirilib mumkin?
14. Infratuzilma subyektlari tarmoqda qanday natijalarni ta’minlashi mumkin?
15. Infratuzilma subyektlarini rivojlanishini, hamda samaradorligini ifodalovchi qanday ko‘rsatgichlardan foydalanish mumkin?
16. Respublika viloyatlarida infratuzilma subyektlarini rivojlanishini dalillar bilan isbotlang?
17. Tarmoqda infratuzilma subyektlarini rivojlanishiga qanday omillar ta’sir etayotganligini ko‘rsatib bering?
18. Baliq xo‘jaligida infratuzilma subyektlarini qaysi turlarini rivojlantirish zarur?
19. Infratuzilma subyektlarini rivojlantirish uchun qanday masalalarni hal etish lozim?

13-mavzu. BALIQCHILIKDA ISHLAB CHIQRISH HARAJATLARI VA

MAHSULOT TANNARXI

13.1. Baliqchilik xo‘jaligidagi harajatlar, ularning ahamiyati

13.2. Harajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi

13.3. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o‘rtacha harajatlar), uning turlari va aniqlanish tartibi

13.1. Baliqchilik xo‘jaligidagi harajatlar, ularning ahamiyati

Baliqchilik xo‘jaligi mamlakatimiz xalq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan biri, uning serqirra faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun ma’lum miqdorda moddiy, pul hamda mehnat sarf-harajatlari amalga oshiriladi. Ularning mamlakat miqyosidagi miqdori jami ijtimoiy harajatlar deb ataladi. Ijtimoiy harajatlar ijtimoiy mahsulot qiymati bilan tengdir. Ularning tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Ishlab chiqarish vositalarida buyumlashgan harajatlar. Ular o‘tgan davr harajatlari bo‘lib, C harfi bilan belgilanadi.

2. Jonli mehnat harajatlari. Ular o‘zi uchun yangi qiymatni yaratadi, V harfi bilan belgilanadi.

3. Buyumlashgan va jonli mehnat uyg‘unlashishi natijasida jamiyat uchun qo‘shimcha qiymat yaratiladi. U M harfi bilan belgilangan.

Ijtimoiy harajatlar, ya’ni yalpi ijtimoiy mahsulot qiymatining umumiy ko‘rinishi quyidagicha: Mamlakatning jami ijtimoiy harajatlari–davlat hamda tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar miqyosidagi barcha harajatlarning yig‘indisidir.

Tarmoqning ijtimoiy harajatlari – individual korxonalarining, tashkilotlarning harajatlari yig‘indisidir. Shunday tarmoqlardan eng muhimi, Baliqchilik xo‘jaligidir. Baliqchilik xo‘jalik korxonalarini turli xildagi talablarni qondirish maqsadida mahsulotlar ishlab chiqarish, xizmatlarni bajarish uchun moddiy, pul va mehnat harajatlari amalga oshiriladi. Yuqorida qayd etganimizdek, korxonalar miqyosidagi moddiy va buyumlashgan harajatlar C harfi bilan, mehnat harajatlari, ish haqi shaklida bo‘lib, V harfi bilan belgilanadi. Korxonalar harajatlari umumiy ko‘rinishi quyidagicha: $C+V$. Bu umumiy harajat hisoblanadi.

Baliqchilik xo‘jalik korxonalarini turli xildagi mahsulotlarni yetishtirish, xizmat va ishlarni bajarish uchun moddiy va buyumlashgan quyidagi harajatlarni amalga oshiradilar: urug‘lik, baliqlar, yem, ozuqa, kimyoviy vositalar, yoqilg‘i, yog‘lovchi materiallar, asosiy vositalarning eskirish qiymati, sun‘iy suv havzalari qurish foydalanish harajatlari, ishchi xizmatchilarning mehnatlariga to‘langan haqlar, soliqlar, kreditlar uchun to‘lovlar, mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar, kam qiymatli, tez eskiruvchan materiallar va boshqalar.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqda amalga oshiriladigan harajatlarning yangi tartibi «Mahsulot ishlab chiqarish (ish, xizmat) va sotish tannarxlariga qo‘shiladigan harajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom»da (Toshkent, 1999 y.) o‘z ifojasini topgan. Hozirgi davrda Baliqchilik xo‘jaligida amalga oshiriladigan harajatlar o‘zgaruvchan hamda doimiy harajatlardan tashkil topadi. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi, ish miqdorining o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Doimiy harajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o‘zgarishi bilan bog‘liq emas (13.1-chizma). Mahsulot hajmi ko‘payishi yoki kamayishi bilan doimiy harajatlar qiymati o‘zgarmaydi. Masalan, suv yoki yer uchun ayrim asosiy vositalarga to‘lanadigan ijara haqi, ayrim asosiy vositalarning eskirish summasi (amortizatsiya summasi) to‘lovlari va boshqalar doimiy harajatlar tarkibiga kiradi. O‘zgaruvchan harajatlar ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liqdir. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorining ko‘payishi o‘zgaruvchan harajatlar ko‘proq sarflanishini taqozo etadi. Ularga urug‘liklar, baliqlar, ozuqalar, yem, mehnatga to‘lanadigan ish haqi, elektroyenergiya harajatlari va boshqa harajatlar kiradi.

Doimiy va o‘zgaruvchan harajatlarning o‘zgarishi yangi texnikalarni, samarali texnologiyalarni joriy etish, sermahsul baliq zotlarini yaratish, shakllantirish hamda ilg‘or tajribalarni amalga oshirish bilan bevosita bog‘liq.

Baliqchilik xo‘jaligida moddiy mablag‘ va mehnat sarflarini amalga oshirishda ularning o‘rindoshligini hamda har bir sarflanayotgan qo‘shimcha harajatlarni tejash, qolaversa, ortiqcha sarf-harajatlar qilmaslikni talab etadi.

Xo'jaliklarda amalga oshirilayotgan harajatlar ma'lum maqsadni hal yetishga qaratilgan.

Doimiy va o'zgaruvchan harajatlarning harakati



Shundan kelib chiqqan holda ular quyidagicha guruhlashtirilgan:

1. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan harajatlar:

- a) bevosita va bilvosita moddiy harajatlar;
- b) bevosita va bilvosita mehnat harajatlari (ish haqi);
- v) boshqa bevosita va bilvosita harajatlar

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr harajatlariga kiritiladigan harajatlar:

- a) mahsulotni sotish bilan bog'liq harajatlar;
- b) korxonani boshqarish harajatlari (ma'muriy sarf-harajatlar);
- v) boshqa operatsion harajatlar va zararlar.

1. Xo'jalik yurituvchi subyektning umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy faoliyati bo'yicha hisobga olinadigan harajatlar.

2. Favqulodda zararlar, daromad (foyda)dan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo‘jaligida sarflanayotgan harajatlarni imkoniyat doirasida tejashga harakat qilish zarur. Buning uchun fan, texnika yutuqlarini, innovatsion texnologiyalarni, ilg‘or tajribalarni imkoniyat doirasida ishlab chiqarishga tatbiq etish lozim. Harajatlarning tejalishi boshqa ishlar bajarilishini hamda olinadigan foyda summasi oshishini ta‘minlaydi. Natijada xo‘jalikning rentabellik darajasi ortadi. Foyda summasining oshishi xo‘jalikni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham bu masalaga respublikamiz hukumati, xo‘jaliklarning barcha xodimlari doimo katta e‘tibor bermoqdalar.

13.2. Harajatlar tarkibi, ularning turkumlashtirilishi

Baliqchilik xo‘jaligida mahsulot yetishtirish, ish va xizmatlarni bajarish uchun qilinayotgan barcha harajatlar iqtisodiy mazmunga, maqsadga, hisobot obyektiga hamda shakllanish manbalariga ko‘ra, quyidagi elementlarga va moddalarga guruhlashtirilgan (13.2-chizma):

- mahsulot yetishtirish, ishlarni, xizmatlarni bajarish bilan bog‘liq harajatlar;
- davr harajatlari;
- moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar;
- favqulodda zararlar.

Iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, bir xil harajatlar harajat elementlarini, bir nechta harajat elementlari harajat moddalarini tashkil etadi. Demak, harajat moddalari harajat elementlariga nisbatan kengroqdir.


Amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo‘lgan harajatlarni iqtisodiy elementlar bo‘yicha guruhlashtirish natijasida mehnat harajatlari uchun berilgan ish haqini va uning tarkibini, sarflangan moddiy (material) harajat, turli maqsadlarga sarflangan pul harajatlari (obyektlari bo‘yicha) summasini aniqlab, ularni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

Sarflanayotgan harajatlarni tahlil etish jarayonida ularning qanchasi mahsulot yetishtirishga oid texnologik jarayonlar bo‘yicha sarflanganligiga ham alohida e‘tibor beriladi. Bundan maqsad – fan-texnika, texnologiya yangiliklarini ishlab

chiqarishning u yoki bu jarayoniga tatbiq etish natijasida harajatlarni tejash

13.2-chizma

Baliqchilik xo'jaligidagi harajatlarning iqtisodiy elementlar bo'yicha guruhlashtirilishi



imkoniyatini aniqlashdir.

Shuning uchun ham harajatlarni mahsulot yetishtirish texnologik jarayonlari bo'yicha ham turkumlashtirish mumkin.

Harajatlarning bunday tartibda turkumlashtirilishi ularning baliqchilik mahsulotlari yetishtirish davrlari bo'yicha qilinadigan miqdorini, qiymatini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shunga asoslangan holda ularning samarali amalga oshirishlashini ta'minlash mablag'lar bilan ta'minlanish masalalari ham hal etilishini taqozo qiladi.

Baliqchilik xo'jaligida harajatlarni sarflashdan yana bir maqsad –

yetishtirilayotgan bir birlikdagi mahsulot, bajarilayotgan ishlar, xizmatlar uchun oʻrtacha qancha harajat qilinganligini ham aniqlashdir, yaʼni ularning tannarxlarini bilishdir.

Mahsulot (ish, xizmat) tannarxi darajasi ularning foydali yoki zararliligi boʻyicha aniqlanadi. Shuning uchun harajatlar har bir tannarx obyekti boʻyicha toʻgʻri olib borilishini taʼminlash lozim. Buning uchun sarflanayotgan harajatlar mahsulot ishlab chiqarish davrlariga qarab qoʻshilishi boʻyicha turkumlashtiriladi (13.3-chizma).

Baliqchilik xoʻjaligida harajat mahsulot yetishtirish jarayonida bevosita hamda bilvosita sarflanadigan harajatlarga ham turkumlashtiriladi. Bevosita (toʻgʻri) harajatlar mahsulotlarni yetishtirishda bevosita qatnashadi va ular mahsulot hajmiga, sifatiga toʻgʻri taʼsir koʻrsatmaydi.

Baliqchilik xoʻjalik mahsulotlarini yetishtirishda (ishlarni bajarish va xizmatlarni koʻrsatishda) bevosita qatnashadigan harajatlarga quyidagilar kiritilmoqda:

1. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan harajatlar tarkibi.

- Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi harajatlar, ular iqtisodiy mazmuniga koʻra, quyidagi elementlar bilan guruhlariga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy harajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);


- ishlab chiqarish xususiyatiga ega boʻlgan mehnatga haq toʻlash harajatlari;

- ishlab chiqarishga tegishli boʻlgan ijtimoiy sugʻurta ajratmalari;

- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boʻlgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boʻlgan boshqa harajatlar.

Harajatlarning mahsulot yetishtirish muddatlari bo'yicha turkumlashtirilishi



1. Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy harajatlar

- ◆ Ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy harajatlarga quyidagilar tegishli:
- ◆ ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlarni ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan, chetdan sotib olinadigan xomashyo va materiallar;

◆ normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asmavzu-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan, harid qilinadigan materiallar, shuningdek, asmavzu-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, instrumentar, moslamalar, inventar, priborlar laboratoriya asmavzu-uskunalari va asosiy fondlarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining eskirishi, maxsus kiyim-bosh va arzonbaholi boshqa ashyolarninigi eskirishi;

◆ sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo'jalik yurituvchi subyektlarida montaj qilindigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar;

◆ tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan, faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

◆ Ishlab chiqarish harakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xomashyo va materialalrga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xomashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tovarlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan quyi bo'g'inlarga, ya'ni sexga va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli:

◆ tabiiy xomashyo (yer rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan yerni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq to'lash, sanoat korxonalarini tomonidan suv xo'jaligi tizimidan belgilangan limitlar doirasida va

undan ortiqcha olinadigan suv uchun haq to‘lash. Sanoatning xomashyo tarmoqlari uchun yog‘och, taxta materiallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanish huquqlarining amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof-muhitni tiklash harajatlari;

- ◆ texnologik maqsadlarga energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg‘ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning transporti tomonidan bajariladigan, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha transport ishlari;

- ◆ xo‘jalik yurituvchi subyektning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish va xo‘jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi harid qilinadigan energiya (xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyaga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, harid qilinadigan energiyani iste‘mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish harajatlari harajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi);

- ◆ ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning tabiiy yo‘qotish me‘yorlari doirasida va ulardan ortiqcha yo‘qotilishi, yaroqsizlanishi va kam chiqishi;

- ◆ xo‘jalik yurituvchi subyektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog‘liq harajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagi kiradi) ishlab chiqarish harajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to‘lash harajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy harajatlar va boshqalar);

- ◆ xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan moddiy resurslarni etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi;

- ◆ mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar harajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati, idish va o‘rash-joylash materiallari qiymati. Ular amaldagi sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo‘yicha chiqarib tashlanadi;

- ◆ «moddiy harajatlar» elementi bo‘yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo‘shimcha narx (ustama)dan, ta‘minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to‘lanadigan

vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'implardan, transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

2. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash harajatlari.

• Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash harajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

• xo'jalik yurituvchi subyektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalariga va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan, amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, hisoblangan ish haqi, shu jumladan, bajarilgan ishni hisobga olish bo'yicha dastlabki hujjatlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlar;

• kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlariga ustamalar;

• ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tusidagi to'lovlar;

• texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

• kun, smenali rejimda ishlaganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

• hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararlik, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar.

• aloqa, temir yo'l, daryo, avtomobil transporti va katta yo'llar xodimlarining va doimiy ishi yo'lda o'tadigan yoki qatnov tusiga ega bo'lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo'jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan jo'nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan, qaytishgacha to'lanadigan, yo'lda o'tgan har bir sutka uchun to'lanadigan ustamalar;

- qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta'mirlashda bevosita band bo'lgan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajargan xodimlar uchun ishning ko'chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- doimiy ravishda yer osti ishlarida band bo'lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo'nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o'tadigan normativ vaqt uchun qo'shimcha haq;

- mehnatga haq to'lashning rayonlar bo'yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsiyentlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho'l, suvsiz va yuqori tog' joylarida ishlaganlik uchun koeffitsiyentlar bilan belgilangan to'lovlar;

- xo'jalik yurituvchi subyekt joylashgan joydan (yig'ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo'lda o'tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, meteorologiya sharoitlariga ko'ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to'lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda);

- ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom yetishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlagun ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to'lash;

- ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash;

- amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yili) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yili) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash;

- majburiy ta'tilda bo'lgun xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda haq to'lash;

- donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

- davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yigʻinlar, favqulodda vaziyatlar boʻyicha yigʻinlar va boshqalarda qatnashganlik uchun) mehnat haqi toʻlash;

- xoʻjalik yurituvchi subyekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar boʻyicha ishlar bajarilganligi uchun haq toʻlash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xoʻjalik yurituvchi subyektning oʻzi tomonidan amalga oshirilsa, pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi;

- belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq toʻlash fondiga kiritiladigan toʻlovlarning boshqa turlari.

3. Ishlab chiqarishga tegishli boʻlgan ijtimoiy sugʻurtaga ajratmalar.

- ◆ Ijtimoiy sugʻurta ajratmalariga quyidagilar kiradi:

- ◆ qonun xujjatlari bilan belgilangan normalar boʻyicha mehnatga haq toʻlash fondiga ijtimoiy tusdagi majburiy ajratmalar;

- ◆ nodavlat pensiya jamgʻarlariga, ixtiyoriy tibbiy sugʻurtaga va ixtiyoriy sugʻurtaning boshqa turlariga ajratmalar;

- ◆ asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boʻlgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi.

- Asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boʻlgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi boʻyicha harajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish). lizing boʻyicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan meʼyorlar, qonun xujjatlarida amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega boʻlgan nomoddiy aktivlar eskirishi har oyda xoʻjalik yurituvchi subyekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xoʻjalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli boʻladi, foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni boʻlmagan nomoddiy aktivlar boʻyicha eskirish meʼyori besh yil hisobiga belgilanadi, biroq

xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

4. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa harajatlar.

1. Ishlab chiqarish tusidagi boshqa harajatlarni hisobga olishning navbatdagi kompleks moddalari – bandlarda keltirilgan harajatlar elementlari bo‘yicha ajratiladi.

1. Yuqoridagilardan tashqari qo‘riqlash harajatlari bunday qo‘riqlash mavjud bo‘lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo‘lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

2. Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog‘liq harajatlar.

3. Tabiatni mahofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish bilan bog‘liq joriy harajatlar, shu jumladan, ifloslantiruvchi moddalarni yo‘l qo‘yiladigan me‘yorlar doirasida va undan ortiqcha atrof-muhitga chiqarganlik uchun to‘lovlar.

4. Ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta‘minlash harajatlari.

5. Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog‘liq bo‘lgan sog‘liqni saqlash tadbirlari.

6. Tekin ko‘rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga beriladigan oziq-ovqatlar qiymati, xo‘jalik yurituvchi subyekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to‘lash harajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

7. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formal kiyim-bosh, maxsus ovqatlar yoki ular pasaytirilgan narxlar bo‘yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi).

8. Ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo‘lgan boshqaruvning texnik vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko‘rsatish harajatlari.

9. Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

10. Ishlab chiqarish xodimlarini belgilangan ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha me'yorlar doirasida va ulardan ortiqcha harajatlar.

11. Ishlab chiqarish ishchilarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy sug'urta qilish harajatlari.

12. Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

13. Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra, bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

14. Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish harajatlari.

15. Mahsulot (xizmatlar)ni majburiy sertifikatsiya qilish harajatlari.

16. Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

17. Umumiy foydalaniladigan yo'lovchilar transporti xizmat ko'rsatmaydigan yo'nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog'liq harajatlar.

- 1. Baliqchilik xo'jaligida davr harajatlari ham amalga oshiriladi. Ular mahsulotlarni bevosita ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lmay, balki xo'jalikning sohalari bo'yicha tashkil etish va ularni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan harajatlardan iboratdir.

- Bu harajatlar ham maqsad vazifalariga ko'ra, quyidagicha turkumlashtiriladi:

- yetishtirilgan mahsulotlarni sotish, xizmatlarni ko'rsatish uchun qilinadigan quyidagi harajatlar: mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan barcha harajatlar;

- ma'muriy harajatlar, ularga tarmoqni, korxonani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha harajatlar, jumladan, boshqaruv tizimlarining faoliyati, boshqaruv

sohasidagi vositalar bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar;

- boshqa operatsion harajatlar, jumladan, kadrlar tayyorlash, loyihalarni tuzish, xodimlarni ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog‘liq harajatlar;

- hisobot davrining kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan harajatlar.

2. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha harajatlar. Ularga barcha turdagi kreditlar bo‘yicha, mol-mulkning ijara haqi to‘lovlari hamda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, sotish, tarqatish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar kiradi.

3. Favqulodda yuz beradigan hodisa, voqealarni qoplash bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar. Ularga korxonalarining odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari harajatlar kiradi. Masalan, er qimirlashi, tinchlikka xavf soluvchi harakatlarni ma‘lum miqdorda qoplash harajati. Chunki ular asosan davlat va mahalliy byudjet hisobidan qoplanadi.

13.3. Mahsulot tannarxi haqida tushuncha (o‘rtacha harajatlar), uning turlari va aniqlanish tartibi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarmoqlar, korxonalar miqyosida umumiy qiymat ko‘rsatkichlari bilan birgalikda o‘rtacha harajatlar, ya‘ni tannarx ko‘rsatkichi ham faoliyat ko‘rsatishi taqozo etiladi. Tannarx bozor iqtisodi sharoitida iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Uning yordamida Baliqchilik xo‘jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar, bajarilayotgan ishlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning bir birligi xo‘jaliklar uchun qancha so‘mga tushganligi aniqlanadi. Ularning darajasi qiymatni ifodalovchi baholar darajasi bilan taqqoslanishi natijasida olinadigan foyda yoki ko‘riladigan zararlar darajasi aniqlanadi. Bu ko‘rsatkich xo‘jaliklarning ichki boshqaruvchilari uchun juda muhimdir.

Hozirgi davrda mahsulot (ish, xizmat)ning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Tannarx deganda bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarish uchun sarflangan moddiy, mehnat, pul harajatlari nazarda tutiladi. Uning mutlaq (absolyut) darajasini aniqlash uchun barcha bevosita va

bilvosita ishlab chiqarish harajatlarining umumiy summasi shu harajatlar yordamida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot miqdoriga taqsimlanadi. Baliqchilik xo‘jaligida 1 s. mahsulotning narxi; 1 etalon gektarning; 1 tonna-km ning; 1 kvt/soat elektroyenergiyaning tannarxi aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$Tn = \frac{\sum Ix}{\sum Mm(I_m, X_m)} ;$$

Bunda: Tn – mahsulot, ish, xizmat tannarxi, so‘mda;

$\sum Ix$ – ishlab chiqarish harajatlarining umumiy summasi, so‘mda;

$\sum Mm(I_m, X_m)$ – yalpi yetishtirilgan mahsulot, jami bajarilgan ish, xizmatlar miqdori sen., tonnada, etalon gektarda, tonna km va boshqalar.

Etishtirilayotgan mahsulotlarning:

- ishlab chiqarish tannarxi;
- to‘liq tannarxi, tijorat tannarxi ham aniqlanadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash usuli yuqorida keltirilgan. Uning to‘liq yoki tijorat tannarxi jami harajatlarni (jumladan, sotish harajatlari bilan) yetishtirilgan yalpi mahsulot miqdoriga yoki sotiladigan mahsulot miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

Baliqchilik xo‘jalik mahsulotlari (ishlar va xizmatlar) ning haqiqiy hamda reja tannarxlari aniqlanadi. Haqiqiy tannarx darajasi yil yakunidagi ma’lumotlar yordamida hisoblanadi. Reja tannarxi esa normativlar, erishilgan ma’lumotlar asosida aniqlanib, «Biznes reja»da aks ettiriladi.

Baliqchilik xo‘jaligida barcha harajatlarni amalga oshirish natijasida turli xildagi asosiy, qo‘shimcha hamda yordamchi mahsulotlar olinadi. Jumladan, paxtachilikda paxta xomashyosi asosiy mahsulot hisoblansa, g‘o‘zapoyasi qo‘shimcha mahsulot sanaladi. Donchilikda don asosiy, somoni (poyasi) qo‘shimcha mahsulotdir. Qoramolchilikda go‘sht, sut asosiy, buzoq qo‘shimcha, go‘ng esa yordamchi mahsulot hisoblanadi. Lekin tarmoqdagi barcha harajatlar asosiy mahsulotni yetishtirishga qaratilgan bo‘ladi. Shundan kelib chiqqan holda 13.3.1-chizmada aks ettirilgan obyektlar tannarx obyektlari hisoblanadi.

Baliqchilik xo‘jaligida yetishtiriladigan asosiy, qo‘shimcha hamda yordamchi mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxlari quyidagi usullarda hisoblanadi:

Masalan, donchilikda qo‘shimcha mahsulotlar belgilangan koyeffitsiyentlar yordamida asosiy mahsulotlarga aylantiriladi. Ularni asosiy mahsulotlarning miqdoriga qo‘shib, jami yalpi don mahsulotining shartli miqdori aniqlanadi. Shartli mahsulot tarkibidagi asosiy hamda yordamchi mahsulotlarning shartli miqdori salmog‘i aniqlanadi. Shundan so‘ng jami ishlab chiqarish harajatlaridan shartli mahsulot salmog‘iga mutanosib ravishdagi salmog‘i hisoblanib, ularning umumiy summasi aniqlanadi. Shu aniqlangan summa asosiy mahsulot miqdoriga taqsimlanib, asosiy mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Shartli yordamchi mahsulot hissasiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish harajatlarini yordamchi mahsulotning haqiqiy miqdoriga taqsimlab, yordamchi mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashning jahondagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida o‘zini oqlagan «Direkt-kosting» tizimini Respublikamiz Baliqchilik xo‘jaligida ham joriy etish yo‘li tanlangan.

«Direkt-kosting» tizimining mohiyati shundan iboratki, bunda jami harajatlar doimiy va o‘zgaruvchan qismlarga ajratiladi va marjinal daromad miqdori aniqlanadi. Ushbu tizimda mahsulotlar tannarxi faqatgina to‘g‘ri (o‘zgaruvchan) harajatlar chegarasida aniqlanadi. Mahsulotlarni sotishdan kelgan pul tushumi bilan ularning harajatlar bo‘yicha tannarxini taqqoslash natijasida xo‘jalikning marjinal daromadini aniqlash mumkin. Marjinal daromaddan doimiy harajatlarni ayirish orqali xo‘jalik mahsulot sotish natijasida olgan sof foyda aniqlanadi.

Marjinal-kosting uslubini respublikamiz Baliqchilik xo‘jaligiga joriy etish natijasida yetishtirilayotgan mahsulotlarning real, aniq ishlab chiqarish tannarxini hisoblash imkoni paydo bo‘ldi. Bu moliyaviy hisob uchun juda zarurdir. Lekin boshqaruv hisobi uchun bu uslubning ma’lumotlari etarli emas. Chunki boshqaruv hisobi uchun faqatgina ishlab chiqarish tannarxi emas, balki to‘liq tannarx ko‘rsatkichi ham zarur. Shu munosabat bilan Baliqchilik xo‘jaligida harajatlarni yanada chuqurroq tadqiq etish uchun ularning boshqarish samaradorligini

osHIRISHDA abzorbshn-kosting uslubini qo'llash maqsadga muvofiqdi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, unda barcha harajatlar mahsulotning to'liq tannarxini shakllantiradi. Mahsulot harajatlari va tannarxini o'rganish boshqaruv hisobining muhim bo'limlaridan biridir.

Mehnat va moddiy ko'rinishidagi to'g'ri harajatlar bevosita aniq bir mahsulot yoki xizmat turiga oid bo'lishi, umumishlabchiqarish harajatlari mahsulot turiga qarab faqat maxsus usullar yordamida taqsimlanishi mumkin.

Harajatlarni taqsimlash - qilingan harajatlarning aniq bir harajat obyektiga borish jarayonidir.

Harajatlar objekti – tashkiliy bo'linma, shartnoma yoki boshqa hisob birligi bo'lib, u bo'yicha harajatlar haqidagi ma'lumotlar yig'iladi va jarayonlar, mahsulot, shu kapitalni qo'yish loyihasi va hokazolar qiymati o'lchanadi.

Harajatlarni taqsimlashning muhim kategoriyasi bo'lib, harajatlar markazi hisoblanishini yana bir bor ta'kidlamoqchimiz.


Harajatlar markazi – tashkiliy birlik yoki faoliyat sohali bo'lib, u erda aktivlar haridi uchun qilingan chiqimlar va harajatlar haqida axborot to'plash maqsadga muvofiqdir.

• Barcha harajat guruhlari boshqaruv echimlarini qabul qilishga mo'ljallangan. Boshqaruv hisobida harajatlar ikki asosiy obyekt guruhlari bo'linmalar va mahsulotlar bo'yicha taqsimlanishi kerak. Ushbu jarayon ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- harajatlar javobgarlik markazlari bo'yicha to'planadi;
- harajatlar muayyan brigadada yetishtirayotgan aniq mahsulot tannarxiga taqsimlanadi.

Tayyor mahsulot tannarxini hisoblashda quyidagi usullarga murojaat qilishadi: hamma harajatlarni hisobga olgan holda harajatlarni kalkulyatsiya qilish yoki ularning bir qismi bo'lgan o'zgaruvchan harajatlarnigina hisobga olib, kalkulyatsiya qilish mumkin.

Qishloq xo'jaligida mahsulot tannarxi obyektlari



Har bir soʻmni oqilona, maqsadga muvofiq sarflashga harakat qilish, yaʼni material, pul hamda mehnat harajatlarini tejashga, shu orqali yetishtiriladigan mahsulotlarning, bajariladigan ish va xizmatlarning tannarxlarini pasaytirishga erishish lozim. Buning uchun:

- dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida mavjud boʻlgan barcha ishlab chiqarish vositalaridan yil davomida tadbirkorlik bilan oqilona, samarali foydalanib, barcha ishlarning vaqtida, sifatli bajarilishini taʼminlashga;

- ekinlarning tezpishar, kam suv talab qiladigan, yuqori hosilli, samarali navlarini, urugʻchilikni, chorva hayvonlarining mahsuldor zotlarini hayotga iloji boricha koʻproq tatbiq yetishni taʼminlash;

- Baliqchilik xoʻjaligida ishlatiladigan sanoat korxonalarining narxlari bilan Baliqchilik xoʻjalik mahsulotlari oʻrtasidagi nomutanosiblikni qisqartirish;

- harajatlarni tejaydigan yangi texnika, innovatsion samarali texnologiyalarni joriy etish natijasida ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashtirilganlik, avtomatlashtirilganlik darajasini oshirib, jonli mehnat sarfini qisqartirish;

- irrigatsiya, melioratsiya va ximizatsiya bilan bogʻliq boʻlgan masalalarning sifatli va samarali boʻlishini taʼminlash;

- mehnatni tashkil yetishning samarali shakllarini va ragʻbatlantirish tizimini takomillashtirish;

- ekinlar hosildorligini, chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshirish erishish lozim. Shu tadbirlarni amalga oshirish natijasida harajatlar summasini nisbatan qisqartirib, mahsulotlar miqdorini oshirib ularning bir birligini tannarxini kamaytirishga erishish mumkin.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qanday harajatlar ijtimoiy va individual harajatlar deb ataladi?
2. Jami va ishlab chiqarish harajatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday harajatlarni doimiy va oʻzgaruvchan harajatlar deb atash mumkin?
4. Harajatlar elementlari va moddalari haqida qanday tushunchaga egasiz?

5. Mahsulot tannarxi deganda nimani tushunasiz?
6. Mahsulot tannarxi darajasini, dinamikasini qanday tushunasiz?
7. Mahsulot tannarxi tarkibi deganda nimani tushunasiz?
8. Harajatlarni kamaytirish, tannarxni pasaytirishga qanday chora-tadbirlar yordamida erishish mumkin?

14-mavzu. BALIQCHILIKDA YALPI VA TOVAR MAHSULOTI, ULARNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI

14.1. Baliqchilik xo'jalik korxonalarining daromad va foydalari, iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati

14.2. Daromadni va foydani aniqlash tartibi

14.1. Baliqchilik xo'jalik korxonalarining daromad va foydalari, iqtisodiy samaradorligi haqida tushuncha, uning ahamiyati

Tarmoqda mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar ishlab chiqarish faoliyatida har xil Baliqchilik xo'jalik mahsulotlari yetishtiradilar, xizmatlarni bajaradilar. Ular dastavval natura shaklida hisobga olinadi. Ular har xil talablarni qondirish maqsadida sotiladi, ayirboshlanadi, qayta ishlovsiz hamda qayta ishlanib iste'mol uchun ishlatiladi. Bu jarayonda yetishtirilgan mahsulot, xizmatlarning qiymati pul-tovar munosabatlari yordamida aniqlanadi.

Ma'lumki, yalpi mahsulotning qiymati buyumlashgan (S) hamda jonli mehnat (V) harajatlaridan, shuningdek, qo'shimcha qiymatidan (m) tashkil topadi. Yalpi mahsulot qiymatidan ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan moddiy vositalarning qiymati hamda eskirish summasi (S) ayirilishi natijasida tarmoqning, korxonaning yalpi daromadi yoki yangitdan yaratilgan qiymat aniqlanadi (VM). U tarmoq miqyosida yalpi ichki mahsulot yoki milliy daromad deb ataladi. Mahsulotlarni sotish, xizmatlar ko'rsatish natijasida xo'jalikning banklardagi joriy va valyuta schetlariga kassasiga kelib tushadigan mablag'lar uning pul tushumlari (daromadlari) ni tashkil etadi. Shu pul tushumlaridan sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish harajatlarini ayirish natijasida korxonaning yalpi foydasi aniqlanadi. Yalpi foyda summasidan davr harajatlari, soliqlar, to'lovlar, jarima va

peniya summolari ayrilishi natijada sof foyda aniqlanadi.

Xo'jaliklar yalpi mahsulot miqdorini sifatini ta'minlagan holda ko'paytirishga erishsalar, yalpi daromad, yalpi va sof foyda summolari ko'payishi mumkin. Bu hol, o'z navbatida, korxonalar ishchi-xizmatchilarini moddiy rag'batlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, ularning ish haqlarini oshirish hamda mukofotlash uchun ham, mahalliy va davlat byudjetiga ham va nihoyat, korxonalar ishlab chiqarishini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish zaminida rivojlantirish uchun ham ko'proq mablag' ajratiladi. Natijada ishlab chiqarishga yangi texnikalar, samarali texnologiyalarni joriy etish ta'minlanadi. Bu hol mehnat harakterini o'zgartirib, unumdorligi oshirishini ta'minlaydi.

Demak, yuqoridagi iqtisodiy kategoriyalar salmog'i va qiymatining o'sishi korxonalar, tarmoqning hamda, davlatning iqtisodiyoti rivojlanib, samaradorligini yuksalishini negizidir. Shuning uchun bu masalaga respublikamizda alohida e'tibor berilmoqda. Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining harid baholari imkoniyat doirasida oshirilmoqda, tijorat banklaridan olinayotgan kreditlarning to'lash muddatlari ayrim vaqtlarda biroz kechiktirilmoqda, Baliqchilik xo'jaligi korxonalariga kredit olishda, soliqlar to'lashda imtiyozlar yaratilmoqda, chet el investitsiyalarini jalb yetishda yordam ko'rsatilmoqda. Bularning hammasi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligi yuksalishini ta'minlaydi. Buning uchun korxonalar o'z faoliyatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy, tashkiliy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlarni vaqtida, sifatli o'tkazishlari zarur.

Iqtisod fanlarida «samaradorlik» va «iqtisodiy samaradorlik» tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxonalar, yo'nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo'yicha aniqlanishi mumkin. «Iqtisodiy samaradorlik» tushunchasi «samaradorlik» tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma'lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar tizimi bilan bog'liq bo'lgan harajatlar ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan harajatlar evazigav olingan sof foyda summasi qancha ko'p bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan

hisoblanadi va aksincha. Samaradorlikni esa u yoki bu tadbirlarni, ishlarni mahsulotlarni yetishtirish natijasida erishilgan yutuqlar ifodalaydi. Masalan, mahalliy va mineral o'g'itlardan, yem-xashaklardan foydalanish natijasida ekinlar hosildorligi oshishi va chorva hayvonlarining mahsuldorligining ortishi mumkin. Demak, sarflangan bir sentner mineral o'g'it yoki bir ozuqa birligi evaziga qancha mahsulot olinganligi aniqlanadi. Yoki bir kishi bir kunda qancha paxta xomashyosini terganligi, yoki bir paxta xom ashyosini teradigan kombayn qancha tergan. Bu ko'rsatkichlar ularning samaradorligini ifodalaydi.

Korxonalarining yetishtirgan mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini ularning rentabellik (foydalilik) darajasi ifodalaydi. Korxonada faoliyatining iqtisodiy samaradorlik darajasini esa bir birlikdagi (bir so'm) barcha resurslar (er, suv, mehnat, asosiy va aylanma vositalar) evaziga olingan sof foyda ifodalaydi. Umuman olganda «samaradorlik» hamda «iqtisodiy samaradorlik» kategoriyalari bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan eng muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi. Ularni yuksaltirish, oshirish uchun korxonalar barcha masalalarni ijobiy hal yetishlari lozim. Korxonalar faoliyatining samaradorligi oshsa, mamlakatimizning iqtisodiyoti, xalqimizning turmush darajasi yuksaladi.

14.2. Daromadni va foydani aniqlash tartibi

Baliqchilik xo'jalik korxonalarining pul va yalpi daromadlari, yalpi hamda sof foyda summalarini, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rentabelligini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki shu ko'rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyati moliyaviy tahlil qilinadi. Ular bilan mamlakat hamda korxonada iqtisodiy bevosita bog'liq. Ularni aniqlashda bir qancha ma'lumotlardan foydalaniladi. Korxonaning ma'lum bir davrdagi pul daromadi (tushumlari) jami sotilgan mahsulotlar, xizmatlar miqdorini ularning haqiqiy baholariga ko'paytirish natijasida aniqlanadi. Unda ushbu formuladan foydalanish mumkin:

$$Pd = Sm \times Mb$$

Bunda:

Pd – pul tushumi daromadi (so'mda);

Sm – sotilgan mahsulotlar, xizmatlar miqdori (tonna, sent, litr.);

M_b – sotilgan mahsulotlarning, qilingan xizmatlarning baholari, tariflari (so‘mda).

Korxonaning yalpi daromadi yoki yangitdan yaratilgan qiymat summasini yalpi mahsulot qiymatidan ishlatilgan asosiy vositalarning eskirgan qiymatini, ya’ni amortizatsiya summasini (S) ayirish natijasida aniqlash mumkin. Uning formulasi quyidagicha:

$$(C + V + m) - C = V + m$$

Demak, $V+m$ bu korxonaning yalpi daromadi hisoblanadi.

Bunda:

S – asosiy vositalarning amortizatsiyasi summasi, so‘mda;

V – ish haqi fondi, so‘mda;

m - qo‘shimcha qiymat, sumda.

Korxonaning yalpi foydasi mahsulot sotish(xizmat ko‘rsatish)dan tushgan pul tushumlaridan, daromadlaridan shu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan harajatlarni ayirish natijasida aniqlanadi. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$Y_{af} = S_d - S_t$$

Bunda:

Y_{Af} – yalpi foyda, so‘mda;

S_d – mahsulot sotishdan, ish, xizmat ko‘rsatishdan tushgan pul, so‘mda;

S_t – sotilgan mahsulot uchun sarflangan ishlab chiqarish harajatlari, so‘mda.

Korxonaning sof foydasi yalpi foyda summasidan davr harajatlari, ko‘zda tutilmagan harajatlar, moliyaviy harajatlar summasini ayirish natijasida aniqlanadi.

Buni ushbu tenglik yordamida aniqlash mumkin:

$$S_f = Y_{af} - (D_x + M_x + K_x)$$

Bunda: S_f – sof foyda summasi;

D_x – davr harajatlari, so‘mda;

M_x – moliyaviy harajatlar summasi, so‘mda;

K_x – ko‘zda tutilmagan tasodifiy harajatlar, so‘mda.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Yalpi daromad deganda nimani tushunasiz?
2. Yalpi daromad summasi qanday aniqlanad?
3. Yalpi foyda nima va u qanday aniqlanadi?
4. Sof foyda nima va u qanday aniqlanadi?

15-mavzu: BALIQCHILIKDA IQTISODIY SAMARADORLIK VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI

15.1. Baliqchilik xo‘jaligi iqtisodiy samaradorligi, daromadlari, yalpi va sof foydasining o‘zgarishi

15.2. Baliqchilik xo‘jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko‘paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari

15.1. Baliqchilik xo‘jaligi iqtisodiy samaradorligi, daromadlari, yalpi va sof foydasining o‘zgarishi

Korxonada ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkich rentabellik hisoblanadi. Uning darajasini aniqlash uchun sof foyda summasini tannarx yoki ishlab chiqarish harajatlari summasiga taqsimlab, 100% ga ko‘paytiriladi. Uning tengligi quyidagicha:

$$Rd = \frac{Sf}{St} * 100$$

Bunda: Rd – rentabellik darajasi, foizda.

Bu ko‘rsatkich yordamida korxonada, tarmoq miqyosida alohida mahsulotlarni yetishtirish uchun qilingan ishlab chiqarish harajatlarning iqtisodiy samaradorlik darajasi aniqlanadi. Shu usul yordamida 1 so‘mlik ishlab chiqarish harajatlari evaziga olingan sof foyda summasi aniqlanadi. Buning uchun olingan sof foyda summasi ishlab chiqarish harajatlari taqsimlanishi lozim. Bu ko‘rsatkichlar darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, bu iqtisodiy samaradorlik darajasi ham yuqori, ya’ni yaxshi ekanligidan dalolat beradi. Shuning bilan birgalikda korxonada, mahsulot yetishtirishda sarflangan barcha harajatlarning iqtisodiy samaradorligini

ham aniqlash maqsadga muvofiq. Uni quyidagi formula yordamida aniqlash lozim:

$$J_x = \frac{Sf}{j_x};$$

Bunda: J_x - korxonaning bir yildagi jami harajati (soʻmda);

Bu koʻrsatkich yordamida korxonada sarflangan barcha harajatlarning bir soʻmiga olingan qancha sof foyda olganligi aniqlanadi. Demak bu koʻrsatkich sarflangan jami harajatlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlaydi. Uning absolyut miqdori imkoniyat darajasida yuqori boʻlishi maqsadga muvofiq. Lekin bu koʻrsatkich korxonada faoliyatining umumiy iqtisodiy samaradorligini aniqlay olmaydi.

Korxonada faoliyatining umumiy iqtisodiy samaradorligini ham aniqlanishi lozim. Buning uchun chiqarishda qatnashadigan erlarning ham, asosiy vositalarning toʻla qiymatlari hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir. Yerning qiymati esa Baliqchilik xoʻjalik erlari qiymatini aniqlash boʻyicha ishlab chiqilgan uslubiy qoʻllanma yordamida aniqlanadi. Bunda rentabellik meʼyori ushbu tenglik yordamida aniqlanishi mumkin:

$$R_n = \frac{Sf}{A_{if} + (A_{sf} \cdot E_k) + E_k} \times 100\%$$

Bunda: R_n – rentabellik meʼyori, foizda;

A_{if} – aylanma fondlarning oʻrtacha yillik qiymati, soʻmda;

A_{sf} – asosiy fondarning oʻrtacha yillik qiymati, soʻmda;

E_k – asosiy fondlarning iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti (0,12);

E - yerning qiymati, soʻmda

Bu koʻrsatkich yordamida korxonada ixtiyoridagi barcha ishlab chiqarish resurslaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanganlik darajasi aniqlanadi. Yaʼni korxonada ixtiyoridagi yerlarning, asosiy va aylanma vositalarning bir soʻmlik qiymati evaziga qancha sof foyda olinganligi aniqlanadi. Demak shu koʻrsatkichlarning miqdori imkon doirasida yuqori boʻlishi kerak, lekin uning meʼyoridan oshmasligi lozim. Yaʼni optimallik darajasidan oshmasligi lozim. Bu koʻrsatkichni aniqlashni yanada takomillashtirishni talab etadi. Buning uchun bitta

mehnat resursining to'liq qiymatini aniqlash zarur. Buning nazariy va amaliy imkoniyatlari mavjud. Bu ko'rsatkich aniqlanganidan so'ng u yuqoridagi formulani maxraji tarkibiga kiritilishi lozim. So'ngra *Aif* ya'ni aylanma fondlarning yillik o'rtacha qiymatidan mehnatga to'langan ish haqi ajratmalari bilan ayrilishi lozim. Shunday qo'shimchalar bilan aniqlangan ko'rsatkich korxonalar foydalangan barcha resurslarning qiymatini bir so'mi evaziga qancha sof foyda olganligini aniqlashi mumkin. Agar u ko'rsatkichning absolyut miqdori oshsa unda korxonalar o'z ixtiyorida barcha resurslaridan to'liq va samarali foydalangan degan xulosa qilish mumkin.

Baliqchilik xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bozor iqtisodi munosabatlari bosqichma-bosqich davlat rahbarligida shakllantirilmoqda. Unga tarmoqda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar dalil bo'ladi. Masalan, baholar, soliqlar, kreditlar tizimidagi islohotlar.

Masalan ishlab chiqarish vositalarini sotib olishda, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotishda pul-tovar munosabatlari erkin amalga oshirilmoqda. Shuningdek turli hildagi kreditlarni, investitsiyalarni jalb yetishda erkin iqtisodiy munosabatlar amalga oshirilmoqda. Ular Baliqchilik xo'jaligini rivojlanishiga ijobiy ta'sir etmoqda. Natijada so'nggi yillarda Baliqchilik xo'jaligining yalpi mahsuloti, barcha harajatlari, shuningdek, pul daromadlari ham ortib bormoqda. Lekin Baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari baholariga nisbatan sanoat mahsulotlari baholarining o'sish darajasi yuqori bo'lganligi uchun tarmoqda olinayotgan sof foyda summasi doimo ham ortayotgani yo'q. Masalan, Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining 1991-1998 yillarda o'rtacha sotish bahosi 15150,9 martaga oshgan bo'lsa, sanoat mahsulotlarining o'rtacha sotish baholari 134431 martaga oshgan. Ular o'rtasidagi mutanosibat 1:8,9 ga teng. 2000-2009 yillarda ham Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining narxi bilan sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar o'rtasida nomutanosiblik mavjud. Lekin bu nomutanosiblik so'ngi yillarda ma'lum darajada qisqargan. Bunga hozirgi davrdagi iqtisodiy inqiroz ma'lum darajada ta'sir etgan. Narxlar o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi Baliqchilik xo'jaligida foydaning kamayishiga

salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari Baliqchilik xo'jaligi korxonalari barcha ishlab chiqarish resurslaridan etarli darajada yaxshi foydalanmagan. Shularning oqibatida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi tarmoq korxonalari xo'jalik faoliyatini 1996 yilda 11153,5 mln.so'm, 1997 yilda esa 16111,3 mln.so'm zarar bilan yakunlagan. Shu yillar ichida faqatgina Andijon va Farg'ona viloyatlaridagi xo'jaliklarning umumiy faoliyati foyda bilan yakunlangan.

Baliqchilik xo'jaligida so'nggi yillardagi iqtisodiy islohotlar ijobiy natija bermoqda. Jumladan, ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanish natijasida tarmoqning yalpi mahsuloti hajmi keskin oshdi. Shu bilan birga Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining baholari ham anchaga ko'tarildi. Lekin harajatlar summasi ko'p oshmadi. Natijada tarmoqning sof foydasi ortib, 2001 yili 112,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2008 yilga kelib Baliqchilik xo'jaligining sof foydasi 21.1 mlrd so'mni tashkil etgan. Demak 2001-2008 yillarda tarmoqning sof foydasi yil sayin oshib bormoqda. Bu o'z navbatida tarmoqning rentabelligini yuksalishini ta'minlamoqda. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi korxonalarining rentabelligi 6,9% ga etdi. 2008 yilda bu ko'rsakich 12.7% ni tashkil etgan.

Baliqchilik xo'jalik korxonalarining iqtisodiy samaradorlik darajasiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Tarmoqning foyda summasini hamda rentabelligini ortishiga asosiy mahsulotlarning ishlab chiqarib sotish natijasida erishilgan yutuqlar katta ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan boshqli don mahsulotlarini yalpi mahsulotni oshishi oqibatida pul tushumlari hamda sof foyda summasi oshib bormoqda.

Iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar:

- Baliqchilik xo'jaligi yerlarining holati, ulardan foydalanish darajasi;
- xo'jaliklarning ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi;
- mehnat resurslari, ulardan foydalanish hamda rag'batlantirilishi;
- ishlab chiqarishning intensivlashganlik darajasi;
- chorva hayvonlari, ularning mahsuldorligi;
- baholar, soliqlar, to'lovlar darajasi;

- suv resurslari, ulardan foydalanish darajasi;
- davlat, mahalliy byudjetdan ajratilayotgan mablag‘ va boshqalar.

Tarmoqda ishlab chiqarilgan o‘simlikchilik mahsulotlarini (ayniqsa bug‘doy, paxta xom-ashyosi) sotish xajmining oshishi hamda ularning narxlarining oshishi natijasida shirkat va fermer xo‘jaliklarining pul tushumlari oshib borgan.

Lekin shu sotib olingan mahsulotlar uchun mablag‘ning o‘z vaqtida etkazib berilmayotganligi uchun xo‘jaliklarning pul tushumlari tez sur‘tlar bilan oshayotgani yo‘q. Demak, kelajakda tovar pul munosabatlarini, ya‘ni to‘lov tizimini yo‘lga qo‘yishga alohida e‘tibor berish lozim. endilikda, paxta tozalash don mahsulotlari uchun mablag‘ni kontraktatsiya shartnomalarida ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lashlari zarur. Kelajakda barcha erkin bozor munosabatlarini o‘z vaqtida sifatli bajarilishini ta‘minlashga harakat qilish maqsadga muvofiqdir.

Hovuzda baliq yetishtirish foydali va daromadli biznes bo‘lib, uni tashkil qilish uchun egasi baliqning eng mos turini, parvarish usulini va baliqni saqlash xususiyatlarini aniqlashi kerak bo‘ladi. Agar biznes-rejaning barcha sirlariga rioya qilinsa, ushbu biznes turidan foyda va foyda aniq bo‘ladi.



Hovuz baliqchiligi iqtisodiy faoliyatning eng qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ishlab chiqarishning pirovard maqsadi har xil navdagi baliq va undan tayyorlangan turli xil mahsulotlardir.

Hovuz baliqchiligining asosiy turlari

Hovuz baliqchiligi hozirda ikkita asosiy turga bo‘lingan. Birinchi turga iliq suvli, ikkinchisiga esa sovuq suvli deyiladi. Ularning orasidagi farq shundaki, birinchi holda normal fiziologik rivojlanish uchun nisbatan iliq suv muhitini talab qiladigan baliqlarning ayrim turlari boqiladi. Bunday vakillarga oq amur, sazan, sudak som va cho‘rtan kiradi. Ikkinchisiga forel kiradi. Ushbu turdagi chuchuk suv baliqlarini yetishtirish nafaqat harorat rejimlari farqida, balki gidrokimyoda ham, kislorod darajasida ham mavjud.



Jarayonning davriy xususiyatiga ko‘ra, hovuz xo‘jaliklari quyidagilarga bo‘linadi:

1. To‘liq tizimli
2. Baliq pitomnik.

To‘liq tizimli hovuz xo‘jaliklari baliqning uvildiriqdan tortib to yetilib tovar shaklida sotishga qadar bo‘lgan butun davrni o‘z ichiga oladi. Naslchilik xo‘jaliklari ham naslni ko‘paytiradi. Baliq pitomniklari baliq urug‘i aralashmalarini yetishtirish bilan shug‘ullanadilar: lichinkalar, uvildiriq va yosh baliqlar. Kamdan kam hollarda , baliq ikki yoshgacha yetishtiriladi. Boqish uchun mo‘ljallangan baliq fermalari katta yoshdagi baliqlarni ko‘paytiradi.

Davomiyligiga qarab baliq fermalari quyidagilarga bo‘linadi:

1. Bir yillik oborotli

2. Ikki yillik oborotli
3. Uch yillik oborotli

Bu nom uvildiriqdan yetuk baliqni yetishtirishga qancha vaqt kerakligiga bog'liq. Maqsadga ko'ra, barcha suv havzalari quyidagilarga bo'linadi:

1. Suv ta'minoti.
2. Asosiy.
3. Isituvchi.
4. to'plovchi

Ko'paytirish uchun suv havzalari turlari

Yaxshi rivojlangan hovuz xo'jaliklari turli ehtiyojlar va fasllar uchun bir nechta suv omborlarining mavjudligini talab qiladi.

Birinchisi va eng muhim suv havzalaridan biri - bu urug ko'paytiruvchi. Ushbu turdagi suv havzalari uchun qurilma va texnik xizmat ko'rsatish uchun eng yuqori talablar qo'yiladi. U botqoq bo'lmagan zonada, yosh o'simliklar va urug'lantirish, tuxumdan chiqish va lichinkalarni ko'paytirish uchun qulay sharoitga ega bo'lishi kerak.



Ushbu suv havzalarida suvni yetkazib berish va chiqarish tez va mustaqil bo'lishi kerak. Undan faqat urug'lantirish uchun foydalanib, zoologik va gigienik me'yorlarga qat'iy rioya qilish kerak. Keyingi xili – uvildiriq hovuzi. Unda

uvildiriq ko'payishi amalga oshiriladi. Bu muhit to'yimli bo'lishi va zoti buzilishiga olib keladigan toksinlar va parazitlardan xoli bo'lishi kerak.

Uvildiriq hovuzdan keyin baliq pitomnik hovuziga chiqariladi. Bu yerda yosh baliqlarni boqish va yetishtirish amalga oshiriladi. Qulaylik uchun ular qishlash joylari yonida joylashadi.

Har qanday muvaffaqiyatli baliq yetishtirishning yana bir muhim omili bu qishlash hovuzidir. Ko'pincha qishlash paytida baliqlarning katta yo'qotishlari sodir bo'ladi. Kislorod yetishmasligi va noqulay harorat sharoitlari barcha foydali ixtiofloraning o'limini keltirib chiqarishi mumkin. Hovuzning chuqurligi 1,5 metrdan oshmasligi kerak. Suv ta'minoti manbai torfsiz zonaga yaqin joyda o'rnatiladi.

Boqiladigan hovuzlarning asosiy roli – sotiladigan tovar turlarni yetishtirish. Ularning o'lchamlari boshqalarnikiga nisbatan kattaroqdir, chunki ular kattalar uchun ko'proq erkinlikni talab qiladi. 150 gektargacha bo'lgan maydon tavsiya etiladi. Katta hajm o'z-o'zini oqlamadi, chunki bu baliq o'sishi bilan bog'liq bo'lgan barcha bo'g'inlarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Kichik hovuzlarning reproduktivligi ozuqa bazasini rivojlantirish uchun yaxshi sharoitlar tufayli biroz yuqori.

Hovuzlar to'liq quritilishi uchun imkoniyat mo'ljallangan bo'lishi kerak. Urug'lanish davri boshlanishidan oldin fermerlar yozgi havza suvlarida alohida parvarish qilishni talab qiladilar. Yuqori sifatli nasl berish uchun tartib va o'lchamlarni diqqat bilan muvofiqlashtirish kerak. Sanitariya me'yorlariga rioya qilish karantinli suv havzalarini nazarda tutadi. Ular asosiylardan ma'lum bir masofada joylashgan bo'lib, ularni qo'zg'atish, kasal yuqtirgan nasllar yoki yosh baliqlarni almashtirish uchun saqlanadi. Bunday hovuzlardagi suvni oqizib chiqarishdan oldin zararsizlantirilishi qat'iy ravishda ko'rsatilgan. Oshxonalarga baliqlarini yetkazish uchun sotishdan oldin kuz davrida qisqa muddatli foydalanishni nazarda tutadigan qafaslar ishlatiladi.

Hovuzlarning o'lchamlari juda aniq masshtab va o'zaro bog'liqliklarga ega. Bu nisbat naslchilik va baliq yetishtirishning intensivligiga bog'liq.

Baliqchilik biznes-rejasini qanday tuzish kerak?

Agar siz uydagi hovuzda chuchuk suv baliqlarini ko'paytirish va sotish bilan shug'ullanmoqchi bo'lsangiz, yangi boshlovchi baliqchi qaysi chuchuk suv baliqini tanlash kerakligini tanlashi kerak. Bu – ishlab chiqarishdagi asosiy masala. O'stirish rejalashtirilgan baliq turlarining barcha xususiyatlarini batafsil o'rganish kerak. Barcha xususiyatlarni, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasalliklarni, yillik o'sish davrlarini o'rganish kerak. Eng sodda va talab kuchli bo'lgan navlarni tanlash maqsadga muvofiqdir. Sazan va forel birinchi o'rinda tavsiya etiladi. Albatta, agar iloji bo'lsa, siz ikkala turni ham o'stirishingiz mumkin, lekin avval asoslarni o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Sazan bizning mintaqamizdagi eng oddiy baliq faunalaridan biridir. Uni yetishtirish oson va iqtisodiy samarador. Biroq, forel sotilganda uch baravar qimmat va baliqning ushbu turini sotishdan ko'proq foyda olish ehtimoli ancha yuqori. Ammo bu ishlab chiqarish uchun tajribali baliqchilarni jalb qilish kerak bo'ladi. Xavf va qiyinchiliklarni yangi boshlangan baliqchi o'zi hal qilishi kerak. Barcha baliqchilik xo'jaliklari umumiy qishloq xo'jalik soliqlariga o'tkazilgandan beri ushbu turdagi korxonalarining jozibadorligi oshdi. Bu yagona moliyaviy to'lov va QQS va boshqa soliqlarni to'lanmaydi.

Baliqqa qayerda yashash "qulayroq"?

Yaxshi yashash va yaxshi ko'payish suv mikroiklimiga bog'liq. PH, kislorod va yillik harorat kabi ko'rsatkichlarni maqbul darajada ushlab turish kerak. Suv havzasining mikroiklimi foydaga bevosita ta'sir qiladi.

Hovuzga baliq solishdan oldin, yuqoridagi va boshqa ko'plab parametrlarni baholash kerak. Asosiy savollarga "baliq-biologik asosnoma" deb nomlangan usulda javoblar beriladi. Bu hovuz gidrokimyosi va mikroiklim ko'rsatkichlari ro'yxati, shuningdek baliqlarni parvarish qilish, ovqatlantirish bo'yicha tavsiyalar. "Baliq-biologik asosnoma" ni ixtisoslashtirilgan muassasalar mutaxassislari o'tkazishi kerak.

Forel va sazanni ko'paytirish uchun harorat rejimlarini taqqoslash

Forel o'rtacha 16 dan 19 °C gacha haroratda o'sadi. Harorat 24 darajagacha ko'tarilsa, barcha baliqlarni yo'qotish xavfi mavjud. Bunda ko'payish va ovqatlanish, albatta to'xtaydi va tana vaznining pasayishiga olib keladi. 10-15 metr chuqurlikdagi hovuzlarni ishlatish yaxshiroqdir, ularning tubida janubiy hududlarning issiq mavsumida ham harorat 14-15 °C dan oshmaydi.

Sazan ko'proq oddiy. Hovuzni ifloslantiruvchi moddalardan tozalash kifoya. Sazan o'sishi va ovqatlanishi uchun qulay harorat 24-25 °C ni tashkil qiladi. Bir hovuzni 1,5 metr chuqurlikka qazish kifoya. Ushbu chuqurlikda oziq-ovqat ta'minoti yaxshi rivojlanadi, bu esa iqtisodiy samarani oshiradi. Hovuz uchun yana bir tavsiya uning o'lchamidir. Bu qanchalik katta bo'lsa, harorat shunchalik past bo'ladi va mikroiklim barqaror bo'ladi.



Rossiyaning mintaqalariini hisobga olgan holda va oddiy zotli suv havzasini tanlasangiz, muvaffaqiyatli boshlab, iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Uvildiriqni hovuzga qo'yish kifoya va u o'zi o'sib ketadi, degan noto'g'ri tushuncha ko'plab tadbirkorlarning inqirozga kiritadi. Faqat puxta o'ylangan biznes-reja va baliqchilik sohasidagi mutaxassislar bilan ko'plab maslahatlashuvlar sizga pul va istakni yo'qotmaslikka yordam beradi . Baliqchilik - bu butun bir fan va puxta yondashuvni talab qiladi.

Baliqqa qaysi ozuqani tanlash kerak?

Oziqlantirish har qanday baliqchilikning asosiy harajatlariga aylanadi. Tabiiy ozuqa asosida sazan yetishtirish mumkin, ammo unumdorlik 10 baravar past bo‘ladi. Mutaxassislar yuqori proteinli ozuqalardan foydalanishni tavsiya etadilar. Garchi ozuqani sotib olish harajatlaringiz harajatlarning 60 foizini tashkil etsa-da, ular har gektar suv maydonidan 20 tsentnergacha hosil olish imkonini beradi. Bozorni baholash va ulgurji sotib olishda siz 8-10 rubl / kg uchun yem sotib olishingiz mumkin.



Forel kamida 60-70 rubl / kg narxida yuqori sifatli ozuqani talab qiladi. Murakkab ozuqa forel go‘shini qizilga aylantiradigan o‘ziga xos tarkibga ega. Past sifatli oziq-ovqatdan foydalanganda go‘sh oq rangga ega bo‘ladi, bu baliqning marketing jozibadorligini pasaytiradi. Forel ozuqa mahsulotlarini juda yuqori darajada hazm qila oladi. 1 kg sazan go‘shini yetishtirish uchun siz 3 kggacha aralashma ozuqani sarflashingiz kerak, forel uchun bu ko‘rsatkich 3 baravar kam.

Baliqqa ortiqcha ozuqa berishdan ehtiyot bo‘lish kerak. Bundan tashqari, ortiqcha ozuqa qo‘shimchalari baliq yashaydigan maqbul mikroiklimni buzishi mumkin.

Nimaga e’tibor berish kerak?

Baliqchilikda asosiy xavf yuqumli kasalliklardir. Ularning asosiylari:

1. Qizilcha.
2. Ichak parazitlari.
3. Branxomikroz.

Baliqlarni tekshirish uchun har oy profilaktik ovni o'tkazish tavsiya etiladi. Agar u kasal bo'lsa, uni darhol karantin havzasiga topshirish va veterinarni chaqirish zarur.

Ushbu biznesdagi asosiy salbiy jihat – bu uzoq vaqt talab etilishi. Sotiladigan holga yetguncha ham sazan, ham forel uchun 2,5 - 3 yil zarur. Sazanning o'sishi kuzda tugaydi, shunda sotishning eng yuqori cho'qqisiha chiqiladi. Eng yaxshi tijorat foydasini uchun saqlab turush va keyinchalik sotish usuli qo'llaniladi. Bu rentabellikni yaxshi oshirishga imkon beradi, shu bilan birga mahsulotning 15 foizini yo'qotadi.

Iqtisodiy tahlil

Forel urug'i 300-400 rubl / kg turadi, 10 foiz yo'qotish kutiladi. 2 yil 6 oydan keyin siz uvildiriqdan 800 grammdan baliq olishingiz mumkin. Uni 120-200 rubl / kg ga sotish mumkin.



Sazan uvildirig'i 70 dan 140 rubl / kg gacha. Uch yil ichida siz 1 kg og'irlikdagi sazanni o'stirishingiz mumkin. Agar misol qilib olsak, 50 tonna miqdorida sazan yetishtirib uni 1 kg uchun 60 rubl ulgurji narxda sotilsa, keyin foyda qariyb 33000 rublni tashkil etadi.

Xatarlar hatto yuqori rentabellikni ham yo‘qotishi mumkin. Shuning uchun, diversifikatsiyani qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu saqlab sotish usuli, tovar holda tayyor baliq go‘stini boshqa mintaqalardan arzon narxda sotib olish, sifatsiz baliqlarini sotish, issiqlik elektr stantsiyalarida iliq havzalarda yetishtirish, pullik baliq ovlash xizmatini taklif etish va boshqalar. Masalan, pullik baliq ovlash xizmatini tijoratda foydaning 5 foizgacha oshirishi mumkin. Tajribali mutaxassislar xavflarni kamaytirishda ko‘p yaxshi usullarni ishlab chiqishgan. Yuqori raqobat va katta hajmda import ichki bozorda baliq sotishda ko‘p to‘siqlar yaratadi, shuning uchun siz bu masalada ham zararsizlikni o‘ylash kerak.

15.2. Baliqchilik xo‘jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini ko‘paytirish, iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari

Baliqchilik xo‘jaligining pul daromadlarini, yalpi va sof foydalarini kelajakda yanada ko‘paytirish uning barcha tarmoqlarida bozor iqtisodi talablariga mos keladigan tashkiliy, texnikaviy, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar tizimi hayotga o‘z vaqtida, sifatli tatbiq etilishini obyektiv ravishda taqozo etadi. Shuning uchun ham bu masalaga iqtisodiy inqiroz sharoitida ham Respublika hukumati katta e‘tibor bermoqda. Ular darslikda batafsil yoritilgan.

Kelajakda Baliqchilik xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari.

Baliqchilik xo‘jaligida yalpi hosilni ko‘paytirish va uning sifatini yaxshilash tadbirlari:

- baliqning serhosil zotlarini yaratish, ularni ishlab chiqarishga joriy yetishni tezlashtirish;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, hovuzlarni suv bilan ta‘minlash va tozalash tadbirlarini rivojlantirish;
- baliqlarni sifatli ozuqa bilan ta‘minlash va oziqlantirishni talab darajasida amalga oshirish;
- ekologiyani e‘tiborga olgan holda ishlab chiqarish jarayonlarida mahalliy, madaniy o‘g‘itlardan hamda kimyoviy vositalardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishni talab darajasida ta‘minlash;

- mahsulotlarning sifatini, ularni tashish va saqlash jarayonlarini yaxshilash tadbirlarini tezkorlik bilan amalga oshirish va boshqalar.

Baliqchilik xo‘jaligida moddiy, mehnat va pul harajatlari tejallishini ta‘minlovchi tadbirlar:

- ishlab chiqarishni samarali joylashtirish, ixtisoslashtirish va tashkil yetishni jadallashtirish;

- yangi texnikalarni, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mavjud ishlab chiqarish vositalaridan samarali foydalanish natijisida ish jarayonlarini to‘liq mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish;

- ishchi-xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimini rivojlantirish;

- davr hamda moliyaviy harajatlarni imkoniyat darajasida kamaytirish va boshqalar.

Bozor iqtisodi munosabatlarini baliqchilik xo‘jaligiga joriy yetishni erkinlashtirish va jadallashtirish tadbirlari:

- sanoat hamda baliqchilik xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni, sotishni erkinlashtirish, ular o‘rtasidagi ekvivalentlikni ta‘minlovchi tadbirlar joriy etilishini jadallashtirish;

- nodavlat mulkchilik shakllari barpo etilishiga asoslangan tadbirkorlik turlarini rivojlantirish;

- investitsiyalar jalb etilishini ta‘minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish;

- birjalarning turlarini rivojlantirish;

- sug‘urta ishlarini rivojlantirish va boshqalar.

Bu tadbirlar, avvalo, yetishtiriladigan mahsulotlar miqdorini talab darajasida ko‘paytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bo‘lishi zarur. Mahsulotlar miqdori hovuz maydonlarini kengaytirish hamda ularning hosildorligini oshirish hisobiga ko‘paytirilishi mumkin. Hovuz maydonlarini ko‘paytirish uchun yangi yerlarni o‘zlashtirish talab etiladi. Lekin bu tadbir cheklangan. Shuning uchun asosiy e‘tiborni baliq mahsuldorligini oshirishga qaratish zarur. Buning uchun baliqlarning yangi, sermahsul, tezpishar zotlarini

yaratish, irrigatsiya, melioratsiya, veterinar, kimyoviy tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish natijasida suvning unumdorligi oshishini ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda baliqlarni alohida hovuzlarda boqishni ilmiy asoslangan holda keng joriy etish maqsadga muvofiq. Alohida e'tibor ishchi-xizmatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishga qaratilishi zarur.

Yuqoridagilar bilan birga ishlab chiqarish, davr hamda moliyaviy harajatlar hajmini qisqartirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun korxonalarining, mehnatning oqilona shakllarini tashkil etish talab etiladi.

Yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni hayotga joriy etish natijasida jonli mehnat harajatlari kamayishini isbotlash lozim. Bu jarayonning ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, agrosanoat integratsiyasining rivojlanishi bilan bevosita bog'liqligini isbotlash zarur. CHorva hayvonlari mahsuldorligini ham oshirish lozim. Buning uchun naslchilik ishlarini yo'lga solish zarur. CHorva hayvonlarini to'yimli em-xashak bilan ta'minlashga erishish maqsadga muvofiqdir. Bu tarmoqda ham barcha harajatlarni qisqartirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar sifatli amalga oshirilishini ta'minlash zarur.

Yalpi foydaning ko'payishi mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar kamayishini taqozo etadi. Shuning uchun mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan bo'limlar, tashkilotlar sonini qisqartirib, bevosita aloqalarga o'tishni ta'minlash lozim. Hozirgi davrdagi mavjud bo'lgan yagona er solig'ini, to'lovlar, kredit stavkalarini tartibga solish natijasida sof foyda summasi ko'payadi. Yuqorida ta'kidlangan iqtisodiy kategoriyalarning ko'payishi, rivojlantirilishi, o'z navbatida, Baliqchilik xo'jaligi ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligi oshishini ta'minlaydi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Iqtisodiy samaradorlik deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy samaradorlik darajasini qanday ko'rsatkichlar ifodalaydi?
3. Rentabellik darajasi nima va u qanday aniqlanadi?
4. Foyda normasi deganda nimani tushunasiz va u qanday aniqlanadi?

5. Qanday tadbirlar Baliqchilik xo‘jalik mahsulotlari miqdorini oshirib, sifatini yaxshilaydi?
6. Qanday tadbirlar moddiy, mehnat va pul harajatlari tejallishini ta’minlaydi?

16-mavzu: BALIQCHILIKDA BAHOLAR, ULARNING TAKOMILLASHTIRILISHI

16.1. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funktsiyalari

16.2. Baliqchilik xo‘jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi

16.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari

16.1. Bahoning iqtisodiy mazmuni, ahamiyati, funktsiyalari

Bozor iqtisodiyoti erkin pul-tovar munosabatlariga asoslangan. Bu munosabatlar esa baholar yordamida amalga oshiriladi. Baho tovar qiymatining pulda ifodalanganligini isbotlovchi vosita, ya’ni mexanizmdir. Uning absolyut miqdori bozor iqtisodi sharoitida samarali, cheklangan harajatlarga asoslanadi, ya’ni ular bahoning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Har qanday harajatlar ham samarali hisoblanmaydi. Shuning uchun ma’lum bir miqdorgacha bo‘lgan, ya’ni maqsadga muvofiq sarflangan harajatlargina e’tiborga olinadi. Bozor iqtisodi sharoitida yuqoridagi holatlar bilan birgalikda talab va taklif asosida iqtisodiy jihatdan asoslangan real muvozanatli baho o‘rnatiladi. Raqobatli bozorda talab va taklifning o‘zgarishi baholar darajasi o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi. Shuning uchun korxonalar bozor talabini hamda taklifini chuqur o‘rgangan holda Baliqchilik xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishlari lozim. Bunda ular imkoniyat doirasida ishlab chiqarish harajatlarini tejashga alohida e’tibor berishlari kerak. Buning uchun mahsulot yetishtirish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga, ilg‘or texnologiyalarni joriy yetishga hamda mavjud bo‘lgan barcha tabiiy va iqtisodiy resurslardan yil davomida oqilona va samarali foydalanishga alohida e’tibor berishlari lozim.

Demak, baliqchilik xo‘jalik korxonalari bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan hollarni, ya’ni kimga, qanday mahsulotlarni qancha miqdorda, qanday qilib

yetishtirishni bilishlari zarur.


Baliqchilik xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talab esa hozirgi davrda quyidagi omillarga bog‘liq: iste‘molchilarning daromadi, didi, o‘rindosh tovarlarning narxi, haridorlar miqdoriga va boshqalarga.

Mahsulotlarga bo‘lgan talabni o‘rganishda xalqimizning milliy urf-odatlarini, albatta, e‘tiborga olish kerak. Jumladan, xalqimizning nonni, un mahsulotlarini, guruchni, qo‘y va mol go‘shini ko‘proq iste‘mol yetishga moyilligini. Baliqchilik xo‘jalik korxonalarini o‘z mahsulotlarini talabni e‘tiborga olgan holda taklif yetishlari mumkin. Bunda ular quyidagi omillarga asoslanishlari lozim: yetishtiriladigan mahsulotlarning bahosiga, ishlatiladigan resurslar bahosiga, qo‘llanilayotgan texnologiyalar darajasiga, samarasiga, soliq stavkasiga, dotatsiya miqdoriga, ishlab chiqaruvchilarning soniga va boshqalarga.

Yuqoridagi holatlarga asoslangan holda Baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning, ish va xizmatlarning baholarini 16.1-chizmadagi tartibda shakllantirishga e‘tibor qaratiladi. Shakllantiriladigan baholar esa bir qancha vazifalarni bajarilishini ta‘minlashi zarur.

16.1-chizma

Baliqchilik xo‘jalik korxonalarida bahoning shakllanishi hamda vazifalari




Demak, talab va taklif omillari hamda korxonalarining maqsadlarini e‘tiborga

olgan holdagina muvozanatlashgan baho shakllanadi. Muvozanatli baho esa iqtisodiy jihatdan asoslangan hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanatli baho 16.2-chizmada qayd etilgan funktsiyalarni, vazifalarni bajarishi lozim.

Mahsulotga bo'lgan bozor talabini hamda bahoning shakllanishini e'tiborga olgan holda belgilangan muvozanatli baholar xo'jalik nuqtai nazaridan quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- xo'jaliklarning maqsadga muvofiq, samarli ishlab chiqarish va sotish harajatlarini qoplash;



- korxonaning davr va molyaviy harajatlarini qoplash;

16.2-chizma. Bozor sharoitida bahoning funktsiyalari, vazifalari

- xo‘jalikka kelajakda rivojlanishini ta’minlaydigan optimal miqdorda foyda keltirish.


Muvozanatli baholar iste’molchilar hamda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning harajatlarini, daromadlarini, foydalarini to‘g‘ri taqsimlab, ularning iqtisodiyotini barqarorlashtirish va rivojlantirishga samarali ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Lekin mahsulot ishlab chiqaruvchilar monopolist, sotib oluvchilar oligopolist bo‘lgan holda mahsulot baholarining mutlaq darajasi keskin o‘zgarishi, bu iste’molchilar hamda ishlab chiqaruvchilar iqtisodiyotiga turlicha ta’sir ko‘rsatishi mumkin. 2001 yili suv tanqisligi oqibatida sholi hosili keskin kamaydi, bu hol 2005 yilning dastlabki oylarida bozorlarda guruchning bahosini 2-3 martaga oshib ketishiga olib keldi. Natijada ishlab chiqaruvchilarning daromadlari ortadi, iste’molchilarning daromadlari esa aksincha kamayadi. Bunday hol ularning turmush darajasi nisbatan pasayishiga olib keldi.

Baliq yetishtirishda esa harajatlar viloyatlar, tumanlar doirasida bir-biridan ancha farq qiladi. Sababi – suv havzalarining meliorativ holati yomonroq bo‘lgan Xorazm vohasida, Mirzacho‘lda ko‘proq harajat talab etiladi. Baliqchilik xo‘jaligida foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ularni olib borish bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar ham uzoq hududlarda joylashgan xo‘jaliklarda ko‘proq bo‘ladi. Sababi – masofa sarf- harajatlarning ortishiga ta’sir etadi. Lekin davlat paxta xomashyosini sotib olish bo‘yicha o‘rnatgan harid baholarining mutlaq miqdori respublika hududlarida bir xil. Bunday hol yuqoridagi holatlar mavjud bo‘lgan xo‘jaliklarning iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki so‘nggi yillarda yetishtirilgan paxta xomashyosi to‘liq davlatga davlat buyurtmalari hamda shartnomalar asosida sotilgan.

Shunday ekan, iqtisodiy jihatdan asoslangan muvozanatli baholarni shakllantirishda baliqchilik xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan talab va taklifni e’tiborga olish lozim. Bunda davlatning ham roli bo‘lishi kerak. Shuning uchun davlat baliqchilik xo‘jaligiga dotatsiya, subsidiya mexanizmlari orqali iqtisodiy ko‘maklashmoqda.

16.2. Baliqchilik xo'jaligida baholar tizimi, ularning darajasi va dinamikasi

Baliqchilik xo'jaliigda barchav talablarni qondirish maqsadida turli xildagi o'simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtiriladi, ishlar hamda xizmatlar bajariladi. Ularni iste'molchilarga etkazib berishda, sotishda turli xildagi baholardan foydalaniladi. Baholar mahsulot (ish, xizmat) larni ayriboshlash maskaniga, maqsadiga, vazifasiga ko'ra, bir qancha turlardan tashkil topadi. (16.3-chizma)



16.3-chizma. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan baholar tizimi

Qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilayotgan paxta xomashyosi va bug'doyning 50 foizi «O'zpaxtasanoatsotish» uyushmasi va «O'zdonmahsulot» korporatsiyasi korxonalariga shartnomalar asosida davlat buyurtmalarini bajarish maqsadida davlat harid baholarida sotilmoqda. Ularning mutlaq miqdori talab va taklif e'tiborga olingan holda o'zgarib bormoqda .

Korxonalar davlat buyurmasidan tashqari barcha mahsulotlarini erkin va

boshqa turdagi baholarda sotmoqdalar. erkin baho bozorda mahsulot sotuvchi va uni sotib oluvchilar o'rtasida, ularning iqtisodiy manfaatlari hamda bozor talabi va taklifi asosida shakllanadi, ya'ni belgilanadi. U tarmoqlarning mahsulot oldi-sotdi munosabati bo'yicha tuzilgan shartnomalarida o'z aksini topadi. Shuning uchun erkin baholarni shartnoma baholari deb ham atashadi. Uning absolyut miqdori mahsulot sotish davriga, unga bo'lgan talabga hamda mahsulot sifatiga bog'liq.

Tarmoqdagi erkin (shartnoma) baholarning mutlaq (absolyut) miqdori Baliqchilik xo'jaligida foydalanilayotgan ishlab chiqarish vositalari baholarining o'sishi, mahsulotlarga nisbatan talabning oshishi natijasida so'nggi yillarda o'zgarib bormoqda

Baliqchilik xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabni muntazam oshishi oqibatida ularning erkin bozor narxlari ham oshib borgan.

Davlat harid hamda erkin (shartnoma) baholarida mahsulotlar iste'molchilarga ulgurji holda, ya'ni ko'p miqdorda, katta partiyalarda ham sotiladi. Shuning uchun ularni ulgurji baholarga ham tenglashtirish mumkin.

Baliqchilik xo'jalik mahsulotlari jahon baholarida ham sotilmoqda. Uning mutlaq (absolyut) miqdori jahondagi ixtisoslashgan yirik birjalarda belgilanib, mahsulot eksporti va importi shartnomalarida aks ettiriladi. Baliqchilik xo'jalik mahsulotari darajasiga jahondagi yirik tovar ishlab chiqaruvchilar hamda ularni sotib oluvchilar ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga ularning barqarorligiga dunyo miqyosidagi tinchlik, iqtisodiy barqarorlik ham ta'sir etadi. Jumladan, 2001 yil sentyabr oyidagi voqealar va keyingi holatlar ta'sirida jahon miqyosida neftning bahosi o'zgarib turgan holda, paxta tolasining bahosi pasayib bormoqda, guruch va bug'doyning baholari esa o'zgarib turibdi.

Lekin jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ayrim davlatlarda qurg'oqchilik natijasida mahsulot ishlab chiqarish miqdori kamayishi, ularga bo'lgan talabning mavjudligida narxining ortishiga olib keldi.

Bunga jahon bozoridagi taklif bilan talab bevosita ta'sir etgan. Shuning bilan birgalikda paxta tolasini o'rnini boshqa materiallar ham bosa olishi ham ma'lum darajada ta'sir etgan. Bundan tashqari 2008-yilning kuzidan boshlangan jahon

moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham bevosita ta'sir etgan. Agar 2008 yilda bir tonna paxta tolasi 1444.4 yevroni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda bu ko'rsatkich 1288.9 ni tashkil etgan. Ya'ni 10.8 foizga pasaygan.

Bug'doy bilan guruch oziq-ovqat mahsulotlari bo'lganligi munosabati bilan aholining ularga bo'lgan talabi to'liq qondorilayotgani yo'q. ularga bo'lgan talab esa yil sayin oshib bormoqda. Tez takrorlanoyotgan qurg'oqchiliklar, tabiiy ofatlar natijasida ularning ishlab chiqarilayotgan miqdori tez suratlarda oshib borayotgani yo'q. ularning ta'siri natijasida bug'doy va sholi mahsulotlarining o'rtacha narxlari dollarda ham, yevroda ham ma'lim darajada ortgan. 2010 yilda ham bunday hol kuzatilishi mumkin. Chunki Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston respublikasida 2010 yilda ham sezilarli qurg'oqchilik sodir bo'ldi.

Qishloq xo'jalik korxonalarini o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida yetishtirilgan mahsulotlarining ma'lum bir qismini qayta ishlaydilar (urug'lik, yem, ovqatlanishga). Bu jarayonda qatnashadigan mahsulotlar ichki munosabatlarni hisobga olgan holda tannarxlari bo'yicha beriladi. Shuning uchun bunday baholar tannarx baholari ham deyiladi.

Xo'jaliklar ma'lum miqdordagi ortiqcha mahsulotlarini fuqarolarga chakana baholarda sotishlari mumkin. Har bir fuqaro o'zi xohlagan miqdordagi mahsulotlarni erkin bozorlardan, do'konlardan sotib olishi mumkin. Bu jarayonda foydalanilgan baholar chakana baholar hisoblanadi.

Chakana baholar – savdo jarayonida sotilatgan tovarlarning bahosidir. Chakana baholar orasida ulgurji hamda chakan savdo korxonasi sotib olgan tovarlar bahosi yotadi. Savdo korxonalarini ulgurji baholarga savdo ustamasini qo'yadilar, shuning hisobidan qilingan harajatlar qoplanadi va foyda olinadi. Savdo ustamasi miqdorini savdo korxonalarini o'zlari belgilaydilar, lekin ma'lum chegaradan o'tmaydilar. Shuningdek, savdo ustamasiga qo'shimcha qiymat solig'i va maxsus soliq ham qo'shiladi.

Korxonalar iqtisodiyotining bir necha yilligini o'rganish maqsadida, ya'ni mahsulotini, mehnat unumdorligini, fondlar qaytimi o'zgarishini tahlil yetishda qiyosiy baholardan foydalaniladi. Qiyosiy baholar asosida mamlakat miqyosidagi

ma'lum bir yilning haqiqiy o'rtacha bahosi yotadi. Hozirgi davrda qiyosiy(taqqoslama) baho sifatida 1996 yildagi haqiqiy baholar olingan. Kelajakda qiyosiy baho uchun inflyatsiya va boshqa asosiy iqtisodiy masalalarni e'tiborga olgan holda boshqa yilning haqiqiy bahosi asos qilib olinishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ayriboshlash jarayonida pul o'tkazish operatsiyalari ma'lum darajada buzilishi tufayli mahsulotlarni natura holda (barter) ayriboshlash amalga oshirilmoqda. Mahsulot ayriboshlash jarayonida ekvivalentlik holatini ta'minlash uchun shu mahsulotning baholari e'tiborga olinmoqda. Barter jarayonida korxonalar o'z maqsadlarini hal etsalar, davlat ma'lum miqdorda daromad olmay qoladi. Chunki barterda mahsulotning qiymati pulda hisoblanmaydi. Oqibatda davlat byudjetiga foydadan olinadigan soliq to'lanmaydi.

Baliqchilik xo'jaligi korxonalarini tomonidan qurilish, transport xizmatlari, maishiy xizmat ko'rsatiladi. Bu xizmatlarning qiymati smeta hamda tarif baholarida hisob-kitob qilinadi.

Transfert baholar – bir birlashma yoki korporatsiya ichidagi o'zaro hisob-kitobda qo'llaniladigan baholardir.

Ularning mutlaq (absolyut) miqdori bozor iqtisodiga o'tish davrida talab va taklifdan, fan-texnika taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda o'zgarib borilmoqda. Buni paxta xomashyosi uchun o'rnatiladigan davlat harid baholari ham isbotlashi mumkin.

16.3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida baholarni takomillashtirish masalalari

Baliqni sanoat usulida yetishtirish baliqchilik xo'jaligida yangi, intensiv rivojlanayotgan yo'nalishdir. Bu texnologiyalar quyidagi printsiplarga asoslanadi:



- suv havzasiga yoki maxsus idishlarda katta zichlikda baliq urug‘i solib baliqlarning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib yetishtirish;
- zarur bo‘lgan moddalar muvozanatini nazorat etib uvildiriq va katta yoshli baliqlarni to‘laqonli ozuqa qo‘shimchalari bilan boqish;
- mehnat unumdorligini oshirish va yangi baliq avlodining rivojlanish davrini qisqartirish maqsadida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalashtirish;
- o‘n ikki oy davomida yetuk baliqlarni sotishga tayyorlash.

Baliqni sanoat usulida yetishtirish tarixi

Rossiya baliq fermalari o‘ttizinchi yillarda sanoat usulida baliq yetishtirish to‘g‘risida o‘ylay boshladi. Gerbilskiy tomonidan yaratilgan gipofiz bezining faolligini oshirish uchun ishlatiladigan in'ektsiyalar nafaqat mini-fermalarda, balki yirik korxonalarda ham baliq yetishtirishga imkon berdi.

Baliq yetishtirishning ushbu yo‘nalishi Kavkaz, Sibir va Qrim mintaqalarida mavjud bo‘lgan qulay yashash muhitida sanoat va sun‘iy suv havzalaridan foydalanadi.

Baliqchilikning sanoat yo‘nalishi baliq uchun ozuqaviy qo‘shimchalar sifatida faqat sun‘iy ozuqadan foydalanadi, shu bilan tabiiy sharoitda baliq yetishtirishga nisbatan tez yangi avlod olinadi.

Mahalliy va xorijiy tajriba



Yaponlar birinchi marta sanoat baliqchilikni amalda qo‘lladilar, aynan Rossiya baliqchilariga sanoat baliqlarini yetishtirishda mahalliy va xorijiy tajribani amaliyotda juda muvaffaqiyatli qo‘llash g‘oyasini berdilar.

Asosan Rossiyaning markaziy zonasida joylashgan mahalliy baliqchilik fermalari, chet ellik hamkasblaridan inkubatsiya sexida sun'iy ravishda urug‘lantirish tajribasini o‘rganib, osyotr baliqlarini boqishning intensiv shaklini qo‘llashga o‘rganishdi.

Yaponlar ruslarga sazanni uni yetishtirish uchun sirkulyatsiya tizimlari bilan jihozlangan sun'iy suv havzalari yordamida juda muvaffaqiyatli yetishtirish mumkinligini ko‘rsatdilar. Ushbu tajribadan so‘ng, bizning baliqchilik fermalarimiz oziq-ovqat qiymati yuqori bo‘lgan tilapiya navini yetishtirishga qiziqish bildirishdi, ammo uni boqish juda qiyin. Ammo ular bu vazifani muvaffaqiyatli uddalashdi.

Oziq-ovqat qo‘shimchalarini sanoatda ishlab chiqarish

Baliqning noyob turlarini muvaffaqiyatli yetishtirish boshlangandan so‘ng sanoat miqyosida baliq uchun ozuqa qo‘shimchalarini ishlab chiqarishga o‘tildi. Hozirgi vaqtda bu ozuqalar forel uchun asosiy ozuqa hisoblanadi. Ularda uning o‘sishi va rivojlanishi uchun barcha zarur moddalar mavjud. Forel uchun ozuqa qo‘shimchalariga ishlab chiqarishda zeolitaklinoplolit ham qo‘shiladi, bu uning o‘sishi va kasalliklarning yo‘q bo‘lishiga yordam beradi.

Baliqni sanoatda yetishtirishning xususiyatlari

Baliqchilikning sanoat yoʻnalishi bir qator xususiyatlarga ega. Odatda u oʻlchami va ishlab chiqarish hajmi boʻyicha katta. Baliq yetishtirish uchun maqbul sharoitlarni saqlab qolish uchun suvni tozalashga, yosh baliqlarning kattalarga aylanishini tezlashtirish uchun unga ozuqa qoʻshimchalarini qoʻshishga imkon beradigan maxsus usul qoʻllaniladi.

Suv yaxshilab tozalanadi, harorat rejimi va suvning gaz tarkibi nazorat qilinadi. Baliqlarni uvildiriqning oʻsishini va rivojlanishini taʼminlaydigan muvozanatli ozuqa qoʻshimchalari bilan toʻydirib, shu bilan birga tovar baliq sifatini yaxshilanadi.

Toʻgʻri ozuqa qoʻshimchalarini tanlash va ular tarkibidagi kerakli moddalarning maqbul kombinatsiyasi baliq fermalari tayanadigan asosiy yoʻnalishdir.

Baliqni sanoat usulida yetishtirish markazi



Rossiyadagi sanoat baliqchiligining eng mashhur markazlaridan biri Saratov shahrida joylashgan. Uning faoliyati baliqchilik sohasida resurslarni tejaydigan texnologiyalarni pullik asosda ishlab chiqarishga joriy etishga qaratilgan. Shuningdek, u baliq va ozuqa qoʻshimchalarini yetishtirish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqadi, bu esa kasalliklarsiz va baliqchilik fermalari duch keladigan boshqa noxush holatlarsiz oʻsishi va rivojlanishiga imkon beradi.

Mamlakat bo‘ylab turli xil baliq turlarini ko‘paytiradigan ko‘plab fermalar mavjud. Ularning barchasi baliq yetishtirishning sanoat yo‘nalishi tomonidan patentlangan texnologiyalardan foydalanadilar, chunki bu ferma yoki baliqchilikning mintaqaviy mansubligidan qat’i nazar, baliq yetishtirishning barcha jihatlariga eng samarali va ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Baliqni sanoat usulida yetishtirish juda yangi yo‘nalish bo‘lganligi sababli, yaqin kelajakda fermerlar va ishlab chiqaruvchilar yangiliklarni kutishlari kerak, bu ularning ishini osonlashtiradi va nafaqat yosh baliqlarni, balki sotishga tayyor baliqlarning o‘shirishini sezilarli darajada oshiradi.

Fan texnika taraqqiyoti sharoitida talab va taklif o‘zgarishini e’tiborga olgan holda baholarning mutlaq (absolyut) miqdorini o‘zgartirish, takomillashtirish, ya’ni liberallashtirish lozim. Bu nihoyatda murakkab masala. Uning ijobiy hal etilishi juda ko‘p tomonlarga, holatlarga bog‘liq. Respublika miqyosida bu masalani hal yetishda o‘tish davrining hozirgi bosqichida davlatning roli ancha ulkan. Shuning uchun bu jarayonda agrosanoat majmuasini rivojlantirishda qo‘llanilayotgan narx va moliya-kredit siyosati quyidagi vazifalarni echishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak:

- davlatning iste’mol mollari bilan o‘zini-o‘zi ta’minlashini tezlashtirish;
- Baliqchilik xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari narxlari o‘rtasidagi ekvivalentlik munosabatlarini ta’minlashga erishish;
- qishloq tovar ishlab chiqaruvchilarining daromadlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta’minlaydigan darajada rag‘batlantirish;
- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilishda ko‘mak berish;
- davlat ichida yagona iqtisodiy rejani tashkil qilish, yaqin hamda uzoq xoriyga chiqish va boshqalar.

Bozor iqtisodiyotida baho munosabatlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

- erkin baholarni davlat tomonidan boshqariladigan baholar bilan uyg‘unlashtirish;
- taklif qilinayotgan mahsulotlarning baholarini hisoblashda normativ

usullardan foydalanish;

- tovar ishlab chiqaruvchilarning daromad olishlarini ta'minlash;
- ishlab chiqarish harajatlarini pasaytirish va samaradorlikni oshirish;
- narx va moliya-kredit munosabatlarining o'zaro aloqasini

optimallashtirish;

- talab va taklif ta'siri natijasida muvozanatli baholarni shakllantirish;
- fan-texnika taraqqiyotini, ilg'or texnologiyalarni rag'batlantirish va

boshqalar.

Ular barcha tamoyillar, dalillar yodamida isbotlanishi lozim.

Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining baholarini belgilashda monopoliya, oligopoliyaning mavjudligi, erkin raqobatning nisbatan kamligi, inflyatsiyaning mavjudligini, Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarini sotib olishdagi monopoliya ma'lum darajada yuz berayotganligini ham e'tiborga olish zarur.

Ma'lumki, Baliqchilik xo'jalik korxonalarida yetishtirilgan paxta xomashyosining asosiy qismini «O'z paxtasanoat» uyushmasi sotib olmoqda. Bu hol ma'lum darajada erkin bozor, ya'ni erkin raqobat mavjud emasligidan dalolat beradi.

Baliqchilik xo'jalik korxonalarida o'zlarining mahsulotlariga dastbalki baholarni belgilashda quyidagilarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir:

◆ mahsulotlarni yetishtirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarining baholari, ularning darajasiga. Hozirgi davrda ular erkin bozor baholarida sotilmoqda. Lekin ularni belgilashda respublika sharoitida monopol holat mavjud. Masalan, respublikamizda traktorsozlik, mashinaasozlik zavodlari yakkahokim. Demak, shu masalani hal yetishda davlatning roli bo'lishi maqsadga muvofiqdir;

◆ mahsulotlarni yetishtirish hamda sotish jarayonlaridagi munosabatlar natijasiga;

◆ Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va sotish jarayonlaridagi munosabatlarning oqibatlariga va boshqalarga.

Hozirgi davrda tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tannarxlari

tarkibida o'g'itlar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i, yog'lovchi materiallarning, eektroyenergiya hamda asosiy vositalar amortizatsiyasining salmog'i 45-55 foizni tashkil etmoqda.

Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining baholarini belgilashda quyidagi uslublardan foydalanilmoqda:

- ◆ baholarni belgilashda o'rtacha harajatlar (tannarx) hamda foydaning (optimal miqdorda) ta'minlanishini;
- ◆ baholarni belgilashda mahsulotning real qiymatiga asoslanish;
- ◆ baholarni belgilashda real o'rtacha baholarga asoslanish. Bunda talab va taklif muammolari ham ma'lum darajada o'z aksini topadi.

Baliqchilik xo'jalik mahsulotlarining baholari dastavval talab va taklifni e'tiborga olishi lozim. Buning uchun mahsulotlar sifatli bo'lishi zarur. Shu bilan birga xo'jaliklarning barcha harajatlarini qoplab, optimal miqdorda foyda bilan ta'minlanishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ular fan-texnika yutuqlarini, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy yetishlari, ishchi va xizmatchilarning bilim va malakalarini hamda tadbirkorlik faoliyatlarini yuksaltirishga erishishlari lozim.

Bunday tartibda belgilangan baholar iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lib, ular vazifalarini to'liq bajarishlari mumkin. Shunday baholargina tomonlarning manfaatlarini samarali ravishda qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qiymat, baho deganda nimani tushunasiz?
2. Baho qanday shakllanadi?
3. Bahoning qanday vazifalari mavjud?
4. Bahoning qanday funktsiyalarini bilasiz?
5. Qanday baholarni bilasiz?
6. Harid baholari qanday baholar?
7. Jahon bahosi deganda nimani tushunasiz?
8. Qiyosiy baho deganda nimani tushunasiz?
9. Baholarni liberallashtirishning qanday yo'llari mavjud?

GLOSSARIY

Agrosanoat majmuasi iste'molchilarning talabini qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida iqtisodiyotning ayrim ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qayta ishlash hamda sotish bilan shug'ullanuvchi sohalarning iqtisodiy uyg'unlashuvi.

Akklimitizatsiya – baliq iqlimlashtirilishi, baliqni yangi sharoitga moslashtirish, baliqlar turini yaxshilash, ixtiofaunani boyitish va baliq mahsuldorlarini oshirish maqsadida amalga oshirildi. Iqlimlashtirilgan baliqlardan oq amur, oq do'ngpeshona va chipor do'ngpeshona hisoblanadi.

Amortizatsiya - asosiy fondlar qiymatini ular vositasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar tannarxiga asta-sekin o'tkazish hamda eskirgan asosiy fondlarning o'rnini keyinchalik qoplash maqsadida pul mablag'larini to'plab borish

Amortizatsiya fondi - eskirgan asosiy fondlarning o'rnini keyinchalik qoplash maqsadida pul mablag'larini to'plab borishga mo'ljallangan fond

Anaerob - kislorodsiz muhitda yashovchi organizmlar. Agarda balchiqda ko'paysa, azot distrofiyasi ham yuz beradi suv va tuproq muhiti kislotalashadi, yashash muhiti buziladi. Baliq mahsuldorligi pasayadi. Oldini olish uchun almashtirish ishlari olib boriladi.

Arbitraj - 1.xo'jalik hakamlik sudi, tijorat yoki boshqa turli tarmoklardagi bahslarni sudga yetkazmay, hal qiluvchi idora; 2. bir paytning o'zida turli bozorlarda mavjud bo'lgan mollar, qimmatli kog'ozlar, valyuta va depozitlar narxlari yoki kurs-lari o'rtasidagi farqdan foyda ko'rish maqsadida amalga oshiriladigan operatsiya-lar va bitimlar

Arpa – krupa tayyorlanadi, baliq ozuqasi ozuqa koeffitsenti. Arpani yorma va un shaklida beriladi. Bir yashar va tovar baliq yetishtirishda ishlatiladi. Tut ipak qurti g'umbagi - tarkibi irotessin - 59,5%, yog' - 18.1, azotsiz ekstraktiv modda 5.9, kletchatka-5.6, paladi-0.040, fosfor 0.070, azon koeffidenti 2.5 ga teng.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari – ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etib,

uzining qiymatini mahsulot qiymatiga qisman o'tkazadigan, tashqi ko'rinishini o'zgartirmaydigan ishlab chiqarish vositalariga aytiladi. Qishloq xo'jaligida binolar, inshootlar, uzatuvchi moslamalar, sug'orish inshootlari, as mavzu - uskunalar va kuch mashinalari, traktorlar, transport vositalari, ish hayvonlari, sut beruvchi qora mollar ko'p yillik daraxtlar, yerni ishlash uchun qilinadigan sarf - harajatlar kiradi.

Asosiy kapitalga investitsiya (kapital qo'yilma) – asosiy vositalarni barpo etish va takror ishlab chiqarishga sarflangan mablag'.

Asosiy sun'iy ozuqa – baliqlar uchun hovuzlarda qo'shimcha beriladi. Baliq ozuqasi bo'lib kunjara, shrot, kombikorm, oziq-ovkat sanoati chiqindilari, ilakchilik sanoati chiqindilari. Baliq ozuqasining sifati uning tarkibidagi oziq moddasiga (oqsnl, yog', uglevod) bog'liq

Asosiy vositalar (doimiy kapital) – qishloq xo'jalik subyekti faoliyatida uzoq yillar mobaynida foydalanib, o'z qiymatini ishlab chiqariladigan mahsulotlarga, ishlarga, xizmatlarga asta - sekin o'tkazib beradigan vositalardir.

Audit - xo'jalik faoliyatini tekshirish, taftish qilish, tahlil etish hamda yillik buxgalterlik hisoboti va balansi bo'yicha xulosa va ko'rsatmalar berish

Auditor xizmati - shartnoma asosida haq to'lash hisobiga moliyaviy-xo'jalik ishlari, buxgalteriya hisob-kitobi olib borilishini tamoman mustaqil ravishda nazorat qilib boradigan tashkilot.

Auksion - maxsus kimoshdi savdo bozorlari, tovarlarni talabgor haridorlarga sotish usuli. Auksion savdo tovarlarning nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha o'tkaziladi. Auksion oldindan e'lon qilingan vaqtda davriy: har kuni, har oyda, muayyan oylarda yoki yilda bir marta tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumiga va hajmiga qarab o'tkaziladi. Haridorlar savdo boshlanguniga qadar auksion omborlariga qo'yilgan tovar yoki uni namunasi bilan tanishadilar. Har qanday auksionlarning umumiy sharti-sotuvchi namoyishga qo'yilgan tovarlar sifatiga mas'ul hisoblanmaydi.

Autbridning - begona organizmlarni chatishtirish.

Avitaminoz - uzoq muddat vitaminlarga boy bo'lmagan ozuqani iste'mol

qilish natijasida paydo bo‘ladi. Uzoq saqlangan yoki eskirgan kombikorm bilan boqilganda avitaminoz kelib chikali. Baliq ozib ketib, oxirida o‘ladi. Ko‘tarilishi uchun baliq ozuqasiga xlorella, stsenodemus yashil suv o‘ti qo‘shib berish tavsiya etiladi. Vitaminga boy bo‘lgan ozuqa berilib avitaminoz oldi olinadi.

Axborot - yangilik elementi qabul qiluvchi uchun o‘z ichiga olgan va qarorlar qabul qilish uchun foydalaniladigan ma'lumot-lar, bilimlar, xabarlar.

Axborot tizimi - boshqaruv tizimida qo‘llanadigan ma'lumotlarni yig‘ish, saqlash, to‘plash, izlash va berish tizimi.

Aylanma vositalar (o‘zgaruvchi vosita) – qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish ishlarini bajarish, xizmatlar ko‘rsatish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini ularga to‘liq o‘tkazadigan vositalardir.

Azotli o‘g‘itlar - azot elementini saqlovchi mineral va organik o‘g‘itlar (selitra, ammofos). Bular suv tarkibida azot kamayishi bilan beriladi. Agarda suv tarkibida azot miqdori kamaysa, unda azotli o‘g‘it berish tavsiya etiladi. Omborxonalarda azotli o‘g‘itlarni saqlash koidalariga rioya kilish shart.

Balans - muvozanat-muttasil o‘zgarib turuvchi hodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi. Iqtiso-diyotda ijtimoiy ishlab chiqarishning sama-radorligini, maqsadga muvofiq rivojla-nishini ta'minlashdagi zaruriy nisbatlar. Iqtisodiyot sohalari, moddiy, tarmoqlararo to‘lov, qiymat, mehnat resurslari, yoqilg‘i-energetika, foyda, asosiy fondlar qiymati balanslari, aholi pul daromadlari va hara-jatlari va boshqa balanslar mavjud.

Baliq kaloriyasi - baliq mahsuloti tarkibidagi energiya manbasi bo‘lib hisoblanadi. Baliqlarning sifatini baholashda uning kaloriyasiga e‘tibor beriladi. Masalan yem bilan boqilgan karp segoletkasining kaloriyasi 1200 ga, yemsiz boqilgan baliqniki 960 ga teng bo‘ladi. 2 yozli baliqlarda 3400 kkalga teng.

Baliq pitomnigi – baliqlar uchun material yetishtiradigan xo‘jalik, asosan molod va bir yashar baliqlar o‘stiriladi. Pitomnik quyidagi hovuz kategoriyalariga ega bo‘ladi: Nerest hovuzlari - maydoni 500-1000m², o‘stiruvchi hovuz 5-15 ga - segoletka oktyabrgacha o‘stiriladi; ona hovuzlar 1-2ga, ota-ona baliqlarni vegetatsiya davomida saqlash uchun; qishlash hovuzi-0,3-0,5 ga asosan segoletka

saqlash uchun, karantin hovuzlar.

Baliq tutkich – hovuz suvining chiqish joyida maxsus konstruktsiya baliq tutkich moslamasi kuruladi, uning vazifasi suv chiqish oldida baliqlarni to‘plashdir. Baliq tutkich baliqni hovuzdan tutish, suvni loykalatishni, baliqchilarini sovuq suvga kirishi, maxsus kiyim kiyish kabilarning oldini oladi, baliqlar toza va sifatli tutiladi, mehnat sarfi 6-8 marotaba qisqaradi, ishchilarning suvga kirishiga ham xojat qolmaydi. Yangi quriladigan hovuzlarda albatga baliq tutkich qurish zarur.

Baliq yoshi – uni tangacha jabra qopqog‘i umurtka, suzgich kanotlaridagi nurlar orqali aniqlanadn. Baliq yoshi bu azolarda xuddi xalqadek joylashadi. Baliq yoshini aniqlashda bu azolardan preparat tayyorlanadi.

Baliqchilik hovuzlarining yuksak suv o‘simliklari bilan qoplanishi - hovuzlarda meliorativ ishlarni o‘z vaqtida olib borilmaganda bu xodisa yuz beradi. Yuksak suv o‘tlari suvdagi biogen moddalarni o‘zlashtiradi. Fitoplankton va zooplankton , zoobentos rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Baliqchilik xo‘jaligida kvartal buyicha bajariladigan ishlar tartibi. 1-kvartal qishlash hovuzlarini tekshirish, ya’ni suv almashinuvi va qishlovchi baliqlarning holati. Suvning gidroximiyaviy holatini analiz qilish, yaxlarni sindirish, baliqchilik inventarlarini remont qilish. Hovuzlarni bahorgi ishlarga tayyorlash, baliqchilar bilan mashg‘ulotlr o‘tkazish. 2-kvartal bahorda hovuzlarni baliqlashtirishga tayyorlash, qishlash hovuzidan segoletkalarni yozgi o‘stiruvchi hovuzlarga o‘tkazish. 3-kvartal yozgi ishlar baliqlarni yaxshilab boqish ularni o‘sish va rivojlanishini nazorat qilish, kuchli rivojlangan o‘simliklarni yo‘qotish.

Baliqlarni o‘lchash - hovuz baliqlarini, tabiiy suvlik baliqlarini nazorat paytida o‘lchash ishlari. Bunda baliqning eksterer ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Odatga ko‘ra baliq uzunligi (sm) to tangacha tugaguncha qadar, maksimal balandlik (orka suzchigi boshlanishidan), maksimal kenglik, tana kengligi (boshga yakin joy) o‘lchanadi. Maxsus doskalarda bunday o‘lchovlar bajariladi.

Baliqlarni oziqlantiradigan joy (oshxona) kattaligi 1-2m². Hovuzlarda yog‘ochlardan tayorlanadi. Oziqlantirish joyi har 10m masofada o‘rnatiladi, suv chuqurligi 0.5-0.75m. har bir ozuqa joyi ikki yashar 200-400 baliqqa mo‘ljallanadi

(o'rtaga 300 baliqqa).

Baliqlarning dimiqishi - suv havzasida boqiladigan baliqlarning dimiqishi natijasida ommaviy o'lishi tushuniladi. Bu jarayonning asosiy sababi suvdagi erigan kislorod miqdorining keskin kamayishi (1-2 mg/l) oqibatida yuzaga keladi. Unga qarshi kurash suv havzasini oxaklash va insolyatsiyalashdan iborat.

Baliqni boshqa hovuzga o'tkazish va tovar baliq ovlash jarayonlari. Nerest prudlari – ertalab havo isishi va ochiq kun 7-10 kun o'tishi bilan ovlanadi. Ya'ni uvildiriqdan chavoq chiqishi bilan shuncha kun o'tganidan keyin ovlab olinadi. CHavoqlar maxsus baliq ovlagichlar orqali olinadi va boshqa o'stiruvchi hovuzga o'tkaziladi (500-1000 donadan). O'stiruvchi hovuzlar sovuk tushishdan 15-20 kun oldin baliqlar ovlanadi, bu yerda ham baliq tutish moslamalari orqali ovlanadi. Breden yoki to'r bilan baliq ovlanganda jarohatlanadi. Hovuz suvi loyqalanadi, baliq jabrasi ishdan chiqadi. Agarda bredden yoki to'r bilan ovlansa segoletkalar oqar suvga 20-30 min yuvilishi kerak, jabra toza bo'lnishi uchun qishlash hovuzlari, havo isishi bilan erta bahorda qishlash hovuzlaridan baliqlar maxsus usulda ovlash kerak. Tovar hovuzlardan kuzda, suv harorati pasayishi bilan ovlanadn. Tovar baliqni ovlashdan 10-15 kun oldin oziqlantirish to'xtatnladi.

Baliqni nazorat ovlash - asosiy maqsad baliq o'sishini (baliq uzunligi va og'irligi o'lchanadi) baliq oziqlanishi (baliq ichagidagi shikani miqdor va sifat analizi uchun) semizlngi (fulaton semizlik koeffitsiyenty orqali aniqlanadi) nazsrat ovi har 10 kun da o'tkazilib maxsus daftarga kayd kiliadi. \ar bir kovuzdan nazorat uchun eng kamida 50 -100 baliq ulchanishi kerak.

Bankrotlik - shaxs, korxon, firmaning moliyaviy nochorligi, qarzini tulashga va faoliyatini mu'tadil davom ettirishga no-qobiliyatligi.

Barter - barter kelishuv – pulsiz bevosita tovar ayirboshlash. Ko'proq rivojlanmagan tovar munosabatlari davri uchun xos bo'lgan kelishuv. Hozirgi zamon barter kelishuvining aniq shakllari – valyutasiz ayirboshlash, kompensatsiyali kelishuvlar, turli xil kliringlar. Barter hozirgi sharoitda aholini iste'mol mollari bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bentofag - bentos bilan oziqlanuvchi baliqlar. Bentofag baliqlar karp,

zog'ora, karas, turkiston muylovdori, lesh va boshqalar.

Bentos - suv tubida balchiqda yashovchi organizmlar. Tuproq yuzasi - 10-20 sm chuqurlikgacha uchraydi. Bentos organizmlarinnng ozuqasi bo'lib organik cho'kindilar hisoblanadi. Bentos (zoobentos) organizmlar- xironomid lichinkalari, ikki kanotlilar lichinkalari bo'lib hisoblanadi. Kupchilik karpsimonlar bentos bilan oziqlanadi.

Bildirish dalolatnomasi - qabul qilish paytida kamomad, yukning aynishi, muhrlarning buzilishi va boshqa holatlar haqida asosiy dalolatnomaga qo'shimcha ravishda tuziladigan dalolatnoma (akt). Aybdor tomonga da'vo qo'zg'ash uchun tuziladi.

Biogen elementlar - tirik organizmlar hayot faoliyati uchun zarur bo'lgan elementlar: kislorod, uglerod, vodorod, azot, fosfor, kaltsiy natriy, sulfat va boshqalar. Bular suvda ion shaklida bo'ladi. Asosan azot va fosfor hisoblanadi.

Biologik isitish - organik materiallarni mikroorganizmlar yordamida chirishi oqibatida chiqaradigan issiqlik bilan isitish. Himoya qilingan joyda foydalaniladi.

Biologik yashovchanlik - baliqchilikda ikki turi bo'ladi: biologik yashovchanlik va hovuz xo'jaligida boqiladigan baliqlarning tovar darajasigacha yetilgan soni. Biologik tabiiy yashaganlik nerest yoki qo'shimcha kuyib yuborilgan baliqlarning yashab kolgan soni hisoblanadi. Masalan 100 ming chavoqdan 10 dona voyaga yetadi, yoki 100 dona qo'yib yuborilgan segoletkalarining 50 donasi yashab voyaga yetishi. Sanoat yashovchanligi esa ovdagi tovar baliqlar soni. Agarda sanoat yashovchanligi 30% bo'lsa unda 100 dona dan 30 tasi ovda uchraydi.

Birja - (lotincha-hamyon degani) bozor munosabatlarining muhim tarkibi bo'lib, uning asosiy vazifasi moddiy-texnika ta'minotining qayta taqsimlash organlari (moddiy bazasini saqlab qolgan holda) xizmatini o'z zimmasiga olib, bozor munosabatlarining me'yorli ishlab turishini ta'minlashdan iborat. Birjalar tashkil qilingan sohasiga karab bir necha xil bo'ladi: standartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori-tovar birjasi; qim-matbaho kog'ozlar, oltin, chet el valyutalari bozori fond birjasi;

ishlovchilar va korxonalar o'rtasida vositachilikka ixtisoslashgan mehnat birjasi va hokazo.

Bitimlar - fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini tiklash, ularni o'zgartirish va to'xtatishga yo'naltirilgan faoliyat. Bitimlarning eng ko'p tarqalgan turi - shartnoma. Turli tovar va xizmatlar bitim mavzui bo'lishi mumkin. Xayr-henson harakteridagi bitimlarda hadya qilish, tekin yordam berish ko'zda tutilsa, tijorat bitimlarida tovarlar oldi-sotdisi, xizmatlarni pulga yoki boshqa tovarga ayirboshlash mo'ljallanadi.

Biznes - sohibkorlik tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish. Biznes-tovar ishlab chiqarish va uni sotish, xizmat ko'rsatish, transport va boshqa sohalardagi faoliyatdir.

Biznes reja- qat'iy hisob-kitoblarga asoslangan hujjat bo'lib, mavjud bozorlar holatini yaxshi tahlil qilib o'z maksadaini aniq, ravshan ko'z oldiga keltira biladigan fermer xo'jaliklari rahbarlari tomonidan mustaqil ravishda yoki mutaxassislar va maslahatchilarni jalb etgan holda ishlab chiqiladi.

Bo'linma - ishlab chiqarish yoki boshqaruv tizim bo'g'ini.

Bosh hovuz - xo'jalikning suv kiradigan joyiga quriladi. Bosh hovuzdan boshqa hovuzlarga suv yuboriladi. Bosh hovuzining suvi tinik - 4-5 metr , chuqurligi 6-8 metr , yuzasi 0,5-1,0 gektar, suv sigimi 40-50 ming/ kub. Bosh hovuz suvi inkubatsion sex uchun ham ishlatiladi.

Boshqaruv usuli – boshliqning masalalar yechimini, mehnat huquqi reglamentini aniqlashda o'z atrofidagi ishchilarga ta'sir o'tkazish usuli.

Bozor - tovarlarga talablar, takliflar va narxlar shakllanadigan savdo muomalasi sohasi.

Bozor infratuzilmasi - bozor iqtiso-diyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi har xil sohalar: unga banklar, jumladan tijorat banklari, birjalar, auksionlar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, soliq undiruvchi inspeksiyasi, tijorat va sohibkorlik idoralari, vositachi firmalar, savdo-sotiq uyushmalari, konsernlar, konsorsiumlar va boshqalar kiradi. Bozor infratuzilmasi tovar ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga, sherik topishga, ish kuchi yollashiga ko'maklashadi.

Davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida aloqa o'rnatishga yordam beradi. Bozor infratuzilmasi faqat davlat idoralari emas, balki mustaqil uyushma, tashkilot yoki firmalardan iborat nodavlat tashkilotlari ham bo'lib, ular ko'rsatayotgan xizmatlari uchun haq oladilar.

Bozor muvozanati - bozordagi talab va taklifning miqdoran va tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqqan bo'ladi. Talab va taklif uzoq vaqt bir-biridan ajralib qolsa, bozor o'zining me'yoridagi holati, faoliyatini yo'qo-tadi. Bozor muvozanatida talab va taklif mutlaq va abadiy emas. Bunday moslik umuman olganda hamma tovarlarga nisbatan va uzoq davrga xos bo'lishi mumkin. Juz'iy va ayrim tovarlarga nisbatan moslikning buzilishi muqarrar, chunki ehtiyojning yuksalishi oqibatida yangi talab paydo bo'ladi va u darhol qondirilmaydi. Bozor muvozanati sivilizatsiyalashgan jamiyatda bozorni tartibga solish orqali yuzaga chiqadi.

Bozorni segmentlash - bozorni biron-bir belgi bo'yicha alohida bo'g'inlarga ajratish.

Breden - mayda baliqchalarni ovlashda qo'llaniladi. Kaprondan tayyorlangan brendenlar uzunligi 10 m eni 1 m bo'lib nerest havzalaridan baliqchalarni ovlash uchun ishlailadi.

Breyk - birjadagi narx-navoning to'satdan keskin tushib ketishi

Broker – 1) qimmatli qog'oz, mol va valyuta birjalarida bitim tuzish paytida vositachilik bilan shug'ullanuvchi shaxs yoki firma 2) turli xil birjalarda oldi sotti bitimlari tuzishda vositachilik (dallollik)qiladi. U bozor kon'yunkturasi hamda bitim tuzish yuridik koidalarini yaxshi biladigan ayrim shaxs yoki ma'lum bir birjada ro'yxatda turadigan brokerlik firmasi hisoblanadi. Ular birjalarda sotuvchilar va haridorlar (mijozlar) o'rtasida tovarlar, qimmatbaho kog'ozlar, valyuta va boshqa noyob narsalar bilan oldi-sotdi qilishga yordam beradilar. Brokerlar odatda mijoz topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o'z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin. Vositachilik bitimlari

asosan brokerlik idoralari, firmalar yoki ularning filiallari orqali rasmiylashtiriladi. Vositachilik qilgani uchun oldi-sotdining muayyan foizi miqdorida haq oladi. Odatda bu haq tuzilgan bitimning 3-4 foizini tashkil qiladi. Agar mijoz uchun foydali bitim tuzilsa, broker tejab qolingan mablag'ning kelishilgan shartnomadagi qismini oladi. Brokerlar bevosita tovarlarni ko'rmay bitimlar tuzadi va tovarni to'g'ri haridorga jo'natadi, tomonlarning takliflari ham brokerlar orqali o'tadi. Yirik brokerlik jamiyatlari haridorlarga qarz berishda banklar bilan hamkorlik qiladi, ayrim hollarda esa o'zlari ham kreditor bo'ladilar, bitimlar bajarilishiga kafillikni ham o'z zimmalariga oladilar. Bozor iqtisodiyoti yaxshi rivojlangan davlatlarda yirik brokerlik firmalari mavjud bo'lib, ular boshqa shaharlarda va xatto davlatlarda ham o'z filiallariga egadirlar.

Buyurtma - korxonalar, iste'molchi-tash-kilotlar tomonidan unda ko'rsatilgan tovarni tegishli miqdorda, belgilangan manzilga belgilangan muddatda yetkazib berish uchun beriladigan hujjat.

Byudjet - davlat, viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalarning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromad va harajatlarning pul hisobi. Byudjetning harajat qismi daromad qismidan ortiq bo'lsa, byudjetning taqchilligini bildiradi. Byudjet daromadining harajatdan ustunligi ijobiy qoldiqni hosil qiladi. Oliy Majlisning sessiyasida deputatlar tomonidan har yili muhokama qilinib, qabul etiladi.

Chorvachilik yalpi mahsuloti - chorva hayvonlarini parvarish etish, boqish natijasida yetishtirilgan mahsulot miqdori.

Damba – maxsus qurilma bo'lib hovuz suvini chiqib ketmasligi uchun quriladi. Dambalar nihoyatda chidamli va mustaxkam bo'lishi shart.

Daromad - korxonaning sof foydasi shakli, ya'ni mahsulot yoki xizmatlarni sotishdan tushgan umumiy daromadning undan barcha harajatlar chiqarib tashlangandan keyingi qismi.

Davlat byudjeti – davlat pul mablag'larini (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bulib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili

mobaynida aniq maksadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. O'zbekiston Respublikasida yagona byudjet tizimi shakllantirilgan. U ikki bug'inlikdan iborat bo'lib, Davlat byudjeti, respublika byudjeti, Qoraqolpog'iston respublikasi va mahalliy byudjetlar (viloyat, shahar, tuman)ni uz ichiga oladi. Davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi. O'zbekiston Respublikasida barcha bug'inlardagi byudjetlarni shakllantirish, ko'rib chiqish, qabul kilish va ijrosini hisobga olish milliy valyutada – so'mda amalga oshiriladi.

Davlat byudjetining sarflari – davlat byudjeti barcha bo'g'inlarining daromad qismida yig'ilgan barcha daromadlarni aniq maqsadlarga yo'naltirilgan holda qilinadigan davlat sarflari hisoblanadi. Bu sarflar (harajatlar emas) qaytarilmaydigan, ya'ni moliyaviy majburiyatlarni paydo qilinishi yoki uzilishi (to'lanishi) bilan bog'lik bo'lmagan holda qoplanadigan yoki qoplanmaydigan tarzda amalga oshiriladi. Bu sarflar joriy va kapital maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin. Davlat boshqaruvi sektorining boshqa idoralariga o'tkazilgan transfertlar to'langan grantlar (joriy va kapital) sarflar tarkibiga, alohida qatorlarda ko'rsatilgan holda kiritiladi.

Davlat moliyasi statistikasi tizimi – davlat boshkaruvi muassalari sektoridagi operatsiyalar to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, tahlil va talqin qilish hamda iste'molchilarga yetkazib berish borasidagi faoliyatda qo'llanadigan iqtisodiy va statistik tushunchalar, hisoblash qoidalari, klassifikatsiyalar tuzish to'g'risidagi ko'rsatmalarning majmuasidir. Davlat moliyasi statistikasida davlat muassalari sektorini belgilash qoidalari ham ko'riladi, davlat boshqaruvining faoliyati, uning natijalari, davlat muassalari sektori chegarasida iqtisodiyotning boshqa sektorlariga tegishli sohalarning kvazi – davlat operatsiyalari, masalan, pul – kreditni tartiblashtirish ham ko'riladi. Davlat moliyasi statistikasini, asosan, byudjet sohasini tahlil qilish maqsadlari uchun maxsuslashtirilgan tizim desa ham bo'ladi.

Davlat mulki - asosiy mulkchilik shakllaridan biri.Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan iqtisodiyotni demokratiyalash davlat mulki monopoliyasini

tugatishni taqozo qiladi. Davlat mulkining hukmronlik doirasi keskin qisqaradi. Davlat mulki asosan jamoa mulkiga va xususiy mulkka aylantiriladi.

Davlat suv kadastr - suvni miqdor va sifat ko'rsatkichlarini hisobga olish, suvdan foydalanishni qayd qilish va hisobga olish ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish shakllari - 1) davlat korxonasini aksioner jamiyati, boshqa xo'jalik jamoasi yoki shirkatga aylantirish; 2) davlat korxonasi mol-mulkini mehnat jamoasi a'zolari tomonidan sotib olinishi; 3) ija-raga berilgan davlat korxonasi mol-mul-kini huquqiy va jismoniy shaxs bo'lgan ijarachi korxonasi yoki boshqa ijarachi tomonidan sotib olinishi; 4) davlat korxonalarini huquqiy shaxslar va fuqarolarga tanlov bo'yicha yoki kim oshdi savdosida sotish.

Davlat tomonidan ro'yxatga olish – dav-latning xokimiyat idoralari tomonidan davlat, kooperativ korxonalarini va jamoat tashkilotlari korxonalarini ro'yxatdan o'tkazish. Maqsad-korxonalarining barpo etilishi, qayta tuzilishi va tugatilishining qonuniyligini nazorat qilishdir.

Davlat yer kadastr – yerning tarkibi, xo'jalik, huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va qiymati (bahosi), yer uchastkalarining manzili va o'lchamlari, ularning yer egaligi, undan foydalanuvchilarga, ijarachilarga, to'g'ri taqsimlash to'g'risida zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar yig'indisi.

Davr harajati – qishloq xo'jalik subyektini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan harajatlar yig'indisi.

Dehqon xo'jaligi - oila a'zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig'iga berilgan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirib realizatsiya qiladigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan yoxud ega bo'lmagan oilaviy mayda tovar xo'jaligidir.

Diversifikatsiya – ishlab chiqarishning samaradorligini yuksaltirish, mahsulot va hizmatlarni ko'rsatish, bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoqa, korxonalar faoliyat sohalarini qisman o'zgartirish, kengaytirish hamda hizmatlar turlarini ko'paytirish usuli.

Dividend – shirkat xo‘jaligi ixtiyorida mavjud bo‘lgan barcha turdagi mulklarni tadbirkorlik bilan samarali ishlatish natijasida olingan foydaning mulkdorlarga, ya’ni paychilarga beriladigan summasi.

Dotatsiya - (hadya, ehson) davlat yoki mahalliy byudjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan mablag‘ajratish; iqtisodiyotga byud-jet orqali ta'sir etish vositalaridan biri. Faoliyati umumdavlat ahamiyatiga molik, lekin o‘z daromadi bilan harajatlarini qoplay olmaydigan korxonalar va tashkilotlarga davlat dotatsiya bilan madad beradi. Dotatsiya umumiy va maqsadli bo‘ladi. Umumiy dotatsiya ajratilganda mablag‘ mahalliy byudjetlarga beriladi, uni ishlatish mahalliy hokimiyat ixtiyorida va unga markaz aralashmaydi. Maqsadli dotatsiya berilganda uni mo‘ljallangan maqsad uchun sarflash majburiy va buni davlat nazorat qiladi.

Dukkakli ekinlar chiqindisi - maydalangan no‘xat, loviya, mosh, begona o‘tlar bilan aralastirib tayyorlanadi, 2-5 kg oqsilga boy ozuqa 1 kg baliq mahsuloti beradi. Boshqa yemlarga 10-20% qo‘shib beriladi. Barcha baliqlarni sigoletka va voyaga yetganligi davrida berib boriladi.

Ekinlar hosildorligi - tadbirkorlik bilan amalga oshiriladigan barcha irrigatsion, meliorativ, agro-texnik, texnologik hamda iqtisodiy tadbirlar natijasida ma’lum bir yer maydonidan yetishtirib olingan mahsulot miqdori.

Ekstensiv yo‘l (usul) – mehnat va mablag‘ sarflab, mavjud vositalar dan foydalanib ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish evaziga mahsulot ishlab chiqarish xajmini ko‘paytirishdir.

Fermer xo‘jaligi – o‘ziga uzoq (30 yildan 50 yilgacha) muddatga ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

Fond bilan ta‘minlanish – qishloq xo‘jalik subyektlarining bir birlikdagi yer maydoniga to‘g‘ri keladigan fondlar qiymati.

Garov - bir shaxsning boshqa shaxsga mol-mulkni yoki unga bo‘lgan huquqni majburiyatlarni ta‘minlash uchun berishi garov hisoblanadi. Garov zakolat, ipoteka, shuningdek huquq garovi tarzida amal qilishi mumkin.

Genetika- seleksiya va urugchilikning nazariy asosidir. Genetika tomonidan o'rganilayotgan irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlari seleksiya ishining negizidir. Genetikaning yutuqlari seleksiya sohasining samarali rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega.

Gidromeliorativ tadbirlar – kollektor, zovur tarmoqlarini loyihalashtirish va ularni qurish ishlari majmuasidir.

Gidromodul - bir gektar ekin maydoniga suvning litr/sekund xisobidagi solishtirma sarfi. yerlarni gidromodul jihatdan bo'lish natijasida har bir gidromodul hududida yetishtiriladigan ekinlardan mo'l hosil olish uchun suv miqdori va sug'orish muddati belgilanadi.

Grafik - ish ko'lami va bajarilish muddati aniq ko'rsatib tuzilgan reja.

Havza melioratsiyasi - suv havzasining rejimini yaxshilashga karatilgan chora-tadbir, bu ishlar baliq yashashini va hovuz ekspluatatsiyasini yaxshilaydi. Melioratsiya ishlari, texnikaviy va biologik bo'ladi. Texnikaviy melioratsiyaga hovuzning balchiqlanishini oldini olish, suv sathini boshqarish, suv ta'minlash sharoitini yaxshilash, suv gidroqimyosini yaxshilash va o'simlik ildizi va qoldiqlarini yo'qotish. Biologik melioratsiya ishlarida begona o't va baliqlarga karshi kurash, sudak, jerix kabi turlarni, begona xashaki baliqlarni yo'qotish da foydalaniladi bulardan meliorativ tur sifatida ham foydalanishdan iborat. Yuksak suv o'simliklarini kamaytirish maqsadida o'simlikxo'r (oq amur) baliqlardan foydalanish.

Hovuz baliq yetishtirish xo'jaligi - turli kagegorniyadagi hovuzlar (nerest, o'stiruvchi, qishlash, tovar, ota-ona, karantin) kabilardan iborat bo'lib, tovar baliq yetishtirish uchun tashkil qilinadi. Bu xo'jalik tabiiy suvliklarni baliqlashtirish uchun material yetkazib beradi. Hovuz xo'jaligi eramizdan 2500 yil oldin Xitoydya shakllangan. 12-14 asrda G'arbiy yevropada, 18-19 asrda Sharkny yevropa, shu jumladan Rossiyada shakllangan. O'zbekistonda esa o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan. Baliq mahsuldorligi 20-40 ts/ra

Hovuz kitobi - Har bir baliqchilik xo'jaligidagn maxsus hovuzlarning kitobi bo'ladi. Masalan, nerest hovuzi, tovar hovuz va boshqalar. Har bir hovuzning

biologik o'zgarishlarni baliqlarning o'sishi, kitoblarga kayd qilinadi kitobdagi ma'lumotlar buxgalteriya ma'lumotlari bilan bir xil bo'lishi kerak, Baliqlarni hisobga olinishning boshlang'ich hujjati bu kvitantsiya kitobchasi hisoblanadi. Kvitantsiya, nakladnoy, koreshok kabi hujjatlar ham kitobga kiritiladi. Kvitantsiyalar asosida akt tuziladi.

Hovuz pasporti – har bir baliqchilik xo'jaligiga tegishli bo'lgan hovuzlarning hamda suvliklarning pasporti bo'ladi. Pasport xo'jalikning asosiy hujjati hisoblanadi.

Hovuz yoki tabiiy suvlarning eng chuqur joyi. Hovuz baliqchilik xo'jaligida bunday chuqurliklar suv chiqish joyida bo'ladi. Baliq uchun mo'ljallangan chuqurlik baliq to'plashi uchun kerak. Uning kengligi hovuz maydoniga bog'liq. Uzunligi 5-10m, eni 2-3m bo'lishi kerak. Tabiiy suvliklarning 6-8 metr va undan ortiq chuqurligi qishlash joyi hisoblanadi.

Hovuzda suv aylanmasi - yozda baliqchilik hovuzlarida bug'lanish va filtratsiya uchun sarflangan suv miqdorini qoplash uchun beriladigan suv miqdori.

Hovuzlar insolyatsiyasi – davriy jarayon bo'lib, hovuzni har 4-6 yilda quritib bir yil dam berish, tuproq unumdorligini oshirish, hovuz balchiqlanishini oldini olishdir. Bu uchun hovuz faoliyatini sog'lomlashtirish ishlari hisoblanadi. Insolyatsiyadan so'ng hovuzning baliq mahsuldorligi oshadi. Bu muddat ichida hovuz ishlov beriladi, ohaklashtirish ishlari olib boriladi. Tuproq strukturasi yaxshilanadi.

Hovuzlarga baliq qo'yishni hisoblash formulasi. Tovar baliq yetishtirish uchun quyidagi formula orqali hisoblanadi. $A = \frac{G \cdot P \cdot 100}{(V - v) \cdot R}$; bunda A- zarur bo'lgan kattalik. G - hovuz maydoni, P- hovuzni baliq mahsuldorligi kg/ga, V - mavsum oxirida baliq og'irligi kg hisobida, v - o'tkazilgan baliq materialining har bir donasi og'irligi kg hisobida, R- kuzda ovlangan baliq o'tkazilgan baliqqa nisbatan foiz hisobida.

Hovuzning baliq mahsuldorligi – hovuzda o'stirilgan bir vegetatsiya davrida hosil bo'lgan baliq og'irligi kilogramm yoki tsentner bilan bir gektar suvlik yuzasida hisoblab chiqiladi. Baliq mahsuldorligini hisoblashda suvga qo'yib

yuborilgan material og'irligi, Yil oxiridagi umumiy og'irlikdan ayiriladi. Baliq mahsuldorligi tabiiy mahsuldorlik va umumiy mahsuldorlikdan iborat. Agarda baliq mahsuldorligi hovuz tabiiy ozuqa bazasi hisobiga hosil bo'lgan bo'lsa, bu mahsuldorlik tabiiy deyiladi. Agarda qo'shimcha ozuqa berilgan bo'lsa, hosil bo'lgan baliq mahsuldorligi umumiy mahsuldorlik deyiladi. Tabiiy baliq mahsuldorligi suv havzasining tabiiy ozuqa bazasining miqdori, sifati, baliq yoshiga, suvga bog'liq. Yaxshi tabiiy ozuqaga era bo'lgan hovuz baliq mahsuldorligi 500-600 kg/ga, bo'lishi mumkin. Baliqlarni yem bilan yoki qo'shimcha yetishtirilgan ozuqa hisobida qo'shimcha mahsulot olish asosan beriladigan ozuqa sifati bilan bog'liq.

Ijara - mol-mulkni yollash bo'yicha shartnoma. Unga ko'ra bir tomon (ijaraga beruvchi) ikkinchi tomonga (ijarachi) ma'lum to'lov evaziga mol-mulkini vaqtincha foydalanish uchun beradi. Ijara xaqi mulk egasi mol-mulkining qiymatiga va keltiradigan daromadga bog'liq bo'lib, o'zaro kelishuv bilan belgilanadi. Mamlakatlarda yer, uy-joy, savdo-sanoat binolari, sanoat va savdo korxonalarini ijaraga berish va olish keng tarqalgan. Ijara xaqi dastlabki yillarda ushbu korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot bilan to'lanar edi. Ijara xaqi korxonalar jamoasi daromadining bir qismi bo'lib, ijarachi va ijaraga beruvchi o'rtasida shartnoma yo'li bilan korxonaning rentabelligi va rivojlanish istiqbolini hisobga olib o'rnatiladi. Hozir mamlakatimizda ijara va ijara munosabatlari haqida qo-nun qabul qilingan.

Ijtimoiy institut – ijtimoiy tizimni tashkil etadigan, inson faoliyatida uning mavqeyi va ahamiyatini belgilab beradigan formal va noformal qoida, tamoil, me'yorlarning qat'iy majmuidir.

Ijtimoiy investitsiya – inson salohiyatini, malakasini, tajribasini oshirishga hamda nomoddiy ne'matlarni rivojlantirishga sarflanadigan mablag'lar.

Infratuzilma - iqtisodiyotda ishlab chiqarish hamda aholiga xizmat qiladigan so-halar. U transport, aloqa, savdo, moddiy texnika ta'minoti, suv bilan ta'minlash, fan, maorif, sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi (bevosita moddiy ishlab chiqarishga

xizmat qiladi) va noishlab chiqarish infratuzilmasi mavjud. Ishlab chiqarish infratuzilmasi sohalarida yalpi ijtimoiy mahsulot, milliy daromad yaratiladi; ijtimoiy infratuzilma sohaları (maorif, fan, sog‘liqni saqlash va boshqalar) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishga, inson omilini faollashtirishga xizmat qiladi.

Inkubator - 0,5l xajmli shisha banka, suv o‘simligi yoki subetrat yopishgan ikra (uvildiriq) bilan olinadi. Banka og‘zi doka ro‘mol bilan bog‘lanadi va nerest hovuzining tubiga 20-30 sm chuqurlikda qo‘yiladn. Bankadagi ikra rivojlanishi kuzatiladi va chavoq chiqish muddati aniqlanadi. CHiqqan chavoq foizi aniqlanadi. Bu usul orqali uvildiriqdan chiqqan chavoqlarni tabiiy ravishda kuzatiladi.

Innovatsion investitsiya – texnika va texnologiyalarning yangi navlarini yaratish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan mablag‘ sarfi.

Innovatsiya - yangilikni joriy etish, -1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2) ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari natijalari bo‘lgan yangi texnika, texnologiya. Ixtirochilikning rivojlanishi, biror yo‘nalishdagi yirik ixtiro va kashfiyotlarning maydonga kelishi innovatsiyaning muhim omillari hisoblanadi.

Intensiv hovuz xo‘jaligi - bunday xo‘jalikda ish yuritishda asosan baliqlarni oziqlantirish, hovuzga kombikorm berish, hovuzni o‘g‘itlash, tabiiy ozuqa bazasini ko‘paytirish, intensivikasiyadan asosiy maqsad hovuzlarning baliq mahsuldorligini oshirish. Tovar baliqlarni boqishda omuxta yem berish, tabiiy ozuqa bazasini ko‘paytirish uchun o‘g‘itlash bilan bir katorda baliqlarni tabiiy ozuqa bilan boqish yuqori baliq mahsuldorligi imkoniyatini yaratadi.

Intensiv yo‘l (usul) – fan-texnika yutuqlarini, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish uchun qo‘shimcha mehnat, mablag‘ sarflab, investitsiyalarni jalb etish mahsulot ishlab chiqarish xajmini, uning sifatini yaxshilash, bajariladigan ishlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lamini kengaytirishdir.

Intoksikatsiya - baliq organizmining turli xil zaharli moddalar ta‘siri natijasida kasallik holati - mikroob, o‘simlik hayvon va mineral moddalar ta‘siri natijasida kelib chiqishi mumkin. Intoksikatsiyaga asosan turli xil gazlar (serovodorod, karboat anhidrid gazi, sanoat tashlandiq suvlari) sabab bo‘ladi.

Investitsion muhit – investitsiyalar jozibadorligi va samaradorligi hamda siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy havf-hatar darajasini ifodalab beruvchi omillar yigʻindisi.

Investitsiya – qishloq xoʻjalik subyektini barcha omillarini rivojlanishiga sarflanadigan mablagʻ.

Investitsiyaning iqtisodiy samaradorligi – maʼlum bir vaqtda investitsiya qiligan mablagʻ evaziga olingan sof foyda.

Investitsiyaning qoplanish muddati – investitsiya qilinayotgan mablagʻning shuni evaziga olingan sof foyda summasiga nisbati bilan hisoblanadi.

Investorlar – barcha turdagi mulklarni sarflash haqida qaror qbul qiluvchi, hamda ularni amalgam oshiruvchi subektlar. Ularning tarkibiga davlatlar, korxonalar, kompaniyalar, tashkilotlar hamda jismoniy shahslar kiradi.

Iqtisodiy qonun – iqtisodiy jarayonlarning mazmun, mohiyatini hamda turli tomonlarini aks ettiruvchi, muhim, inson taʼsirizsiz doimo takrorlanadigan, uzviy iqtisodiy zaruriyatni taqoza etuvchi munosabatlar.

Iqtisodiy samara - iqtisodiy faoliyat natijalari va ushbu natijalarni olish hamda ulardan foydalanish uchun hisoblab chiqilgan sarf-harajatlar oʻrtasidagi xilma-xillik.

Iqtisodiy samaradorlik - tizimning faoliyat yuritishiga ketadigan sarf-harajatlar va uning natijalari nisbati.

Iqtisodiy tahlil - iqtisodiy faoliyat haqidagi ma'lumotni shakllantirish va qayta ishlash uslubi yigʻindisi boʻlib, u holis baholash, rivojlantirish yoʻnalishi, mavjud vazifalar, samaradorlikni oshirish zahiralarini va ulardan foydalanish yoʻllarini aniqlashni ta'minlaydi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni (qishloq xoʻjalik) zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni maʼnaviy yangilash, tarkibiy texnik hamda texnologik qayta tuzish chora-tadbirlarini oʻz ichiga oluvchi jarayon.

Ishlab chiqarish harajatlari - mahsulot ishlab chiqarish bilan bogʻliq boʻlgan mehnat, mablagʻ, material, harajatlar yigʻindisi.

Ishning mexanizatsiyalashganligi – qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ish bajarish jarayonida bajariladigan ishlarni mashina va mexanizmlar yordamida bajarilganligi.

Ixtisoslashtirish – tabiiy, iqtisodiy sharoitlarni hamda talabni e‘tiborga olgan holda qishloq xo‘jalik subyektlarini bir yoki ikki turdagi mahsulot yetishtirishga moslashtirish.

Joylashtirish – tabiiy va iqtisodiy sharoitlarni e‘tiborga olgan holda qishloq xo‘jalik subyektlarida u yoki bu mahsulotlarni ishlab chiqarish.

Kapital qo‘yilma – asosiy vositalarni sotib olish, ta‘mirlash, qurishga sarflangan resurslar, mablag‘lar yig‘indisi.

Karantin hovuzi - boshqa xo‘jaliklardan keltirilgan baliqlar vaqtincha saqlanadi. Bunday hovuzlar kasal baliqlarni vaqtinchalik izolyatsiya uchun foydalaniladi. Karantin hovuzlari maydoni 0,2 ga, chuqurligi 1,5 m suv oqib turishi 20 l/sekund bir gektar uchun.

Kislorod - suvdagi erigan gaz. Suvda bo‘lishi shart. Fotosintez jarayonida hosil bo‘ladi. Baliqchilik hovuzlarida 3 mg/l dan kam bo‘lmasligi kerak. Uning minimal ko‘rsatkichi 0,5-0,7 mg/l. Har 10 kunda bir marotaba suvdagi erigan kislorod miqdori aniqlanib turiladi. Suv namunasi koidaga muvofik suv chiqib turgan joyidan o‘rtasidan va kirayotgan suvdan olish kerak. Qishlash hovuzida 4 mg/l dan kam bo‘lmasligi kerak.

Ko‘k-yashil suv o‘tlari – mikroskopik bir xujayrali organizm bo‘lib, asosan yozda ko‘payadi, suvliklarda plankton va bentos holatida uchraydi. Keng tarkalgn turlarndan anabiana, mikrotsistis, ostselotoriya. Ko‘k-yashil suv o‘tlari suv havzasining gullashiga sabab bo‘ladi. Ok do‘ngpeshona iste‘mol kilmaydi. Fakat xiranamid lichinkasi iste‘mol qiladi, shu sababli suvliklarni evtroflaydi, organik ifloslantiradi va baliqlarning dimiqib o‘lishiga sababchn bo‘ladi, uni oldini olish uchun suvlik ohaklantiriladi.

Korhonaning innovatsion salohiyati – korhonaning (fermer xo‘jaligining) ishlab chiqarish, iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorligini yuksaltirishini ta‘minlash qobilyatiga ega bo‘lgan barcha turdagi yangiliklarni joriy etish

qobilyati.

Lalmi yer - sugʻorilmasdan qishloq xoʻjalik mahsulotlarini yetishtiradigan maydon (er), sugʻorish tizimlari mavjud boʻlmagan, suv manbaalari bilan doimiy bogʻlanmagan, lekin yogʻingarchilik natijasida suʻgorilishi mumkin boʻlgan yer.

Lichinka – chavoqning uvildiriqdan chiqish paytidan to tangacha hosil boʻlganga kadar boʻlgan davr. Agarda chavoqning sariklik xaltasi boʻlsa lichinka oldi davri deynladi. Sariqlik xaltasining toʻliq surilishi bilan belgilanadi. Lichinkalik davri 7-8 kun.

Literal zona - suv havzasining sayoz, chuqur boʻlmagan kismi, asosan katta suv havzalariga tegishli. Literal zonada yuksak suv oʻsimliklari oʻsadi. Pelagik zonada ular boʻlmaydi. Literal zona tez isiydi va gez soviydi, nerest joyi hisoblanadi

Malka hisobi – xoʻjalikda uvildiriqlan olingan mayda baliqchalarning sonini hisobga olish. Hisoblash kabi ishlar xoʻjalikdagi kelajakda baliq zaxirasini bilishda katta ahamiyatga ega. Xoʻjalikda sex sharoitida va tabiiy nerest orqali olingan mayda baliqlarning sonini aniqlashda qoʻllanadi.

Malka hovuzi – karp lichinkalarini 5-6 kunligini boqishga moʻljallangan. Bu hovuzda baliqlar 25-45 kungacha boqiladi. Maydoni 0,5-1,5 ga, chuqurligi 0,5-0,6 m, ichidagi ariq chuqurligi 0,4 m, suv oqimi 1 l/sek har 1 gektar maydonga.

Malka- yetilgan erkak baliq mahsuloti inkubatsion sex sharoitida uvildiriqni otalantirish uchun ishlatiladi.

Mehnat resursi – qonunlarda belgilangan yoshga ega boʻlib qishloq xoʻjalik subyekti hududida yashab, mehnat qobiliyatiga ega boʻlgan inson.

Mehnat unumdorligi - mehnat qilish qobiliyatigi ega boʻlgan insonning maʼlum bir vaqt ichida bajaradigan ishining, koʻrsatadigan xizmatining, ishlab chiqaradigan mahsulotining miqdori (qiymati).

Mehnatning fond bilan qurollanganligi – qishloq xoʻjalik subyektining bir birlikdagi mehnat resursiga toʻgʻri keladigan energetik resurslar quvvati miqdori.

Melioratsiya – sugʻoriladigan yerlardagi tuproq unumdorligiga salbiy taʼsir etuvchi, ortiqcha hisoblangan zax suvlarini shu hududlardan oqizib chiqarib

yuborish qobiliyatiga ega bo'lgan kollektor-drenaj, zovurlar tizimini barpo etuvchi tadbirlar majmuasi.

Moliyaviy harajatlar – soliqlar, to'lovlar va boshqa moliyaviy harajatlar summasi.

Molod - voyaga yetgan baliqning barcha belgilarini o'zida mujassamlagan bo'lib belgilar to'liq shakllangan bo'ladi. Bu stadiya 2-3 oy davom etadi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish – davlat mulkiga asoslangan davlat korxonalari va tashkilotlarini nodavlat mulkchiligiga asoslangan shirkatlarga, fermer va ijara korxonalariga hamda davlatga qarishli mulk bo'lmaydigan boshqa subyektlarga aylantirishdir.

Nafas koeffitsiyenti - baliqning chiqarilgan CO₂ miqdorining yutilgan O₂ miqdoridagi nisbati tushuniladn. Nafas koeffitsiyenti organizmda oksidlanuvchi moddalarning tarkibiga bog'liq. Bu ko'rsatkich uglevodlar uchun 1, oqsil uchun 0,8 va yoyo uchun 0,7ga teng . Bu usul orqali organizmda oqsil, yog', uglevodlarning parchalanib energiya ajralish miqdori aniqlanadi.

Narx – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

Nerest - in shaklida, gypyh shaklida, juft shaklda va yovvoyi shaklda bo'ladi. In shaklidagi nerestga 1ta ona baliq va 2ta ota baliq, gypyh shaklida bir nerest hovuzida bir necha ota yoki ona baliqlar qo'yiladi.

O'stirish hovuzi - Malkidan to segoletka davrigacha baliq o'stiriladigan hovuz. Maydoni 5-10 gektarga teng, o'rtacha chuqurligi 0,5-0,8 m, maksimal chuqurlik 1,5-2,0 m. To qishgacha o'stiriladigak hovuz.

Oziqlantirish rejasi - baliqlarga beriladigan ozuqani to'g'ri taqsimlash maqsadida ozuqani berish rejasi va muddati belgilanadi. yem berish rejasi bu kunlik norma buyicha: iyunda-20%, iyulda-30%, avgustda-35% va sentabrda-15% taqsimlanadi. Masalan baliqlarga 5000kg ozuqa planlashtirilgan va oylar buyicha quyidagicha bo'ladi. iyunda-1000, iyulda-1500, avgustda-175 va sentabrda-750kg. Ozuqa har kuni quyidagicha taqsimlanadn: iyunda $1000\text{kg}/30\text{kun} = 33.3\text{kg}$

Ozuqa koeffitsiyenti - tabiiy yoki sun'iy ozuqa miqdori ko'rsatkichi bo'lib, 1 kg baliq mahsuloti olish uchun sarflangan moddadir. Ozuqa koeffitsiyentini

aniqlash uchun, hovuz baliq mahsuldorligini aniqlash zarur, bu mahsuldorlik qancha ozuqa hisobiga hosil bo'lganini bildiradi. Ozuqa koeffitsiyenti doimiy emas. Agarda ozuqa koeffitsiyenti 1.5-2 bo'lsa unda 1kg baliq olish uchun shu koeffitsiyentga ega bo'lgan ozuqadan 1.5-2 kg iste'mol qilish kerak. Agarda 7 bo'lsa, 7 kg yeyish ksrak. Demak ozuqa koeffitsiyenti oziq moddaning tarkibi va kaloriyasiga bog'liq.

Ozuqa normasi baliqning sutka davomida zarur bo'lgan ozuqa miqdori bo'lib, baliq yoshi va fiziologik holatiga muvofiq keladigan qilib tuziladi. To'g'ri tuzilgan ratsion baliqlarning normal o'sishini ta'minlovchi yuqori baliq mahsuldorliginn ta'minlovchi, xazm bo'ladigan oziq moddasiga boy bo'lishi va zaruriy mineral, vitaminlari yetarli bo'lishi kerak. Ratsion tuzishda quyidagilarga e'tibor berish zarur. Tabiiy ozuqani proteinga boy bo'lishi baliq yoshiga bog'liq. Baliqlar uchun ratsion tuznshda asosan sutkalik energiya sarfi hisobga olinadi.

Parazit - baliqlarning endo va ekzoparazitlari mavjud. Parazitlar asosan sodda hayvonlar, yassi chuvalchanglar va yumaloq chuvalchanglar hisoblanadi.

PH - vodorod (H) ionlarning suvdagi kontsentratsiyasi. Agarda PH- past bo'lsa kislotali muhit (PH-6) bo'ladi. Neytral (PH-7), yuqori bo'lsa (PH-8) ishqorli.

Plankton - suvdagi muallaq yashovchi organizmlar bo'lib, suvning 5-6 metr chuqurligida tarkaladi. Plankton organizmlari ikki guruhga bo'linadi: 1. Fitoplankton - bir hujayraln mikroskopik suv o'tlari. 2. Zooplankton – mayda qisqichbaqasimonlar hamda yumaloq chuvalchanglar tegishli.

Polikultura - bitta suv havzasida bir necha tur baliqlarni birgalikda o'stirish, Masalan karp, oq amur, ok va chipor do'ngpeshona kabi turlarni birgalikda boqish. Bular bir biriga rakobatchi emas.

Polyakov lineykasi - segoletkalarining semizlik koeffitsiyentini aniqlashda ishlatiladi (tumshuq uchidan dum suzgichiniig oxirigacha o'lchanadi).

Pul daromadi – qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish oqibatida olinadigan pul tushumlaridir.

Pul tushumlari oqimi – tayyor mahsulotlarni sotish, ish bajarish va xizmat

ko'rsatish natijasida oylar, choraklar bo'yicha tushadigan pullar summasi.

Qishlash hovuzi - odatdagiday kovlangan, o'simlik va uning qoldig'idan tozalangan, segoletkalarni remont uchun ajratilgan va ota-ona zotlarni saqlash uchun belgilangan. Maydoni 0,5 ga, eni va uzunligi nisbati 1:2, chuqurligi 2,0 m, suv muzlamaydigan o'rtacha chuqurligi 1,25-1,50 m. Yozda qishlash hovuzi quritiladi, tozalanadi, dizenfeksiyalanadi. Fakat baliq qo'yishdan oldin to'ldiriladi. Suv almashinish nisbati 1:1. Hovuz tubi yaxshilab kuritilgan va tuprogi yaxshilab zichlashgan bulishn kerak. Atmosfera havosining tuproqqa yaxshilab ta'sir qilishi uchun kuzda og'ir predmet bilan tuproq zichlashtiriladi, o'simliklar chetlantiriladi, damba suv kiradigan kanallar tozalanadi, suv bilan to'ldirishdan 2-3 xaftalar oldin har bir gektariga 2,5-3,0 t so'ndirilmaygan ohak solib chikiladi. Qishlash uchun ajratilgan segoletkalarining semizlik koeffitsiyenti 2,5 dan past bo'lmasligi kerak. Shuningdek ota-ona baliqlar qishlash hovuzi maksimal chuqurligi 2-2,5 metr.

Qishloq xo'jaligi korxonalarining kooperatsiyasi – qishloq xo'jaligi korxonalarining birlashish usuli bo'lib, bundan maqsad fan texnika taraqqiyoti (FTT) erishgan yutuqlardan va yirik ixtisoslashgan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yaxshiroq foydalanish. Kooperatsiyaning asosiy xususiyati shundaki korxonalar, xo'jaliklar va bo'limlar o'rtasida qat'iy ishlab chiqarish va iqtisodiy bog'lanishlarning bo'lishi yoki qishloq xo'jaligining yakuniy mahsulotini ishlab chiqarishda texnik-texnologik sharoitlarning mavjud bo'lishidir.

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining haqiqiy qiymati – bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning haqiqiy baholardagi qiymati.

Qishloq xo'jaligida ilmiy texnika iaraqqiyyoti – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ilmiy texnika yutuqlaridan foydalangan holda uzluksiz takomillashtirish

Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti miqdori– bozor iqtisodi subyektlari tomonidan bir kalendar yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Qishloq xo'jalik yerlari – qishloq xo'jalik subyektlariga turli xildagi tayyor mahsulotlarni, ishlab chiqarish maqsadida ma'lum muddat davomida foydalanish

uchun berilgan haydalaniladigan yerlar, yaylovlar, pichanzorlar, ko'p yillik daraxtlar maydoni yig'indisi.

Raqamli iqtisodiyot – bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Real investitsiya – moddiylashgan asosiy va aylanma vosita (kapital) barpo etishga sarflanadigan mablag'.

Rentabellik - xo'jalikning iqtisodiy samaradorlik darajasi bo'lib, yetntsgirilgan mahsulot realizatsiyasi hisobida olingan foydaning ishlab chiqarish harajatlariga nisbati. Masalan, xo'jalik 9,5 million so'm foyda qilish uchun mahsulot to'liq tannarxi 25 million so'mni tashkil qildi. Rentabellik darajasi quyidagicha: $9,5\text{mln} / 25\text{mln} \times 100 = 38\%$

Ryaska – yuqori darajali suv yuzasida qalqib suzuvchi suv o'ti. Uning quyidagi turlari mavjud: 1.Kichik ryaska. 2.Uch uyali ryaska. 3.Bukrisimon ryaska. Ryaskaning barcha turlari oq amurning sevimli ozuqasi hisoblanadi.

Segoletka - chavoqlarning yoz faslinnng ikkinchi yarmidan to kech kuz fasligacha (oktyabr) bo'lgan baliqchalar stadnyasi. Segoletkalar qnshlash hovuzlariga o'tkaziladi. Karpning 25-35 g, do'ngpeshona 60-80 g, oq amur 100-150 g bo'ladi.

Segoletka hisobi – o'stiruvchi hovuzlarga qo'yib yuborilgan mayda baliqchalar soni. Ularning sonini bilish uchun bu usul keng qo'llaniladi. Segoletkalar soni og'irlngi, o'sishi nazorat ovi pvytida aniqlanadi va jurnalga qayd qilinadi.

Serpushtlik - absolyut, nisbiy za ishchi serpushtlik bo'ladi. Bir kg og'irligiga nisbatan to'g'ri keladigan uvilliriq soni nisbiy serpushtlik. Bitta ona balnkdan baliq ko'paytirishi uchun olinadigan uvildiriq soni ishchi serpushtlik deyiladi. Absolyut serpushtlik kanchalik yuqori bo'lsa ishchi serpushtlik ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Servis – tarmoqni korhonalarni jismoniy shahslarga serqirrali faoliyatlarini

siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatlarini samaraliligini ta'minlovchi choratadbirlar majmuasi.

Siklop – kichik tuban kiskichbakasimonlar, uzunligi 1-1,5 mm. 250 dan ortiq turi bor. Sikloplarning asosiy turlari yirtqich, mayda zooplankton va fitoplankton bilan oziqlanadi, shu jumladan baliq lichinkalari bilan ham oziqlanadi. Siklop bilan baliq chavoqlari va segoletkalari oziqlanadi, asosan karp, sazan, karas, chipor do'ngpeshona ham oziqlanadi.

Sof foyda - barcha pul tushumlaridan ishlab chiqarish, davr, moliyaviy va favqulodda harajatlarni chegirgandan so'ngi summa.

Sof kapital qo'yilma – mablag' sarflash natijasida ishga tushirilgan obyektning yoki asosiy kapitalning qiymati.

Sug'oriladigan yerlar – qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerni sug'orilishini ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan yerlardir.

Sun'iy nerest - baliqlarning ko'payishi uchun sun'iy sharoit yaratish maqsadida tayyorlanadi. Sun'iy nerestilishalar baliqlarning nerest oldidan tayyorlanadi va hovuz, suvombor, ko'llarda o'rnatiladi. O'simliklarda uvildiriq qo'yadigan baliqlar uchun (karp, zog'ora, vobla) suvda suzib yuruvchi va suv chuqurligida o'rnatiladigan turlari bo'ladi. Suzuvchi turlari yog'och ramkadan, uzunligi 6 metr, eni 4 m ramkada har 40 sm masofada arqon tortiladi va mojjevelnik, qarag'ay tol shox shabbasidan supurgisimon shoxlar osiltiriladi va uchiga yuk o'rnatiladi, tarang tortilishi uchun bir shoxlar bilan ikkinchi shoxlar yoki dasta orasi 1 metr bulishi kerak. Sun'iy nerestilishalar yuksak suv o'simliklari bo'lmagan (suvombor, pelagial ko'llarga) suvliklarda o'rnatiladi.

Suv havzasining organik va noorganik ifloslanishi. Shahar chiqindilari va qishloq xo'jalik chiqindilari ta'sirida suv havzasining asosan organik ifloslanishi yuz beradi. Ifloslangan suvliklarda kislorod miqdori kamayadi va baliqlar nobud bo'ladi. Baliqchilik hovuz xo'jaliklarining ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Tabiiy ozuqa bazasi - suv havzasidagi baliqlar tomonidan istemol qilinadigan tabiiy ozuqa hisoblanadi. Bularning miqdorini bilish boqiladigan

baliqlardan yuqori baliq mahsuloti olish imkoniyatini beradi. Bularning kattaligini ular tarkibidagi oziqa moddalar suvlikiing har bir m² , gektar , m³ .ga asoslangan holda aniqlanadn va baliqlashtirish normasi belgilanadi

Tadbirkorlik – mulkchilik subyektlarining amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish natijasida daromad hamda foyda olishga qaratilgan faoliyatidir.

Tannarx – bir birlikdagi mahsulot ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish va ularni sotish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rtacha harajat.

Tayyor mahsulot - qishloq xo‘jalik subyektlarida ishlab chiqarilib, sotishga, ayirboshlashga mo‘ljallagan mahsulot.

Tirik ozuqa - suv havzasidagi umurtkasiz hayvonlar- zooplankton, zoobentos, nektobentos hisoblanadi. Bu hayvonlar ayniksa dafniya, mizid, gommapid, artemiya solina *suniy* ravishda maxsus xavzalarda ko‘paytiriladi.

To‘r – baliq ovlash quroli, uzunligi 500, 1000, 2000 m balandligi 15-20, 20-30 metrgacha bulishi mumkii, o‘rtasida konussimon to‘r xaltasi bo‘ladi.

Tovar baliqning koeffitsiyenti - son ko‘rsatkichi. hovuzdan mavsumning oxiridagi sanoatbop baliq soni va og‘irligi. Unda hovuz baliqchilik xo‘jaligining holati, iqtisodiy o‘shishi aniqlanadi. Boqiladigan baliqlarning ijobiy o‘shishini belgilaydi.

Tovar baliqlarning o‘shishi (bir yashar karp) - vegetatsiya oxirida har bnr baliqni o‘rtacha og‘irligiga ya’ni 500g yetkazish ko‘rsatkichi. Baliqning har 15 kunda taxminan o‘shishi quyidagicha bo‘lishi kerak. Jadvalda hovuz baliqchilik xo‘jaligida karp segoletkasining vegetatsiya davrida har 15 kunda taxminan o‘shishi jarayoni ko‘rsatilgan.

Nazorat o‘tkazilgan vaqt	Baliq o‘rtacha o‘shishi	
	Har bir baliq hisobidan o‘shishi	Umumiy o‘snshiga nisbatan % ko‘rsatkichi
1-15 may	20	4
16-31 may	30	6
1-15 iyun	55	11
16-30 iyun	70	14

1-15 iyul	70	14
16-31 iyul	80	16
1-15 avgust	80	16
16-30avgust	70	14
1-15 sentabr	15	3
16-30 sentabr	15	3

Tovar hovuzi - asosan tovar baliq yetishtirish maqsadida quriladi: karp, oq amur, oq va chipor do'ngpeshona boqiladi. Maydoni turlicha 5, 10, 15, 25, 50 gektar va undan ham katta bo'ladi. CHuqurligi 2-4 metrgacha, chuqurlik taqsimoti quyidagicha 0-0,5m — 10-15% , 0,5-2 m 83-75% va 2 metrdan yuqori 7-10% ni tashkil qiladi.

Tovar hovuzlardan baliqlarni tirik tashish. Bu ish 500 kg gacha mo'ljallangan tirik baliq tashuvi avtomashinalari orqali amalga oshadi. Tovar baliqlar iloji boricha realizatsiya qilinnshi kerak. Segoletkalar ham tashiladi iloji boricha ertalab soat 5 dan 10 gacha, so'ngra soat 18 dan 20 gacha.

Tovar mahsuloti - qishloq xo'jalik subyektlari tomonidan iste'mol talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lgan mahsulot. Ya'ni sotilgan mahsulot.

Tuproqning unumdorligi – tuproq tarkibida mavjud bo'lgan turli xildagi mikro va makro elementlarning mahsulot yetishtirish maqsadida amalga oshiriladigan agro-texnik hamda texnologik tadbir yordamida mahsulot yetishtirib berish qobiliyatidir.

Uvildiriqlarni sanash – sanashning xajm va og'irlik usullari mavjud. Odatga ko'ra uvildiriqni xajm o'lchovli idishda aniqlanadi. 100X100mm, bllaidligi 50mm, xajm o'lchovi og'irlik o'lchoviga nisbatan ancha aniqroq usul. Bir litrli o'lchovda quyidagi miqdorda otalangan uvildiriq bo'lishi mumkin: karpda 150-152 ming/l, oq amurda 600-800 ming/l, sudakda 59-60 ming/l.

Uvildiriqni sun'iy otalantirish. Birinchi bo'lib forel uvildirig'i 1758 yilda Yakobi tomonidan, keyinchalik 1842 yilda Frantsiyada baliqchi Rem va Segen tomonlaridan amalga oshirilgan. Daryoda va ko'lda sun'iy otalantirish ishlari Rossiyada 1854 Yilda Novgorod guberniyasida V.P.Vrasskiy tomonidan amalga oshirilgan. V.N.Vrasskiy birinchi bo'lib hovuz sharoitida daryo forelini sun'iy otalangan uvildiriqdan to voyaga yetguncha qadar yetishtirilgan baliqshunos. U

birinchi bo‘lib forel uvildirig‘ini tarelkaga oladi va uning ustiga erkak spermatazoidini to‘kadi, suv qo‘shmasdan uvildiriq va spermani g‘oz pati bilan sekin 1-2 minut qo‘shadi va yuvadi, so‘ngra sun‘iy nerestilishda saqlaydi. Bu usul hozirgi kunda ham dunyo baliqchilik amaliyotida qo‘llaniladi.

Uzum chiqindilari – uzum shirasi koldig‘i. Kimyoviy tarkibi suv-7.5%, yog‘-8.6%, azotsiz ekstraktiv modda-30.8% kletchatka-31.3%, kul-10.9%. Ozuqa koeffitsiyenti 4ga teng.

Vaqt me‘yori – mehnatga ma’suliyat bilan yondashilgan ma’lum bir me’yoriy texnik – tashkiliy shart-sharoitlar bo‘lgan holatda ma’lum hajmdagi ishni bajarishga belgilangan vaqt. Vaqt me’yori yakka tartibda va jamoa uchun bo‘lishi mumkin. Alohida yakka tartibdagi vaqt me’yori ma’lum bir kasb egasi uchun tegishli. Jamoa uchun vakt me’yori jamoa ishchilari uchn ma’lum bir turdagi ishni bajarish uchun tegishli. Masalan: bahorgi dala ishlari majmuasini bajarishi uchun belgilangan vaqt me’yori. Vaqt me’yori ko‘rsatkichi xo‘jalik rejalarini tuzishda, topshiriqlarni topshirishda, moddiy rag‘batlantirishda qo‘llaniladi. Ilmiy me’yorlar jonli mehnatni iqtisod qilishda, mehnat unumdorligini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Venchur moliyalashtirish - vositachi korxonalar va tashkilotlar yordamida moliyaviy mablag‘ topib ishlatish. Vositachi firmalar mablag‘ga muhtoj korxonalariga puldor sherik yoki qarz olish manbaini topib beradi. Venchur moliyalashtirish yuz berganda vositachi o‘z xizmati uchun haq oladi.

Vositachi - tomonlar o‘rtasida shartno-malar, bitimlarga yordam beruvchi, ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida turuvchi va tovarlarning (ishlar va xizmatlar) ishlatilishiga ko‘maklashuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Xironomid - ikkn qanotlilar lichinkasi va g‘umbaklarn. Zoobentosning asosiy qismini tashkil kiladi. Yolg‘on oyoqlari bo‘ladi. Uzunligi 2-2,5 sm. xironomid lichinkasi barcha suvliklarda uchraydi. Lichinkalar bir necha kundan to bir yilgacha yashaydn. Xironomid lichinkalarn ko‘pchilik baliqlarning ozuqasi hisoblanadi.

Xususiy lashtirish – davlat mulkchiligiga asoslangan davlat aktsiyadorlik

jamiyatlarining aksiyalarini amaldagi qonun talablari asosida sotib olish nodavlat mulkiga aylantrishdir.

Yalpi foyda – barcha pul tushumidan ishlab chiqarish harajatlari ayrilganidan soʻng qolgan foyda summasi.

Yalpi kapital qoʻyilma – asosiy kapitalga sarflangan asosiy jami mablagʻ.

Yashil oʻgʻit - suv va yuksak suv oʻtlarini oʻgʻit sifatida qoʻllaniladi yashil oʻgʻitning tarkibida azotli, mineral modalar uglevodlar va vitaminlar boʻladi uning har bir grammida azotli modda 32 mg, kaltsiy 2,1 mg, fosfor 0.9mg miqdorda boʻladi.

Yashil ozuqa – baliqlarni qoʻshimcha oziqlantirish uchun ishlatiladi ayniqsa segoletkalarni, 2 yozliklarni boqishda ishlatiladi. Yashil ozuqa vitaminlar manbai hisoblanadi unda karotin, vitamin S, ye, V kabilar uchraydi. Baliqlarni yashil ozuqa bilan boqilganda baliq: mahsuloti 12-16% gacha oshgan

Yem stoli - yogʻoch taxtadan tayyorlangan toʻgʻri toʻrtburchak stol. Hovuzga oʻrnatilib suv tubida mahkam joylashtiriladi. Yem stolining uzunligi 100 sm, eni 75 sm, yon taraf balandligi 8-10 sm, mustahkamlovchi plitka yoki brus uzunligi 150sm, oxur taxta qalinligi 1,0 sm, yon taxta qalinligi 2,5 sm.

Yer monitoringi – yer fondi, undan foydalanuvchilar, ularning tarkibidagi oʻzgarishlarni oʻz vaqtida aniqlash, yerlarning sifati, qiymatini baholash, barcha salbiy jarayonlarni oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish, yer fondidan foydalanish darajasini aniqlash bilan bogʻliq boʻlgan chora-tadbirlar majmui.

Yer uchastka ijarasi – davlat mulki hisoblangan yer uchastkalarini huquqiy va meʼyoriy hujjatlar asosida yerdan foydalanuvchilarga haq toʻlash evaziga maʼlum muddatga hamda umrbod meros qoldirish huquqi bilan berish.

Yerdan foydalanish koyeffitsiyenti - qishloq xoʻjalik korxonasida yil mobaynida haqiqatda foydalanilgan yer maydonini foydalanish mumkin boʻlgan yer maydoniga nisbatidir.

Yerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi barcha omillaridan tadbirkorlik bilan foydalanish natijasida har bir gektar yerdan olingan sof foyda summasi.

Yetilgan ikralarni tashlash - karplar suv harorati 17-19°C bo'lganda tashlaydi. Lesh 10-15°C da, sudak 6-8°C da uvildiriq tashlaydi. Karp, zog'ora, lesh 3-4 yoshida, karas esa 2-3 yoshida uvildiriq tashlaydi. Oq amur. do'ngpeshona 5-6 yoshda uvildiriq qo'yadi.

Yetkazib berish miqdori - ma'lum vaqt ichida yetkazib beriladigan ma'lum nomdagi va hajmdagi buyumlar.

Yetkazib berish shartnomasi - yetkazib berish shartnomasiga ko'ra, tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxs, ya'ni sotuvchi haridorga ishlatish yoki boshqa maqsadlar uchun ishlab chiqargan yoki sotib olgan mahsulotni kelishilgan yoki muayyan muddatlarda yetkazib berish majburiyatini oladi.

Yomg'irlatib sug'orish - maxsus qurilmalar va mashinalar yordamida sun'iy yomg'ir tarzida o'simliklar ustidan purkab sug'orish.

Zooplankton - kichik suv hayvonlari, aktiv harakati kam va suv o'z oqimi bilan olib ketiladi, Zooplankton ko'pchilik baliqlarning - pelyad, oq do'ngpeshona, buffalo kabilarning sevimli ozuqasi hisoblanadi. Barcha baliq chavoqlarni ozuqasi ham hisoblanadi. Zooplakaton asosan shoxdor muylovlilar, kurak oyoqli tuban qisqichbakasimonlar va kolovratkalaridan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигини гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 47 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураамиз. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 485 б.
4. Мирзиёев.Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 103 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сонли Фармони. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2019 yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga murojatnomasi,”Xalq so‘zi”gazetasi 29.12.2019 yil.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning 1.05.2017 yildagi “Baliqchilik tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyovning 2018 yil 6 noyabirdagi “Baliqchilik sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori
9. U.M.Umurzoqov, A.J.Toshboyev, “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti”. T.: Iqtisod - moliya, 2008. - 268 b
10. R.X.Ergashev “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, дарслик Т: “EXTREMUM PRESS”. 2011 y. 416 бет
11. Samatov G‘.A., Rustamova I.B., Sheripbayeva U.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti.– T.: 2012. – 346 b.
12. R.Ergashev “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” T.-2016
13. R.Ergashev, S.Xalikov “Innovatsion iqtisodiyot”, T.-2018 yil
14. Юнусов И.О. "Балиқчилик тармоғини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари". 08.00.04-Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти ихтисослиги бўйича докторлик диссертацияси: 2020 йил 17 январь.
15. Г.Скляров “Рыбоводство”. М.: “Feniks”-2011
16. Abdug‘aniev A.A., Abdug‘aniev A.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T: “AdibNashriyoti” МЧЖ, 2011, – 400 b.
17. David L. Debertin. Agricultural Production Economics Textbook. -2nd ed. Published by Macmillan. University of Kentucky, USA. 2012.
18. Рустамова И.Б., Шерипбаева У.А., Дехконова Н.С., Ахмедова В. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДАУ. 2015. 174 б.
19. Samatov G.A., Rustamova I.B., Sheripbaeva U.A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Darslik. Cholpon nomidagi nashriyot-matba ijodiy uyi. Toshkent. 2012 y. 320 b.
20. Umurzoqov O‘.P., Toshboev A.J., Rashidov J., Toshboev A.A.. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Oquv qo‘llanma. O‘z.R Oliy va o‘rta ta‘lim vazirligi. –Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2008y. -264 b.
21. Andrew Barkley and Paul W. Barkley. Principles of Agricultural Economics. -1nd ed. Published in the USA and Canada by RoutlrdgeTaylor&Francis Croup. USA. 2013.
22. Gerge W. Norton, Jeffrey Alwang and William A.Masters. Economics of Agricultural Development. -2nd ed. Published in the USA and Canada by RoutlrdgeTaylor&Francis Croup. USA. 2010.
23. McConnell, Brue. Economics: principles, problemsandpolicies. 17th edition. America, NewYork: McGraw-Hill, 2009.

24. Umurzoqov O‘P., Toshboev A.J., Toshboev A.A. Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. Iqtisod-Moliya. Toshkent. 2008 y. 276 b.
25. Ola Flaaten. Fisheries Economics and Management. Norwegian College of Fishery Science. University of Tromsø. N-9037 Tromsø, Norway. May 2011.
26. Л.В.Антипова, О.П.Дворянинова, О.А.Василенко, М.М.Данылиев, С.М.Сулейманов, С.В.Шабунин. Рыбоводство. Основы разведения, вылова и переработки рыб в искусственных водоемах. СПб.: ГИОРД, 2011. — 472 с.: ил.
27. Товарное рыбоводство: краткий курс лекций для бакалавров 3 курса направления подготовки 35.03.07 «Водные биоресурсы и аквакультура», профиль подготовки «Аквакультура» / Сост.: И.А. Галатдинова // ФГБОУ ВО «Саратовский ГАУ». – Саратов, 2016. – 49 с.
28. В.И. Комлацкий, Г.В. Комлацкий, В.А. Величко. Рыбоводство. Учебник. Краснодар КубГАУ. 2016. - 195 с.
29. Исаев А.И., Карпова Е.И. Рыбоводство. –М.:Агропромиздат, 1991 – 96 с.
30. Е.Г.Михайлова. Особенности оценки эффективности использования основных средств в рыбной отрасли. Вестник КамчатГТУ, №40, 2017.
31. Е.Г.Михайлова. Виды эффективности рыбной отрасли. Вестник КамчатГТУ, №40, 2017.
32. Герасимов Ю.Л. Основы рыбного хозяйства.: Учебное пособие. Самара: Изд-во “Самарский университет”, 2003. 108 с.
33. С.К.Хусенов, Д.С.Ниёзов, Ф.М.Сайфуллаев. Баликчилик асослари. Ўқув қўлланма, Бухоро, 2010.
34. М.Р.Арипджанов. О необходимости создания службы мониторинга за состоянием рыбохозяйственных водоемов республики. Сборник статей по проблемам рыбного хозяйства Узбекистана. - Т.2006.
35. Ахмедов Х.Ю. Шоёкубов Р.Ш. Оқ амур балиқларини ҳовузларга тифиз ўтказиш ҳисобига ҳовузлар ҳосилдорлигини ошириш бўйича услубий қўлланма. ХФ Karrlo. - Т.2006.
36. Ахмедов Х.Ю., Тургунова У, Саидов З. Балиқ чавоқларини етиштириш. ХФ Karrlo. - Т.2006.
37. Дорохов С.М., Пахомов С.М., Поляков Г.Д. Прудовое рыбоводство. – М.1998.
38. Камиллов Б.Г., Салихов Т.В., Курбанов Р.Б. Рекомендации по выращиванию мальков и сеголеток карповых рыб в поликультуре в прудах. –Т.:2003.
39. Курбанов Р.Б., Ахмедов Х.Ю. Фермер хўжалиқларида балиқ етиштириш миниховузларини барпо қилиш бўйича тавсиялар. –Т.2008.
40. Привезенцев Ю.А., Анисимова И.М. Тарасов Е.А.. Прудовое рыбоводство. -М.: «Колос», 1980.
41. Камиллов Б.Г., Курбанов Р.Б., Салихов Т.В. Ўзбекистонда карп балиқларини кўпайтириш. –Т. «Чинор» ЭНК, 2003
42. Икромов Т.Х., Қо‘чқоров О‘Р. Chorva, parranda va baliq mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash texnologiyasi. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Т.: “Davr”, 2013. -224 b.
43. Д.Р.Шохимардонов. Минтақаларда балиқчиликни ривожлантириш. –Т.: 2010. – 82 б.
44. Теплицкий В.А. Экономика рыбного хозяйства. Калининград, КГТУ, 2014.
45. Камиллов Б.Г. ва б. Карп туридаги балиқларни поликультура усулида етиштириш асослари. Т.: 2017.
46. D.Holmirzev, P.S.Haqberdiev, D.R,Shoximardonov, E.S.Shaptaqov. Baliqchilik asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. – Т.: “Ilm-Ziyo”, 2016. -250 b.
47. Хақбердиев Р.С., Давлатов Р.В. Baliqlarni oziqlantirish, ularning kasalliklarini davolash va oldini olish. — Samarqand, 2012.
48. Kamilov B.G., Qurbonov R.B. Baliqchilik (O‘zbekistonda karp baliqlarini ko‘paytirish). — O., 2009.
49. Пекун В.В. Организация и экономика рыбного хозяйства: методические

- рекомендации к выполнению практических занятий. – Пинск: ПолесГУ, 2016. – 56 с.
50. Радюк В.И. Организация и экономика рыбного хозяйства. Практикум : учебное пособие. – Горки : БГСХА, 2018. – 130 с.
51. Юнусов И. Необходимость производства рыбных продуктов в стране.// XXX Плехановские чтения/тезисы докладов. Российский экономический университет имени Г.В.Плеханова. – Москва. 2017. – С.81-82.
52. Юнусов И. Основные аспекты повышения эффективности производства рыбных продуктов. // “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали – 2017, № 1 – Б.1-6. (08.00.00. №10)
53. Юнусов И. Озиқ-овқат таъминотида балиқчиликни ривожлантириш.// “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” журналининг “Agroilm” илмий иловаси – 2017, №3(47). – Б.53-54. (08.00.00. №15)
54. Юнусов И. Мамлакатнинг озиқ-овқат таъминотини яхшилашда балиқчилик тармоғининг ўрни ва ижтимоий-иқтисодий зарурияти.//“Глобаллашув шароитида сув хўжалигини самарали бошқариш муаммолари ва истикболлари” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Т.: ТИМИ, 2017. – Б.566-568.
55. Юнусов И. Fisheries in Croatia: problems and experiences.// Агроиқтисодиёт – 2018, №2(5). – Б.70-73. (08.00.00. №25)
56. Юнусов И. Балиқчилик тармоғи ва аквакультуранинг ривожлантириш-нинг ўзига хос жиҳатлари.// “Агроиқтисодиёт” журнали – 2018, №3(6). – Б.57-60. (08.00.00. №25)
57. Юнусов И. Essence and Indicators, characterizing the economic efficiency of Reproduction of Fish reserves.// Scientific Journal: Economics and Finance. Issue 1. Ukraine – 2019, (ISSN 2311-3413, (12) Index Copernicus, (18) Ulrich’s Periodicals Directory). – P.11-17.
58. Yunusov I. Determining the interdependence of factors, affecting the development of fish farming.// International Journal of Research Culture Society. Monthly Peer-Refereed, Indexed Journal. Volume-3, Issue-8, Aug – 2019. (ISSN: 2456-6683, (23) Scientific Journal Impact Factor, id=19648, (14) Research Bib, (1) Web of Science (Web of knowledge), Impact Factor: 4,526 <http://ijrcs.org>). – P.42-47.
59. Юнусов И. Балиқчилик соҳасида самарадорлик тушунчаси моҳиятини тадқиқ этишда олимларнинг турли ёндашувлари.// “Ер ресурсларини бошқариш ва муҳофаза қилишда инновацион ёндашувлар: муаммо ва креатив ечимлар” мавзусида Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. Т.: ТИҚХММИ, 2019. – Б.123-127.
60. Юнусов И. Балиқчилик тармоғининг ўрни ва ўзига хос хусусиятлари.// “Қишлоқ ва сув хўжалигининг замонавий муаммолари” мавзусидаги аъъанавий XVIII ёш олимлар, магистрантлар ва иқтидорли талабаларнинг илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. Т.:ТИҚХММИ, 2019 – Б.58-61.
61. Юнусов И. Балиқчилик тармоғида амалга оширилаётган ислохотларнинг натижалари.// “Глобаллашув жараёнида корпоратив бошқарув: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. – Т.: ТДТУ, 2019. – Б.319-321.
62. Юнусов И., У.Сангирова. Балиқчилик тармоғини барқарор ривожлантириш масалалари.// “Агроиқтисодиёт” журнали – 2018, №1(4). – Б.33-35. (08.00.00. №25).
63. Юнусов И., А.Мухторов, У.Садуллаев.Балиқчилик тармоғининг озуқа базасини ривожлантириш.// “Агроиқтисодиёт” – 2018, №3(6). – Б.82-86. (08.00.00. №25).
64. Yunusov I. Foreign experiences on the development of fish-farming: in case of croatia.// Scientific and Technical Journal of “Sustainable Agriculture” – 2020, №1(5).2020. – P.12-15. ISSN 2181-9408
65. Yunusov I., U.Sadullaev. The main factors affecting the efficiency of fish production.// Scientific and Technical Journal of “Sustainable Agriculture” – 2020, №1(5).2020. – P.16-19. ISSN 2181-9408
66. Yunusov I. Government support mechanisms for improving the efficiency of fish farming in uzbekistan.// Scientific and Technical Journal of “Sustainable Agriculture” – 2020,

№2(6).2020. –P.12-15. ISSN 2181-9408

67. Ў.П.Умурзаков, И.О.Юнусов. Балиқчилик тармоғини ривожлантириш ва самарадорлигини ошириш йўллари./ Монография. – Тошкент: ТИҚХММИ. – 2020. – 141 б.

68. Носиров Б.З., Абдурахмонов А.Д. Қишлоқ хўжалигини молиявий қўллаб-қувватлашнинг Европа тажрибаси. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2016 йил, 1-9-б.

69. Б.Носиров, Н.Сафина. Роль инноваций в устойчивом развитии фермерских хозяйств. Молодой ученый. Международный научный журнал. ISSN: 2072-0297. №18 (152), май 2017, часть II. стр. 164-166.

70. O.Shermatov, B.Nosirov, R.Imomov, M.Qobulova. Problems of effective usage of lands in agriculture for ensuring food security. South Asian Journal of Marketing & Management research, ISSN: 2249-877X. 10 (4), p. 71-76.

71. Z.Israilov, Nosirov B., X.Baratov B.Raxmonova,. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. “Step by step print” MCHJ. Andijon 2020. 192-b. 25%)

72. Nosirov B., Abduvasikov A. The evolution of agricultural markets of Uzbekistan. Conference materials of D.A.Tsenov Economics Academy in Svishtov, Bulgaria. October 4-5, 2019. p.48-55.

Internet saytlari:

73. www.lex.uz - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
74. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикаси ҳукумат портали
75. www.stat.uz – Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий сайти
76. www.agro.uz - Ўзбекистон Республикаси қишлоқ ва сув хўжалиги вазириликнинг сайти
77. www.agriculture.uz – Ўзбекистон агроаҳборот тизими таянч пунктининг сайти
78. www.agrowebcee.net/awuz - Ўзбекистон агроаҳборот тизими таянч пунктининг сайт навигатори
79. www.uni-halle.de.- Галле-Виттенберг университети (Германия)
80. www.usc.es. - Сантьяго де Кампостелла университети (Sant.de Comp., Испания)
81. www.osu.edu – Огайо университети (АҚШ)
82. www.hswt.de. - Вайшнтефен Триздорф амалий фанлар университети (Германия)

